

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING  
FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI**

**UMIDAXON BOLTABOEVA**

# **SAHNA NUTQI**

**o'quv qo'llanma**

5150300 – Aktyorlik san'ati: Qo'g'irchoq teatri aktyorligi

**QO'QON- 2020**

## **Sahna nutqi. Umidaxon Boltaboeva**

**Annotatsiya:** Mazkur o'quv qo'llanma asosan Qo'g'irchoq teatri aktyorligi yo'nalishlarida "Sahna nutqi" fanining nazariy – amaliy tizimlarini o'rganish va o'zlashtirishning uslubiy asoslarini o'qitish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda nutq texnikasi, artikulyatsiya, diktsiya nafas va ovoz ustida ishlash bo'yicha umumiy mashqlar kiritilgan. O'quv qo'llanmaning so'z ustida ishlash boblarida esa turli janrdagi adabiy matnlar tahlili, manzaraviy parchalar, tez aytish, maqol va matallar ijrosida nutqiy ohangdorlikka erishish, monolog, dialoglar, she'r, masal, ruboiy va g'azallar ustida ishlash natijasida nutqda ifodaviylikka erishish usullari bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan. O'quv qo'llanma san'at va madaniyat institutlari hamda kollejlari talabalari, shuningdek, sahna nutqi bilan qiziquvchi san'at ixlosmandlariga mo'ljallangan.

**Аннотация:** Учебное пособие предназначено для обучения методическим основам изучения и усвоения теоретических и практических систем предмета «Сценическая речь» в сфере актерского мастерства театра кукол, которые включают общие упражнения по речевым приёмам, артикуляции, дикции, дыханию и звуку. Разделы учебника, посвященные обработке текста, включают анализ художественных текстов различных жанров, живописные отрывки, риторику, пословицы и притчи, монологи, диалоги, стихи, притчи, рубаи и газели. Учебник предназначен для студентов институтов культуры и искусства и колледжей, а также для любителей искусства, интересующихся сценической речью.

**Absrtact:** This textbook is designed to teach the methodological basis of studying and mastering the theoretical and practical systems of the subject "Stage speech" in the field of puppet theater acting, which includes general exercises on speech techniques, articulation, diction, breathing and sound. The textbook's chapters on word processing include analysis of literary texts of various genres, scenic passages, rhetoric, proverbs and parables, monologues, dialogues, poems, parables, rubais and ghazals. The textbook is intended for students of art and culture institutes and colleges, as well as art enthusiasts interested in stage speech.

**Mas'ul muharrir:**

**Sh.Yu.Usmonov** – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali professori v.b.

**Taqrizchilar:**

**K.Yuldashev** - O'zbekiston respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali professori

**Sh. Rahmatullayeva** -

## KIRISH

Qo'lingizdagi ushbu "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasi, sahna nutqi fanining 1-2-3 bosqich 1-6 semestrlarida o'tiladigan o'quv mashg'ulotlari va uning nazariy-amaliy asoslari, bugungi kunda yaratilayotgan yangi o'quv adabiyotlarga qo'yilayotgan talablar, yangi pedagogik texnologiyalar hamda fanni o'qitishning innovatsion yondashishlar asosida yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda muallif o'zining ko'p yillik ilmiy-ijodiy, nazariy va amaliy tajribalaridan kelib chiqib "Sahna nutqi" fanining bakalavriat ta'liming qo'g'irchoq teatri aktyorligi va rejissorligi yo'nalishi talabalari uchun belgilangan talablariga atroflicha e'tibor qaratgani maqsadga muvofiqdir. "Sahna nutqi" fanining "nutq tehnikasi" va "so'z ustida ishslash" qismlari bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi amaliy, yakka va mustaqil mashg'ulotlarda mustahkamlanib, asosiy urg'u amaliy ijroga qaratilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Sahna nutqi kafedrasida turli yillarda faoliyat ko'rsatgan S.Inomxo'jaev, A.Sayfuddinov, L.Xo'jaeva, A.To'laganov, A.Nosirova, G.Holiqulova, I.Djumanov, O'.Nurmuhammedova, M.Hojimatovalar yaratgan o'quv qo'llanmalariga qiyosiy tahliliy yondashganligi bilan ham ahamiyatlidir. Sahna nutqining muhim omillaridan biri bo'lgan, nutq tehnikasi, so'z ustida ishslash, matnlarning tahlil va talqin jarayonlari, so'z ta'sirchanligini oshirish, personaj va obraz nutqiy xarakterlarini chuqur o'zlashtirish tizimlarini mustahkamlashga asos bo'la oladi. O'quv qo'llanma fanning namunaviy va ishchi dasturlari asosida va birmuncha ijodiy yondashishi asosida yaratilgani va bunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialida tarbiyalanyotgan talabalar, yoshlar bilan "Sahna nutqi" fanidan o'tkazilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarida shakllangan va sinovdan o'tkazilgan, kafedraning yetakchi professor o'qituvchilarining tegishli uslubiy tahlillaridan o'tkazilganligi bilan ahamiyatlidir. Ta'limda chuqur e'tibor qaratilayotgan o'qitishning zamonaviy axborot va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun ham tavsiyalar berilgan. O'quv qo'llanmada mustaqil ta'limni tashkil etish yuzasidan berilgan ko'rsatmalar bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining "Sahna nutqi" fani bo'yicha muhim o'rinn tutadi va so'zning ruhiy

va jismoniy xatti-harakati hamda uning sahma nutqidagi o'ziga xos jarayonlarini qamrab oladi.

Qo'llanma qo'g'irchoq teatri nutqini shakllantirish bilan bog'liq ekan, qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasida barcha mavjudot, oy, quyosh, yulduz, tog'lar, daraxtlar, sabzavotlar, qushlar, hayvonlar ham badiiy obrazlarga aylanib, ovoz chiqara boshlaydilar. Insonlarga xos ovoz chiqara boshlaydilar, insonlardek so'zlab spektaklning g'oyaviy yechimida ishtirok etadilar. Qo'g'irchoq teatri aktyorining ijrochilik mahorati orqali topilgan ovoz, sahma asarini to'laqonlilagini ta'minlaydi.

Qo'llanma qo'g'irchoq teatri nutqini shakllanishini barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. Talaffuz ravnligiga erishish, ovoz xususiyatlaridan to'liq foydalanishdan boshlab nutqiy xarakter yaratishgacha bo'lган bo'limlarda nazariy ko'rsatmalar, amaliy qanday qo'llanilishi yoritiladi.

Qo'llanma so'z san'atiga e'tiborni kuchaytirish bilan barcha qo'g'irchoq teatri ixtisosligi yo'nalishida ham ishlash tamoyilini batafsil bayon etadi.

Davlatimiz milliy qadriyatlarni tiklash, an'analarni taraqqiy ettirish, ayniqsa, teatr san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor berib, doimiy rahnamolik qilib kelmoqda. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1995-yil 20-oktyabrdagi "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi Farmoni, 1998-yil 26-martdagagi "O'zbekistonda teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida" gi Farmoni, 1998-yil 22-maydagagi "O'zbek teatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni, 2012-yil 4-iyuldagagi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risidagi Qarori shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 16-avgustdagagi "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-3218-sonli Qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda ma'naviy taraqqiyotga davlat miqyosida e'tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Mamlakatimiz milliy mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning asriy qadriyatlari qayta tiklanib, jahon badiiy madaniyati va tafakkuri tarixida katta o'rinn tutgan o'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati va san'ati qayta jonlandi. Iqtisodiy – ijtimoiy, ma'naviy-

ma'rifiy va madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar ichida har tomonlama etuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish, ya'ni inson kamoloti va uning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi alohida o'rinni tutadi. Yoshlarni har tomonlama mukammal qilib tarbiyalash, barkamollik pog'onasiga olib chiqish hamda ularning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda teatr san'ati alohida mavqega ega. Chunki u har bir milliy madaniyatning yuksalganligi va balog'atga etib ulg'ayganligini yaqqol ko'rsatuvchi oynadir. "Teatr o'yinbozlik emas! Masharabozlik ham emas! Teatr bamisoli bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husnu qabihini ko'ra olur. Yuziga un surtib masharabozlik shakliga kirgan zotlar tabibu xoziqdurlar", - degan edi Behbudiy bobomiz. Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu so'zlari orqali teatrning jamiyat ko'zgusi ekanini ta'kidlaydi. Teatr xalqning estetik didini o'stiruvchi hayot mактабидир. Teatr san'ati – bu sinkretik ya'ni qorishma san'at bo'lib, u o'zida boshqa san'at turlarini ham mujassam etadi. Shu bilan birgalikda aktyorsiz teatr jonsiz narsadir. Aktyor esa so'z va nutq orqali ijodkordir. "Agar aktyor teatr san'atining shohi bo'lsa, uning boshidagi toji uning san'atidir", – deb ta'kidlagan edi Nemerovich Danchenko. Nutqning aniq va ravon bo'lishi sahnaviy asarlarning mazmunini tez anglashga, mohiyatini chuqur tushunib yetishga yordam beradi.

Bu esa bo'lajak aktyorlarning o'z nutqi ustida tinimsiz ishlab borishi va uni o'stirib borishi, takomillashtirish yo'lida tinmay mehnat qilishi zarurligini ko'rsatadi.

"Ilm bilan san'at bir-biri bilan yurak va o'pka kabi uzviy bog'langanki, agar ulardan biri buzilgan bo'lsa, ikkinchisi ham ishlamaydi", deb yozgan edi L.N.Tolstoy. K.S.Stanislavskiy tizimining sahna nutqining o'qitish metodikasi ham, buyuk yozuvchi obrazli qilib aytganidek, ilm bilan san'atning uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Masalan, rejissor, aktyor va so'z ustasi tovush va nutq vositalari tuzilishi va ishlatilishini o'rganuvchi anatomiya, fiziologiya kabi fanlar; nutqning yaratilish psixofiziologiyasi, insoniy – nutqiy kamchiliklarini tuzatish bo'yicha ishlash tizimi, ohangdorlik, mantiq, sheva va adabiy talaffuz qoidalari, orfoepiya imo-ishoraviy ta'sir vositalarini o'rganishi, notiqlik sohasi bilan bog'liq

maxsus fanlarni yaxshi bilishi, o'qituvchi metodikasini qayta ishlashi va nutq o'stirishga qaratilgan fanlarning yaxshi bilishi, o'qitish metodikasini qayta ishlashi va nutq o'stirishga qaratilgan fanlarning uslublarini mukammal o'zlashtirishi uchun poydevor yaratadi.

Ma'lumki, insonlar orasidagi munosabat taraqqiyotning barcha sohalarida ham til, so'z vositasida amalga oshirib kelingan. Shaxs va jamiyatni bog'lab turuvchi mislsiz kuchga ega bu qudratli vosita yuksak g'oyalarni amalga oshirishda tayanch vazifasini o'taydi.

Bu borada badiiy so'z jonli va eng ta'sirchan vositadir. U o'z tinglovchisining yuragiga yetib borib, uni ta'sirlantiradi va kayfiyatida o'zgarish yasaydi, ulug' ishlar sari ruhlantiradi.

Kaykovus so'zni ulug'lab, "San'atlar ichida eng ulug'i so'z san'atidir", deydi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda so'z bilan shug'ullanuvchi sohalar, televidenie, matbuot bilan bir qatorda kino va teatr san'atining xizmati beqiyos. Lekin ba'zan ularning faoliyatida ham adabiy til me'yorlariga amal qilmaslik, mazmunan g'aliz jumlalar, shevali ifodalarga duch kelamiz. Bu achinarli hol, albatta.

Modomiki, teatr jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladigan maskan ekan, demak unda ijod bilan shug'ullanuvchi har bir ijodkor ommaga nutqi, o'zini tutishi, kiyinishi, yurish-turishi bilan o'rnak bo'lishi kerak.

Ma'lumki, har bir teatr maktabi oldida bo'lajak ijodkorlarning shaxsiyatini shakllantirish va ularni kasbiy tarbiyalash vazifasi turadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda aktyorlik mahorati bilan bir qatorda "Sahna nutqi" fani ham muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak aktyorni tarbiyalashda ularni badiiy adabiyotga qiziqtirish yaxshi natija beradi. O'qituvchi bu ishni dastlabki mashg'ulotlardan boshlashi kerak. "Sahna nutqi" fanining yutug'i ham shundaki, bu predmet sir-asrorlarini o'rganishda turli mazmundagi matnlarga - asarlarga murojaat qilinadi.

Mana shu jarayonda ayrim o'qituvchilar qiyinchiliklarga ham duch kelib turadilar. Negaki, o'quvchilarning aksariyati badiiy asarlarni kam o'qiganligi sababli so'zning asl ma'nosini anglash, mulohaza yuritishda oqsab qoladi. Bu kabi

o'quvchilarga ijro uchun material tanlashda o'qituvchining ko'magi zarur va shart. Negaki, ular o'z imkoniyatlarini chamalay olmaydilar. Natijada guruhdagilardan ortda qoladilar va hafsalalari pir bo'ladi. Yana ba'zida bo'lsa-da, o'z fikrini aytishga ikkilanadiganlari ham uchrab turadi. Ularni o'z fikrini tortinmay bayon etishga o'rgatish uchun yakka tartibdagi mashg'ulotlarda mavzu yuzasidan tez-tez savollar berish, suhbatga tortish samarali usuldir. Chunki, bunda o'quvchi o'z fikrini bayon etishga majbur bo'ladi va dadillashib boradi.

Insoniyatni hamon larzaga solib keluvchi noinsoniy illatlar, urushlar, zo'ravonlik, terror, o'z yurti, Vatani, xalqiga sadoqatsizlik, xoinlik juda katta muammo bo'lib turgan paytda milliy istiqlol g'oyasi ta'sirchan talqin etilgan asarlar yosh ijodkorning dunyoqarashi, tasavvuri, tafakkurini shakllantiruvchi manbaa sifatida muhim qimmatga ega.

Ota-on, oqibat, saxovat, burch, vatanparvarlik, xalqparvarlik,adolat, haqiqat, insoniy qadriyatlarni e'zozlash hamda zamon ruhi aks etgan she'r, masal, monolog, adabiy parchalar tahlili, ijrosi ustida ishslash jarayonida o'quvchilarning ma'naviy dunyosi ham shakllanib boradi.

Qozoq adibi Sobit Do'sanovning "Arvona" nasriy dostonini namuna uchun tavsiya qilinishi o'quvchilarda so'z boyligini o'stirish, vatanparvarlikka e'tiqod uyg'otish, so'zlar qurilishi ravonligiga erishish, voqealarga munosabatini faollashtirish maqsadini o'zida ifoda etadi. Shuningdek, so'z san'atining qadimiylanishiga qarab qurilishi - ertaklar, dostonlar, qasidalar orqali tildan-tilga ko'chib, ma'naviy xazina sifatida vujudga kelganligi ham bu asarga e'tibor qaratishimizning sabablaridan biri.

Asarning asosiy voqeasi:

Bosqinchilik, zo'ravonlik, adolatsizlik, qirg'inbarot tufayli Arvonaning tug'ilgan yurti, Vatanidan judo qilinishi.

Muallif va ijrochining oliy maqsadi:

Ona tuproq, tug'ilgan yurt, ota makon - Vatanga cheksiz sadoqat, mehr-muhabbat tuyg'ularini ulug'lash.

Yyetakchi harakat: Arvonaning hayot-mamoti. Vatanga qaytish mashaqqatlarini yengishga bo'lgan beqiyos kuchi, mehri, sadoqati orqali tinglovchilarda Vatanga e'tiqod uyg'otish.

So'z san'atida zamon ruhi yorqin aks etgan she'riyat namunalaridan yana biri Muhammad Yusufning "O'zbekiston" she'ri. (Bu she'rning matni bilan ko'pchilik tanish. Shu bois she'r matni keltirilmadi.)

Bu she'rni o'qigan o'quvchi tug'ilib o'sgan ona yurtning tengsiz qimmati, muqaddasligini chuqur anglashi lozim.

"Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" tushunchasini anglash orqali har bir inson butun aqli, vujudi, qalbi bilan otasidan qolgan qo'rg'onni alqaydi, madh etadi.

Matn bilan ishslash jarayonida o'quvchilarining ma'naviy dunyosi, professional ijro malakasi, o'zining fuqarolik burchiga sadoqati, ona Vatani, xalqi, tug'ilib o'sgan yeriga mehr uyg'otishga safarbar qilinadi. O'quvchilar bilan amaliy ishslash natijalari shuni ko'rsatadiki, ularning fikrlash qamrovi, intizomi, qiziquvchanligi, qusti, diqqati, izlanuvchanligi, tirishqoqligi mukammal darajada kuchli bo'lismash bilan birga, ularda o'zi yashayotgan muhit, turli voqealar, manzaralar, tafsilotlarga o'tkir nigohi, sinchkovligi, qiziqishi, aniq munosabati bo'lmasa, ijro san'atida ko'zlangan darajani kutib bo'lmaydi.

Bugungi kunda xoh teatrda, xoh radio-televidenieda, xoh kinoda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor – aktyor shaxsini tarbiyalashda aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlarining bir-biriga "egizak" fan ekanligi barchamizga ma'lum. Sahna nutqi talabalardan mantiqiy va obrazli fikrlash, sahnaviy xatti-harakatga asoslangan so'z ustida ishslashga keng va atroflicha bilimga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Sahna nutqi avvalo, sahnadan turib aytilayotgan nutqdir. Aktyorlar tarbiyalashda ellik yildan ortiq vaqt davomida o'qitiladigan "Sahna nutqi", "Aktyorlik mahorati" fanlaridan o'ziga xos tajribada sinalgan uslubiyat qonun-qoidalariga ega. Sahna nutqidan nutq texnikasi, ya'ni artikulyatsiya, diktsiya, ovoz ustidagi mashg'ulotlarga pedagog tomonidan juda ko'p vaqt sarflanadi. Bo'lajak aktyorlarning nutqida juda ko'p kamchiliklar mavjud. Ular bilan ishlaganda nutqiy

kamchiliklarni tuzatish, bilim ko'nikmalarini oshirish jarayonlari pedagogga katta ma'suliyat yuklaydi. Bunda pedagog avvalo fanning birinchi – texnika qismini, repertuar ustida ishlash qismini, badiiy so'z ustida ishlashga e'tiborini qaratmasa bu ijod qonunlarining buzilganidan dalolatdir. Aktyor rol ustida ishlaganda diktsiya, va ovozdan foydalanish yo'llarini, so'zning qudratini, intonatsiyasini, harakatda partnyor bilan muloqot qilish yo'llarini mukammal bilishi kerak. Nutq madaniyati –ijtimoiy madaniyatning kishilik jamiyatni madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir.Yuksak madaniyatli jamiyatda yashovchi kishilarning nutq madaniyati ham yuqori bo'lishi kerak. Shuning uchun ham madaniyatni biror ijtimoiy tuzumning umummadaniyati va ravnaqining timsoli, ko'zgusi deb aytish mumkin.

### **Qo'g'irchoq teatri haqida**

Qo'g'irchoq teatri san'ati qadimiyligi va boy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, o'zining yorqinligi, maftunkorligi bilan ajralib turadi. Bu san'at voqelikni qo'g'irchoq personajlar orqali o'ziga xos uslubda ba'zan jiddiy, ba'zan hazil, ba'zan esa kinoyali yo'llar bilan lo'nda, raxon va qiziqarli qilib ko'rsata olish imkoniyatiga ega bo'lgan, betakror san'at turlaridan biridir.

Taniqli olim San'atshunoslik fanlari doktori M.Qodirov qo'g'irchoq teatr tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlaridan birida: «Osiyo qo'g'irchoq teatri bu shunchaki ermak o'yin emas, balki bir qit'a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir», - deb ta'kidlaydi"<sup>3</sup>...

Haqiqatdan ham o'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri xalq ma'naviyati va badiiy tafakkurining ajralmas qismidir. Shu bois ham bu san'at ming yillar osha rivojlanib, o'zgarib, yangi shakl va yangi qirralar kashf etgan navqiron san'at sifatida hayotga kirib kelgan.

Qo'g'irchoq teatri aktyori rassom va qo'g'irchoq ustasining hamkorligida yaratilgan sahnaviy qo'g'irchoqlarga «jon» bag'ishlaydi, yurak dardini, orzu umidlarini, tabiat va jonivorlarga bo'lgan munosabatini, Ona-Vatanga bo'lgan mehr-sadoqatini to'siq-shirma orqasidan turib qo'g'irchoq obrazlari orqali bayon

etadi. Bu esa faqat shu san'at turiga xos «jonlanish» mo'jizasidir.

### **Qo'g'irchoq teatri nima?**

Bu savol bunday olib qaraganda mantiqsizga o'xshab ko'rindi. Bu teatrda tomoshabinlar aktyorlarni emas, qo'g'irchoqlarni ko'rishiadi.

1. Nima uchun sahnada jonli odamlar o'rniga qo'g'irchoqlar o'ynaydi?
2. Odamlar qo'g'irchoqlardan yomonroq harakat qiladimi yoki yomonroq gapiradimi?

Yo'q, albatta, qo'g'irchoqning o'rniga aktyorlar gapiradi va odamlardek hech qachon harakat qila olmaydi. Qanchalik qo'g'irchoq ustalik bilan ishlangan bo'lmasin, odamning harakati va jonli mimikasi unda hech qachon bo'la olmaydi. Qo'g'irchoq odamning o'rnini egallay olmaydi. Unda qo'g'irchoqni nima keragi bor degan savol tug'iladi. Bu savolga qo'g'irchoq teatri ixlosmandlaridan bir necha xil javoblar bo'ldi, lekin ular ham qo'g'irchoq teatrining asl moxiyatini ochib berolmadi. Masalan: «Qo'g'irchoq teatri shunisi bilan yaxshiki, – derdi ular – u ixcham va qulay, boshqa teatr borolmagan joyga u bemalol etib bora oladi». Bu fikr xato, chunki qo'g'irchoqsiz odam, qo'g'irchoqliga qaraganda ixchamroq.

San'at mezoni ixchamlilik bilan o'lchanmaydi. Agar nimadir yomon bo'lsa, u yoqdan-bu yoqqa oson olib o'tilishi bilan yaxshi bo'lib qolmaydi. Yana boshqalari shunday dyeyishdi: «Qo'g'irchoq teatri bolalarga kerakligi bilan yaxshi».

To'g'ri u bolalarga kerak. San'atning hamma turlari bolalarga kerak: adabiyot, musiqa, rassomlik va shularni qatorida qo'g'irchoq teatri ham. Bolalarga kerak bo'ladigan adabiyot juda yaxshi darajada bo'lishi kerak va shuni qatorida qo'g'irchoq teatri ham albatta a'lo darajada bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq teatri mezoni tomoshabin yoshini o'lchovchi emas, u tomosha san'atini bir turi. Uni tomoshabinga, shu qatorda bolalarga kerakligini quyidagicha isbotlab bersa bo'ladi, qachonki qo'g'irchoq orqali shunday spektakllar qo'yish mumkinki, zero xayotiy voqealarni va hodisalarini boshqa yo'l bilan va boshqa teatr turi bilan ochib bo'lmaydi. Jonli odam ifoda etolmagan voqeani jonsiz qo'g'irchoq qanday bajaradi? Uning kuchi nimada? Ajablanarligi aynan uning jonsizligida. Agar aktyor sahnada stulga o'tirib shimini tizzasidan tortib qo'ysa tomoshabin bunga

e'tibor bermaydi. Agarda bu harakatni sahnada qo'g'irchoq bajarsa, hamma chapak chaladi, ularni e'tiborini tortadi, chunki qo'g'irchoq harakati orqali barcha ertaklardagi umumiylilikni ifoda eta oldi.

Aktyor sahnada boshqa odamni obrazini yaratadi, lekin umumlashgan odamni bir vaqtda bir harakat bilan yaratish qo'lidan kelmaydi, chunki u shundoq ham odam. Qo'g'irchoq esa odam emas, shuning uchun umumlashgan xarakterdagi odamni ifoda etoladi. Masalan: yoshgina qiz juda go'zal bo'lishi mumkin, lekin bu uning shaxsiy go'zalligi va shaxsiy yoshligi.

Rassom yoki xaykaltarosh tomonidan yaratilgan qiz ham go'zal, yosh, lekin bu yoshlik, go'zallik ko'plab qizlarniki umumlashgan ifodasi bo'lishi mumkin, chunki u jonsiz. Qo'g'irchoq – jonli narsani plastik ifodasi – inson, bug'u, kaptar va h.k. Qo'g'irchoq – bu skulptura. Aktyor shu yasalgan jonsiz narsani (skulpturani) jonlantiradi, jon ato etadi. Jonlantirish jarayoni – jonsiz narsani jonlikka aylantirish – tomoshabin uchun mo'jiza, xoh u tomoshabin katta yoshda bo'lsin, xoh yosh bola.

Bu mo'jiza – qo'g'irchoq teatri san'atini, harakatsiz statik tasviriylari san'atdan, dinamik tomoshaviyligi bilan ajratib turadi. Bu jonlanish mo'jizasi qo'g'irchoq teatri san'atini, boshqa tomoshalardan farqlanib turadi, chunki «jonli teatrda» jonlanish emas, katta yangi obraz yaratish (perevoplashenie) protsessi bo'ladi.

Qachonki, qo'g'irchoq, berilgan shart sharoitga to'liq ishongan, shu jonlanish mo'jizasidan o'zi lazzatlangan aktyorni qo'lida bo'lsa, shunda tomoshabinga bo'lgan qo'g'irchoqni emotSIONAL ta'siri juda kuchli bo'ladi. Shunda tomoshabinda ham xayratlanish, xursandchilik, turli yangiliklar, har bitta harakatni kuzatib borish, hayajon, kulgu va nafasni ichiga yutib kuzatish holatlari paydo bo'ladi. Ana shunisi bilan qo'g'irchoq teatri buyuk qudratga egadir.

Agarda san'atni maqsadi yuzaki bo'lsa, unda aktyorni mo'jizasi ko'zbo'yamachilikka o'tadi. Bu san'atni umri qisqa va hech qanday tuyg'u va hissiyotlarni uyg'otmaydi. Chunki jonlangan qo'g'irchoq bu ko'zbo'yamachilik (fokus) emas, obrazni tug'ilishi. Obrazni yaratishi – bu bir qancha xarakterlarni, insoniy xususiyatlarni umumlashgani va shu xarakterlarni to'qnashuvilda keng,

keskin, hayajonli umumiylilik paydo bo'ladi.

Qo'g'irchoq hayotdagi kamchiliklarni keskin fosh etib, odamlarda kulgu va g'azab uyg'otadi. U – komediya, fars, satira janrlari ustidan xukm suradi va o'zining ijodiy tarixida bu janrlarda o'z kuchini ko'rsatgan.

Qo'g'irchoq turlari xilma-xil bo'ladi, bir xillari mushukka o'xshash yumshoq va mayin, tog'ga o'xshagan qomatli, burgutga o'xshagan shiddatli bo'ladi, umumlashtirib va oldinga qo'yilgan g'oyani ifoda etadi. Qo'g'irchoqlar tragik va romantik qahramonlarni o'ynagan. Hatto o'rta asr man'balarida xudolarni ham ifoda etgan. Ana shunday ifoda vositalarini o'zida mujassamlashtirgan san'at dargohi qo'g'irchoq teatrdir. Qo'g'irchoq teatrda umumiylikni bir obraz orqali aniq ifodasi topilsagina u chinakam teatr bo'ladi. Qo'g'irchoq teatrining ifoda vositalaridan biri so'zdir. So'zni qo'g'irchoq xatti-harakati bilan uyg'unlikda olib borish joiz. Ammo so'z darajasiga yetguncha qo'g'irchoq teatri sahnaviy nutqi qoidalarini, tamoyillarini o'zlashtirishi kerak. Har bir qo'g'irchoq personajga nutqiy o'zgacha yondashish amallariga e'tibor qaratish kerak.

Teatr san'ati insonlarni tarbiyalovchi qudratli vosita bo'lib, sahna asarlarini muvafaqqiyatlari – xalq madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Bunda asosiy mehnat aktyorlar zimmasidadir. Chunki aktyorlar tomoshabin bilan adabiy tilda doim aloqada bo'ladilar. Shu til, so'z orqali sahna asarlarini tub muzmunini va mohiyatini tomoshabinga etkazib beradilar. Shunday ekan aktyorlar faoliyatida nutq va badiiy so'z alohida o'rinn tutadi.

Nutqning ravon va aniq bo'lishi sahna asarlarini mazmunini tez anglashga, mohiyatini tushunishga yordam beradi. Teatr xalqni tarbiyalovchi vosita bo'lganligi uchun badiiy so'z san'ati ana shu vositani ajralmas qismini tashkil etadi. Demak teatr san'atini so'z san'atidan ajralgan holda tasavvur etish mumkin emas ekan.

So'z san'atiga faqatgina san'at axli emas, balki jahon adabiyoti va madaniyatining barcha buyuk arboblari ham chuqur ixlos va ehtirom bilan qarab kelganlar.

Aktyor ijodida so'z ustida ishslash bo'yicha muammoli masalalar keng va

xilma-xil. Chunki avtor g'oyasi, stili, rejissorning ma'lum bir fikri, xatti-harakatlar to'qnashuvidagi nutq, u orqali yetkaziladi va to'liq obraz yaratishda asosiy mezon sifatida ahamiyatlidir. Shuning uchun ham nutq ustida ishslash masalalarini o'z ichiga qamrab oladigan maxsus fan – sahna nutqi predmeti. Sahna nutqi fan vazifasiga shunday spetsifik masalalar kiradiki, ular ayrim sabablarga fanlarda to'liq yoki mutlaqo ishlanmaydi.

Bu birinchi navbatda nutq texnikasi – ovoz, nafas, talaffuz, orfoepiya va so'z ustida ishslash.

Shu bilan birga sahna nutqi – aktyorlik mahoratini ajralmas qismidir va uning asosiy komponentlaridan (yordamchi elementlaridan) hisoblanadi. Sahnaviy nutq noaniq, bo'shang, ma'lum bir nuqsonlari bo'lishi mumkin emas.

Aktyorni nutqi ravon, silliq, hech qanday nuqsonsiz, jarangdor bo'lishi lozim, chunki avtorni g'oyasi rejissorni talqinidagi ma'lum bir fikr, xarakterlarni o'zaro to'qnashuvi nutq orqali etkaziladi.

Bordiyu sahnada harakat qiluvchi aktyorni nutqida ayrim nuqsonlar bor bo'lsa, masalan: tish oralig'idan gapishtish holatlari, manqalanish shevachiligi, so'z oxirini yamlab ketish, s-z, l-r tovushlarini noto'g'ri aytish. So'zlarni talaffuz etayotganda til orqasidan foydalanish holatlari bo'lsa, u holda sahnada o'ynalayotgan asarni g'oyaviy va estetik tomonlari tomoshabinga etib kelmaydi. Stanislavskiy aytganidek: «Aktyor o'z tilini juda to'liq bilishi kerak. Nima uchun shuncha his, tuyg'u, xayajon agar ular yomon nutq orqali ifoda etilsa». Mana shu yomon nutq bilan ifoda etilgan asar orqali teatr san'ati o'zining ijtimoiy funktsiyasini bajarmay qo'yadi.<sup>1</sup>

Lekin ayrim kishilar «sahna nutqi» predmeti funktsiyasini noto'g'ri tushunadilar va bu faqatgina san'atkor «tilini tuzatadigan», «shevalardan tozalaydigan» fan deb bir tomonlama tushunadilar. To'g'ri ijrochi tilidagi bor nuqsonlarni yo'qotish, ularga adabiy talaffuz normalarini singdirish, «sahna nutqi» predmetining funktsiyasiga kiradi. Lekin tilni tozalash, tuzatish eng avval orfoepiya (Adabiy talaffuz normalari to'g'risidagi ilm) va qisman sahna nutqi

<sup>1</sup> Станиславский К.С. Сайланма. Т.3. –М., 1955. 181-б.

texnikasi bo'limlarining vazifasi, xolos.

«Sahna nutqi» fanining asosiy maqsadi adabiy material asosiga joylashgan juda boy va rang-barang teran mazmundorlikni, g'oyani ochib berish va uni badiiy etuk shaklda talqin eta bilish, so'z bilan xatti-harakat qilish jami so'z ta'sirchanligini oshirish va unga estetik nafosat bag'ishlay olishni o'rgatishga qaratilgan. Tomoshabinni his tuyg'usini, fikr mulohazasini – aktyor o'z ijrosi, ijodi va nutqining go'zalligi va chuqur mazmundorligi bilan uyg'ota oladi va qo'zg'ata oladi.

Shuning uchun sahnada harakat qiluvchi aktyorni nutqi go'zal, ravon va mazmundor bo'lishi lozim, u tomoshabinni qitiqlay olsin, zavq bera olsin. Nutqning ana shu xususiyatlarini nazarda tutib aytishimiz mumkin-ki – teatr san'atining shohi – aktyor bo'lsa, uning boshidagi toj – so'zdir.

Teatr sahnasi rassom tomonidan qanchalik bezatilmasisin, unga nurda qanchalik jilo berilmasisin, aktyorni tashqi qiyoqasi qanchalik o'zgartirilmasisin, baribir so'zsiz, go'zal nutqsiz – baribir, barchasi o'likdir.

Faqat aktyorgina ana shu o'lik narsaga jon kirgizadi. Tomoshabinlar orqali unga rux bag'ishlaydi va o'zi yashayotgan muxitga olib kiradi.

Aktyorni ijodi ham shu bilan belgilanadi. Aktyor oldida avtor tomonidan yaratilgan yozma nutqni og'zaki va jonli nutqqa aylantirish vazifasi turadi. Shuning uchun Stanislavskiy sahna nutqini aktyorlik san'atidagi eng murakkab masalalardan biri deb xisoblaydi. Uning aytishicha, «so'z inson tafakkurining eng konkret ifodasidir». Shu sababdan, sahnada beparvolik bilan aytilgan, g'oyaga va ta'sirchanlikka ega bo'limgan so'zlarga hech qanday extiyoj yo'q.

K.S.Stanislavskiy aytmoqchi, matnni yodlab olib, valdirayvergan bilan ish bitmaydi. Hamma gap ana shu matnnitekstni tub ma'nosini ochib berishda, o'sha matnni san'at yuksakligi darajasiga ko'tara olishda, badiiy barkamol va estetik ta'sirchan san'at asarini shakllantira olishdadir. Buning uchun esa, tinimsiz ijodiy izlanish, uzuksiz mashq qilib borish kerak.

Qo'g'irchoq teatrda ham, so'z – obrazni tayanchidir, agar dramatik teatrda yuzning mimikasi, ko'zlar fikrni ifoda eta olsa, qo'g'irchoqda esa yuz maskasi

o'zgarmaydi va uning o'rnini turli registrdagи jarangdor ovoz, aniq diktsiya va jonli so'z egallaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori, turli ovoz diapazonlaridan erkinroq va ishonchliroq foydalanishi kerak. Shu nuqtai nazardan dramatik aktyorlardan farqlanadi va «Sahna nutqi» fani qo'g'irchoq teatr aktyorini tarbiyalashda nutqiy apparati ustida ishlaydi va quyidagi qiyinchiliklarni yengib o'tmog'i lozim:

1. Qo'g'irchoq teatrida aktyor, ayrim vaqtarda, bir vaqtni o'zida ikkita rolni ijro etishi mumkin va ular shirmada uchrashib dialog olib borishlari mumkin. Demak qo'g'irchoq teatr aktyorini ovoz pastanovkasi barcha bosqichda barcha registrlarda ishlanishi kerak.

2. Qo'g'irchoq teatri aktyorlarini tarbiyalashda, barcha hayvonlarni xarakterini mukammal egallashlari kerak, chunki ular sahnada barcha hayvonlar obrazini talqin etadi. Shu bois imitatsion mashqlarni mukammal o'zlashtirishi va undan erkin foydalanishi kerak. Sun'iy registrdan foydalanishni professional nuqtai nazardan egallah darkor aks holda ovoz paylarini shikastlanishiga olib keladi.

3. Qo'g'irchoq teatri aktyori mashg'ulotlarda predmetlar bilan ishlashni e'tiborga olish kerak. Predmetlar bilan ishlaganda ham, shu predmetning o'ziga xos ovozini topish va muloqotda shu ovozdan foydalanish ko'zda tutiladi. Bu mashqda talabaning o'ziga xos tasavvurini shakllantirish nazarda tutiladi! Har bir predmetni shaxsiy biografiyasini tuzadi va uning ovozini xarakterini aniqlaydi. Ana shu ovoz bilan ishlaydi (masalan supurgi, xassa, piyola, lagan, choynak va hokazo).

4. Sahna nutqi darsida – aktyorni ijodiy fantaziyasini tarbiyalash va rivojlantirish uchun turli uslublardan foydalanmoq kerak. Aktyor faqat partnyorini emas, balki o'zini ham eshitishga odatlanishi kerak. Bu bo'limning yana bir o'ziga xos tomonlari ham bor. Ya'ni shirma va paduga to'sig'ini engish, gavdani xaddan tashqari notabiy holatda ishlatishda, ovozni tabiiy jaranglatish og'ir qo'g'irchoqni ko'tarib, o'zi egilgan holatda ishlash, aktyor tizzada turib shirmani ortida ishlashi. Polda yotib qo'g'irchoqni yuqoriga ko'tarib ishlash va shunga o'xshash o'nlab

usullar shular jumlasidandir. Ana shunday bir – biridan farqlanadigan komponentlardagi ovoz va uni ishlatish yo'llarini sahna nutqi predmeti murabbiylari o'z zimmasiga oladi.

Qo'g'irchoq teatrda ham, so'z – obrazni tayanchidir, agar dramatik teatrda yuzning mimikasi, ko'zlar fikrni ifoda eta olsa, qo'g'irchoqda esa yuz maskasi o'zgarmaydi va uning o'rmini turli registrdagi jarangdor ovoz, aniq diktsiya va jonli so'z egallaydi.

Qo'g'irchoq teatri aktyori, turli ovoz diapazonlaridan erkinroq va ishonchliroq foydalanishi kerak. Shu nuqtai nazardan dramatik aktyorlardan farqlanadi va «Sahna nutqi» fani qo'g'irchoq teatr aktyorini tarbiyalashda nutqiy apparati ustida ishlaydi va quyidagi qiyinchiliklarni yengib o'tmog'i lozim:

5. Qo'g'irchoq teatrida aktyor, ayrim vaqtarda, bir vaqtni o'zida ikkita rolni ijro etishi mumkin va ular shirmada uchrashib dialog olib borishlari mumkin. Demak qo'g'irchoq teatr aktyorini ovoz pastanovkasi barcha bosqichda barcha registrlarda ishlanishi kerak.

6. Qo'g'irchoq teatri aktyorlarini tarbiyalashda, barcha hayvonlarni xarakterini mukammal egallashlari kerak, chunki ular sahnada barcha hayvonlar obrazini talqin etadi. Shu bois imitatsion mashqlarni mukammal o'zlashtirishi va undan erkin foydalanishi kerak. Sun'iy registrdan foydalanishni professional nuqtai nazardan egallah darkor aks holda ovoz paylarini shikastlanishiga olib keladi.

7. Qo'g'irchoq teatri aktyori mashg'ulotlarda predmetlar bilan ishlashni e'tiborga olish kerak. Predmetlar bilan ishlaganda ham, shu predmetning o'ziga xos ovozini topish va muloqotda shu ovozdan foydalanish ko'zda tutiladi. Bu mashqda talabaning o'ziga xos tasavvurini shakllantirish nazarda tutiladi! Har bir predmetni shaxsiy biografiyasini tuzadi va uning ovozini xarakterini aniqlaydi. Ana shu ovoz bilan ishlaydi (masalan supurgi, xassa, piyola, lagan, choynak va hokazo).

8. Sahna nutqi darsida – aktyorni ijodiy fantaziyasini tarbiyalash va rivojlantirish uchun turli uslublardan foydalanmoq kerak. Aktyor faqat partnyorini

emas, balki o'zini ham eshitishga odatlanishi kerak. Bu bo'limning yana bir o'ziga xos tomonlari ham bor. Ya'ni shirma va paduga to'sig'ini engish, gavdani xaddan tashqari notabiiy holatda ishlatishda, ovozni tabiiy jaranglatish og'ir qo'g'irchoqni ko'tarib, o'zi egilgan holatda ishlash, aktyor tizzada turib shirmani ortida ishlashi. Polda yotib qo'g'irchoqni yuqoriga ko'tarib ishlash va shunga o'xshash o'nlab usullar shular jumlasidandir. Ana shunday bir – biridan farqlanadigan komponentlardagi ovoz va uni ishlatish yo'llarini sahna nutqi predmeti murabbiylari o'z zimmasiga oladi.

### **Qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'limlarida sahna nutqi fanining o'qitilishi va uning tarkibiy qismlari**

Qo'g'irchoq teatr aktyorligi yo'nalishida sahna nutqi fani 2 qismdan iborat:

- 1 – nutq texnikasi;
- 2 – so'z ustida ishlash.

#### ***Sahnaviy nutq texnikasi:***

a) ovoz b) nafas v) artikulyatsiya g) diktsiya d) orfoepiya e) sun'iy registrdan foydalanish.

#### ***So'z ustida ishlash:***

a) ifodali o'qish, b) badiiy o'qish, g) badiiy so'z

#### **Ovoz va uning manbaları**

Bu bo'limda talabalar bilan asosan registrlar va ovoz turlari haqida ishlanadi. Nafas va ovozni yo'lga qo'yish uchun maxsus tanlangan she'riy matnlar yoki tez aytishlar ustida ishlash maqsadga muvofiqdir.

## **OVOZ**

Ovoz ustida ishlash uchun nafas mushaklarini siqiqlikdan ozod qilish kerak. Yuqoridagi va pastki jag' bir-biri bilan biologik jihatdan uzviy bog'langan. Ovoz chiqarish imkoniyati uchun pastki jag' pastga tushadi, yuqori jag' esa yuqoriga ochiladi. Kaftlarimizni yuzning ikki qismi bo'yicha jag' bo'g'imiga qo'yamiz. Kuchli va sekin harakat bilan yonog'imizni bosib, og'izni katta ochish uchun pastki jag'ni yuqori jag'dan ajratamiz, bu mashqlarni bir necha marta takrorlaymiz.

Bo'yinni cho'zamiz. Bunda bosh umurtqa pog'onasining yuqori qismi harakatlanadi. Bosh barmog'imizni jag' tagiga qo'yamiz, ko'rsatkich barmog'imizni esa jag'ning yuqori qismiga qo'yib, qattiq ikki tomondan siqamiz. Qo'llarimiz jag' mushak funktsiyasini o'ziga tortadi. Sekinlik bilan tishlarimizni bir – biriga qisishni boshlaymiz. Bu mashqda jag'larimizni umuman harakatlantirmaymiz.

**Ovoz** - bu ovoz apparati yordamida chiqariladigan balandligi, kuchi tembri jihatidan har xil bo'lgan tovushlardir.Ovozda hiqildoq mushaklari refleks yo'li bilan qisqaradi.Odam his, sezgi, fikr-tuyg'ularini ko'pincha ovoz chiqarib ifodalaydi (baqirish,kulish,yig'lash,so'zlash,kuylash).

Ovozni ta'sirchan va jozibali bo'lishi uchun tinimsiz mashqlar bajarib borilsa, kutilmagan mo'jizalarga erishsa bo'ladi.

Inson- markaziy nerv sistemasi boshqaruvida o'z ovozini turli ohanga sola oladi. So'nggi paytlarda, taqlid qilish san'ati juda rivojlanib bormoqda. Ijrochilar yo'g'on yoki ingichka ovoz orqali ijobiy yoki salbiy komik qahramonlar ovozini xuddi o'zinikidek qilib ko'chirib, taqlid qilmoqdalar. Taqlidchilar hayvonlar-u parranda-darrandalarni ongli ravishda o'z kuzatuvlariga asoslanib,imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taqlid qilmoqdalar.Ushbu ijrochilar bularning barchasini ko'r-ko'rona emas, balki ongli ravishda aynan buni chuqur anglab, hayotiy kuzatuvlarga asoslangan holda bajaradilar.

Ovoz qattiq tanglayga urilishi natijasida lab-lunjlarni shishirib, barmoqlar bilan urish yoki chertish hisobiga ajoyib kuy yaratish mumkin. Qo'llarni ohista bo'g'izga urib, karnay ovozini paydo qilsa ham bo'ladi, burunni barmoq bilan qisib, ovoz psychalarini ohista titratib surnay ovozini ixtiro etish mumkin. Bularning barchasi miyadan signal uzatish hisobiga bo'ladi.

## **NAFAS, NAFAS MASHQLARI**

1.Nafas olish va nafas chiqarish. Og'irlilikni ikkala oyoqqa berib tik turib olamiz. Ko'krak qafasimiz salgina oldinga ko'tarilib, elkalar erkin holda kengaytiriladi. Bunda bosh va bo'yin erkin holatda turishi lozim. Bunday texnik

mashqlar paytida qomatni tik tutishga alohida e'tibor berish kerak, aks holda bajarilgan mashqlar biz kutgan natijani bermaydi.

2.Diafragmaga nafas olish. Birinchi mashqdagi holatda turib olamiz. Qo'llar bo'shashtiriladi keyin bukiladi kerishishdagi holat (astoydil kerishish emas!)da nafas olinadi. Nafas olish jarayonida qo'lllarimiz bukilgancha ko'tariladi va barmoqlar yuqorida elkalarga tegib turishi kerak. Shundan so'ng nafas chiqariladi va o'sha jarayonning o'zida qo'llar ham bo'shashtirilgancha tushiriladi.

### **Nafas gimnastikasi uchun mashqlar**

1.Burun o'ng katagini o'ng qo'l ko'rsatkich barmoq bilan berkitib, chap burun katagidan nafas olinadi. Chap burun katagi berkitilib,o'ng burun katagidan nafas olinadi. Ushbu mashq 4-6 marta takrorlanadi.

2.Burun kataklari yon tarafidan ikkinchi ko'rsatkich yoki o'rta barmoq bilan silanadi va nafas olinadi. Nafas chiqarayotib,barmoqlar bilan ohista uriladi va nafas chiqariladi. Mashq 4-6 marta takrorlanadi.

3.Gavda to'g'ri holatda. Nafas olamiz va nafas chiqarayotganda asta-sekin erkin, yengil boshni o'ngga so'ngra chapga buramiz va asl holatga kelamiz. Nafas olganda boshni tepaga, pastga tushiramiz. Yana asl holatga kelamiz. Mashqlar 4-6 marta takrorlanadi.

4.Tik turgan holatda, qo'llarimiz tushirilgan, og'izlar ochiq holatda. Nafas olganda qo'llarni yonga ochamiz. Sokin nafas chiqarganda qo'llar asl holatga keladi. Mashqlar 4-6 marta takrorlanadi.

5.O'tirgan holatda, qo'llarimiz belda. Nafas olganimizda tirsaklarimiz orqaga harakat qiladi. Nafas chiqarganda egilamiz, qo'llar tizzaga qo'yiladi. Mashqlar 4-6 marta takrorlanadi.

6.Orqa bilan yotgan holat (cxalqancha). Tananing yon boshida qo'llar erkin holda yotibdi. Nafasni o'pkaga olgan holda, qo'llarni bosh tomon tez harakatga keltiramiz. Belgilangan maromiy nafas chiqarishda fikran 10, 12 gacha sanaymiz.

7.Qorinda yotgan holat. Oyoqlar birgalikda juftlangan holatda, qo'llar bosh uzra tepaga ko'tarilgan. Nafas olayotganimizda qo'llar tepaga ko'tariladi, boshni hiyol orqaga tashlab,belni egiltirib, oyoqlar ko'tariladi.

Nafas chiqarishda qo'llarni bosh yon boshiga asta qo'yiladi. Bunda bo'yin, qo'l, yelka, oyoq va umurtqa pog'onasi muskullari bo'shashtiriladi. Sonlarni ovoz chiqarib sanab ko'ramiz.

Nafas olinganda ko'krak qafasi oldinga, yonga, tepaga va pastga kengayadi.

Nafas olish turi uch xil bo'ladi:

1. Qorin nafasi.
2. Ko'krak nafasi.
3. Diafragmal-aratash nafas.

1.Burun o'ng katagini o'ng qo'l ko'rsatkich barmoq bilan berkitib, chap burun katagidan nafas olinadi, chap burun katagini berkitib o'ng burun katagidan nafas chiqariladi. Navbatma-navbat 4-6 marta takrorlanadi.

2.Nafas qisqa olinadi. Keyin ko'rsatkich barmoq uchi bilan tez harakatda burun kataklari past qismidan burun ichiga qarab yuqoriga ko'taramiz. Mashq 4-6 marotaba qaytariladi.

Mashqlarni davom ettirganda nafas mashqini harakat bilan bog'lash foydalidir. Bunda burundan nafas olishni yengillashtirib, uni to'g'ri sarflashga o'rGANILADI.

3.Gavda xolati to'g'ri. Nafas olamiz va nafas chiqarayotganda asta, erkin yengil boshni o'ngga va so'ogra pasga tushiramiz. Yana asl xolatga kelamiz. Mashq 4-6 marotaba qaytariladi.

4. O'tirgan holda, qo'llar belda. Nafas olganda tirsaklar orqaga harakat qiladi. Nafas chiqarganda egilamiz, qo'llar tizzagacha qo'yiladi. Mashq 4-6 marotaba qaytariladi.

5.Tik turgan holda. Qo'lllar tushirilgan, og'iz ochiq holatda. Nafas olganda qo'llarni yonga ochamiz. Sokin nafas chiqarganda qo'llar asl holiga qaytadi. Mashq 4-6 marotaba qaytariladi.

6.Tik turgan holda, qisqa nafas olamiz. Qo'llarni yon tarafga tashlaymiz. Nafasni og'izdan chiqarayotib "X" tovushini aytamiz. Shu vaqtini o'zida elkalarni quchamiz. Mashq 4-6 marotaba qaytariladi.

Har bir mashqlar jarayonida muskullar taranglashadi. Shu sababdan 2-4

mashqdan keyin muskullarni bo'shatish kerak.

### ***Sham o'chirish mashqi***

Fonatsion nafas olish mashqida, qorinning pastki qismi tortish uchun shu mashqdan foydalanish mumkin.

**Vazifa:** Nafas chiqarayotganda pastki qorin mushaklar harakatini sezish.

**Bajarish:** Nafas olinadi, bir soniya nafasni ushlab turamiz. Shag'amga qarab puflaymiz. Shag'amni o'chirmoqchi bo'lsak, qattiqroq puflaymiz. Yana qattiqroq. Qorinning pastki qismi mushaklar tortilishini sezamiz.

**To'ldirish:** Shag'am o'chmadi! Harakatni davom ettiramiz. Nafas olishni nazorat qilamiz. Xuddi shu mashqni qisqa havoni yo'llash orqali shag'amga! Fu! Fu! Fu! Fu! – pufladik. Shag'am o'chmadi. Yana shiddatli va keskin qisqa – qisqa puflashga harakat qilamiz. Shag'am o'chadi. Qorin mushaklari harakati seziladi. Bu mashqni guruhli yoki yakka holda olib borilishi mumkin. Ishchi holatni turib, o'tirgan holda, yuqoriga qarab yotgan holda va pastga qarab yotgan holatlarda belgilash mumkin.

Fonatsion nafas olish jarayonida bronx mushaklari, bo'g'iz, bo'yin, bosh, elka, oyoq mushaklari – xullas insonni borlig'i nafas oladi. Ammo, nafas jarayonida barcha nafas olishda ishtirok etayotgan a'zolarni nazorat qilib bo'lmaydi. Harakat vaqtida qorinnning pastki qismini, qoburg'alar oro mushaklarni, diafragmani nutq jarayonida nazorat qilish mumkin. Nafas apparatini nutq jarayonidagi faoliyatini muqobillashtirish uchun nafas mushaklarini tinmay mashq qilish zarurdir.

Bir qator mashqlar qilinadikim, unda harakat va tovush bog'lanadi. Bu holatda harakat va tovushni muvofiqlashtirish, nafas olish vaqtida ishtirok etmaydigan mushaklarni erkinligiga erishiladi.

### ***Ikki qurbaqa mashqi***

Bu mashq ikki talabaning o'zaro munosabatida ko'rildi.

**Ishchi holat:** yarim doira shaklida talabalar o'tirgan holatda. Ikki talabani 2 qurbaqa holatiga keltiramiz.

**Vazifa:** ishchi holatda nafas olinadi. Nafas chiqarganda kurbaqani

«vaqqirlashi»ni o’z ovozingizda qaytarasiz. Davradagilar birga nafas oladilar. Ishlayotganlar harakatlarini kuzatgan holda nafas chiqaradilar.

**Bajarish:** ikki qurbaqa o’zaro xilvatda uchrashib qoladilar. Ular o’zaro suhbat quradilar:

Birinchi qurbaqa:

– Qarindosh .....

Yo’ling biz tomongami?

Ikkinci qurbaqa:

– Yo’lim siz tomon!

Siz tomon yo’lim!

Suvda sakrayman,

Tutmoq istayman!

Birinchi

qurbaqa:

– Kim-kimlarni qarindoshi?

Ikkinci qurbaqa:

– Laqqa, qisqich, baliqni.

Birinchi qurbaqa:

– Tutganingda, biz bilan

Ko’rasanmi sen baham?

Ikkinci qurbaqa:

– Nega baham ko’rmay?

Albatta, ko’ramiz baham.

**To’ldirish:** Gavdani erkinligiga e’tibor bering. Har bir urg’uli bo’g’inda gavdani, qo’lni erkin harakatiga e’tibor bering (Kurbaqalarday sakrab). Qurbaqaning sakrash harakati bo’lsin. O’z ovozingizda «qurbaqa»cha vaqirlang, shunda unli aniq jaranglaydi. Bu kompleks mashqlarni bajaring va sekin-asta matnlarga o’ting, ana shunda sahna nutqi texnikasi bilan so’z ustida ishlashga yo’l ochasiz. Har bir matnga ko’l urishdan oldin, albatta va zaruriy texnik mashqlarni qaytarishni odatiy tusga kirit. Sahna nutqi va umuman so’z xatti-harakati bilan

shug'ullanuvchi barcha ijodkorlar, so'z san'ati texnikasini asosini o'zlashtirishlari kerak. Asos mufassal egallangach teatr san'ati yo'nalishlariga taalluqli uslubiy tizimga qo'l uring. Ana shunda har bir teatr yo'nalishi bo'yicha mukammalikka erishiladi.

Qo'g'irchoq teatrida so'z qo'g'irchoq nutqi orqali ifodalanadi. Qo'g'irchoq teatrida ham so'z o'z ahamiyatiga ega. Bu aktyorni qo'g'irchoq orqali so'zlashi va bunda tomoshabin bilan muloqat qilishidadir. Bu holat qo'g'irchoq teatri san'atini yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi.

### **Tana mushaklarini bo'shatuvchi mashqlar.**

1. Bosh yuqoriga qaratilib, orqa bilan tekis polga yotiladi. Tinch, xotirjam, butun tanamizni bo'shashtiramiz. Bu holatda tanamizdan hamma siqiqlikni olib tashlaymiz. Tasavvurlarimizni uyg'otamiz. Tasavvurimizda polda emas, daryo bo'yida, ko'kalamzorda, ochiq havoda tabiat qo'ynida ekanligimizni tasavvur qilamiz. Bunda barmoqlar uchidan tortib, butun bir vujudimizni erkinligini his qilamiz. Ko'zlarimiz yumilgan holatda ko'z oldimizga kelgan manzarada quyoshdan kelayotgan taftni sezish, his qilish foydalidir. Shoshilmay hayolan tasavvurda tanadagi barcha siqiqlikdan holi bo'lishga erishishimiz zarur. Ohista butun bir vujudimizda boshqacha bir erkinlikni his qilamiz. Mashq bajarilayotganda o'zimiz uchun tanlangan joy manzarasi – sohil yoki tog' yon bag'ri o'zimizga manzur bo'lsa, vujudimizda hush kayfiyat, yaxshi hissiyotlar uyg'otadi va tana mushaklarimiz erkinlikka erishadi. Bunda tana markazida paydo bo'lган erkin nafasning yuqoriga ko'tarilishi va pastga tushishini kuzatamiz. Tana mushaklarini bo'shashtirgach, ohista tanamizni poldan ko'taramiz. Oyoqlarimizni elka kengligida qo'yib, o'rnimizdan turamiz. Xomuza tortib, butun bir tanamizni titratib, qo'limizni yuqoriga ko'tarib, tepaga intilamiz. So'ngra avval kaftimizni, keyin tirsakni, qo'lni, umurtqa pog'onasining yuqori qismini, shuningdek, boshni pastga egamiz. Bu holatda nafasni erkin belga olib, uning erkinligiga erishamiz. Diafragmaga havo kiradi. Biz umurtqa pog'onasidagi har bir hatti-harakatni tekshirib ko'ramiz. Bosh umurtqa pog'onasining yuqorisida, qorin mushaklari erkin, tizzalarimiz ham siqiqlikdan holi, qorin mushaklarimiz ham erkinligini his

qilamiz. Shunday holatda erkin nafas me'yoriga erishish mumkin.

2. Boshni oldinga tashlaymiz. So'ng, o'ngdan chapga qarab elkalar orqali aylantiramiz, quloqlarimizni imkon qadar elkaga tekkizishga harakat qilamiz. Bu holatda elkalar yordam bermasligi, o'z joyida erkin turishi kerak. Ushbu mashqni teskarisiga ham bajarib ko'ramiz. Bu mashqlar orqali bo'yin va tomoq mushaklari bo'shashadi. Mashqlarni bajarish jarayonida "HAMM" tovushini ishlatib, ovozning qulay yuqori qismigacha chiqamiz. Bu mashqni to'rt-besh marta takrorlab, "HAMM" tovushi bilan chiqqan tovushimiz MMMM tovushida aniqlik ifoda etishi kerak.

## **ARTIKULYATSIYA**

Talaffuz organlari – til, jag', lab so'zlashuvda turlicha harakatlanib, ushbu harakatga – artikulyatsiya deyiladi. Til mushaklarini erkinligi va faolligi uchun quyidagi mashqlarni bajaramiz.

1.Tilning uchini pastga, tishning orqasiga qo'yamiz. Tasavvurimizda tilning o'rta qismini oldinga yo'naltirib, katta to'lqin shaklida pastki tish ustidan cho'zamiz. Til o'zagining asosidan to uchigacha cho'zilganini his qilamiz. Bunda pastki jag' erkin pastga tushadi, tomoq ham keng ochiladi. Natijada tilning erkin harakatiga imkon yaratiladi. Endi tilni og'iz bo'shlig'i ichida harakatlantiramiz. Og'iz bo'shlig'ida tilni erkin oldinga cho'zib, tepa va pastki tishlarimiz qatori bo'ylab harakatlantiramiz. Jag' orasi bu holatda bir barmoq siqqudek darajada ochiq bo'lishi kerak. Bu mashqni bir necha marta takrorlab ko'ramiz. Bajarayotgan mashqlarimizni oyna oldida turib tekshirib ko'rishimiz mumkin.

2.Tishlarni orasi bir barmoq siqqudek darajada ochiq bo'lib, til uchi erkin turgan lablar doirasini "yalab" chiqadi. Bu mashq jarayonida tildan boshqa barcha talaffuz a'zolari osoyishta turishi kerak.

3.Til uchi bilan ichkaridan yuzlarimizni navbatma-navbat turtib bo'rttiriladi. Bu mashqlar ham bir necha marta takrorlanadi.

## **Jag' mashqlari**

1. "Esnash" mashqi. Til yassi va erkin bo'lib, uch tomondan pastki tishlar

qatoriga tegib turadi. Jag' bir oz pastga tomon tushirilib, ayni paytda engilgina nafas olinadi. Bunda kichik til bir oz yoyilib, yuqoriga ko'tariladi va shirin "esnash" vaziyati xosil bo'ladi. Bu mashq unli tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga mo'ljallangan bo'lib, tish orasidan gapirish qusurini oldini oladi.

2. Jag'ni oldinga harakat qildirish mashqi. Til oldingi mashqdagi kabi erkin va yassi holatda turib, jag' bir oz pastga tushiriladi va oldinga, orqaga qarab harakat qiladi.

3. Jag'ni ikki yonga harakat qildirish mashqi. Yuqoridagi mashq holatida jag' ikki yonga shoshilmay borib keladi. Bu mashqni engillashtirish yoki tezlashtirish ham mumkin.

4. Kavsh qaytarish mashqi. Avvalgi mashqlar holatidan jag' o'ngga, pastga, chap yondan yuqoriga ko'tarilib, doira yasaydi va shu harakat teskari yo'nalishda ham takrorlanadi.

Artikulyatsiya - nutqqa shakl bersa, ovoz kuchaytirgich qaytargichlarga urilib, yangi xususiyat paydo qiladi.

### **Qaytargichlar**

Paychalarda paydo bo'lgan tovushlar qaytargich (rezonator)larga urilib qaytgandan keyin ovoz shaklini oladi. Tovush o'z boshlang'ich manbasidan asosiy kuchlanuvchi havzasi - qaytargichlarga keladi va turli ohang, xarakter oladi.

Qaytargichlar - ovozni shakllantiruvchi asosiy manbaadir. Kishi organizmidagi qaytargichlar jumlasiga qattiq to'qimalardan iborat qismlar-ko'krak qafasi (suyaklar), bosh suyagi, burun to'qaylari, burun bo'shlig'i, tishlar, yuz suyaklari, elka kuraklari, jag' suyaklari va boshqa mavjud to'qimalar kiradi.

1. Boshni orqaga tashlaymiz. Tasavvurlarimizni uyg'otamiz va ichimizda chuqur "quduq" bor deb faraz qilamiz. Nafas olamiz va titroq tebranish bilan "Xaaaaaaaaaa" tovushi bilan nafasni chiqaramiz. Bunda qo'limizni ko'kragimizga qo'yib, ko'krak qafasidan chiqayotgan tovush tebranishini tekshirib ko'ramiz. Bu mashqlarni bosh orqaga tashlangan holda, bosh umurtqa tepasida turgan hollarda bir necha marta bajarib ko'ramiz.

2. Oldingi tish qatorlarida tebranishlarni his qilamiz va mutanosib ovoz

balandligini topamiz. Bu ovoz og'iz bo'shlig'ida hosil bo'lган ovozdan ancha yuqoriligi seziladi. Yuqori balandlikdagi bu ovoz diapazoni old tish qatorlaridan orqaga qaytib, aniq tebranishlar aloqasini tiklaydi.

3.Nafas markazini qo'zg'atish uchun mashqlar ketma – ketligini yana takrorlaymiz. Boshni orqaga tashlaymiz.Tomoq keng ochilgan, mushaklarimiz bo'sh holatda, tomoqlarimizni quvurga o'xshatib, pastga ko'krak qafasiga qarab, kengayayotganini tasavvur qilamiz. Olov taftidan kayfiyatimiz ko'tarilib, siz chuqur va iliq "Xaaaaaaa" tovushi bilan quvur bo'ylab, baland va tashqariga erkin ovoz yo'naltirishga harakat qilamiz. Olov taftidan olgan iliqlikni o'zimizda asrab qolamiz va rivojlantiramiz. Bosh va bo'ynimizni yuqoriga tortamiz, ovoz yo'li o'z kengligini o'zgartiradi, ammo bekilmaydi.

4. Bosh va bo'yin oldinga egilgan. Olovni his etishni davom ettiramiz. Iliqlik oqimi va tebranishlar oqimi oldindi tishlar qatorida ozod va erkin bo'lismiga erishamiz. "Xiiiiii" bu holatda iliqlik yanada yaqqol jamlanadi.

5. Jag'larimiz, til, va tomog'imizni butunlay bo'shashtiramiz. Ko'krak, tomoq, yumshoq tanglay, og'iz bo'shlig'i, tishlar qatoridagi tebranishlar bilan "Xe-e-e-e-e-e-yey" qichqirig'i bilan tovush chiqaramiz. Bunda bu tovush diafragmaning quvvat markazidan yig'ilib chiqadi.

**Diksiya** – nutq tovushlarini u yoki bu me'yordagi talaffuziga aytildi. Noaniq yoki xaddan ortiq bo'rttirilgan talaffuz yomon xisoblanadi. Teatr san'atida xususan qo'girchoq teatri aktyorlari, rejissorlarida nutq organlarini erkin normal harakatiga erishish kerak. Talabalarni tarbiyalashda ulardagi artikulyatsion qusurlarni tuzatmay turib, muallif matnidagi fikrni anglay olmaymiz. Shu bois mashg'ulotlarni ilk boshlanishidan ulardagi qusurlar tizmini aniqlab olish va ularni bartaraf etish uchun kirishiladi

## TALAFFUZ

Nutq tovushlari insonning nutq organlari ishtirokida hosil bo'ladi. Ularning har biri hosil bo'lism o'rni va hususiyati bilan bir-biridan ajralib turadi. Nutq tovushlari so'zning bir bo'lagi bo'lib, uning ajralmas qismidir. Inson talaffuz orqali

bir-birini tushunadi, eshitadi. Ana shu eshitiladigan, talaffuz qilinadigan tovushlar nutq tovushlari deb yuritiladi. Nutq tovushlari unli va undosh tovushlarga bo'linadi. Ular bir-biri bilan uyg'unlashmasa, hech qanday so'z yoki talaffuz hosil bo'lmaydi. Quyida biz unli va undosh tovushlar hamda ularning talaffuzi haqida to'xtalib o'tamiz.

## ORFOEPIYA

**Orfoepiya** – normal adabiy talaffuz haqidagi fan.

**Ifodali o'qish** – tinish belgilariga, nutq tovushlarini aniq, ravon talaffuz etilishiga rioya qilib o'qish demakdir.

O'zbek orfoepiyasining asosiy qoidalariiga o'tishdan oldin ba'zi bir fonetik qoidalarga izoh berib o'tamiz. Ana shunday fonetik qoidalari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

### *Assimilyatsiya*

Og'zaki nutqda kishining jumlalarni qatorlashtirib, tez talaffuz qilishi jarayonida jarangli undosh o'z jarangsiz jufti kabi yohud aksincha jarangsiz undosh jarangli undosh (b-p, z-s, d-t, g-k, v-f,) kabi talaffuz etilish hodisasi juda ko'plab uchrab turadi: *iztirob-istirob, izhor-ishor, afg'on-avg'on, jo'ja-cho'ja* kabi. Bir tovush yondosh tovushga ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan fonetik hodisalar ***assimilyatsiya*** deyiladi. Ta'sirga uchragan tovushning o'zgarish xarakteriga qarab assimilyatsiya ikkiga bo'linadi:

1. Bir undosh tovush ikkinchi bir undoshga ta'sir ko'rsatib butunlay o'ziga o'xshatib olsa, bu ***to'liq assimilyatsiya*** deyiladi (izsiz-issiz, tuzsiz-tussiz, etdi- etti, otdan-ottan va h.k.).

2. Bir tovush yondosh bir tovushga ta'sir ko'rsatib, uni butunlay o'ziga o'xshatib olmasdan, balki uning bir tomonigagina o'zgartirsa (jarangsizlantiradi yoki jarangli undoshga aylantiradi), bu to'liqsiz assimilyatsiya deyiladi (ketgan-ketkan, oshdan-oshtan, qo'shdi-qo'shti va h.k.). Bu nuqsonlar, ayniqsa, aktyor nutqida qo'pol xato hisoblanib, u tomoshabinning jumlanı tushunmasligiga sabab bo'ladi. Ushbu holatda ham unli va undosh birikmali so'zlardan unumli foydalanilsa bo'ladi. Masalan:

Stizdi-zdisti  
Stezde-zdeste  
Stazda-zdasta  
Stozdo-zdosto  
Sto'zdo'-zdo'sto'  
Stuzdu-zdustu  
Stizdi-zdisti  
Kpti-gbdi  
Kpte-gbde  
Kpta-gbda  
Kpto-gbdo  
Kpto'-gbdo'  
Kptu-gbdu  
Kpti-gbdi

O'zbek tilida shevada so'zlashish hodisasi ham talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishdagi bir to'siqdir. Masalan: u erda- etta, bu erda-betta, shu yoqqa-shaqa, u yoqqa-aqa, bu yoqqa- baqa, o'zbek-o'zbyey, shu erdan-shettan, kabilar shevalanish hodisasiga kiradi. Og'zaki nutqimizdagi sanab o'tilgan yuqoridagi adabiy bo'limgan nutqiy hodisalarning adabiy me'yorga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri hal qilish nutq madaniyati malakasini oshirish ishlarida muhim o'rinn egallaydi.

### ***Dissimilyatsiya***

So'z tarkibidagi biror tovushning o'z holatidan ko'chishiga ***dissimilyatsiya*** deyiladi.

Bu holatlar ko'proq nutqida nuqsoni bor kishilarda uchraydi. Masalan:

Birorta-bironta r-n

Zarur-zarul r-l

Zarar-zaral r-l

So'z tarkibidagi portlovchi tovush sirg'aluvchi undoshga aylansa bu holda ***spirantizatsiya*** deyiladi. Masalan:

To'qmoq-to'xmoq q-x

Sakson-saxson k-x

To'qson-to'xson q-x

Chiqla-chixsa q-x

So'z ichidagi ayrim tovushlarning o'rin almashishi **metateza** deyiladi.

Masalan:

Tuproq-turpoq

La'nat-na'lat

Supra-surpa

Daryo-dayro

So'zning oldiga biron unli qo'shib aytilishi **proteza** deyiladi. Masalan:

Stol-istol

Stul-istul

Stakan istakan

Traktor-tiraktor

Mehr-mehir

So'zdagi ayrim tovushlarning talaffuz paytida tushib qolishi **direz** deyiladi.

Masalan:

Toshkent-Toshken

Samarqand-Samarqan

Artist-artis

Past-pas

Nutqimizdagi ushbu nuqsonlarni yo'qotish uchun asosan biz so'zlashuv jarayonimizda talaffuzga e'tiborliroq bo'lishimiz kerak, shuningdek yuqoridagi so'zlar ishtirok etgan tez aytishlar, maqollar matallar mashqlaridan unumli foydalaniшимиз ushbu kamchiliklarni yo'qotishga yordam beradi.

Sahna nutqi, nutq madaniyati bilan shug'ullanuvchi ijodkorlar o'zbek tilining fonetik o'zgarishlarini ham bilishlari shart. Aks holda adabiy tilda so'zlashaman deb, o'zbek tilining fonetik normalarini buzib qo'yishi mumkin.

Nutq—rang-barang tovushlar talaffuzi yig'indisidan iborat. Bu tovushlar oliy

asab tizimining signallari asosida nutq a'zolari harakati natijasida paydo bo'ladi. Shuning uchun ham nutq a'zolari fiziologiyasini, tovush paydo bo'lish manbalarini o'rghanish va ulardan foydalanish va mavjud nuqsonlarni bartaraf etadi.

Ma'lumki, o'zbek tili eng ko'p shevali tillardan biri hisoblanadi. Bu esa adabiy talaffuz masalasida yondoshganda ehtiyot bo'lishni talab qiladi.

San'at ahli adabiyot tilining ilg'or targ'ibotchilari hisoblanadilar. Shuning uchun ham radio va televidenie bilan birgalikda sahna nutqi ham o'zbek adabiy tili normalariga qat'iy rioya qilgan eng namunali nutq bo'lmog'i lozim. Chunki sahna nutqi ommaviy nutq madaniyatini tarbiyalashda eng ta'sirchan omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham sahna nutqiga jiddiy e'tibor berish lozim.

San'atkorning to'g'ri adabiy talaffuz normalari bilan qurollanishlari shuning uchun ham muhimki, aniq talaffuz sahna asarining g'oyaviy-badiiy darajasiga yaqqol ta'sir etadi. Teatr san'atini millionlardan iborat ommani tarbiyalovchi muhim vosita ekanligini hisobga olganda san'at ahli zimmasiga tushadigan bu mas'uliyat yanada oshadi. Nutqning oliy apparati – miyadir.

Nutq organlari anatomiyasi quyidagicha:

- 1.Havo o'tuvchi a'zolar (kekirdak,bronx va o'pka)
- 2.Ovoz paychalarini o'z ichiga olgan hiqildoq (bo'g'iz)
- 3.Havo bo'shliqlari (xalqum,burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i).

Nafas apparati-ko'krak qafasi, o'pka, bronx va traxyeyadan iborat bo'lib, nafas chiqarishda va tovush paydo bo'lishida ko'maklashadi. Nafas olganda pauza paydo bo'ladi va bu tovushni tinishi o'z navbatida nutqning fonetik bo'laklanishiga olib keladi.

Bo'g'iz-tog'aydan iborat. Qalqonsimon kemirchak (xryash) devorlariga va kichkina piramidasimon kemirchak devorlariga tushgan ovoz paychalari bo'g'izga joylashgan.

Ovoz paychalari-bo'g'iz (xiqildoq)ichida oldindan orqaga ketuvchi ikkita shilliq parda burmalaridan iborat. Ovoz xosil bo'lishida bu paylar muhim rol o'ynaydi.

Og'iz bo'shlig'I - turli nutq a'zolari til, lab, tanglay, jag'dan iborat bo'lib,

kombinatsiyalariga ko'ra hajmi va ko'rinishi turli shaklga kirib turadi.

Til - og'iz bo'shlig'idagi eng muhim a'zodir. U o'zining harakatchanligi tufayli qariyb barcha tovushlar yaratilishida ishtirok etadi. Tilning ust qismi uch bo'lakka bo'linadi: 1. Orqa qismi. 2. O'rta qismi. 3. Oldingi qismi. Har bir qism o'z imkoniyatiga ko'ra tovushlar paydo bo'lishi paytida turlicha me'yorda qatnashadi.

Ovoz va nutqning faoliyati o'z navbatida nafas olish faoliyati bilan bog'liqdir.

### **Burun**

Burun – nafas olish yo'li hisoblanadi. U pastki burun, burun bo'shlig'i ya'ni ikki qatlamdan iborat bo'lib, ustki orqa qatlam suyakli va old pastki qismi tog'aydan iborat bo'ladi. Burun bo'shlig'i silliq parda bo'lib, hid biladi va qolgan qismi nafas olish yo'li hisoblanadi.

### **Og'iz**

Og'iz – oziq-ovqatni hazm qilish yo'li bo'lish bilan birga nutq a'zosi, ta'm biluvchi (til) hamda burundan nafas olish qiyinlashganda, so'zlashayotganda nafas olish a'zosidir.

Og'iz – ikki qismdan: og'iz eshigi hamda og'iz bo'shlig'idan iborat. Og'iz old qatorda lablar va orqa tarafida miya va old tish qatorlarini o'z ichiga oladi. Og'iz bo'shlig'iga til, tishlar qatori, qattiq tanglay, yumshoq tanglay, jag'lar kiradi.

### **Hiqildoq**

Hiqildoq – yuqorida hamda orqa tomonda bo'g'iz bilan bog'lanadi. Past tarafda nafas oluvchi tomoq traxyeya bilan bog'lanadi. Demak hiqildoq oldi tomonda traxyeya, uzluksiz kemirchak va xalqumdan iborat. Nutq apparatlari fiziologiyasiga e'tibor bersak, u uch qismdan iborat:

- 1.Ovoz hosil qiluvchi hiqildoq, ovoz psychalari;
2. Ovoz chiqaruvchi – artikulyatsiya sistemasi;
3. Nafas olish sistemasi.

### **So'z urg'usi. Mantiqiy (gap) urg'u**

So'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq ovoz

bilan aytishiga – urg'u deyiladi. Urg'uning quyidagi turlari mavjud:

- 1.So'z urg'usi.
- 2.Sintagma urg'usi.
- 3.Ayiruv(ta'kidlov) urg'usi.

1.Harakat qilish belgisiga ko'ra so'z urg'usi ko'chadigan va ko'chmaydigan turlarga bo'linadi. Ko'chadigan urg'u bir bo'g'indan boshqa bo'g'inga o'tib turadi, ya'ni harakatda bo'ladi. Bu xususiyat ko'proq rus tilida uchraydi. O'zbek tilida masalan: temir – temirchi – temirchilik, shahar – shaharlik – shaharliklar va hakazo. Bundan tashqari so'z ma'nolari kuchaytirliganda, ya'ni so'z ma'nolariga uslubiy bo'yoq qo'shish zarurati bo'lganda yuzaga keladigan holat **geminatsiya** (bir xil undoshlarning qavatlanishi) hodisasida ham urg'uning ko'chishi kuzatiladi.

Masalan:

Maza qildim – mazza qildim, yashamagur – yashshamagur kabilar.

2.Sintagma urg'usi – nutq oqimining ma'no jihatdan muhim bo'lgan qismini (sintagmani) alohida ta'kidlash, ajratish uchun qo'llangan urg'u. Buni quyidagi nutqiy parcha tahlilida ko'rish mumkin: "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarni tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi."(Respublikamizning birinchi Prezidenti I. Karimovning 1995 yil fevral oyidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1- sessiyasidagi ma'ruzasidan).

Ma'lumki, frazalar katta pauzalar bilan bir- biridan ajratiladi. Yuqoridagi ikki frazadan birinchisida quyidagi parchalar - sintagmalar bor: a) "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi"; b)"yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir". Bu sintagmalardan birinchisi alohida urg'u (sintagma urg'usi) bilan yakunlangan bo'lib, uning fonetik tabiatи quyidagi belgilarga ega: sintagma oxiridagi "maqsadi" so'zining so'nngi bo'g'ini ochiq bo'lib, bu bo'g'indagi "i"

unlisi cho'ziq talaffuz etilmoqda. Bunda tovush toni ko'tarilgan (ton belgisi), kuchi esa intensivlashgan (zarb belgisi), bu hol shu sintagmaning ma'nosini alohida ta'kidlash imkonini bergen. Sintagma urg'usidan so'ng kelgan qisqa pauza birinchi va ikkinchi sintagmalarini bir-biridan ajratish vazifasini bajargan.

Ayiruv urg'usi - gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash uchun yoki so'zlovchining his-hayajoni, voqelikka munosabatini maxsus ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'u. Tinglovchining e'tiborini gap bo'laklaridan biriga alohida jalg etish, shu bo'lak orqali ifodalangan ma'noni maxsus ta'kidlash uchun qo'llanadigan urg'udir. Gapning urg'u olgan bo'lagi odatda boshqa bo'laklardan kuchliroq talaffuz etiladi. Masalan qiyoslab ko'ramiz: 1.**Men** institutda ishlayman(boshqa birov emas, men...).2.**Men** **institutda** ishlayman(kollejda emas institutda...).3.**Men** institutda **ishlayman** (o'qimayman,ishlayman...) jumlasidandir.

“Urg'u – nutqimizdagi... muhim elementdir, - deydi K.S.Stanislavskiy, urg'u-jumla yoki shu guruhdagi eng muhim so'zni belgilab turgan ko'rsatkichdir!”. Demak, matn ustida ishlaganda eng avval ana shu “ko'rsatkich” larni, ya'ni jumla va matn **uzv**laridagi birinchi darajali so'zlarni aniqlab olish lozim. So'z san'atida “urg'u” bilan ifoda etib kelinayotgan tushuncha aslida matndagi muayyan uzvni ajratish yoki bo'rttirishni anglatadi. Xulosa qilib aytganda mantiqiy urg'u guruh, jumla, voqeа va parchadagi mazmunni belgilovchi eng muhim so'zlarga tushadi.

**Badiiy o'qish** – ifodali o'qishni hamma xususiyatlari qoladi va unga so'z harakatiga tayangan holda emotsiya, his-hayajon, ko'rish, eshitish va hokazo elementlari qo'shiladi.

### **Ifodali o'qish**

Ifodali o'qish ijodkor uchun asarni eng g'oyaviy mazmunini chuqr tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Turli hil janrdagi asarlar bir xilda o'qilmaganidek, hamma ham bir xilda ifodali o'qiy olish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, oliy o'quv yurti talabalarining o'zlarining shevalari ta'sirida “ifodali” o'qishlari asar mazmuniga juda katta putur etkazadi. Shuning uchun talabalardagi mavjud shevalardan qutqarish, ularni sof adabiy tilda gapirishga o'rgatish mutaxassis o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Ifodali o'qishning asosiy shartlari:

- 1.Tinish belgilariga rioya qilish.
- 2.Mantiqqa putur etkazmaslik.
3. Berilgan matnni aniq, tushunarli qilib o'qib berishdan iboratdir.

Buyuk bobokalonimiz A. Navoiy she'rni tushuntirib o'qishga katta e'tibor qaratib, buni quyidagicha ifodalaydi:

Yodimga mundoq kelur bir mojaro  
Kim tufuliyat chog'i mакtab aro,  
Istabon tashxisi xotir ustod  
Nafs o'quturkum ravon bo'lzin savod.  
Nasrdin ba'zi o'quv ham doston,  
Bu "guliston" yanglig'u ul "Bo'ston".  
Manga ul holati ta'bi bil havas,  
Mantiqu-tayr aylab erdi multamas!

Buyuk shoir bolalik va yigitlik paytlaridayoq ellik ming bayt, ya'ni yuz ming misra she'rni yod bilgan va ularni o'zi o'qib zavqlangan.

## INTONATSIYA

Nutq tovushi tarkibidagi ohangdorlik intonatsiya deyiladi. Bunda tovushlarning past-baland bo'lib o'zgarib turishidan iborat ritmik-melodik nutq tuzilishi, ohang hamda musiqada tovush balandligini to'g'ri olish darajasi ham tushuniladi. Shu bilan birga intonatsiya ijrochining o'z tasavvuridagi ko'rish imkoniyatini, fikr va tushunchalarini tinglovchilarga talqin etishga intilishi natijasida vujudga keladi. Intonatsiyani mantiq va kechinma, hissiyat va holatdan izlash kerak. O'z navbatida to'g'ri va ifodali intonatsiyaga erishish zarur. Ayniqsa o'zbek tiliga xos bo'lgan "ha","hm","hay" "uh" kabi emotsional undovlarning intonatsion jonlanishiga erishish ijrochidan katta mahorat talab etadi. Xullas, intonatsiya – jonli nutqning o'ziga xos bo'lgan, badiiy so'z san'atini estetik tasirchan qiluvchi ifodali vositalardan biridir. Quyida biz H.Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ridan parcha havola qilamiz. Orqa fondan "O'rik gullaganda"

qo'shig'ining musiqasi va qushlarning sayrashi (ular orasidan bulbulning sayrashi ajralib turadi) beriladi. Musiqaning ovozi bir oz pasaytiriladi va ijrochi she'rni boshlaydi:

Derazamning oldida bir tup o'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar, tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror, har bahor ham shunday o'tadi

Qancha tirishsam ham u beor yellar meni aldab ketadi...

She'r ijrosi jarayonida bo'lajak aktyorlar she'r mazmuni (nafaqat she'r balki boshqa asar ijrosida ham), shakli, badiiy ta'sirchanligi kabi sohalarni nazardan qochirmagan holda intonatsion ohangdorlikka e'tibor qaratish lozim.

### SHE'RIYAT USTIDA ISHLASH

"She'riyat- bu yashashning yorug' tantanasi, bu bizni goh-goh qamrab oluvchi hayot sururi; bu ehtiroslar halovati, titrog'i, avj nuqtasi, tuyg'ularning to'lqini va bo'roni, muhabbat toshqini, zavq-shavq rohati, dardkash hayollar toti, azob iztiroblar lazzati, tuganmas ko'z yoshlар chanqog'i; bu qaylargadir, ko'z etmas, jozibador yiroqlarga uzluksiz, ichki talpinishlar; bu hamma narsani quchish hamma narsaga qorishishni ko'zlagan doimiy tuganmas ishtiyoyq; bu qalbimiz koinot bilan bir phangda tepib, mahliyo ko'zimiz o'ngida yuksak hayotning jismsiz soyalari baralla parvoz etadigan, qulog'imizga esa falaklar va dunyolar uyg'unligi to'kiladigan ilohiy nafas; bu shunday ilohiy nafaski, unda er samoviy nur bilan porlab, osmon esa zamin bilan qo'shilib ketadi... Butun dunyo undagi tamomiy gullar bo'yoqlar tabiat va hayotning barcha shakllari she'riyat hodisasi bo'la oladi. Ana shu hodisalarda yashirinib, ularni hayot jilvalari ila jozibador etgan narsa she'riyatning mohiyatini tashkil etadi. She'riyat-bu odam hayotining tirik tomiri, uning qoni, uning olovi, uning shulasi va quyoshidir".

Ijrochi tilini burro, betakror bo'lishida she'r ustida ishslash katta ahamiyatga ega. Shu bois biz bu izlanishimizda o'zbek she'riyatining ayrim turkumlariga to'xtaldik. Bizlar ana shunday yorqin, kishini o'ziga tortuvchi hayolga g'arq

etuvchi, jozibaviy, qalbni larzaga soluvchi iboralarga e'tiborni qaratamiz. Tabiat mo'jizalariga lol qolamiz. Shoirning inson qalbidagi his tuyg'ularini o'xshatishlar orqali tasvirlashga tasannolar aytamiz. Bu bizlarda har bir so'z va birikmalarga e'tiborimizni kuchaytiradi.

## **SAHNA NUTQI TEXNIKASI**

### **Tez aytishlar ustida ishlash**

Talaffuz myeyoriga erishish uchun tez aytishlar va bu mashqlarni bajarish eng yaxshi vositadir. Tez aytishlar oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Tez aytishlarsiz sahna nutqini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aktyor so'zini tomoshabinga jozibali etkazib bera olishi, so'z mantiqiga e'tibor berishi - bu tez aytishlar mashqlarini puxta egallaganligidan dalolat beradi.

Aktyor ifodalayotgan jumlasini tomoshabinga qay darajada aniq, tushunarli hamda ta'sirli etib borishida tez aytishlarning o'rni beqiyosdir. Ayrim talabalarda yaqin undoshlarni (s-sh) qorishtirib talaffuz qilish holati kuzatiladi. Bu holatlarda albatta ushbu tovushlar bir necha bor takrorlanib kelgan tez aytishlardan foydalanilsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

1. Qishda kishmish pishmasmish, pishsa, kishmish qishmasmish. Kishmish egan kishining tishlari qamashmasmish. Mashmashalashsam ham, mashmashalashaman, mashmashalashmasam ham, mashmashalashaman.

Yuqoridagi tez aytishlardan s va sh undoshlarini uyqashtirib aytuvchi talabalar nutqini to'g'rilashda foydalanish mumkin.

2. Osmonda ikkita dumi kalta kal kalxat, birining ko'k dumi kalta kal kalxat, birining qora dumi kalta kal kalxat. Ko'k dumi kalta kal kalxat qora dumi kalta kal kalxatga xalaqit beradimi, qora dumi kalta kal kalxat ko'k dumi kalta kal kalxatga xalaqit beradimi.

3. Bog'bon bulbulni borligini binafsha guldan bildi, bog'da bog'bon borligini bulbul guldan bildi.

4. Bolalar bog'dagi bodringlarni botqoqlikka botib bo'lsa ham, bitta qo'ymay terib oldilar.

5. Paykallarda tong payti, paxta ochilmish lo'ppi, chanoqchalar boshiga, qo'ndirgan mish oq do'ppi.

6. Ko'k tepada ko'k ko'prik,

Oq tepada ko'p ko'prik.

Ko'k tepadagi ko'k ko'prik,

Oq tepadagi ko'p ko'prikdan kattami?

Oq tepadagi ko'k ko'prik,

Ko'k tepadagi ko'k ko'prikdan katta.

7. Bog'da bulbul sayraydi,

Ko'lida baqa tinglamaydi.

Bulbul bog'da sayrashin

Baqa ko'lida tinglamayapti.

8. Bir tup tut, bir tup turp, bir tup tutning tomiri, bir tup turpning tomirini turtib turibti, bir tup turpning tomiri bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

9. Namanganda usta Musa puch pistafurush bor ekan, o'sha usta Musa puch pistafurushning 63 pud puch pistasi bor ekan, 63 pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pistafurush ekan, 63 pud puch pistasi bo'lmasa ham, o'sha usta Musa puch pistafurush ekan.

10. Jajji Javlonbekning jo'rasi Jo'rabeckning jo'jası jo'xori cho'qidimi, jajji Jo'rabeckning jo'rasi Javlonbekning jo'jası jo'xori cho'qidimi.

Tez aytish nutq tovushlari uyg'unligiga asoslangan janr bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so'z talaffuzida chalg'ish yoki tutilish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi.

Tez aytishlar ustida ishslash bo'lajak aktyor va rejissorlar, jamiki so'z san'atiga aloqador kishilarga nutq a'zolarining chaqqon va aniq, tovushlarni toza talaffuz qilishdan tortib, fikrlashga, ritmni yo'qotmaslik, urg'uni to'g'ri ishlata bilish, aktyorlik mahoratini boshlang'ich barcha elementlaridan tortib ovoz, nafas, xotira, munosabat kabilar his-tuyg'ularni qo'zg'atish, tasavvurni boyitish, nutqiy xarakter yaratishda juda muhimdir. Shu bois, tez aytishlar nutq san'ati, xususan

so'z san'atining taqomillashuvida zarur ijodiy manbaa hisoblanadi.

Tez aytishlar ustida ishlaganda quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Matndagi talaffuzga to'liq, aniqlik beruvchi tovush va tovush birikmalari, har bir bo'g'in, so'z, jumlani, undagi unli, undosh, sirg'aluvchi va sonor tovushlarning artikulyatsion holatini aniqlash;
2. Tez aytishdagi bitta so'zli takror yoki chalkash aytildigan so'zlarni avval bo'g'inlab, so'ng eng past sur'at (birinchi tezlikda) bilan ifodali o'qish;
3. Shu asnoda bir-ikki bor qaytarilib, tovushlar artikulyatsiyasini saqlab qolgan holda avval pichirlab (xuddi sirli xabardek), nihoyat tovush chiqarib talaffuz etiladi, lekin tezlik birinchi galdagidek;
4. Endi matn to'liq o'zlashtirildi, u tez aytishga aylandi (yod olinmasa, fikr so'z qidirishga ketadi);
5. Tezlik endi bir oz oshiriladi (ikkinchi tezlik), mantiqqa putur etkazmay, kamida uch marotaba aytiladi;
6. Xuddi shu holatda (uchinchchi tezlikda) uch marotaba qaytariladi, bunda tezlik oshgani hisobiga tovushlar yamlanishdan, duduqlanishdan ehtiyoj bo'lishi kerak;
7. Endi tez aytishni fikrga qo'yib, biror maqsadni ko'zlashga qaratiladi, agar tez aytish ma'nosiz, ko'r-ko'rona (shunchaki tezlik uchun) aytilsa, u hech qanday amaliy natija bermaydi. Bugungi yosh aktyorlarni tarbiyalashda qahramon xarakterini yaratishga o'rgatishda aktyorlar bilan quyidagi uch bosqichda ishlagan ma'qul.

### **Topishmoqlar.**

1. O'ttiz beshtadir dastyor,

Xizmatimizga tayyor,

Ularsiz ishim yurmas,

So'zimda ma'no bo'lmas.(Harflar).

2. Olmasang yarim nafas,

Yo'ldan o'tgani qo'ymas.(Nuqta).

3. Shakli o'xshar o'roqqa,

Doim tutar so'roqqa.(So'roq belgisi).

4. O'xshar mirzaterakka,

U doim turar tikka.

**Sozlar haqida.**

1. Kosasimon qorni bor,

Har sozandaga u yor,

Bir cho'p bilan kuy tortar,

Tinglab ko'ngillar yayrar.(Dutor).

2. Qulog'ida qo'sh xalqa,

Xizmat qiladi xalqqa,

Kulib turar misli oftob,

Hamrohidir, chang, tor, rubob.(Doira).

3. Bir yashikcha bor, qiziq,

Beli burmali chiziq,

Prujinaday cho'zilar,

Turli ohang tuzilar.

Bandi bor ikki yoqda,

Ustasi chalgan choqda,

Eshitamiz bearmon,

Uning nomidir...( garmon).

4. Qo'lida o'ynar ikki cho'p,

Sim torlari juda ko'p.(Chang).

5. Bersa yoqimli sado,

Bulbul ham mastdir hatto.

Xizmatda lab,qo'l-u,til,

Qani toping-chi Qobil? (Nay).

6. Aksing ko'rinar borsang,

Xonaning ko'rkam fayzi.

Kuyiga mos shu g'azal –

Do, re, mi, fa, sol, lya, si.(Pianino).

## **“B” tovushi uchun bidirlash mashqlari**

«Bahrom bilan Boqivoi bedazorga borishdi. Bedazorga borishsa, Boqivoyni bahaybat bir buqasi bo‘shalib, bedani bosadi...» Bunisi bo‘lmapti. Bizniki boshqacha. Boyni bitta-yu bitta bolasi bo‘ladi. Bolasiyam boshqacha bir bola bo‘ladi-da. Bir bo‘ladigan, baquvvat bola bo‘ladi. Bu bola boy bilan birga boqqa boradi. Bog‘am-bog‘misan bog‘! Bahaybat bir bog‘ bo‘ladi. Bog‘da beshta bedana bo‘ladi. Bu bedana boyniki bo‘lmaydi, birovnikи bo‘ladi. Bola buni bilmaydi-ku?! Boy bitta bedanani boshidan bog‘lag‘ich bilan boylab bolaga beradi. Bola bedanaga bug‘doy beradi. Bedana bug‘doyni bilmaydi-ku! Bilasizmi-bilmaysizmi, bilmadim-u, bedanaga bedaning boshini bersa bo‘ladi, bug‘doy bo‘lmaydi. Birdan bog‘ni bir burchagidan bir boboy baqiradi. Bu bedana boboyniki bo‘ladi-da, bola buni bilmaydi. Bola baribir bola-da, bedanani boboydan berkitadi. Berkitgan bilan baribir bolaning basharasidan bilinadi-ku. Boboy buni biladi. Bilib bolaning basharasiga bitta «bang» beradi. Bola behush bo‘ladi. Bola boyning bolasilagini boboy bilmaydi-ku. Bolada bolalikdan bilim bo‘lsin. Bilim beshikdan boshlanadi. Bolalar, barchangiz bilimli bo‘linglar. Bilim bo‘lmasa bo‘lmaydi. Bizda bilim borligidan bidirlayapmiz. Bo‘lmasa bidirlamasdik. Bilsanglar bemalol bidirlanglar-chi, bidirlolmisizlar! Bu bilim bo‘lmanidan! Bizni bobolarimiz, buvilarimiz barisi bilimli bo‘lgan. Bizga bilim bergen. Bizda bor, bidirlayapmiz. Bobolarimiz bor-u Boburlar, Behbudiylar, Beruniylar... Bilmasang, bor bibliotekaga. «Boburnoma»ga boq! Barisi berilgan! Bularning birortasi bibliotekaga bormaydi, barisi boqqa boradi — baliqqa. Bolalar, biz birlashaylik. Biz birlashsak, biz biriksak, bizda baraka bo‘ladi. Biz bolalar bilan Braziliyaga bordik. Braziliyaga borsak, butunlay bir boshqacha. Braziliyaga borganlar bormi? Bormagansizlar, bilmaysizlar, biz borganmiz, biz bilamiz. Borgan bolsalaring, Buxoro, Boysun, Bekobod, Bo‘ka, Bektemirga borgansizlar. Braziliya butunlay bir boshqacha, binolar, barlar, bassyeyn, bilyardxonalar... butunlay boshqacha bo‘lgani bilan, baribir bizning Buxoroday bo‘lolmaydi-da! Bolalar, bu..., bilimlaring bo‘lmasa, birovning bidir-bidirini bildirlamanglar! Bo‘pti, bo‘lmasa, bolalar, barchangiz baxtli bo‘linglar.

## **Bo‘yinbog‘ Sardor G ‘oziyev**

Bilasizlar, bu bo‘ynimdagи bo‘yinbog‘ bo‘ladi. Buniyam bog‘lashni biladiganlar biladi, bilmaydiganlar bilmaydi. Bo‘yinbog‘ bog‘lashni bilmaslikdan battari bo‘lmaydi. Bizam boshida bilmasdik, borib-borib bilvoldik. Birinchi bo‘yinbog‘imni bog‘lashga butun boshli binodagi bolalarga bitta-bitta boglatdim. Boqsam, bolalarni bittasiyam bo‘yinbog‘ bog‘lashni bilmasakan. Bilmasakansan, birortasidan bilvolsang bo‘lmaydimi?! Bir balo bo‘larmiding, bilvolsang. Birdamas birda bo‘yinbog‘ingni bog‘i bo‘shalsa birov bog‘lab beradimi? Bo‘lmasa, boyagi bolalarni bo‘yinlaridagi bo‘yinbog‘lari biram bejirim, biram bejirim. Boqsam, boyagi bolalarni bari baland-baland bo‘ydor bolalar. Buqaday-buqaday, boksyor bo‘ladigan. Biroq, bitta bo‘yinbog‘ni bog‘lolmagan bola boksyor bo‘larmidi. Bo‘lsa ham boshga bitgan balo bo‘ladi! Bittasi bog‘laydiganroq bo‘ldi-yu, biroq bunisiyam bo‘lmadi, bog‘lolmadi. Bo‘yinbog‘ni boshimga bir bolalarcha bog‘lab borayotsam, bizdagи «Bo‘z» bozoridagi bitta bozorchi bola bog‘lashni bilarkan. Beruvdim, bog‘lab berdi. Biram bejirim bog‘larkan, biram bejirim bog‘larkan, besh bervordim-yey, bu bolaga. Bizni birodarlarimiz bo‘lsa buni bilmaydi. Bitta bo‘z bolachalik bo‘lmasa-ya bizni bolalar. Bu bozorchi bolani bir balosi bor, bo‘lmasa bilmasdi. Balo — bu bola. Birodarlar bildi bu bolani bog‘lashini, biroq birov bormadi-yu, bizdan boshqa, biz beshtamiz borib bo‘yinbog‘ bog‘lashni bilvoldik. Bo‘yinbog‘laringni bog‘lab beraman, besh-besh beringlar! Borlaringga balli, bolalar.

1. Sahna nutqi texnologiyalarini o‘rgatishda mukammal uslublardan foydalanish.
2. Aktyorlik mahorati, notiqlik san’ati, sahna nutqi madaniyati an’analari, buyuk teatr arboblari tajribalarini singdirish.
3. Teatr sohasi muammolarini anglashda ilmiy – tadqiqot ishlarini doimiy olib borish, bunga yosh tadqiqotchilarni jalb etish, yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirishda yosh aktyorlarni kasbga qiziqtiradigan uslublardan foydalanilsa, kam vaqt ichida ko‘p natijalarini qo‘lga

kiritish mumkin. Buni amalga oshirishda ovoz, tovushlar, talaffuzning mohiyati, ularning artikulyatsiyasi, ovozni boshqarish bo'yicha bir qator texnik mashqlarni talabalar bilan bajarilsa bo'ladi. Lekin hech qanday harakatsiz, quruq talaffuz yoshlarni zeriktiradi. Shuning uchun unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzini ta'minlashga yordam beruvchi kompleks mashqlar va etyudlardan foydalanish, arqondan sakrab, koptokchani yerga uloqtirib, sanamalar aytish, taburetka bilan ishslashning turli qonunlariga bo'ysuntarilgan usullar bilan she'rlar o'qish, aytishuvlar, tez aytish va maqollarni ravon gapirish juda yaxshi natijalarini beradi. Bundan tashqari etyudlardan ham unumli foydalanish mumkin. Masalan, "Kuchukchalar" etyudi:

Nafasni diafragmmaga olib, "vavv-vavv" tovushi orqali nafas chiqariladi. Kuchukchalar yana nafas olib, kerishib, oldilariga tashlangan suyaklarni yalab turganlarida, yonlariga boshqa kuchukchalar kelib qolishadi. Kuchukchalar jahli chiqib, qarama-qarshi turgan kuchukchalar bilan jangga kirishadilar. Ular har bir qadamlarida "vavv-vavv" tovushini talaffuz qilib, raqiblariga yaqinlashadilar. Shunda boshqa kuchukcha kelib qoladi va ularni urishishlarini istamagan holda "vavv-vavv" tovushi bilan xitob qiladi. Ya'ni ularni janjaldan to'xtatish ohangida murojaat qiladi. Kuchukchalar jahldan tushadilar. Bu bir qarashda oson etyudday tuyuladi. Lekin talabalar uchun ahamiyati katta. Mashq davomida yosh aktyorlar nihoyatda bajarayotgan voqelikka ishonishi, ko'z qarashi va talaffuzning, ya'ni tovushning ravonligiga ahamiyat berishi, sharoitni his qilishi, muskullarning bo'shligini sezishi kerak. Shu bilan birga har bir talaba o'zi bajarayotgan personajga xarakter topa olishi lozim.

A.N.Tolstoy: "So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir ko'lami tugamaydigan kuchdir. So'z – buyuk narsa, shuning uchun ham buyukki, so'z odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlaridan yuz ko'rmas qilib yuborishi mumkin. Odamlarni bir-birlaridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan"<sup>6</sup>, -degan edi.

San'atkorni san'atkor bo'lib etishishida yana bar muhim narsalardan biri bu tasavvur va fantaziyadir. Tasavvur va fantaziyani ishga solish, avvalo, aktyorni

kelajakda professional teatr sahnasida turli xil xarakterlar yaratishda muhim o’rin tutadi. Chunki bo’lajak aktyorning tasavvuri uning ilk qadamidanoq kengayib borishi kerak. Fantaziya ham tasavvur bilan birga mashqlar yordamida, qolaversa, xalq ertaklarini ko’plab o’qish bilan o’stirib borilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

“Xarakter – maqsadga erishish uchun kuchli intilish – kurashda qaror topadi, talant – sekin-asta etiladi, xarakter esa hayot to’fonlarida toplanadi. Xarakter - nimaga qodir bo’lsan, shuni ro’yobga chiqarishdan iboratdir”, - degan edi Gyote.

Gyotening aytgan buyuk fikrlari keng mushohada qilinsa, badiiy adabiyotda yaratilgan qahramonlar xarakterlari aynan ana shu falsafaga amal qilib yaratilganligiga, aynan shuning uchun ham kishilar qalbidan o’chmas iz qoldirgan asar qahramonlari yaratilganligini bilish mumkin.

Ertaklar so’zlash ham aktyorning nutqini ravonlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ertak xalq og’zaki ijodining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Unda fantaziya va mubolag’a kuchli bo’lib, xalq hayoti, urf- odatlari, intilish va kurashlari, orzu-armonlari aks etadi. Shu bilan birga, barcha ertaklarda ezgulik va yovuzlik o’rtasida keskin kurash bo’lib,adolat tantana qiladi.

Ertaklar muallif bayoniga ko’ra vazmin yoki “saj”da o’qiladi. (Saj deb, qofiyalangan nasrga aytildi). Masalan, xalk ertaklaridan “Tulki bilan tovus” ertagi: “Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg’ovul qizil ekan, g’oz karnaychi ekan, o’rdak surnaychi ekan, ola qarg’a azonchi, qora qarg’a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to’rg’ay to’qimchi ekan, bo’ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, etti kunlik eri bor, etti kunlik erida dumi kalta bo’ri bor...”<sup>7</sup>. ushbu ertakning o’qilishida ritmga e’tibor beriladi.

Oypari ertagi: “Bor ekanda yo’q ekan, och ekanda to’q ekan, o’tgan zamonlarning birida, Husanboy ismli kambag’al bir bechora yigit bo’lgan ekakan. Uning yotarga joyi ham yo’q ekan. U tug’ilib o’sgan qishlog’idagi eski masjidning hujrasida yotib yurar ekan....”<sup>8</sup> Ushbu ertak ma’nosiga ko’ra vazmin o’qiladi. Bunda talabalarning butun fikr xayoli asar mazmuniga qaratiladi. Ular diqqat e’tiborini voqelikka qaratadi. Bular esa talabalarning nutqini ravonlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hikoya epik turning kichik janri bo'lib, kishi hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi, ammo shu voqeaga qadar bo'lgan va undan keyin ro'y bergan voqealarni batafsil bayon etmaydi. Shunisi xarakterliki, hikoyada qahramon hayotidan kichik bir epizod olinib, unda hayotning muhim tipik ko'rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi. Talabalarga hikoyalarni o'qitish ularning tasavvurini boyitadi. So'z boyligini oshiradi.

Kichik she'rlarni ifodali o'qish talabalar talaffuzini charxlaydi. She'rnинг g'oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Ifodali o'qish talabalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni sheva ta'siridan qutqarish uchun muhimdir. Sheva ta'sirida "ifodali" o'qish she'r mazmuniga putur etkazadi. Shuning uchun talaba she'r o'qiyotganida o'zini-o'zi nazorat qiladi.

Tez aytishlar, she'rlar, ertaklar, hikoyalar, o'qib o'rganish jarayonida talabalarda tovushlar talaffuzi mukammalashib boradi. Ulardagi nutqiy nuqsonlar ham asta-sekin yo'qolib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, og'zaki nutqimizdagи adabiy bo'limgan nutqiy nuqsonlarni to'g'ri hal qilish, kamchiliklarni yo'qotish talabalarning nutq madaniyati malakasini oshirishda muhim ahamiyatlidir. So'z san'ati va sahna nutqi injiqliklarini puxta o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir ijodkor talabalar o'zining nutqi ustida tinimsiz ishlasa, undagi nutqiy kamchiliklar asta-sekin yo'qolib boradi va ko'zlangan maqsadga erishiladi.

### **Qo'g'irchoq teatrida sahna nutqi**

Dramatik san'atdan sahnaviy nutqni olib qo'yilsa, u o'z faoliyatini tugatadi, pantomima san'atiga aylanadi. Dramatik teatrning asosiy ifoda vositasi jonli so'z hisoblanadi. Undan nutqni olib tashlash, bu demak operadan, musiqiy teatr dan qo'shiqni, baletdan raqsni olib tashlash bilan barobar bo'ladi.

Qo'g'irchoq teatridan qo'g'irchoqni olib tashlansa, demak u o'z vazifasini bajara olmaydi. Nutqsiz u bemalol mavjudligini namoyish qila oladi. Ammo jonli so'z qo'g'irchoq teatrida ham asosiy ifoda vositasi bo'lib, uning ikki sababi mavjuddir. Birinchidan, qo'g'irchoq teatri san'atining asosi bo'lgan

qo'g'irchoqbozni inkor etmaydi. Ikkinchidan, so'zning qo'g'irchoq teatrini boyitishidadir.

Qo'g'irchoq teatrida jonli so'z, dramatik teatr san'atidek tabiiy tug'ilmaydi. U o'ziga xos paydo bo'ladi. Chunki u qo'g'irchoqning yasama qarama-qarlishiligidan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi. Qo'g'irchoqboz o'zi nomidan emas, qo'g'irchoq nomidan gapiradi va uning ko'rsatmasini bajaradi. Ana shu bois qo'g'irchoq teatrdan nutq shartlidir.

Qo'g'irchoq teatri aktyorining nutqi ko'proq tasvironaligi bilan ifodalanadi. Bu obrazda, nutqiy xarakteristikada namoyon bo'ladi.

Yuqorida biz ovoz sozlash, registrlarni mufassal egallashdan teatr san'atining qonuniyatlarini asos qilib olgan bo'lsak qo'g'irchoq teatr aktyorining ovoz sozlashda uning nutqi ustida ishlaganda sun'iy registrni egallash yo'nalihsida ish olib borish kerak. Sun'iy registrdagi ovoz sozlash jarayonida ovoz paylari 70% (foiz) ishtirok etmaydi. Tovush ovoz paylari orqasidan burun orqali bosh registrga uriladi.

Sun'iy registr bu faltset va mikst bo'lib faltset – qalbaki ovoz bo'lib, bosh registrdan ham yuqorida jaranglaydi.

Mikst – bu faltset va ko'krak ovozini qorishmasidir. Hayvonlar, qushlar, xasharotlar imitatissiyasi uchun biz sun'iy registrdan foydalanamiz. Agar asosiy registrda ishlansa, ovoz paylariga yuk tushib, ovoz bo'g'ilib ishdan chiqishi mumkin, chunki bu holatda ovoz paylari (talaffuzda) bir-biriga jiplashadi va to'liq ish holatida bo'lishadi.

Sun'iy talaffuzda esa ular bir-biriga jiplashmaydi, orada yorug'liq bo'ladi va undan hamisha havo o'tib bosh suyagiga urilib ovoz chiqadi. Shu paytda ovoz paylari bo'shashgan holatda bo'lib, juda oz qismi ish holatida bo'ladi. Shuning uchun imitatissiya paytida sun'iy registrdan foydalanilganda ovoz paylariga katta yuk tushmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni amaliy mashg'ulotlarda yanada mufassal o'zlashtirish uchun avvalo:

1. Sun'iy registrda ovoz yo'naliшини топиш; Faltset bu – u-u-tovushli ovozni

yuqoriga, burun orqali boshga yo'naltirish. Keyin o'sha tovushni simob singari miyadan qovgacha tushiriladi – bu mikst.

2. Sun'iy registrda unli tovushlarni talaffuz etish;
3. Imitatsiya mashqlari;
4. Taqlidlar;

Bundan tashqari qo'g'irchoq teatri aktyori predmetlarni (xassa, choynak, stol, uycha va hokazo) buyumlarni tabiat hodisalarini (bo'ron, shamol, yomg'ir, tomchi, daraxt, barg) jonlantirib, gapirtira olishi mumkin. Har bir talaba yuqoridagi, predmet hodisaga xos xarakter va ovozni topishi shart.

### **Imitatsion mashqlar**

Hayvonlarning ovozini imitatsiya qilish orqali partnyorga ta'sir etish ko'zda tutiladi.

Qishloqda tundan tonggacha mashqi.

Ushbu mashq xo'rozning qichqirig'i bilan boshlanadi.

Qushlar uyg'ona boshlaydilar va bolalarini tarbiyasi bilan shug'ullana boshlaydilar.

Sekin asta qo'y-qo'zilarning ma'rashi eshitiladi.

Musicha g'u-g'ulaydi, o'rdak-g'ozlarning g'aq-g'aqlashi eshitiladi. G'iyq etib eshikning ochilishi va qo'y-qo'zilarning o'tloqqa jo'nab ketayotgandagi holati (qo'y-qo'zilarning ma'rashi). Kuchukchaning vav-vavv, vav-vavvlashi eshitiladi. Uzoqdan mototsiklni ovozi eshitiladi, u yaqinlashgani sari ovozi kuchayadi va uzoqlashgani sari bu ovoz sekin-asta yo'qolib boradi.

Tovuqlar paydo bo'ladilar. Ona tovuq jo'jalarni sayrga olib chiqadi. Taka, serka, qo'y, qo'zichoqlarni ma'rashi. Sigir egasini chakirayapti «Ma». Ho'kizni bo'kirishi. Darvozani g'ichirlab ochilishi. Itlar xurishi. Mollarning ma'rashlari. Barcha hayvonlarni xaydab chiqarishadi. Ular sekin uzoqlashadilar. Itning xurishi pasayadi. G'ozlar «g'a-g'alashib» – ovqat talab qilmoqdalar. Kurkalar bahslashayapti.

Mushukchalarni ergashtirib ona mushuk, quyosh taftidan baxra olish uchun tashqariga chiqdi. Ular orasida bahs-tortishuv boshlandi. Yutqizgan mushukcha

qochadi. Etyud mashq shirma orqasida bajarilsa ham bo'ladi.

Qurbaqalar qurillaydi.

Chivinlarning ovozi paydo bo'ladi va kuchayadi, ular nafs dardi bilan uchmoqdalar. Chivinlarning ovozini chigirtkalar bo'g'ib tashlashadi. Asal arilarining ovozlari ular «kengashga» yig'ilayaptilar. Tungi itlarning hurishi, uvvillashlari eshitiladi va yana xo'roz qichqirig'i qaytariladi.

Ana shunday mashqlar majmuasiga «Hayvonot bog'ida», «Tog'dagi tong», «Fermada» kabilar kiradi. Bunda qo'g'irchoq teatr aktyorining ovoz diapazonini o'stirish, ovoz ohangini, rang-barangligini va ichki nutqdan foydalanish uchun bajariladi.

Ana shunday mashqlardan (etyud) so'ngra qisqa she'riy monologlarga o'tish kerak. She'rlar hayvonlar yoki qushlar tilidan yozilgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Kuchuk**

Sezgan chog'i sharpani,  
Akillashni bilaman.  
Ota meros kasb ekan,  
Qorovullik qilaman.  
Bezararman judayam,  
Qolgan – qotgan nonlaru,  
Yuvindidan tegsa, bas.  
G'ajiy desam suyakni,  
Jag'da hali yo'q kuchim.  
Lekin gohi g'ajiyman,  
Ochdan o'lmaslik uchun.

### **Echki**

Tug'ilibman qoq tunda,  
Oy bo'libdi shamchirop.  
O'sdim, kirdim qatorga,  
Taqdim kumush qo'ng'iroq.

Shoxim o'xshar qilichga,  
Ko'z tegmasin, hozircha –  
Juda yaxshi axvolim.  
Qo'ng'irog'im tufayli  
Bosh bo'p qoldim qo'y larga.  
Endi meni sudrashmas  
Sovg'a qilib to'ylarga.

### **Cho'chqa**

Karkidonga amma-yu,  
Begemotga xolaman.  
O'sha xirqi to'ng'izga,  
O'gay ona bo'laman.  
Ular o'zi qondoshmi,  
Kasal bo'ldim kelmadi,  
Na To'ng'iz, na Begemot.  
Ammo, xafa bo'lmayman,  
Yo'qlamasa karkidon.  
Ja qiyindir to'yg'azish,  
Bo'lsa agar u mehmon.

### **Fil**

Ikki yoshta to'ldim men,  
Yigirmanchi aprelda.  
Biroq, qarib qolgandek,  
Quvvatim yo'q hech belda.  
Yomg'ir juda kam bo'ldi,  
Rosa besh yuz kiloga,  
Ozib ketdim bir oyda.  
Qurg'oqchilik boshlansa,  
Mening ko'nglim g'ashlanar.  
Yuz arava em xashak,

Qarz qip turing, oshnalar!

**Maymun**

Opkelishdi zooparka,  
Meni to'rda ushlashib.  
Qolib ketdi o'rmonda,  
Ukalarim mushtlashib.  
Shundan buyon qafasda,  
Shilishmasa terimni,  
Xali uzoq yashayman.  
Qilik'imni ko'rish chun,  
To'p-to'p odam keladi.  
Raxmi kelmas birovning,  
Bari mendan kuladi.

**Ho'kiz**

Ko'zlarimga tanishdir,  
Daladagi har uvat.  
Yag'ir bo'ynim muskuldor,  
Oyoqlarim baquvvat.  
Ba'zan meni odamlar,  
Gohi omoch sudratib,  
Savalashar, so'kishar.  
Hammasinga chidayman,  
Tegsa hamki asabga.  
Aytganlarin qilmasam,  
Sudrashadi qassobga.

**Timsoh**

Shu tevarak atrofda  
Obro'yim juda katta.  
Buning uchun kuch bilan,  
Nafs kerak, albatta.

Mo'may yeyman, maydani –  
Qani, keling, yaqinroq,  
Dam olaylik gaplashib.  
So'zlashamiz ovqatdan –  
Bemazadan shirindan.  
Faqat mening oldimda  
Gapirish yo'q burundan.

### **Qarg'a**

Masharaboz edi dadam,  
Onam folbin edilar.  
Kinnachilik qilib enam,  
Don-dun topib erdilar.  
Chaqimchi sur akam meni  
Urgan chog'da edim yosh.  
Olis sovuq o'lkalarga,  
Olib ketdim uydan bosh.  
Shundan beri yashayapman,  
Ayozlarda diydirab.  
Issiq yurtga uchsa qushlar,  
Termulaman mo'ltirab.

### **Musicha**

Go'lman, biroq dilkashman,  
Buni bilgan biladi.  
Chittakka ham, sorga ham,  
O'rtoq bo'lgim keladi.  
Popugimni tuzatgach,  
Tanishay deb, bir kuni,  
Yaqin bordim maynaga.  
Shapillatib qanotin,  
Urdi u bir tarsaki.

So'ng yupatdim o'zimni,  
Arzimagan narsa-ku.

### **Qizilishton**

Bobom hozir duradgor,  
Askar edi aslida.  
Men ham edim yasovul,  
Burgutshoxning qasrida.  
Hamma xavas qilardi,  
Etiklarim xiromdan,  
Nimcham tekis va tarang.  
Bir kun meni quvdi shox,  
Ko'zdan yo'qol deb nari  
Eshik qolib, devordan  
Teshib kirsam ichkari.

### **Laylak**

Omon bo'lzin zovurlar,  
Botqoqlarga sharaf-shon!  
Meros qolgan otamdan,  
Qamishzoru bir do'kon.  
Turib erta tongdayoq,  
Ushlab olsam ilonni,  
Lag'mon qilib cho'zaman.  
Hamma uchun ochiqdir,  
Laylakvoyning do'koni.  
Kelib turing mexmonga,  
Baqamanti egani.

### **Shilliqurt**

Yugurmayman, shoshmayman,  
Xoh so'lla, deng xoh yalqov.  
Hech kim bilan ishim yo'q,

Xoh beg'am deng, xoh yalqov.  
Qayerim kam ho'kizdan,  
Chig'anog'im ichida  
Yotog'im ham tap-tayyor.  
Do'stlar, nima qilasiz  
Meni olg'a etaklab?  
Yuribman-da beg'alva,  
Bir chekkada emaklab.

### **Suvarak**

Mana, chiqdim o'rtaga,  
Topib qo'ying meni siz.  
Xavas qilar akamga  
Shaxsan janob Shohqo'ng'iz.  
Shohqo'ng'izda savlat bor,  
Maqtanyapti demang-u,  
Yo'qdir mendek yuguroq.  
Mazax qilib der Kana  
Sen Chumchuqdek «dovyurak»  
Quvishdamas, qochishda  
Bo'sh kelmaysan, Suvarak.

### **Turna**

Shunda ekan nasibam,  
Umrim o'tar botqoqda.  
Xushyor bo'lib yuraman,  
Uzun xakal tayoqda.  
O'rtoqlarim yoqtirmas,  
Mashq qilaman, bo'sh qolsam,  
Safda tekis uchishni.  
Oqqushlarga taqaydi,  
Ba'zi birov zotimni.

Mana, bilib oldingiz,  
Axvolimni, otimni

## **SO'Z USTIDA ISHLASH**

Aktyorni o'ziga xos ijodiy imkoniyatlarini ochish uchun adabiy asar ustida ishlanadi. Mislsiz foydali hamda, u qo'g'irchoq aktyori uchun zarurdir.

Badiiy adabiy matn bilan talabalar ilk boshlang'ich bosqichda uchrashadilar. Tabiiyki, talabalar ilk bor tasviriy matnlarni, kichik hayvonlar haqida hikoyalardan oladilar. So'z xatti-harakatini ibtidoiy elementlarini (ko'rish, eshtuvchini mantiq, hikoyaning perspektiva (kelajagi) eshituvchi bilan muloqat va hokazo), ya'ni texnikani mujassamlashtirish ko'zda tutiladi.

Sahna nutqi darsining boshlang'ich bosqichida texnik mashqlarni takomillashtirilgach albatta matnlarga murojaat etiladi. Biz yuqorida maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, xalq og'zaki na'munalariga tegishli matnlarni o'zlashtirdik. Ya'ni kichik bir jumla orqali maqsadlilikka erishdik Bunda so'z xatti-harakatiga u yoki bu me'yorda erishdik. Ammo bu vazifa badiiy so'z ustida ishlaganda muffassalroq, mukammalroq bajariladi. So'zni xissiy to'liq ifodasini topish, fikrni uyg'otish, muomilaga o'rgatish, ijodkorning ijodiy tabiatini ochish, texnikani shakllantirish va uni materialga bo'ysundirish va topilmalarni shakllantirishdek vazifaga badiiy so'z ustida ishlaganda erishiladi. Konkret ko'rish bilan so'z talaffuzining o'zaro aloqasi oliy miyaning faoliyatidir. Birinchi kurslarda sahna nutqidan so'z ustida ishlaganda talaba ijrochida ichki nigohni ishlashga, eshitish qobiliyatini shakllantirishga hamda jismoniy harakatni sezishga mos matnlar olinadi. Shu bois so'z ustida ishlaganda quyidagi bosqichlarni albatta o'tish kerak.

1. Manzarali parchalar.
2. Kam voqeali parchalar.
3. Ko'p voqeali parchalar.
4. Turli janrga oid parchalar.
5. To'liq asar yoki murakkab parchalar.

Adabiy manzaralari parchalarda talabalarni tabiiylikka, ko'rish, muomala kabi xususiyatlarni tarbiyalashda qulaylik tug'diradi. Matn o'zidagi hayotiy manzaralarni ko'z oldiga keltirish (tasavvur etib) ichki nigoh va eshitishni ishga soladi. Shu bilan birga jismoniy sezishni ham ta'minlaydi.

## **TASVIRIY ADABIY PARCHALAR**

### **Buloq suvi**

#### **Jabbor Razzoq.**

Balandda, tog'u toshlar orasidan buloq ko'z ochdi. Suvi tip-tiniq, muzdek, bahorda atirgul yaprog'iga qo'ngan shabnamdek toza. U bu yorug' dunyoga chiqish uchun qanchalar kurashdi, metindek toshlar bag'rini yorib o'tib, niyatiga etdi. Quyoshni ko'rdi. Ammo..... Yo'lda to'siqqa duch keldi. Jilg'a bo'ldi, so'ngra shalolaga aylandi. Izlagan yaxshi odamlarni topdi. Ular buloq suvini avaylashdi, miriqib ichishdi, bog'lariga tarashdi, ko'zalariga to'ldirib e'zozlashdi. Afsus, uning bu quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. Dunyoda turfa odamlar bor ekan. Yo'lda nimalar qo'shilmadi unga, rangi o'zgardi. Kimlardir chiqindilarni ham tashladi. Buloq suvi bulg'andi va rangi sarg'aydi.

### **Archa**

#### **Jabbor Razzoq.**

U hamisha ko'm-ko'k. Ona tuproq bag'rida unib, quyoshning zarrin nurlarini emgan damlardan buyon bir xilda o'sadi. Uning rangi ham o'zgarmaydi. Ko'm-ko'k, yam yashil...qishning chillasida novdalari oppoq qorlarga burkanganida baxtiyor kelinchakka o'xshab ketadi.

Bahorda ham sevimli libosini o'zgartirmaydi. Faqat yangi navdalar yozib, uyg'onish faslini qutlaydi. Yozning jaziramasida esa hech nima ko'rmaganday viqor bilan shundayligicha turadi.

Tabiatning to'kinchilik fasli bo'lmish kuzda hamma yoq oltin rangga cho'lg'aganida ham, darahtlar o'zining to'nini erga tashlaganida ham u yashnab turaveradi. Hech qiyofasini o'zgartirmaydi.

### **Qor**

## **Jabbor Razzoq.**

Sokin tun... Qor yog'ayapti. Bolalarning beg'ubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryoday jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlarloqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a!? Ona tabiat shunday go'zalki, uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga ohista qo'ndi. Quvonchdan uning yanoqlari shunday yashnab ketdi-ki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg'ubor qizchaning qo'liga tushganidanmi, birdan erib, tip-tiniq tomchiga aylanadi.

... Bir zumdayoq hammayoq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalarini ushlashga intilayotgan bolakaylar endi undan hovuchlab-hovuchlab olib qor bo'ron o'ynashardi.

Tun. Hamon qor yog'moqda...

## **Oy va Yulduz**

Osmonda turib olam-jahonni yorituvchi Oy tun malikasi Yulduzni sevib qolibdi. Yulduzning ishqi ham Oyga tushibdi. Ikkalovi bir yostiqqa bosh qo'yib, birga yashaymiz deb ahdu paymon qilishibdi. Buni Quyosh bilib qolibdi. Oy bilan Yulduzning bir-birini sevib, ahil oila qurishiga qarshi chiqibdi. Oyga: «Bu yo'lingdan qayt», debdi. Oy: «Yo'q qaytmayman. Ahdim ahd, Yulduzga uylanaman», debdi. Quyosh Yulduzga: «Bu niyattingdan qayt», debdi. Yulduz: «Yo'q, bu yo'lidan qaytmayman. Va'dam va'da», debdi. Quyosh: «Hali shunaqami, mana bo'lmasa», deb Oy bilan Yulduzga tashlanibdi. Yulduz qochib qolibdi. Oy qocholmabdi. Quyosh uning yuzini timdalab olibdi. Yulduzning uchishi shundan emish. Oyning yuzida dog' bo'lishi shundan emish...

## **Qaldirg'och himmati**

Nuh payg'ambar davrida qattiq yog'ingarchilik bo'lib, hammayoqni suv bosib ketibdi. Odamlar, hayvonlar, dov-daraxtlaru, tog'u toshlar ham suv ostida qolibdi. Shunda Nuh payg'ambar bir kema yasatibdi. Unga dunyodagi jamiki hasharot, parranda va hayvonlardan bir juftdan olib, «biron bir joyda quruqlik qolgandir», deb yo'lga chiqibdi. Ummonga aylangan er yuzida suzib ketayotsa, sichqon

qurmagurning qitmirligi tutib, kemani teshib qo'yibdi. Teshikdan suv kirib, kema ichi suvgaga to'la boshlabdi. Nuh qarab tursa, kemaga suv to'lib, undagilar suvgaga g'arq bo'ladigan, shunda u: «Kimda-kim teshikni to'sib, suvni to'xtatib qolsa, dunyodagi eng shirin go'shtni unga taqdim etaman», debdi. Shunda ilon: «Buni men bajaraman», debdi-da, kulcha bo'lib teshikka yotib olibdi. Suv to'xtabdi. Nuh payg'ambar yanglishmagan ekan. Bir joyda quruqlik qolgan ekan, o'sha joyga etib borishibdi. Shunda ilon:

- Nuh, aytganingni bajar endi, – debdi. Nuh payg'ambar «Dunyodagi eng shirin go'shtni bilib kelinglar», deb u qushni u yoqqa, bu qushni bu yoqqa yuboribdi. Qaldirg'ochni ham bir yoqqa jo'natibdi. Ilon uch ko'chaning boshida kulcha tushib, ularni poylab yotibdi. Bir payt qushlardan biri kelib qolibdi.
- Dunyodagi eng shirin go'sht nima ekan? – deb so'rabi.
- Toshbaqa go'shti ekan, – debdi qush. Ilon:
- Yo'q, u sening go'shting, – deb changal solib, uning o'zini yutib yuboribdi.

Keyin ari uchib kelibdi. Ilon aridan:

- Dunyodagi eng shirin go'sht nimaniki ekan? – deb so'rabi.
- Dunyodagi eng shirin go'sht itniki ekan, – deb javob beribdi ari. Ilon bir chang solib, uning tilini uzib olibdi. Bir payt qaldirg'och uchib kelib qolibdi. Ilon:
- Qani, sen ayt-chi, dunyodagi eng shirin go'sht nimaniki ekan? – debdi.

Qaldirg'och hamma parrandayu darranda, odam go'shtidan tatib ko'rulganda, odamning go'shti eng shirinligini bilar ekan. «Ilonga odam go'shti shirin desam, u butun umr odamzodning go'shti bilan ovqatlanadi, shundan keyin olamda odamzod qolmaydi», deb o'yabdi-da, unga qarab:

- Qurbaqaning go'shti dunyodagi eng shirin, totli go'sht ekan – debdi. Ilon:
- Yolg'on aytasan, – deb sapchib unga tashlangan ekan, qaldirg'och epchillik qilib qochib qolibdi. Ilonning og'zi uning dumiga tekkan ekan, qaldirg'ochning dumi ayrilib, ochiq qaychiga o'xshab qolibdi. Shu-shu uning dumi qaychisimon emish. Odamzodni o'ziga do'st-oshna qilib olibdi. Qaldirg'ochning odamlar uyiga in qurishi, ulardan qo'rmasligi shundan emish. Ilon bo'lsa har doim undan qasdini olish niyatida yurarmish. Inini buzib, tuxumi yo bolasini eb qo'yishi ham shundan

emish.

### **Ming bir kecha**

*Arab ertaklari*

#### **(Ertakdan parcha)**

**Kanizak Tavaddud:** Hikoya qiladilarki, Bag'dod shahrida qudratli, mol-mulki va er-suvi ko'p badavlat bir savdogar bor ekan.

Olloh uning dunyosini keng qilibdi-yu, orzu qilgan farzandiga etisha olmabdi. Ancha vaqt umr ko'ribdi-yu, na qiz, na o'g'il nasib bo'lmbadi. Olloh Taologa yolvoribdi.

Xudoning unga rahmi kelib, o'g'il farzand ato etibdi. Farzandga Abul Hasan deb ism qo'yibdi. U eson-omon otasi bilan bir qancha vaqt birga bo'lib, balog'atga etguncha otasi u bilan shod va xursand umr kechiribdi. Oradan ko'p o'tmay, otasi xasta bo'lib, vofot etibdi. Abul Hasan otasining barcha vasiyatlarini unutibdi.

Mol dunyosi sovrilib, bor narsasidan ajrab, bir kanizakdan boshqa hech vaqosi qolmabdi.

Bu kanizak husnu jamolda, haddu kamolda va qaddu qomatda misli yo'q ekan. Go'zalligi, ilmu amali va nazokati bilan birga, o'rta bo'yli, peshonasi yangi tug'ilgan sha'bon oyidek, ikki qoshi ingichka va uzundan kelgan, ko'zлari ohu ko'zdek, qirraburun, yuzlari loladek qizil, og'zi Sulaymon payg'ambar uzugidek bejirim, tishlari ipga tizilgan dur donalaridek, kindigi bir bon yog'i siqqudek, beli esa ishq dardiga giriftor bo'lib, ozib ketgan kishining taniday ingichka.

Oq, tiniq badanli, havoni xushbo'y qiluvchi, go'yo nurdan yaratilib, billurdan paydo bo'lgandek, qaddu qomati kelishgan ekanki, issiq tabassumi bilan boqqan kishining aqlu hushini o'g'irlar, mijgon o'qi bilan otarkan; shu bilan birga, so'z intizomini yaxshi saqlar va chiroyli so'zlash mahoratiga ega ekan.

### **Dahshat**

*Abdulla Qahhor*

#### **(Hikoyadan parcha)**

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozor boshiga ketayotgan yosh

boladay chopqillab qarshisidan esayotgan shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi, biroq go'riston ko'chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora keksa chinor ostida oqarishib turgan sag'analarni, belgisiz zulmatni ko'rganida yuragi uvishdi-yu, zovur ko'prigidan o'tib, ikki qadam qo'yanicha to'xtab qoldi. Dahshat uning yuragiga rahna soldi. Uning eti jimirlashib, sochi boshidagi ro'molni bir qarich ko'targanday bo'ldi.

Lekin shu ondayoq xuddi o'likdan qo'rmasligini birovga pisanda qilayotganday baqirib «O'likni joni yo'q! O'likni joni yo'q!», deb olg'a intildi, shu yugurganicha chinor ostidagi onhazratim sag'anasi oldida to'xtadi, ichida: «Ko'pi ketib, ozi qoldi», deb suyundi. Biroq uning suyungani behuda edi. Hamma narsani oliptiyu, eng zaruri – o'tin esidan chiqibdi! Unsin paypaslab qo'liga ilingan narsani etagiga soldi, qamish, yantoq, giyoh yuldi. Qo'llari qonab ketganini ham payqamadi. O't yoqdi. O't chirsillab gurkiradi. Uzoq yaqinda do'ppayib turgan go'rilar, xuddi birov go'rni tuprog'ini ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi. Hayal o'tmay nimadur kelib Unsinni elkasiga minib oldi. Unsin elkasiga nihoyat og'ir bir zarb bilan urilganday seskanib ketdi-yu, yiqilmadi. Oyoq uzra turib hushidan ketdi. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmaydi, ko'zini ochib qarasa Maymun. Dodxoni maymuni!

Unsin go'riston dan chiqib, katta yo'lga chiqib oldi. Yarim yo'lga etganda chap qo'liga qattiq og'riq kirganini sezdi. Og'riq qumg'onne eslatti. Chap qo'lida qumg'on bor edi, qani? Unsin bir to'xtadi-yu, choynakni ikkala qo'li bilan bag'riga bosib, darmoni etguncha jadalladi. Qo'lidagi choynak tobora og'irlashib borar edi.

Unsin Nodirmohbegimning og'ir eshagini zo'rg'a ochdi, ostonadan o'tib, bir necha qadam bosganidan keyin, holdan toyib cho'kkaladi va ne mashaqqat bilan intilib, jo'mragidan choy oqib bug'lanayotgan choynakni sandalning bir chekkasiga qo'ydi, umrlik orzusi ushalganday hordig'i chiqib, o'zini erga tashladi.

Sandalda o'tirib pinakka ketgan dodho uyg'onib tamshandi, boshini ko'tarib Unsinni ko'rди-yu «jon berayotibdi» deb o'yladi, shekilli, undan ko'zini uzmay sekin o'rnidan turdi, huddi o'lim xavfidan qochganday, o'zini eshikka urdi. Unsin hushidan ketgan ekan ko'zini ochib qarasa, tepasida Nodirabegim yig'lab o'tiribdi.

Unsinning o'ng ko'zi mamataloq bo'lib shishib ketgan.

Unsin Nodirabegimga ko'zi tushgan zamoni undan dodhoning lafzi-lafz ekanini so'ramoqchi bo'lган edi, uning ahvolini ko'rib, eshitilar-eshtilmas:

– Sizga nima bo'ldi? – dedi. Nodirmohbegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiroq yig'lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo'ydi.

– Menden qaytmasa xudodan qaytsin, endi Garjiravonga ketarmikanman?

– Ketasan, – dedi Nodirmohbegim yig'lab, – sal o'zingga kelgin ketasan...

Unsinning chaqnab ketgan ko'zlarida yosh yiltiradi.

– Men tuzukman... Peshingacha tuzalaman, jo'nasam bo'ladi...Gajiravonga odam yuborsangiz... Ota, ona borishimni eshitsa, suyunsa.

Lekin Unsin peshingacha etmadi, uzildi.

### **To'maris haqida afsona**

#### **(Rivoyatdan parcha)**

*Xalq og'zaki ijodi*

Kaspiy dengizning kun chiqish tarafida qush uchib o'ta olmaydigan bepoyon cho'l va qirlarda massagetlar yashar ekanlar. Eron podshosi Kir ularning erlarini bosib olmoqchi bo'lib, safarga otlanibdi....

U zamonlarda massagetlarga To'maris degan aqli, dono bir ayol boshliq ekan.

Kir To'marisni hiyla bilan o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'libdi. To'marisni eri o'lib ketganini eshitgan Kir uni o'ziga xotin qilib olish yo'li bilan massagetlar eriga ega bo'l mish rejasini tuzibdi. Shu mudao bilan u To'marisga sovg'alar, elchi sovchilar yuboribdi. Ziyrak To'maris makkor podshoning yovuz niyatini sezibdi. Podshoga xotin emas, massagetlar yurti kerakligini payqabdi va sovchilarni qabul qilmadi.

Kir hiyla-nayrangdan ish chiqmaganini ko'rgach, asl maqsadini oshkor etibdi. Arang daryosi tomon yurish qilibdi. U sollardan ko'prik yasatib, behisob qo'shini va asbob-anjomlarini sollarga solib, daryoning narigi qirg'og'iga o'tkazshi chorasini ko'ribdi.

To'maris uning hamma ishlaridan xabardor ekan, tezlik bilan unga chopar yuborib, shu so'zlarni etkazibdi:

«Yey midiyalik maqtanchoq podsho! Bu niyatingdan qayt, chunki bu qilayotgan ishlaringdan o'zingga foyda yo zarar tegishini bilmaysan. Tinchlik va osoyishtalik bilan o'z yurtingda hukmronlik qil, bizning yurtimizni o'zimizga qo'yib ber. Ammo biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli, basharti maslahatimizga kirmasang, massagetlar bilan to'qnashishni istasang ko'prik yasayman deb ovora bo'lib o'tirma.

Bizga aytsang, biz senga halaqit bermay, daryodan 3 kunlik yo'lga ko'chib ketamiz. Bordi-yu agar biz bilan daryoning o'zing turgan qirg'og'ida urushmoqchi bo'lsang, uni ayt bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma!».

Bu dadil gaplarni eshitib Kir sarosimaga tushibdi, shoshilinch sur'atda Eron sardorlarini to'plabdi, ularni voqeadan xabordor qilib maslahat so'rabdi. Ko'pchilikning fikri To'marisni Eronga keltirib jang qilishi ustida to'xtabdi... Qahri qattiq vaziri Kriz bu fikrga qarshi chiqibdi. Krizning maslahati bilan massagetlarga hiyla tuzog'ini quribdi. Noz-ne'mat va ichkiliklarni muhayyo qilib, eng yomon askarlardan bir to'pini orqada qoldirib eng yaxshi askarlar bilan oldinga jo'nab ketibdi.

Massagetlar ziyofat ustidan chiqib tayyor noz-ne'mat va sharoblardan boshini ko'tarolmabdi. Eroniylar qo'shni qaytib kelib, ularning ko'pini o'ldiribdi, ba'zilarini asir qilib olibdi. Asirlar ichida massagetlarning boshlig'i bo'lgan To'marisning o'g'li Sparganiz ham bor ekan.

To'maris o'z o'g'li va askarlari voqeasidan xabardor bo'lib, Kirga chopar yuborib shu so'zlarini etkazgan ekan.

«Yey midiyalik qonxo'r Kir qilgan ishing bilan maqtanmay qo'ya qol. Sen mening o'g'imni yuzma-yuz jangda engganing yo'q, uni makkorlik bilan sharob ichirib, qo'lga tushirding... Endi mening nasihatimga kir, o'g'limni menga topshirib ziyon-zahmatsiz kelgan eringga qaytib ket, massaget qo'shnining 3 dan birini qo'lga tushirganinig bilan o'z elingda kerilib yuraver. Agar so'zimga kirmasang massagetlar tangrisi – quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men

senday ochko'zni qon bilan sug'oraman».

To'marisning o'g'li yosh Spaganiz esa ertasi hushiga kelib hamma voqeadan xabardor bo'libdi. O'z qilgan xatosiga pushaymon eb, nomus kuchlilik qilib o'zini-o'zi o'ldiribdi.

To'maris Kayxusravga qarshi jang boshlabdi. Shiddatli jang boshlanibdi. Jang juda uzoq davom etsa ham hech kim jang maydonini tashlab chiqib ketmabdi. Axir pirovardida massagetlar engib chiqibdi.

«Bir kam 30 yil saltanat taxtida hukm surgan Kirni o'ldirishibdi».

### **Millioner**

*O'tkir Xoshimov*

#### **(Hajviy hikoyadan parcha)**

Avvallari, milioner degani qanaqa odam bo'larkan, kechasi qo'rqlmay qandoq uxlarkan, deb hayron bo'lardim. Bugun o'zim milioner bo'ldim. Yangi chiqqan kitobimga million so'm oldim. Bir vaqtlar besh yil mehnat qilib yozgan xuddi shunday kitobim chiqsa, o'n ming so'm olardim. Atigi o'n ming! Hozir esa jaraqlatib million sanab o'tiribman. Bir vaqtlar o'n ming so'mga atiga bitta mashina berardi. Hozir millionga yaraqlab turgan ikkita quling o'rgilsin velosipid olish mumkin. Avvallari o'n mingga bor-yo'g'i besh tonna go'sht berardi. Hozir millionga yigirmata tovuq beradi. Avvallari o'n mingga atiga o'nta to'y qilsa...

Eshiq qo'ng'irog'i jiringlab, shirin xayollarimni to'zishib yubordi. Chiqsam, sakkiz yoshlardagi bola. Qo'lida kattakon so'mka.

- Suv kyeyyakmi amaki? – dedi «r»ni yaxshi aytolmay.
- Qanaqa suv?
- Miniyol suvda.
- Voy shumtaka – ye! Chanqaganimni qayoqdan bildi bu.
- Kerak. – dyeyishim bilan sumkasidan bir shisha suv chiqarib eski lattaga hafsala bilan artib menga uzatdi. Suvni cho'lpillatib shishaning og'zidan ichib qo'yaqoldim. Bolakay ko'zlarini lo'q qilib.
- Ming so'm – desa bo'ladimi.
- Jahlim chiqib ketti.

- Chayqovchilik qilish yaxshi emas, – dedim nasihat qilib.
- Men sayqovchimasman amaki tadbiykozman.
- O’rgildim sendaqa tadbirkordan! Shu qilganingga bir adabingni bermasam!

Sanab o’tirgan o’n ming so’mliklardan birini uzatdim. Bolakay pulni olib uyoq-buyog’ini o’girib rosa tekshirdi. O’ng cho’ntagiga qo’l suqqan edi. Bir pochka o’n ming so’mliklar ilashib chiqdi. Chap cho’ntagidan besh ming so’mliklarni chiqardi. Ko’krak cho’ntagidan ming so’mliklarni oldi. Bitta besh ming to’rtta ming so’mliklarni erinmasdan sanab uzatdi.

- Yana suv kyeyakmasmi?
- Kyeyakmas! – dedim men ham beixtiyor «r» ni aytishga tilim kelishmay.
- Siz shoyiymisiz amaki?
- Voy xuvoriyey! Kitob ham o’qirkan-da bu. Men bolalarga yozmayman-da, yozsam senga berardim.
- Kitobmas. Zelyoni boymi?

Xayron bo’ldim.

- Qanaqa «zelyoniy»?
- Dollay boymi? U barmoqlarini ishqalab tushuntirdi.
- Dollar? Menda nima qiladi?

Umuman senga dollarni nima keragi bor?

- Uch milyonim boy edi. Shuni dollayga almashtiyamoqchiman! – dedi.

Eshikni qarsillatib yopdim. Narigi yoqda shishalarning sharaqa-shuruqi eshitiladi.

### **Karnaychi**

*Said Ahmad*

#### **(Hajviy hikoyadan parcha)**

Muzyeyni tomosha qilgani kelganlar «Muzyey berk, remont» degan yozuvni o’qib, qaytib ketaverishardi. Ammo soqoli ko’ksiga tushgan, ikki lunji filning qulog’iga o’xshab osilgan bir chol eshikni ochasan, kirib karnayimni ko’raman, deb ikki oyog’ini bir etikka tiqib turib oldi. Qorovul tushuntirsa ham tixirlik qilib tushunmay turaverdi.

– Kiraman, ko’raman, vasalom!

Oxiri qorovul uni ichkariga kiritishga majbur bo’ldi.

– Boring, direktor bilan o’zingiz gaplashing.

Chol ichkariga kirdi. Direktor qog’ozlarga ko’milib nimalarnidir yozib o’tirardi. U boshini ko’tarib cholga qaradi.

– Keling, otaxon!

– Men Buvaxon karnaychi bo’laman.

– Juda soz, – dedi direktor. – Karnaychi chaqirganimiz yo’q edi-ku. To’y qilish niyatimiz ham yo’q.

– Buvaxon karnaychini bilmasang, dunyodan bexabar odam ekansan-ku.

To’yga emas, karnayimni ko’rgani keldim.

Direktor qoshlarini kerdi.

– Qanaqa karnay?

– Muzyeyingda karnay bormi axir?

– Bor, – dedi direktor.

– O’sha mening karnayim bo’ladi. Ellik yil chalghanman uni.

– E, shunaqa demaysizmi? Qani, o’tiring, otaxon.

Otaginang aylansin, gapimga ishon. Lunjim biron kun bekor turganini bilmayman. Kechasiyu kunduzi puflaganim-puflagan. Vodaqashqaning tepasiga chiqvolib shaharning to’rt tarafiga qarab bir puflardim, yo bafarmoni xudo, bu tomoni Xasti imom, bu tomoni Jarariq, bu tomoni Zangi ota, bu tomoni Yalang’och pirim alg’ov-dalg’ov bo’lib ketardi.

Inqilob bo’lgandan keyin ham bir kun bekor turganim yo’q. Qayerda metinka bo’lsa, qayerda yig’in bo’lsa Buvaxon akangning karnayi bilan lunji ish beraveradi. Hozirgi Sverlov teatri Yupatov serki edi. Katta majlislarga odam yig’ib bering, dyeyishdi. Tomga chiqib qadrdon lunjim bilan karnayimni ishga soldim. Bedabozordagi Dom dehqonga Butunittifoq oqsoqoli kelganlarida ham karnay chalib, odam yig’ib bergenmiz. Toshkent atroflarida kolxozi tuzilib birinchi hosildan «Qizil karvon» qilib shaharga qovun-tarvuz olib kelingan. O’shanda ham Buvaxon akang karvon oldida Chig’atoy darvozadan to Eski Jo’vagacha tinmay

karnayini vatillatib kelgan. O'shanda Oxunboboev karnayimga lenta taqib qo'yanlar.

Tekstil kombinati ishga tushganda ham Buvaxon akang karnayini chalib, odamlarni ishga chaqirgan. Gidroistansa ochilganidayam, Selmarsh zovuti bitgandayam, qishloq xo'jaligi Vistavkasi ochilgandayam shu Buvaxon akang karnay chalgan. Budyonniy I.Rahmatni otga mindirganda ham Buvaxon akang istadionda rosa karnay chalgan.

Yigitlarimiz Gitlerning onasini Uchqurg'ondan ko'rsatib, g'alaba bilan qaytganlarida bir oy vokzalda qolib ketganman. Bu karnay Hamza bilan Xorazmdan to Qoraqalpoqqacha borgan. Bu karnay Muhiddin qori truppasi bilan Farg'ona vodiysini aylanib Tamaraxonimni yo'rg'alatgan.

«Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» unvonini har kimgayam beravermaydi. Usmon Yusupov bekordan-bekorga «BFK» nishonini ko'kragimga taqib qo'yarmidi?

Qo'y, ukam, meni ko'p javratma. Eshikni och. Qadrdon karnayimni bir ko'rib ketay. Iloji bo'lsa, ruxsat ber, bitta puflab qo'yay.

– Yo'q, otaxon, mumkin emas, muzyeyning yonboshida tug'uruqxona bor. Homilador xotin bola tashlab qo'ymasin.

– Yuring, ota, o'sha qadrdon karnayingizni ko'rsatib qo'yay. Chol oynavon javonda yashil duxoba ustiga yonboshlatib qo'yilgan karnayini darrov tanidi. Ko'zlari yashnab, beixtiyor, bormisan qadrdon, deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

## Xanka bilan tanka

*Said Ahmad*

**(Hajviy hikoyadan parcha)**

Olimboy aka kelinini kutib olish uchun raisdan «Volga»ni so'rab, qoq peshinda stantsiyaga chiqdi. Poezd kelib vagon eshididan o'g'li Tantiboy bilan kelinining qorasi ko'rinishi bilanoq peshonasiga shart etib bittani tushirdi! Bay-bay-bay! Kelin degan shundoq, latta qo'g'irchoq bo'ladimi? Oydekkina ekansaku, ola-bayroq kiyimlarga balo bormi? O'zing-chi, homiladorsan, siporoq

kiyinmaysanmi, qiztaloq!

Olimboy aka o'zidan o'zi g'o'ldirab, vagonga yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay, kelinining «qaddi-qomati»ga mahliyo bo'lib qotib turardi. O'g'li Tantiboy vagon zinasidan yubkasi torligidan tusholmay qynalayotgan xotinini qo'ltilqlab tushirdi-da, har biri sandiqdek-sandiqdek ikkita chamadonni arang sudrab, dadasi tomonga yura boshladi. Olimboy aka ichida «e, diding qursin», dedi ensasi qotib. U, bu «bedavo»larni qishloq guzaridan qandoq qilib olib o'taman, degan xayol bilan band edi. U o'g'lining oldida pisanda qilayotgandek qornini chiqazib, pista chaqib kelayotgan keliniga boshdan-oyoq razm soldi. Sochi erkakcha qirqilgan, ikki qulog'ida rediskadek qip-qizil zirak, labini shundog'am bo'yaptiki, xuddi pomidor tishlab kelayotganga o'xshaydi. Shimning pochasidek tor yubkaning yon tomoniga qatorasiga yigirmatacha qora tugma qadalgan. Bo'ynida har biri yong'oqdek keladigan jo'n sariq munchoq. Yupqa kapron ko'yakdan yelkasidagi husunbuzarları bemalol ko'rini turibdi. Olimboy akaning unga qarab turib, dod deb yuborishiga oz qoldi. O'g'ilchani – farzandi qobilni aytmaysizmi, oldida ikki bukchayib, pildiraganicha chamadon ko'tarib kelyaptilar. E, sho'ring qursin, adoyi tamom bo'psan-ku!

Farzand ekan. U noiloj turqi-tarovati g'uli-g'uli tovuqqa o'xshagan o'g'lining qarshisiga chiqib, quchoq ochib ko'rishdi. Kelin unga qiraverib ipdek-ipdek ingichka bo'lib ketgan qoshini kerib salom berdi. Kelinni hurmat yuzasidan mashinaning oldiga o'tqazishdi. U yo'lda: «Mashinani qachon oldinglar», deb qoldi. Chol o'zini eshitmaganga solib, o'g'lidan kelinining ismini so'radi.

– Hanifa, yangichasiga Xanka, – dedi Tantiboy «bizning xotin shunaqa» deb pisanda qilayotgandek, gapining oxirini jingalak qilib.

Kelinning ismi Olimboy akaga Xanka emas, Hangi bo'lib eshitildi shekilli, bir sakrab tushdi.

– Biz eskichasiga Hanifa deyaveraylik, o'g'lim, qishloqchilik emasmi, bilgan undoq deydi, bilmagan mundoq deydi.

Kelin cholning gapiga hayron bo'lib, elka uchirib qo'ydi. Chol o'z o'yi bilan o'zi ovora edi. U qishloqdagi jamiki askiyabozlarning serqochiriq, serpayrovi edi.

Askiyabozlarning hammasiga o'zi laqab qo'ygan, to'yu ma'rakalarda, gapu gashtaklarda pand emay, sovrun olgan askiyabozlardan edi. Ana endi «bejirim» kelinni ko'rgan hazilvon oshnalari nima deyarkin? Cholni mana shu tashvish qiyndi. Uning ustiga shaharga o'qishga ketib to'rt yilda mulla bo'lib kelish o'rniga Tantiboy otini Tanka qilib o'ziga o'xhash beo'xshov xotin olib kelayotgan o'g'lini butun qishloq to'rt ko'z bo'lib kutib o'tirgan edi. Chol to'y tadorigini ham ko'rib qo'ygan. Shu bugunroq uyni odam bosib ketadi. To'yni qoldirsammikin, deya dilidan o'tkazdi chol. U yer ostidan keliniga razm soldi. «Tavba, «Mushtum»dagi suratlarga ishonmasdim. Endi ishondim, mayli, bo'lar ish bo'libdi, to'y bo'lmasa ham, to'ycha qilib berib qutulmasam...»

Chol noiloj ertaga tushdan keyinga hammani to'yga xabarlab keldi.

### **O'n so'mlik qizil pul**

*Tilab Mahmudov*

#### **(Hajviy hikoyadan parcha)**

Qumri va Toshgul kampirlarning ota-onalari bir paytlar qarshi quda bo'lishgan. Toshgulning akasiga Qumrini, Qumrining akasiga Toshgulni berishgan. Ikkalasi bir-biriga yanga emas, egachiday gap. Toshgulning akasi qulqo bo'lib, dom-daraksiz yo'qolgan. Qumrining akasi payg'ambar yoshida olamdan o'tdi. Ularning hasratlashadigan dardi gaplashadigan gaplari ko'p edi. Ikkala ovsin-yanga erlarining G'azalkentdagi tanish Mirzaahmad akani ko'rib kelishmoqchi. Mirzaahmad aka og'irlashib qolgan ekan. Kampirlarni ko'rgan zahoti:

- Qumrimisan, umringdan baraka top.
- Xudo xohlasa tuzalib ketasiz, Mirzaahmad aka.
- Mana Toshgul ham yonimda, birga keldik sizni ko'rgani.

Vaqt allamahal bo'lganda ovsinlarga yonma-yon joy solishdi, yonboshlab, choy sovutayotgan odamday «puf-puf»lab uqlab qolishdi.

Nonushta risoladagiday o'tdi. Kampirlar xayrlashib bekat tomon jo'nashdi. Hamma gap cassaga yaqinlashganda bo'ldi.

- Hoy, Qumri qilig'ingiz qursin, pulimni bering, kechasi pulimni olib

qo'yibsiz, bering hazillashmang, – dedi Toshgul kampir o'pkalanib. – O'n so'mlik qizil pul edi. Qariganda birovning chontagidan pulini olgandan ko'ra o'lga yaxshi. Men uni ne azoblar bilan topganman-a. Bir oylik nosvoyning puli-ya...

– Qumri kampir, – qaltiragan qo'llari, charm hamyonni olib, ichidagi qog'oz pulu tangalarni etagiga to'kdi. – Mana, mana qarang, qizil pul bormi, hammasi yashil-ku, ko'zingizni kattaroq oching.

– Birovning pulini olasiz yana tilingizni bermaysiz?

Kampirlar ming'illab, vaysashganicha, avtobusga chiqishdi. Toshgul kampir ovozining boricha

– Nega tutoqmayin, yolg'iz o'n so'mligim yo'qoladi-yu indamaymanmi?

Avtobus to'la odam, Qumri kampir uchun bundan ortiq haqorat yo'q edi. Avtobusdan tushib qolay desa, odamlar nima xayolga boradi deb o'yladi. Rost ekan, yuzi chidamadi, dyeyishmaydimi? Qaysi biriga borib «Hoy musulmonlar, men o'g'ri emasman, kelib-kelib ovsin yangamning pulini olamanmi»desinmi?

Avtobus Xumsonga etib, odamlar tushayotganlarida Toshgul kampir Qumrining katta qizini ko'rib qoldi. Oyog'i erga tegar-tegmas:

– Mahbuba xudoyo onangni fe'li qursin, kechasi o'n so'mimni o'g'irlab qo'yibdi-ya, – dedi.

Mahbuba dam ammasiga, dam onasiga olazarak qarab turgan edi, Qumri kampir qizining yoniga keldiyu yosh boladay xo'ngrab yubordi.

Qirq yillik qadrdon kampirlar birinchi bor bir-birlari bilan xayr-xo'shlashmay qishloqning ikki ko'chasiga burilib ketishdi.

Toshgul kampir uyiga kelib ham ko'ngli joyiga tushmadi. O'limlik narsalari turadigan qutichaniyam olib ko'rdi. Hech erda o'n so'mlik qizil pul yo'q edi. «Olgan, yashshamagur», dedi pichirlab. Toshgul kampir ovqatga unnamoqchi bo'lib o'choqboshiga borgan edi, tutantiriq yorishga tesha kerak bo'lib qoldi. Kecha pomidor ko'chatlarini tagini yumshatganini eslab, hovliga qarab o'tdi. Ariqlar orasida, kesaklar ichida uchi chiqib turgan qizg'in narsaga ko'zi tushdi. Ko'rsatkich bormog'i bilan kesakni turtib yuborgan edi, o'n so'mlik qizil pul tovlanib ketdi. Uni jon holatda qo'liga oldi-yu, «Sho'rim qursu-un»dedi va

pomidori ko'chatlari ustiga yalpayib o'tirib qoldi.

## **Poraxo'rning talabi**

*Sunnat Azlarov*

### **(Hajviy hikoya)**

Menga poraxo'r so'zi yoqmaydi. Aslida pora yomon narsamas, buni hamma ham tushunib etmaydi-da. Jamiyatimizda bu so'zni qayta-qayta g'azab bilan tilga olib, xuddi chayonga tenglashtirib qo'yishdi. Porasiz biror ish bitganmi? Bolani bog'chaga joylashtirish, institutga opkirish, tuzukroq ish topish, ishxonani favqulotda komissiya tekshirib qolishi bor. Shunday ekan, ko'pchilikning og'irini engil qiladigan bu narsaga munosabatimizni o'zgartirishimiz kerak. Avvalambor bu so'zning shakliga yangilik kiritish kerak. Poraxo'r so'zidagi «xo'r» qo'shimchasi ko'proq salbiy otlar yashashda qo'l keladi. Jumladan, odamxo'r, aroqxo'r, tekinxo'r, qonxo'r, sudxo'r. Shuning uchun unga «chi» qo'shimchasini qo'shsak, ishchi, kolxozchi, konchi, o'qchi, so'zlari bilan ma'noli va jarangdor chiqadi. Ikkinchidan, yuqorida aytganimdek, biz shu paytgacha poraga nafrat bilan qaradik, uni oladiganlarni ta'qib etdik, jinoyatchi deb qamaldi, unvonlaridan mahrum qilindi. Shunday mushkul sharoitdayam poraxo'rlar o'z e'tiqodlariga sodiq qolib, faoliyatlarini keng ko'lamda olib borishga harakat qildilar. Bu qutlug' yo'lda qurbanlar ham berdik. Ha, azizlar, men ularning nomidan ko'plikda bo'lsa ham gapi rayapman. Bekitadigan joyi yo'q, o'zlarining tushunib etgandirsizlar. Men shunday mushkul va sababli kasbning kamtarin vakiliman.

Nima deyayotgandim... Ha, bizlarga doim qiyin bo'lgan. Qurbanlar ham berdik. Ne-ne zo'r arboblarimizni oyog'ini erga tekkizmay olib ketishgan. Qayerdaligini tushungandirsizlar.

Agar bilsalaring poraxo'rlar juda kuchli psixolog bo'lishi kerak. Oldingga kelishadi. Olish kerak. Ba'zilarning o'zlari qo'yishmaydi. O'rganib qolasan kishi. Keyin ko'ngling tusayveradi. Bir xillaridan hech vaqo chiqmaydi. Har xil yo'llar bilan imo qilasan. So'zda nihoyatda ustasi farang bo'lishing kerak. Bu ishga birinchi bor qo'l urib, picha mazasini totganimda, hech esimdan chiqmaydi, katta

ko'chadan ketayapman, avtobusga chiqdim nazarimda har bir yo'lovchi cho'ntagimga haligi... o'shani solib qo'yayotganday. Buni psixologlar kasb kasalligi, kuchli ruhiy toliqish dyeyisharkan. Boshqalarda bu ahvol qay tarzda kechganini bilmaymanu, mening nazarimda oxir-oqibatda har bir simyog'ocham menga iljayib, yana haliday... taklif qilayotganday tuyuldi. Yurgan yo'limda... Hey «quysangizchi»... qo'ymadingiz-qo'ymadingiz-da deb yuradigan odat chiqardim.

### **Ichim kuyadi**

*Ilhom Zoir*

**(Hajviy hikoya)**

Gazetada tanqidiy maqola bosilib chiqdi-yu, teatr jamoasining tinchi buzildi. Teatr direktori Shafiev jamoani xonasiga to'pladi.

– Qachongacha erka buzoqqa o'xshab teatrni emib yotaverasanlar? – dedi surnayday chiyillab. – Hammagni quritish kerak!

Shafiev boshqa gapirolmadi. Vaziyatni ilg'agan bosh rejissor Erkaev dik etib turdi.

– Mening ham ichim kuyadi, – dedi u qo'lidagi gazetani «shap» etkazib stol ustiga tashlarkan. – Hayriyatki, muxbir bolaning ko'p narsadan xabari yo'q ekan. Latifjon, qaynim bo'lsangizam, bir gapni bilib qo'ying! Teatr bozor emas. Sahnada partnyoringiz bilan nimalarnidir savdolashasiz. Baxtingizga hozirgi tomoshabinlarning fikr-xayolini bozor chulg'ab olgan. «Bozorda yurgan bo'lsa kerak», deb sizning aljirashingizga e'tibor berishmad... menga unaqa qaramang! O'sha Xitoydan olib kelgan botinkangizning pulini opangizdan berib yuborganman. Nimagaki, bir kun ichib olib, «sizga botinka sovg'a qilganman» deb, yuzimga solishdan ham qaytmaysiz. Ko'zingizni olaytirmang, men bor gapni aytyapman. Yo teatrni deng, yo tijoratni! Gapni «shaftolisi» ham shu.

Siz piqillamang, Salimjon, sizga ham shu gap. Slishkim mehringizni otarga berib yubordingiz. To'g'ri, to'ylarga butunlay bormang, demoqchi emasman, boring, ammo-lekin teatrni ham o'ylang-da bundoq. Gamletni «O'lish yo qolish!» monologini «Otish yo qotish!» deb boshladitingiz. Sezdim, o'sha kuni mast edingiz.

Zalda odam siyrak deb sahnaga chiqargan edim, aslida chiqarmasligim kerak ekan...

Kulmanglar, qarindosh bo'lsalaring ham, Shavfoat, Qanoat, Barno, Dilbar, Ro'ziqul, Fazliddin, Xayriddin – bu gaplar senlarga ham tegishli!

Xo'sh, bularni bola desam, sizga nima bo'ldi, Tamara opa? Dezdemona ni maromiga etkazib o'ynardingiz-ku! Aksiga olib muxbir kelgan kuni... Tushunolmay qoldim! Otello peshxezlik qilib, bo'g'gani bermaysiz, «senga ro'molcha kerakmi» deb yuz-betini yumdalab tashladingiz. Singlingiz to'es, suflyorning gapini eshitmaganga oldingiz... Xo'p, xo'p, rolga berilib ketgansiz deb faraz ham qilaylik. Unda, o'tgan ishingizni nima deb tushunmoq kerak? Dugonamning to'yiga boraman deb, «Hamlet»ga kelmadingiz. Ofeliyani qizingiz, to'es, dublyoringiz Malohatxon o'ynadilar. «Shoh Edip»da ham shu ahvol. Qirolichani ammangizni qizi Surayyoxon o'ynadi... Ha, kuling, kuling! Sizga kulgi bo'lsa bo'ldi. «Kelinlar qo'zg'oloni»ni eslang. O'sha kuni bir soatga kechikib keldingiz. Zal liq to'la odam. Birinchi pardada Farmonbibini qaynanangiz, to'es, Saltanat onamiz o'ynadilar. Kechikib kelganingiz etmaganday, «Qo'ying, oxirigacha endi o'zлari o'ynasinlar», dyeyishimizga qaramay, ikkinchi pardada sahnaga yugurib chiqdingiz. Tomoshabinlar: «Farmonbibi ikkita ekan», deb rosa kulishdi. To'g'ri, kuldirdingiz, lekin Sotti Suvonning «Inidan chiqqan sichqon» asarida nima bo'ldi?... To'g'ri, «mazam bo'lindi» degansiz, ammo kech aytgansiz. Biz esa o'sha kuni asarni bosh qahramonsiz qo'yishga majbur bo'ldik. Xayriyat, buni zritellar sezmay qolishdi...

Gap, gap bilan-u, Tamara opa, sal mas'uliyatni... To'g'ri, Shafiev: «Men direktorman», Siz: «Men o'sha direktorning xotiniman», Men: «Direktoring kuyoviman», deb yuraversak, bu teatr – teatr emas, otbozor bo'lib ketadi-ku! Shukr qilinglar, ichimizda begona yo'q, bo'lmasa, uydagi gap allaqachon tashqariga chiqib ketar edi...

### **Shum bola**

*G'afur G'ulom*

**(Qissadan parcha)**

Xayr-xo'shni nasiya qilib, biyobonga yo'lga soldim. Osmon uzoq, er qattiq. Qayerga etib borayotganimni o'zim bilmas edim. Oldinda biror mo'ljallagan niyatim ham yo'q edi.

Asr bilan shom o'rtasida ro'paramdan katta bir daryo chiqib qoldi. Men bu erlar bilan tanish bo'limganim uchun, bu daryoning qaysi daryo ekanini va ismini ham bilmas edim. Daryodan kechib o'tish mashaqqat ko'ringanday, suzib o'tish ham qiyin edi. Orqaga qaytuv mumkin emas edi. Daryo qirg'og'ida birorta ulovli yo'lovchini kutar edim. Oldindan katta daryo chiqib qolgan mashhur sayyoohlarning ashulalarini suvning sharqiroq oqinlariga qarab kuylar edim:

Daryo toshqin, suvlar to'lqin

O'tolmaymana-a, yor-yor...

Otim oriq, manzil uzoq

yetolmayman-a, yor-yor.

Otginamni oriq qilgan

Shu mayda tosh-a, yor-yor.

Rangginamni sariq qilgan

U qalamqosh-a, yor-yor.

Oppoq uring-a,

Hech tommasin-a.

Jonim yorim-a, yor-yor.

Daryolarning ul yuzida

O'ylaringiz-a, yor-yor.

Oqarishib ko'rindi

Bo'ylaringiz-a, yor-yor.

Ipdanmidi, ipakmidi

Kiyganingiz-a, yor-yor.

Bizlardan ham ortiqmidi

Sevganingiz-a, yor-yor.

Oppoq uring-a,

Jonim ko'zim-a,

Alyor bo'lsin yey, yor-yor.

Daryolarning ul yuzida

Oltin ko'za yey yor-yor.

Oltin ko'za taglarida

Bir juft g'o'za yey yor-yor.

Oltin ko'za ko'tarmakka

Bilak kerak yey yor-yor.

Bu daryodan kechish uchun

Yurak kerak yey yor-yor.

Oppoq uring-a,

Jon musofir-a,

Changov ketsin yey yor-yor.

Deb bir hovuch suvni lazzat bilan shimirib turgan edim, gard namoyon bo'ldi.

Gard orasidan oq baytalga mingan bir uzumchi paydo bo'ldi. Suvdan kechmoqchi bo'ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o'tkazib qo'yishni iltimos qila boshladim. Uzumchi: «Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko'p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashga uyat bo'ladi», – deb bahona qilsa ham, xiralik qila berdim. Noiloj qolib, o'tkazib qo'yishga majbur bo'ldi.

Bu daryoning nomi Kalas deb atalar ekan.

### ***G'oz bilan turna***

Kunlardan bir kun semiz va dangasa bir g'oz ko'lning bo'yida mudrab o'tirgan ekan, tasodifan uning yoniga turna qo'nibdi. Turna G'ozning qarshisida juda ham ozg'in va nimjon ko'rinar ekan. Olibta G'oz uni masxara qilib kulibdi:

Menga qara og'ayni Turna! Namuncha chakak-chakak bo'lib ozib ketibsan. Qoq suyaging qolibdi-ku. Xuddi yoz bo'yi hech narsa tatimaganga o'xshaysan-a.

Shu payt miltiq ko'targan ovchining qirg'oq yoqalab asta-sekin ularga yaqinlashib kelayotganini sezib qolishibdi. yengil Turna chaqqon qanot qoqibdiyu, uchib ketibdi. Ammo semiz, baqaloq G'oz o'zini o'nglab qanotlarini yozishga ulgurmasidan atrofini o'q ovozi bosib ketibdi.

Ochofat ish yoqmas G'oz qirg'oq bo'yida mukka tushib qolaveribdi, oriq

Turna esa hozir ham ko'kda parvoz qilarmish.

Xalq ertaklari ko'p asrlar davomida yosh avlodni aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyasida muhim manbaa bo'lib kelmoqda. Ertaklar o'sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xaqlparvarlik, insof va diyonat,adolat va haqiqat ruhida tarbiyalashga o'rgatadi.

Demak, yosh tomoshabinni yuksak e'tiqodli, ma'naviy– barkamol, xushfe'l, yoqimtoy, rahm-shafqatli, kamtarin qilib tarbiyalashda badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi ertakning o'rni ham belqiyosdir. Yuqorida ishlash uchun olingan yoqut xalq ertagi «G'oz bilan Turna» shular jumlasidandir avvalo, bu ertakni mantiqiy tahlil qilish kerak bo'ladi: mavzu, g'oya oliv maqsad. Mavzu-manmanlik, oliv maqsad – katta gapirmang, katta non tishlang degan man'noni anglatadi. Bunda G'oz turnani mashara qilaman, kamsitaman deb – ogohlikni yo'qotadi va ovchini o'qiga duchor bo'ladi. Ishlash yo'li:

Ertakda uch talaba ishtirok etadi. Avvalo hikoyachi, g'oz va turna ishtirokidagi bu mashqni o'zaro ta'sir etish, har birini o'ziga xos nutqiy xarakterini topa bilish nuqtai nazaridan yondoshib ishlanadi. Ishtirokchilar «men berilgan sharoitda» xatti-harakatini bajaratilar.

Mashqni o'zlashtirib olingach qo'g'irchoq teatri yo'nalishida ishslashlari va aktyorning nutqi personajlar orqali ifodalanishi kerak. Shirma orqasida aktyorlar, ishtirokchilar o'z ko'rinishlarida ya'ni g'oz, turna ko'rinishda sahnada harakat qiladilar. Talabalar avvalo imitatasiyada personajlarga murojaat etadilar. Mashq avvalida personajga xos ya'ni g'ozni «g'a-g'a»si turnaning «qurru-vvv»i keyin matnga o'tadilar.

I. G'ozning «g'a-g'a-g'aaa» – Menga qara og'ayni Turna! «g'a-g'a-g'a-a-a».

Namuncha chakak-chakak bo'lib, ozib ketibsan. Qoq suyaging qolibdi-ku. Xuddi yoz bo'yi hech narsa ta'timaganga o'xshaysan-a. «G'a-g'a-g'a-g'a-a-a-a» (turnani masharalash, kamsitish).

II. Hikoyachi: Shu payt miltiq ko'targan ovchining qirg'oq yoqalab ularga yaqinlashib kelayotganini sezib qolishibdi.

III. Hikoyachi: G’oz va Turnaning xatti-harakatlari (talabalarning tasavvuri uchun improvizatsiya). Turna chaqqon qanot qoqib uchib ketadi.

IV. Hikoyachi: O’q ovozi.

V. Hikoyachi: Qirg’oq bo’yida o’q tekkan g’ozning harakati.

VI. Hikoyachi: Oriq turna esa hozir ham ko’kda parvoz qilarmish. Turnalar ovozi. «Qurru-vvv», «qurru-u-u-vvv».

Mashqlarda aniq «qo’g’irchoq» nutqiy tovushini o’zlashtirish, uni aniq o’ziga xos ovozini bera bilishga qaratiladi. Buning uchun quyidagi ko’rsatmalarni ijodiy amalgaloshish:

1. Obrazni badiiy ifodasini saqlagan holda, o’z ovoz va nutq xarakterini o’zlashtirish. Bu vaziyatda imitatsion mazmundorligini aniqligiga erishish;

2. Qo’l va nutq bog’liqligi harakatidagi qiyinchilikni enga bilish.

Ana shunday ko’rsatmalarga amal qilishda qo’g’irchoq teatri aktyorining ovoz, nafas, artikulyatsiya tasavvur elementlarini o’zlashtiradi. Sun’iy registrni mufassal egallashi, barcha hayvon, predmetlar, hodisalarni imitatsiyasini egallashga yordam beradi. Harakatli mashq, etyudlarda albatta va albatta nafasni to’g’ri olish va uni sarflay olishiga e’tibor qaratilishi kerak. Ertaklar ustida ishlash uchun quyidagi namunalarni e’tiboringizga havola etamiz.

### ***Kimdir quyondan ham qo’rqardi***

– Ha! Sho’r peshonam... shu ham xayot bo’ldimi. Hamma narsadan hadiksirayveraman. Hamma meni qo’rqiymoqchi bo’laveradi. Kichkina qushchalar shoxdan-shoxga uchsa ham, daraxtlarni qurigan shox-shabbalari birozgina qimirlasa ham cho’chib tushaveraman. Bu dunyoda men qo’rqmaydigan bironta hayvon bormikan o’zi. Yo’q. Bu xayot emas. Daraxtning bargidek titrab yashash jonimga tegdi. Bundan cho’kib ketganim yaxshi.

G’ilay quyon shunday debdi-yu, yaqin oradagi ko’lga yugurib ketibdi. Ko’lning bo’yiga kelib, o’zini suvgaga tashlashga qulayroq joy axtara boshlabdi. Biroq shu payt unga qarab Qurbaqaning vaqillab sakrab kelayotganini ko’rib qolibdi. Quyonvoy qo’rqib ketib qulolqlarini dikkaytirganicha o’ziga-o’zi:

– Baribir hozir o’lsam kerak, – deb to’g’ri qurbaqani ustiga o’zini otibdi.

Qurbaqa bo'lsa tezroq vaqillay boshlabdi. U yo'l-yo'lakay ovozi boricha baqirarmish:

– Voy dod! Sho'rim quridi! Dahshatli quyon meni emoqchi bo'lib orqamdan quvayapti. Vaq-vaq qo'rqib ketayapman. Vaq-vaq qutqaringlar!

Oxiri u suvgga sho'ng'ib g'oyib bo'libdi.

– Ana xolos! – debdi Quyонvoy. – Menden ham qo'rqa digan jonzot bor ekan-ku. Endi keyinroq cho'ka qolaman. Hozircha o'rmonga qaytib boraychi. Shunday qilib, Quyon ko'ldan uzoqlasha boshladi. Shu-shu hozirgacha yashab yurganmish.

### ***Qushcha bilan suv kalamushi***

Kunlardan bir kuni suv kalamushi bilan qushcha birga yashashga shartlashibdilar. Kalamush qishda qushchani o'z uyasiga qo'yishga, to'plagan ovqatlari bilan uni qish bo'yi boqishga va'da beribdi. Evaziga bahorda kalamush uyasini suv bosganda unga o'z inidan joy beradigan, turli qurt-qumursqalar bilan boqadigan bo'libdi.

Qushcha o'z so'zida turib, bahor va hatto yozda kalamushni rosa boqibdi. Inidan joy beribdi. Kalamush shu qadar o'zini erkin tutibdiki, bechora qushchaning olib kelgan taomlarini tanlab ye yishga o'tibdi.

Bu orada qish kelibdi. Qor yog'ibdi. Og'aynilar kalamushning iniga ko'chib o'tibdi. Ammo kalamush qushchani o'lganini kunidan zo'rg'a, chala-chulpa boqa boshlabdi. Mezbon ko'pincha daraxtlarning ildizini topib kelar ekan. Bunday taomni ye yishga o'rganmagan bechora qushcha ozib ketganidan qimirlashga madori qolmabdi. Oxiri chiday olmasdan shunday debdi:

– Men seni rosa mehmon qildim. Xohishingga qarab edirdim, ichirdim. Sen bo'lsang meni sarqit bilan boqayapsan. Shu ham ish bo'ldimi? Kelgusi yili sen bilan turmayman.

Bu gap kalamushga yoqmabdi:

– Xe, firibgar qallob, – deb baqiribdi Kalamush yoqimsiz ovoz bilan. – Qish bo'yi menga kun bermading, shilib yotding. Rahmat dyeyish o'miga yana xasrat qilasan!

Kalamush tirnoqlari bilan qushchaning boshini timdalab ham olibdi.

Shundan keyin qizil boshli Qushchalar paydo bo'lgan ekan.

### ***Sichqon va bug'u***

Bir kuni kechqurun o'rmondagi jilg'a bo'yida Bug'u bilan Sichqon uchrashib qolishibdi. Uchrashishibdi-yu, kim quyosh chiqishini birinchi bo'lib ko'ra oladi, – deb tortishishibdi.

– Erning ipirisqi illati, biy ko'zlarining bilan quyoshni sen ko'rasanmi, – gerdayib debdi Bug'u. – Albatta uni birinchi bo'lib men ko'raman.

– O'zingning uzun oyoqlaring va katta ko'zlarining bilan chiranma, – javob beribdi Sichqon. Shunday bo'lishi mumkinki, quyoshni sendan avval men ko'raman.

Shartlashib ikkovi quyoshni chiqishini kutishibdi. Ko'zlarini katta ochib Bug'u osmonning sharq tarafiga tikilibdi. Sichqon esa g'arb tomonga qararmish. «E, ovsar banda, quyoshning qaysi tarafdan chiqishini ham bilmaydiku, – masharaomuz o'zicha o'ylabdi Bug'u Sichqonga nazar tashlarkan, – yana shart o'ynaganiga o'laymi».

Bir soat o'tibdi. Ikki soat o'tibdi.

Birdan Sichqon xursand bo'lib qattiq chiyillay boshlabdi. – Ana quyosh, ana u! Men birinchi ko'rdim. Men ko'rdim!

Bug'u esa hech qanday quyoshni qurmasmish. Shuning uchun Sichqonga ishonmabdi. Ammo Sichqon qarab turgan tomonga o'girilib qarasa, quyosh nurlari daraxtlarning uchida jilolanarmish, barglarda tovlanayotgan emish.

– Mana senga uzun oyoqlar, mana senga katta ko'zlar! – o'zida yo'q quvonarmish Sichqon, – quyoshni baribir birinchi bo'lib men ko'rdim.

Bug'uga shu qadar kichkina hayvonning uni dog'da qoldirib aldagani juda alam qilibdi. Chidamaganidan Sichqonni yanchib tashlamoqchi bo'lgan ekan, u ship etib iniga kirib ketibdi. Bug'u hozirgacha uni tutolmay yurarmish.

### ***Qarg'a nega qora?***

Aytishlaricha, qachonlardir Qarg'a oppoq bo'lgan ekan.

Kuzda u hamma qushlardan keyin uchib, ammo Janubga hammadan erta etib borar ekan. Bahorda ham hammadan keyin yo'lga tushishiga qaramay shimolda

qorlar erib tugamasdan oldin yetib kelar ekan. Ustiga ustak, tabiatan maqtanchoq bo'lganligi sababli Qarg'a boshqa qushlardan o'zib ketayotib ularni mashara qilar ekan.

– Ex sizlardan o'rgildim, qachonlar yo'lga tushgan bo'lsangiz ham hali hech qancha yo'l bosmabsizlar! Juda ham landovur ekansizlar! Meni ochofat deysizlar. Ammo o'zlaringiz qayerda to'xtasanglar ham boshqalarga qolib ketmasin deb, rosa ovqatlanar ekansizlar...

Shunday qilib, u birinchi uchib kelar ekan-da, tilog'ich deb ataladigan daraxtning yo'g'on shoxiga qo'nib olib endigina uchib kelayotgan qushlarga ta'na qilarkan:

– Salom berdik! Salom berdik, mening qanotli qabiladoshlarim. Faqat bitta narsaga tushuna olmayapman. Sizlar uchib keldinglarmi yoki shoshilmay piyoda keldinglarmi? Juda xayollab qoldinglarda. Qish bo'yи ikki oyoqli do'stimiz tayyorlab qo'yan ziyofatni yakka o'zim yeb qo'ydim. Sizlarga hech vaqo qolmadi. Hammangizdan erta kelganim uchun meni katta xurmat va ehtirom bilan kutib olishdi. Ko'p noz-ne'matlar bilan siylashdi. O'zlaringga bir qarang, qanchalar chakak-chakak bo'lib ozib-to'zib ketgansizlar. Men bo'lsam, to'yib ovqat edim, mazza qilib yayrashga ham ulgurdim.

Albatta bunday so'zlar qushlarning izzat-nafsiiga tegar ekan. Ular Qarg'aning manzildan kech qo'zg'alib bu erlarga erta kelish sirini bilishga juda oshiqar ekanlar. Hatto bu sirni aytса, Qarg'aga juda katta mukofot ham beradigan bo'lishdi. Biroq Qarg'a bu sirni hech kimga aytmas ekan.

Kallamni uzib tashlasalaring ham aytmayman, – debdi Qarg'a patlari bilan bo'ynini ko'rsatib. Qushlar biroz maslaxatlashibdilar-da, Qarg'ani gulxanga tashlab yuboribdilar. Alanga uning qanotlarini kuydiribdi. Bir pasda Qarg'aning oppoq patlari qop-qora bo'lib qolibdi.

Qushlar yana Qarg'ani qiynashibdi. Ammo Qarg'a mum tishlaganday jim turaveribdi. Xullas, qushlar Qarg'aning sirini bilishholmabdi.

O'sha paytdan buyon Qarg'a avval qanday bo'lsa shunday yashayveribdi: kuzda hammadan keyin janubga uchib ketadi, bahorda esa hammadan oldin

manzilga etib keladi. Boshqa qushlarning oldida kekkayishi ham yo'qolmabdi.

Faqat Qarg'aning oppoq patlari tim qora tusga kiribdi, xolos.

### ***Och qarg'a***

Kattakon bir qarg'a bor ekan, u uchib borib, daryo labiga qo'nibdi, qarasa barra qo'zichoq o'tlab yurgan emish.

«Qo'zichoq, qo'zichoq. Men seni yeysan!» – debdi qarg'a.

– Voy, – debdi qo'zichoq, – meni yeysan-u, lekin tumshug'ing harom-da. Bor, suvga chayqab kel!

– Xo'p, – debdi qarg'a.

U daryoga qarab:

– Daryo, daryo. Suv ber – tumshug'imni chayqayman, keyin barra qo'zichoqni mazza qilib yeysan! – debdi.

Daryo suvni pastga tortib olibdi:

– Mendan odamlar suv ichadi, sening tumshug'ing bo'lsa harom. Bor, kuloldan ko'za keltir – suv beraman. Tumshug'ingni yuvib, barra qo'zichoqni mazza qilib yeysan, – debdi.

Qarg'a kulol oldiga boribdi-da:

– Kulol amaki, kulol amaki, bering ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yey, – debdi.

Kulol javob beribdi:

– Tuprog'im ado bo'lган. Tuproqko'rg'ondan tuproq keltir. Yaxshi ko'za yasab beraman.

Qarg'a qo'rg'onga boribdi.

– Tuproqko'rg'on, tuproqko'rg'on, bering tuproq, kulol qilsin ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yey, – debdi.

Tuproqqurg'on debdi:

– Men juda qattiqman. Anavi Olatog'ning boshida bir kiyik bor. O'sha kiyik shoxidan senga bersin, sen shox bilan meni qazib olasan.

Qarg'a uchib borib, Olatog' boshiga qo'nipti. Qarasa, kiyik yurgan emish.

– Kiyikjon, kiyikjon, bering shox, qaziy tuproq, kulol qilsin ko'za, olay suv,

chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yey, – debdi.

Kiyik javob beribdi:

– Berardim-u, lekin shoxim boshimga qattiq o'rnashgan, jonio og'riydi. Po'latvoy akaning bir tozisi bor, shu tozisini senga bersin. Tozi kelib meni quvsin. Men qochib borib, daraxtga shoximni urib sindirib beray, sen shoxni olib tuproq qazigin.

Qarg'a uchib, Po'latvoy akaning oldiga boribdi.

– Po'latvoy aka, Po'latvoy aka! Bering tozi, quvsin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq. Kulol qilsin ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yey, – debdi.

Po'lat aka javob beribdi:

– Tozimni qorni och, kuchdan qolib yotibdi. Tosh akaning sigiri bor. Tosh akaga ayt, sigirining sutidan bersin, toziga ichiraylik, ovqatlanib olib, kiyikni quvsin.

Qarg'a Tosh akaning uyiga boribdi.

– Tosh aka, Tosh aka! Bering sut, ichsin tozi, kuvasin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, kulol qilsin ko'za. Olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yey, – debdi.

Tosh aka aytibdi:

– Sigirimning qorni och, daladan bir ko'tarim qiyoy olib kelib ber. Sigirim yeb, sut bersin.

– Xo'p, – debdi qarg'a.

Qarg'a qiyozor ko'lga uchib boribdi.

– Qiyoqzor, qiyoqzor. Bergin qiyoy, esin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvasin kiyik – tashlasin shox. Qazib tuproq, kulol qilsin ko'za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo'zini mazza qilib yye, – debdi.

Qiyoy aytibdi:

– Yulib olar bo'lsang qo'lingni qiyib ketaman. Shahar chekkasida usta bor. Ayt, yaxshi o'roq qilib bersin.

Qarg'a halloslab ustanning oldiga boribdi.

– Usta amaki, usta amaki. Bering o’roq, o’ray qiyoy, esin sigir, bersin sut. Ichsin tozi, quvlasin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq, kulol qilsin ko’za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra qo’zini mazza qilib yey, – debdi.

Usta aytibdi:

– Ko’mirim ado bo’lgan. Anavi tog’ning yon bag’rida ko’mirchilar ishlayapti. Ko’mirni olib kel, o’roq yasab beraman.

Qarg’a ko’mirchilar oldiga uchib boribdi.

– Ko’mirchi amaki, ko’mirchi amaki! Bering ko’mir, usta yasasin o’roq, o’ray qiyoy, esin sigir, bersin sut, ichsin tozi, quvlasin kiyik, tashlasin shox, qaziy tuproq. Kulol qilsin ko’za, olay suv, chayqay tumshuq, keyin barra ko’zini mazza qilib yey, – debdi.

Ko’mirchi qarg’aning oldiga bir bo’lak katta ko’mirni irg’itib yuboribdi. Qarg’a ko’mirni ola solib ustaga eltibdi.

Usta qarg’aga pashshaning qanotidek yupqa qilib olmosdan o’roq yasab beribdi. Usta o’roqni qarg’aning qanotiga ilib quyibdi. Qarg’a talpinib uchgan ekan, o’roq o’ng qanotini shartta qirqib ketibdi. Shundan keyin qarg’a o’roqni chap qanotiga ilib olibdi. Bir qanotlab uchib ketayotib, silkingan ekan, o’roq chap qanotini ham shartta qirqib ketibdi. Qarg’a o’roqni bo’yniga osib olibdi. U shosha-pisha hakkalab qiyozkor ko’lga qarab intilgan ekan – o’roq uning bo’ynini ham shartta uzib yuboribdi. Qarg’a yo’lda o’lib qolibdi. Buni ko’rgan qo’zichoq tumshug’ini ko’tarib, miyig’ida kulib quyibdi.

### ***Arslon bilan it***

Londondagi hayvonot bog’ida yovvoyi hayvonlarni ko’rish haqi uchun tomoshabinlardan pul yo bo’lmasa yovvoyi hayvonlarga ovqatlik uchun it va mushuklar olar edilar.

Bir kishi yovvoyi hayvonlarni ko’rgisi kelib, ko’chadan bir itni tutib oldi-da, uni hayvonot bog’iga olib keldi. U kishini tomosha qilgani boqqa kirgizib yubordilar, itni esa arslonning oldiga yegani tashladilar.

It dumini qisib katakning bir burchagiga tiqilib oldi. Arslon bo’lsa, it oldiga kelib, hidlab ko’rdi.

It osmonga qarab yotib oldi-da, panjalarini yuqori ko'tarib, dumini likillata boshladi.

Arslon panjasasi bilan turtib, itni ag'darib yubordi.

It sakrab o'rnidan turdi-da, arslonga qarab orqa panjasiga tayanib o'tirib oldi.

Arslon itga qarab kallasini u yoqdan bu yoqqa chayqar, lekin itga tegmas edi.

Xo'jayin arslonga bir parcha go'sht tashladi, u go'shtdan bir parchasini uzib yeb, qolganini itga ilindi.

Kechqurun arslon uxlaganda, it unga yaqin kelib, kallasini arslonning panjasiga quyib yotdi.

Shundan boshlab it bilan arslon bir katakda turisha boshladi. Arslon itga sira tegmas, it bilan birga ovqatlanar, birga uxlardan va ba'zi vaqlarda u bilan o'ynashar ham edi.

Bir kun itning egasi hayvonot bog'iga kelib, itini tanib qoldi. U itning egasi ekanligini aytdi va hayvonot bog'ining xo'jayinidan o'z itini qaytarib berishni so'radi. Xo'jayin itni qaytarib bermoqchi bo'lib, uychaning eshigini ochib, itni chaqirdi. Shu vaqt arslon qattiq o'kirib yubordi va itni chiqarmadi.

Shunday qilib, arslon bilan it bir yil qafasda yashashdi. Bir yildan so'ng it kasal bo'lib, o'lib qoldi. It o'lgandan keyin arslon ovqat ham emay quydi. U itni hidlar va panjalari bilan silar edi.

Arslon itning o'lganligini tushunganidan so'ng, o'rnidan sakrab turdi, dumni bilan o'zining ikki yoniga urib, devorlarga tashlandi va panjaralarini ham, pollarni ham kemira boshladi. U kun bo'yli qafas panjaralariga o'zini urib yig'ladi, so'ngra o'lgan itning oldiga yotib jim bo'lib qoldi. Xo'jayin itning o'ligini olib tashlamoqchi bo'ldi. Lekin arslon hech kimni yaqiniga yo'latmas edi.

Xo'jayin, arslonning oldiga boshqa bir it quyilsa, u o'z qayg'usini esdan chiqarar deb o'yladi-da, tirik bir itni qafasga quyib yubordi. Arslon bu itni shu ondayoq mayda-mayda qilib tashladi. So'ngra u o'lgan itni o'z panjalari orasiga olib besh kun yotdi.

Oltinchi kun esa o'zi ham o'lib qoldi.

***Tomchi haqida ertak***

Qishloq chekkasida, baland tepalik ustida bir tup O'rik o'sar ekan. U har yili odamlarga ko'p-ko'p meva berarkan. Ammo atrofida daraxtlar bo'limgani uchun juda zerikarkan. Bir kun ertalab O'rik uyg'onsa, yaprog'ida bir narsa yaraq-yaraq qilib turganmish.

– Sen qanaqa qushsan? – debdi O'rik hayron bo'lib.  
– Men qush emasman. Men – Tomchiman, – debdi boyagi yaraqlab turgan narsa.

– Kel, o'rtoq bo'lamic, – debdi O'rik.  
– Bo'pti.  
– Ammo ketib qolmaysan, – debdi O'rik. – Bo'lmasa qushlardan ham o'rtog'im ko'p-u, hammasi kuz kelishi bilan qochib ketishadi.  
– Mayli, – debdi Tomchi. – Men eng qiyin paytda sening yoningda bo'laman. O'rik juda suyunib ketibdi. Ikki o'rtoq kun bo'yi mazza qilib o'ynashibdi. Lekin O'rikning quvonchi uzoqqa bormabdi. Ertasiga uyg'onsa, Tomchi yo'q emish.

«Tomchi meni aldabdi», – deb o'ylabdi O'rik xafa bo'lib. Endi shundoq deb turgan ekan, birov uni chaqiribdi.

– O'rikjon! Hoy, O'rikjon!  
O'rik quloq solsa, tovush osmondan kelayotganmish. Osmonga qarasa, do'mboqqina, oppoq bulut suzib ketayotganmish.  
– Meni kim chaqirayapti? – debdi O'rik shoxlarini silkitib.  
– Men, sening do'stingman! – debdi bulut borgan sayin pastlab. – Men – Tomchiman.

O'rik hayron bo'libdi.  
– Qandoq qilib osmonga chiqib olding?  
– Meni oftob bobo bulutga chiqarib quydi.  
– Meniyam opket, – debdi O'rik havasi kelib.  
– Yo'q, sen odamlarga meva berishing kerak. Qo'rqma, men ham yaqinda qaytib kelaman.

Tomchi shunday debdi-da, bulutga minib, olis-olislarga ketib qolibdi. O'rik

yana zerika boshlabdi. «O’rtog’im endi kelmaydi, deb o’ylabdi xafa bo’lib. – Osmonga chiqib, meni unutib yubordi».

Kunlar borgan sayin isib, O’rikning rosayam suv ichkisi kelibdi. Chanqaganidan yaproqlari shalpayib qolibdi. Suv ichay desa, yaqin orada bittayam ariq yo’q emish. Oxiri u shundoq chanqabdiki, hushidan ketib qolibdi.

Bir mahal birov uning yaproqlarini silagandek bo’libdi. O’rik ko’zini ochib qarasa, yaproq ustida Tomchi turgan emish.

– Men senga yordam bergani keldim, – debdi Tomchi.

U shunaqa ko’p o’rtoqlarini boshlab kelgan ekanki, O’rikning chanqog’i birpasda bosilib, yayrab-yashnab ketibdi. Ikkala do’st rosa o’ynabdilar.

Kundan-kun, oydan-oy o’tib, kuz kelibdi. O’rikning yaproqlari to’kilib, yalang’och bo’lib qolibdi. Bu ham kamlik qilgandek, birdan izg’irin shamol esibdi. O’rikning a’zoyi badani muzlay boshlabdi.

– Tomchi bo’lganida yordam berardi, – deb o’ylabdi O’rik afsuslanib. Shundoq dyeyishi bilan osmonda bir vaqtlar Tomchini ko’tarib yurgandaka bulutlar paydo bo’libdi. Bulutlar quyuqlashaveribdi, kuyuqlashaveribdi, oxiri qor yog’ib yuboribdi. Qor uning shoxlarini ko’rpadek o’rab olibdi.

– Qalay, isib qoldingmi, O’rikjon?

O’rik Tomchining tovushini darov tanibdi. Ammo o’zini ko’rmabdi.

– Qayerdasan, Tomchi? – debdi shoxlarini silkitib.

– Qorning ichidaman, – debdi Tomchi kulib, – qarasam, sovqotib qolbsan. Qorni boshlab keldim.

– Endi ketib qolmayasn-a? – debdi O’rik yalinib.

– Yo’q, bahorgacha sening yoningda qolaman.

O’shandan beri O’rik odamlarga ko’p mevalar beribdi. Tomchi ko’p yerkarni kezibdi. Ammo u qayerda bo’lmasisin, qiyin va zarur paytda do’sti – O’rikning yoniga kelarkan.

**“O’tkir tishli kuchukcha” (qo’g’irchoq teatri uchun pyesa)**

N. Qobulov.

**Hovli. Tong. Qushlarning sayrashi eshitiladi.**

**Kuchukcha** - (inidan chiqadi) Voy-bo'! Kun yorishibdi. Quyosh uyg'onibdi. Qushlar sayrayapti. Maysalar shivirlayapti. Qanday yaxshi. Ajoyib! Bir-rr! Salqin ekan. Sovqotdim... Ozgina yugurib olsam isib ketaman (yugura boshlaydi). Nega hovli jim-jit. Nega hech kim yo'q? Uxlashayaptimi? Shunday paytda-ya? Uxlamay to'yib-to'yib nafas olish kerak. (Baqirib) Hoy turinglar! Inlaringdan chiqinglar. Hovlini to'ldirib, birgalashib o'ynaymiz. Ko'zlariningni ochinglar. Inlaringdan chiqinglar o'ynaymiz!

**G'oz** - (inidan bosh chiqarib) Kim u, tong sahardan shovqin-suron ko'tarayotgan? O'rdak - Nega baqirayapsan, zumrasha? Kuchukcha- Turinglar? Quyoshga qaranglar. Maysalarni ko'ringlar. Qanday yaxshi kun boshlandi... Chiqinglar hovlida, o'ynaymiz!(Hovlida shovqin boshlanadi)

**G'oz** - Ovozingni o'chir! Boshqa akillama!

**O'rdak** – O'yinqaroq bezori. Tong otdi deb, hammani bezovta qilish shartmidi? Xo'roz – Tag'in uxbab qolibman-a!

**Tovuq** – (jo'jalarga) Jim bo'linglar bolalar. Shovqin ko'tarmanglar. Tarbiya ko'rmagan bolalargina, ertalab sho'vqin solib, hovlini boshiga ko'taradi. Sizlar tarbiya ko'rgansizlar. Shovqin ko'tarmanglar.

**Xo'roz** – (tovuqqa) Nega meni uyg'otmading. Tong paytida yana uxbab qolibman-ku!

**Tovuq** – (jo'jalarga) Jim bo'linglar, bolalar. Jim deyapman!

**Xo'roz** – Ming marta tayinlayman senga, ertalab meni uyg'ot, deb. Qulog'ingda gap turadimi, yo'qmi? Sharmanda qilayapsan-ku meni.

**Kuchukcha**- Nega inlaringdan chiqmayapsizlar? Tong otganiga ancha bo'lidi.

**G'oz** - (kuchukchaga) Jim bo'l. Yana shovqin ko'tarsang ta'ziringni berib qo'yaman, bezori.

**O'rdak** - Tarbiyasiz!

**Kuchukcha**- Men hech kimni xafa qilmoqchi emasman, sizlar bilan o'ynamoqchiman.

**Xo'roz** - (qichqiradi) Qu-qu-ri-ku! Tong otdi! Qu-qu-ri-qu!

**G'oz** - (xo'rozga) endimi. Tush paytida qichqirsang ham bo'lardi.

**O'rdak** – Xo'rozni hovlidan haydash kerak. Vazifasini unutib qo'yibdi.

**Xo'roz** – Sening ishing bo'lmasin yassi panja. Qu-qu-ri-qu!

**G'oz** - Hammalaring ovozlaringni o'chiringlar! Jim bo'linglar.

**Kuchukcha-** Xohlamasangiz o'zingiz bilasiz. O'zim bilan o'zim o'ynayman... Yo'q bunaqa o'yinning qizig'i yo'q. Hamrohing bo'lmasa, o'ynaganday bo'lmas ekansan. Endi nima qilsam ekan-a? Ana kapalaklar. Hoy kapalaklar, men sizlar bilan o'ynayman.

**1-kapalak** – Dugonajan, ehtiyot bo'l! Tishi o'tkir kelayapti.

**2-kapalak** – Qoch, dugonajon, panjasiga tushsang ezib tashlaydi.

**Kuchukcha-** To'xtanglar. Men sizlar bilan o'ynamoqchiman.

**1-kapalak-** Sen bilan o'ynamaymiz, tishlaring o'tkir. Qopog'onsan.

**2-kapalak-** Sen xavflisan. Qochamiz dugonajon.

**1-kapalak-** Qochamiz.(Ketishadi.)

**Kuchukcha-** O'ynamasanglar, o'ynamanglar, sizlarga zor emasman. Ana qushchalar, yer titkilashib yurishibdi. Ular bilan o'ynayman.

**1-qush** - Voydod! Yordam beringlar!

**2-qush** - Bizlarni qopib olmoqchi. Yordam beringlar!

**Kuchukcha-** Qopmoqchi emasman, o'ynamoqchiman.

**1-qush** - Sen bilan o'ynamaymiz.

**2-qush** - O'ynamaymiz.

**1-qush** - Ket! Halaqit berma.

**2-qush** - Ket, sen qopog'onsan. (uchib ketishadi)

**Kuchukcha-** Nega hech kim men bilan o'ynashni xohlamayapti? Qopog'onsan deyishadi, hecham qopog'on emasman. Quyosh uyg'ondi. Maysalar shivirlayapti. Havo yaxshi, meni kim bilandir o'ynagim kelayapti. Judayam-judayam o'ynagim kelayapti. Ana kimdir oftobda toblanib yotibdi. Hozir boramanda uyg'otaman, keyin ikkovimiz umbaloq oshib o'ynaymiz. (Kuchukcha mushukni yoniga kelib, uning atrofida sakray boshlaydi).

**Mushuk-** Qorning og'riyaptimi?

**Kuchukcha-** Yo'q.

**Mushuk** – Nega atrofimda hansirab sakrayapsan?

**Kuchukcha**- Seni uyg'otmoqchiman.

**Mushuk**- Nimaga?

**Kuchukcha**- Birga o'ynaymiz.

**Mushuk**- Meni taniysanmi?

**Kuchukcha**- Yo'q.

**Mushuk**- (o'rnidan turib vahima bilan) Mi-ya-v! P-x-x-x!

**Kuchukcha**- Voy!

**Mushuk**- endi tanidingmi? Hech zamonda, mushuk bilan itni o'ynaganini ko'rganmisan?

**Kuchukcha**- Yo'q.

**Mushuk**- Bundan keyin ham ko'rmaysan, bor ishingni qil.

**Kuchukcha**- Meni judayam o'ynagim kelayapti.

**Mushuk**- Meni uyqum kelayapti.(yastanib yotib oladi).

**Kuchukcha**- Sut ichishni hohlamaysizmi?

**Mushuk**- Sut?!

**Kuchukcha**- Keyin ikkovimiz o'ynaymiz. Men hozir. (idishda sut olib keladi) Marhamat iching.

**Mushuk**- Itning tarbiyasi-da, kuchukchani halitdan qing'ir ishlarga o'rgatadi. Ahmoq! It tekkan narsani mushuk yalamaydi.

**Kuchukcha**- Men it emasman.

**Mushuk**- Qiziq, bo'lmasa kimsan?

**Kuchukcha**- Men hali kuchukchaman.

**Mushuk**- Bari-bir. Bir kun itga aylanasan. Sizlarni bilamiz yoshliklaringda muloyim bo'lasizlarda, katta bo'lib tishlaring chiqqach qopasizlar.

**Kuchukcha**- Qopmayman! Men hech qachon hech kimni qopmayman.

**Mushuk**- Qopasan, qopasan. Menga suting kerakmas, olib ketaver.

**Kuchukcha**- Nega kerakmas deysiz? Sut mazali bo'ladi-ku?

**Mushuk**- Sut yaxshiku-ya! Ammo vaqtি kelib, men mushukni sut berib boqqanman, katta qilganman, deb maqtanishing yomon.

**Kuchukcha-** Hecham maqtanmayman.

**Mushuk-** Maqtanasan! Siz itlarni bilamiz, juda yaxshi bilamiz, dumingiz likkillashi bilan va'dangizni unutasiz. Dumingizni tinimsiz likkillashini hisobga olsak, va'dangiz hech qachon esingizda turmaydi, degan hulosa chiqadi.

**Kuchukcha-** Mayli men ketdim. (keta boshlaydi).

**Mushuk-** Qayoqqa?

**Kuchukcha-** Sutni to'kib tashlayman.

**Mushuk-** To'xta! Oqlikni to'ksang kasofati uradi. Sutni yerga qo'y. O'zing teskari qarab tur!(Kuchukcha teskari qaraydi. Mushuk sutni icha boshlaydi). Nega irillamayapsan?

**Kuchukcha-** Chunki irillagim kelmayapti.

**Mushuk-**Irillaging kelmasa ham irilla.

**Kuchukcha-** Nega?

**Mushuk-** Shunday qilish kerak!

**Kuchukcha-** Nimaga?

**Mushuk-** Nimaga-nimaga. Chunki sen itsan men mushukman. It bilan mushuk doim bir-birga irillashadi, tushundingmi?

**Kuchukcha-** Irillamayman!

**Mushuk-** Bo'lmasa hur.

**Kuchukcha-** Hurgim kelmayapti.

**Mushuk-** Irillaysan yoki hurasan! Bo'lmasa sutingni ichmayman. Ko'rganlar nima deb o'ylashadi, mushuk itga yalinibdi deyishmaydimi?! Bunday gap so'zlarga yo'l qo'ymayman. Men mushukman, mushuklar mag'rur bo'lishadi! Hurib tursang boshqa gap. Ko'rganlar mushuk, itni sutini tortib olibdi deyishadi. Bu gapga chidash mumkin, tushundingmi?

**Kuchukcha-** Tushundim.

**Mushuk-** Tushungan bo'lsang boshla. Faqat balandroq ovozda irilla, hamma eshitsin. (Kuchukcha irillarydi, mushuk sutni shoshmay ichadi). Yog'li sut ekan.Mazza qildim.Irillashni bas qil! endi bor ovozda hurib menga tashlan.

**Kuchukcha-** Nimaga?

**Mushuk-** Men qochaman, sen quvasan.

**Kuchukcha-** Demak, ikkalamiz o'ynaymiz... Qanday yaxshi!

**Mushuk-** Sen uchun o'yin, boshqalar uchun obro'.

**Kuchukcha-** Sen juda yaxshi mushuk ekansan.

**Mushuk-** Yana dumingni likillatyapsanmi?

**Kuchukcha -** Yo'q dumim likillamayapti.

**Mushuk** - Vaqtimni olma hursang-hura qol. Men qochaman. Faqat ehtiyot bo'l, qopib olma.(Mushuk qochadi, kuchuk quvlaydi).

**Tovuq** - Bolalar ehtiyot bo'linglar, meni orqamga berkingilarni! (Mushuk bilan kuchuk quvlashib o'tib ketishadi). Ko'rninglarmi bolalar birovni haqini tortib olsanglar, mushukni holiga tushasizlar. Tarbiya ko'rganlar bunday qilmaydi.

**Xo'roz** - Mushuk o'g'ri, eshitmadim demanglar, mushuk o'g'iri.

**Tovuq** - Bolalarim qulog'ingizda bo'lsin, tishi yoki tirnog'i o'tkirdan uzoqroq yuringlar.Ular xavfli.

**Xo'roz** - Mushuk bezbet, kuchukni sutini tortib oldi.

**Mushuk** -(baland yerga chiqib olib) Hoy qizil tojli tovuq, qo'limga tushsang patingni yilib olaman.

**Xo'roz** - Tovuqmasman, xo'rozman, xo'roz.

**Mushuk** - Xo'rozmassan, aslida tovuqsan. Qizil tojni qo'shni xo'rozdan qarzga olgansan. Boshqalardan yashirib ovloq yerda tuxum tug'asan.

**Xo'roz-** Yolg'on! Xo'rozman haqiqiy xo'rozman. Pastga tush xo'rozligimni isbotlayman.

**Tovuq** - (jo'jalarga) Bolalar sizlar bu gaplarni eshitmanglar. Tarbiyalaring buzilishi mumkin, qulqlaringni berkitib olinglar. (Jo'jalar qulqlarini berkitiboladi).

**Kuchukcha** -(Mushukga) Nega baland joyga chiqib oldingiz?

**Mushuk** - Mushuklar baland joyda turib itvachchalar bilan gaplashadi.

**Kuchukcha-** endi men bilan o'ynamaysizmi?

**Mushuk** - Nima? Mana bu surbetni ko'ringlar. Ta'zirini berib qo'ydim, meni quvlab tutolmadi, alamidan o'ynamyzmi deb tilyog'lamalik qilayapti.

**Kuchukcha-** Ikkovimiz kelishgan edik-ku?!

**Mushuk** - Nima? Sen bilan-a? Yolg'onchi, maqtonchoq! Tuhmat qilayapsan! Itvachchalar bilan, g'ururi bor mushuk hech qachon kelishmaydi. Bor ishingni qil.

**Xo'roz** - Sening o'zing tuhmatchisan. Orsiz kaltafahmsan. Xoroz bilan tovuqni farqiga bormaysan.

**Kuchukcha** - Xo'roz amaki!

**Xo'roz** - A? Nima deding?

**Kuchukcha** - Xo'roz amaki dedim.

**Xo'roz** - Yana bir marta qaytar, anavi ham eshitsin, baland ovozda qaytar.

**Kuchukcha** - Xo'roz amaki!

**Xo'roz** - (Mushukka) eshitdingmi, boshqalar meni xo'rozligimni tan olishyapti.

**Mushuk** - Ular hali go'dak, xo'roz bilan tovuqning farqiga borishmaydi.

**Xo'roz**- Borishadi.

**Mushuk** - Balkim tuxim tug'ishni nimaliginiyam bilishadi dersan?

**Xo'roz** - Bilishadi! Sen yolg'onchisan, tovlamachisan!

**Kuchukcha** - Jahlingiz chiqmasin siz xo'rozsiz, haqiqiy xo'rozsiz.

**Xo'roz**- Juda to'g'ri, men xo'rozman, asil xo'rozman.

**Kuchukcha** - Men sizning asil xo'roz ekanligingizga ishonaman.

**Xo'roz** - Sen tarbiya ko'rghan, dono kuchukvachcha ekansan.

**Kuchukcha**- Rahmat... Xo'roz amaki bolalaringiz bilan ozgina o'ynasam maylimi?

**Xo'roz** - Jo'jalar bilan o'ynamoqchimisan? Sen-a? Bolalar qochinglar tishi o'tkir borayapti.

**Tovuq** - Jo'jalarim qanotim tagiga kiringlar.

**Kuchukcha**- Men bolalaringizni tishlamoqchi emasman, o'ynamoqchiman.

**Tovuq** - Yaqinlashma!

**Kuchukcha**- Nega?

**Xo'roz** - Senga ishonib bo'lmaydi, tish-tirnog'ing o'tkir, xavflisan.

**Kuchukcha** - Hech kimni men bilan o'ynagisi kelmayapti. Agar tishlarim o'tmas

bo'lganida hamma bilan o'ynardim. Tishsiz bo'lismash qanday yaxshi. Hoy kapalaklar to'xtanglar, qochib ketmanglar. Agar o'tkir tishlarim bo'lmasa men bilan o'ynarmidinglar?

**1-kapalak** - Tishlaring bo'lmasa?

**Kuchukcha** - Ha.

**1-kapalak** - O'tkir tishlaring bo'lmasa sen bilan o'ynasa bo'ladi.

**2-kapalak** - To'g'ri o'tkir tishlaring bo'lmasa xavflimassan, hatto yoqimtoysan.

**Kuchukcha** - Bo'lmasa tishlarimni sug'irib tashlaymiz.

**1-kapalak** - Qanday qilib sug'iramiz?

**Kuchukcha** - Bilmaymanda... Sizlar menga o'rgatinglar o'shanda men ham sizlardek tishsiz bo'laman.

**2-kapalak** - Tishni qanday sug'irish kerakligini bizlar bilmaymiz.

**Kuchukcha** - Tishing o'tkir deyishni bilasizlar, qanday sug'irish kerakligini bilmaysizmi?

**1-kapalak** - Sen hafa bo'lma. Ana qushlar uchib-qo'nib yuribdi balkim ular bilishar.

**Kuchukcha** - Hoy qushlar.

**1-qush** - Yana nega kelding.

**2-qush** - O'ynamaymiz dedik-ku senga.

**Kuchukcha** - Agar o'tkir tishlarim bo'lmasa o'ynarmidinglar.

**1-qush** - Tishlaring bo'lmasa?

**2-qush** - Tishlaringni oldirmoqchimisan?

**Kuchukcha** - Ha.

**1-qush** - To'g'ri qilasan, oldirib tashla.

**2-qush** - Tishlaringni oldirsang hech kimni qopolmaysan.

**1-qush** - O'shanda sen bilan mazza qilib o'ynaymiz.

**Kuchukcha** - Faqat qanday qilib olishni bilmayapman.

**2-qush** - Panjalaring bilan tortib ko'rchi balkim olinar.

**Kuchukcha** - Hozir tortaman... (tortib ko'radi) Olinmayapti...

**Xo'roz** - Nima qilayapsizlar?

**1-qush** - Kuchukvoy o'tkir tishlarini sug'irib tashlamoqchi bo'layapti.

**Xo'roz** - Nima bilan?

**2-qush** - Panjalari bilan.

**Xo'roz** - Tishni panja bilan sug'irmaydi.

**1-qush** - Nima bilan sug'iradi?

**Xo'roz** - Ip topib kelinglar. (Qushlar ip olib kelishadi) Ipni bir uchini tishingga bog'la ikkinchi uchidan biz tortamiz. Boshladik, tortinglar! (torta boshlashadi) Sug'ruldimi?

**Kuchukcha** - Yo'q.

**Xo'roz** - Tishing nima qilayapti?

**Kuchukcha** - Og'riyapti.

**Xo'roz** - Og'risa sug'iriladi. Yana tortamiz, boshladik.(tortishadi)

**Mushuk** - Nima qilayapsizlar?

**1-qush** - Kuchukni tishini sug'urayapmiz.

**Mushuk** - Nega?

**2-qush** - Tishi bo'lmasa qopolmaydi.

**Mushuk** - To'g'ri qilasizlar. Itlarni tishini sug'irib tashlash kerak. Men sizlarga yordamlashaman. (birgalashib tortishadi)

**Xo'roz** - Ho'sh, nima bo'ldi?

**Kuchukcha**- Sug'rulmayapti.

**Mushuk** - O'zi shunaqa, kerakmas narsa mustahkam bo'ladi.

**Kuchukcha** - Yana bir marta tortib ko'ringlar, endi sug'riladi.

**1-qush** - Foydasi yo'q.

**2-qush** - To'g'ri, endi sug'irilmaydi.

**Mushuk**- Men tish sug'irishni boshqa yo'lini bilaman.

**Xo'roz**- Maqtanchoq. Bilganingda allaqachon sug'irib olgan bo'larding.

**1-qush**- Bilsang ayt.

**2-qush** - Ayta qol.

**Mushuk**-Kuchukchani o'ziga aytaman. Boshqalar nariroq borib turishsin.

(boshqalar uzoqqa borib turishadi) Beriroq kel. Tishlaringni sug'irishni xohlayapsanmi?

**Kuchukcha** - Ha.

**Mushuk** – Judayammi?

**Kuchukcha** – Judayam.

**Mushuk** – Tushunarli. Tishni sug'irib tashlash uchun, (shivirlab) sutingdan qolganmi?

**Kuchukcha**- Yo'q.

**Mushuk**- Tushunarli. Tishni sug'irish uchun, (shivirlab) suyakchi, balkim suyak bordir?

**Kuchukcha**- Bor.

**Mushuk**- Olib kel, keyin aytaman. (Kuchukcha ketadi)

**Xo'roz** – Nima qilmoqchisan?

**Mushuk** - Hozir ko'rasan.

**Kuchukcha** - Mana oling. Men tegmaganman, bemalol yalayvering.

**Mushuk** - Zo'r suyak ekan. (ketmoqchi)

**Kuchukcha** - Qayoqqa? Aytmaysizmi?

**Mushuk** - Suyakni g'ajib, o'ylab, yo'lini topib, keyin aytaman.

**Xo'roz** – Mushuk bezbet, kuchukchani yana aldadi.

**Mushuk** - Qichqirma tovuq. (ketadi)

**Xo'roz** – O'zing tovuq, men xo'rozman. Sen o'g'risan, bezbetsan.

**Tovuq** – Nima gap, nima shovqin?

**1-qush** - Mushuk kuchukchani yana aldab ketdi.

**2-qush** - Kuchukcha o'tkir tishini sug'irmoqchi.

**1-qush** - Panja bilan tortdi sug'urilmadi.

**2-qush** - Ip bilan tortdi sug'urilmadi.

**Tovuq** – Tarbiya ko'rmagan bolalar ip bilan tish sug'uradi, tarbiya ko'rgan bolalar tish doktoriga murojyat qilishadi.

**1-qush** – To'g'ri, tish doktorini chaqiramiz.

**2-qush** – To'g'ri. Tish doktori? Tish doktori... Qayerdasiz? Tish doktori.

**G'oz** - Hozir, bir past sabr qilinglar. (O'rdakka) Senga necha marta aytish kerak, kresloni yorug'lik tushadigan tarafga, yani chapga qaratib qo'yish kerak, deb.

**O'rdak** – Kecha kechqurin o'ng tarafga qaratib qo'y, degandingiz.

**G'oz** - To'g'ri, kechqurin aytganman, chunki quyosh o'ng tarafga botadi. Hozir tong otayapti, quyosh chap tarafda.

**O'rdak** – Bu quyosh degani tinimsiz chapdan o'ngga yuraversa, men kresloni u erdan bu erga suraveramanmi?

**1- qush** – Doktor?

**O'rdak** – (Kuchukchaga) Sabr qiling. Bunaqa og'ir mehnat menga to'g'ri kelmaydi. Xohlasam ishdan ketishim mumkin.

**G'oz** - Nuqlul ketaman deb, qo'riqitasan. O'zimiz chuvalchangxo'rmiz-u, ta'bimiz nozik.

**O'rdak** – Chuvalchang bo'lganda jon-jon deb yegan bo'lardingiz.

**G'oz** - Madaniyatsizlik! Chuvalchangda mikrob ko'p bo'ladi, hecham yemayman.

**Kuchukcha** - Doktor.

**G'oz** - Nima deysan?

**Kuchukcha** - Iltimos meni tishimni olib tashlang.

**G'oz** - Yaxshi, navbatga tur.

**Kuchukcha** - Mendan boshqa hech kim tishini oldirmoqchi emas.

**G'oz** - O'tir. (O'rdakka) Qo'l-oyog'ini bog'la. Og'zingni och. Tishlaringni qaysi biri kasallangan?

**Kuchukcha** - Tishlarim kasal emas.

**G'oz** - Bo'lmasa nega tishlaringni oldirmoqchisan?

**Kuchukcha** - O'ynamoqchiman.

**G'oz** - Tushunmadim.

**Kuchukcha** - Tishlaring o'tkir, qopog'onsan deb, hech kim men bilan o'ynamayapti. Tishlarimni oldirib tashlasam, hamma men bilan o'ynaydi.

**G'oz** - (O'rdakga) Qo'llarini bo'shat. (Kuchukchaga) Tur o'rningdan.

## **Kuchukcha-** Nega?

**G’oz** - Og’rimagan tish olinmaydi. (Mushukni jonholatda miyovlagani eshitiladi).

**Mushuk** - Yordam bering, miyo-v.

**G’oz** - Nima gap?

**O’rdak** - Nima bo’ldi?

**Xo’roz** - Ochko’z mushuk, kuchukchadan olgan suyakni g’ajib tishini sindirib oldi...

**1- Qush** - Falokat! Falokat!

**2- qush** - Mushukga yordam bering!

**G’oz** - (O’rdakga) Tayyorlan shu erga olib kelamiz. (O’rdakdan boshqa hamma chiqib ketadi. Bir pastdan so’ng hammalari shovqin-suron bilan mushukni ko’tarib olib kirishadi.)

Mushuk- Voy tishim miyo-v! O’lib qolaman, miyo-v. Voydod, miyo-v.

**1- qush** – Tezroq! Tezroq! Bechoraga yordam bering.

**G’oz** - Vahima qilinmasin. Bekorga shovqin ko’tarmang. O’tkazinglar. (O’rdakga) Nega anqayib turibsan, qo’l-oyog’ini bog’la. Ombirni ol. (Mushukga) Og’zingni och. Tishingni sug’irib olamiz, boshqa iloji yo’q. Qani mushukvoy og’zingni och-chi! Ha, ana shunday. (tishini sug’irib oladi) Mana bo’ldi. (jimlik)

**1- qush** – Urra... endi mushuk bizlarni tishlay olmaydi. Uning o’tkir tishlari sug’irib tashlandi.

**Xo’roz** - Qu-qa-ri-qu, maqtanchoq, ochko’z mushuk tishlaridan ayrildi. Tovuqjon suyinchi ber, bolalarimiz endi xavf-xatarsiz yashaydi. Qu-qa-ri-qu...

**Tovuq** - O’tkir tishlarni kamaygani yaxshi, bexavotir yashaymiz.

**1- qush** – Ura xavf-xatarsiz yashaymiz.

**2- qush** – Ura! (Qushcha, xo’roz, tovuq, o’rdak hursandchilikdan uyinga tusha boshlashadi)

**Mushuk** - (Kuchukchaga) O’tkir tishlarsiz yashab bo’lmaydi. (yig’laydi) Miyov.

**Kuchukcha** - Og’riyaptimi?

**Mushuk** – Og’riyapti.

**Kuchukcha** - Sut ichishni xohlaysanmi?

**Mushuk** – Yo’q. Sen tishlaringni ehtiyot qil. O’tkir tishlarsiz yashash qiyin.  
(ketadi)

**Kuchukcha** - Sizlar xursandchilikdan o’ynayapsizlar, mushuk bo’lsa yig’layapti.

**Xo’roz** – Ayb o’zida birovni haqqini emasin. (Mushuk orqasidan baqiradi)  
Hoy, qo’shni mushukni tishini qarzga olib tur. Qu-ka-ri-qu. (hamma kuladi)

**Kuchukcha** - Xo’roz amaki, nega birovni baxtsizligidan kulayapsiz?

**Xo’roz** - Nega kulmas ekanman?

**Kuchukcha** - Mushuk azob chekayapti, siz bo’lsangiz kulasiz...

**Xo’roz** – U meni ustimdan kulganida, men ham azob chekkanman.

**Kuchukcha** - Uning o’tkir tishlari endi yo’q...

**Xo’roz** – Rahming keldimi? O’zingga o’xhash tishi o’tkir vahshiyni himoya qilayapsanmi? Doktor mana buning tishlari ham o’tkir, uning tishlarini ham sug’irib olish kerak.

**Tovuq** – Doktor, men jo’jalarimni ulg’ayishini xohlayman. Mana buning tishini sug’irib tashlang.

**1- qush** – To’g’ri, biz tinch yashashni xohlaymiz.

**2- qush** – Biz xavf-xatarsiz yashashni istaymiz.

**1- qush** – Doktor, kuchukchani tishini sug’irib tashlang.

**2- qush** – Olib tashlang tishini. Bizlar tishi o’tkirlar bilan yashashni xohlamaymiz.

**O’rdak** – Sug’irib tashlash kerak tishini.

**Xo’roz** - Sug’irib tashlang.

**Tovuq** - Olib tashlang.

**G’oz** - Tinchlaninglar, shovqin solmanglar.

**Xo’roz** - Doktor, kuchukchani tishlarini sug’irib tashlashingiz kerak.

**G’oz** - Yaxshi sug’irib tashlaymiz. (hamma kuchukchaga tashlanadi, uning tishlarini sug’irishmoqchi)

**1-kapalak** - Yordam beringlar, yordam.

**G'oz** - Yana nima bo'ldi?

**2-kapalak** - Jo'jalardan biri ariqqa tushib ketdi, suvda oqib ketayapti, qutqaringlar.

**1-kapalak-** Jo'jani qutqaringlar!

**Tovuq** – Jo'jam! (hamma ariq tomon otiladi) Jo'jamni qutqaringlar. (Xo'rozga) Nega turibsan qutqar bolajonimni.

**Xo'roz** – Men suvda suzolmayman. (O'rdakka) Qutqaringlar. (G'ozga) Yordam beringlar.

**O'rdak** - Yordam berolmayman.

**G'oz** - Ariqni suvi tez oqar ekan, bizlarni ham oqizib ketadi. (hamma qutqarishga harakat qiladi) eh, o'tkir tishlarim bo'lganida birpastda suvdan olib chiqqan bo'lardim.

**Kuchukcha** - (baqirib) Qo'llarimni echinglar, bo'shatinglar qo'limni. (qushlar uning qo'llarini bo'shatishadi kuchukcha o'zini suvga otadi).

**Tovuq** - Tezroq! Bolajonim oqib ketadi.

**Xo'roz** – Bizlar tomon suz yordamlashamiz. (Jo'jani suvdan olib chiqishadi. Jimlik)

**Tovuq** – Tirik! Tirik jo'jam. Bolajonim biror ering lat yemadimi?

**O'rdak** – Yo'q soppa-sog'.

**G'oz** - Agar kuchukchani o'tkir tishlari bo'limganda, jo'jani qutqaralomagan bo'lardik.

**Tovuq** – Bolajonim tirik.

**1- qush** – Kuchukcha jo'jani qutqardi.

**2-qush** – O'tkir tishlari bilan jo'jani tishlab suvdan olib chiqdi.

**Kuchukcha-** Qushlar, qo'yinglar nima keragi bor... (keta boshlaydi)

**Xo'roz** – To'xta, qayoqqa ketayapsan?

**Kuchukcha** - Inimga.

**Tovuq** – Kel jo'jalar bilan birga o'ynay qol.

**G'oz** - Nega endi faqat jo'jalar bilan, kelinglar hammamiz bиргалашив

o'ynaymiz.

**Xo'roz** – Ketma birgalashib o'ynaymiz.

**Kuchukcha** - Mening tishlarim o'tkir-ku?

**G'oz** - Kimnidir tishlari o'tkir bo'lishi kerak ekan. Ahil bo'lsak, o'tkir tishlar xavflimas.

**Kuchukcha** - Rostdan men bilan o'ynaysizlarmi? Qanday yaxshi... Voy-bu, oqshom tushibdi, quyosh botayapti, qushlar sayrayapti, maysalar shivirlayapti. Hoy, yaqin kelinglar, qo'lni-qo'lga beringlar hovlimizni to'ldirib birgalashib o'ynaymiz. (Hamma birgalashib o'ynay boshlaydi). **PARDA**.

### **She'riy asar ustida ishlash**

She'riy yo'l bilan yozilgan asarlar (poema, ruboiy, qo'shiq va boshqalar) poeziya (she'riyat) deb ataladi. She'r shartli nutqdir. She'rni shartli nutqqa aylantiruvchi omillar juda ko'p. Bu – o'lchov vazn, qofiya, band kabi she'riy mazmunni muayyan shaklda ifoda etuvchi vositalardir.

O'zbek she'riyatida, asosan ikki sistema – aruz sistemasi va barmoq sistemasi mavjud.

### **Barmoq sistemasi**

She'riyatning barmoq sistemasi o'zbek poeziyasining eng qadimi, eng ommaviy, eng xalqchil ko'rinishlaridandir. Barmoq sistemasini asosini hijo (bo'g'in)lar sonining bir xil takrorlanishini tashkil etadi, bo'g'inlar barmoqlar bilan sanalgani uchun barmoq sistemasi deb ataladi.

Barmoq sistemasida yozilgan she'rlarni dastlabki birligi hijo (bo'g'indir). Qolgan barcha birliklari, ya'ni turoq, rukn va misralar ana shu asosiy birlik zaminida shakllanadi. Bu birlik vaznni yuzaga keltiradi. Baroq sistemasidagi she'rning vaznnini aniqlashda uni har bir misradagi bo'g'in va turoqlar sonini aniqlanadi.

Turoq bo'g'nlardan tashkil topadi. She'rdagi har bir misrada ma'no, ritm va intanatsion jihatdan o'zaro birlashib, guruhlanib keladigan so'zlar birikmasi turoq deyiladi. Masalan:

Bo'yin cho'zib, /Qarag'ay,

Yon-atrofga /Qarag’ay.

Der u: barcha / daraxtdan

Baland akang – /Qarag’ay.

Shu she’rni bo’g’in va turoqlasak quydagi holat yuzaga keladi.

Bo’-yin cho’-zib – 4 bo’g’in 1 turoq

Qa-ra-g’ay, – 3 bo’g’in 1 turoq 4+3 tarzida yozilgan.

Chunki she’rning bo’g’inlari va turoq birligi she’rni ritmini vujudga keltiradi.

Qo’g’irchoq teatri aktyorlari talabalari bilan she’r ustida ishlaganda she’r tuzilishi qonuniyatini o’zlashtirgach albatta hayvonlar, parrandalar, meva va sabzavotlar haqida she’rlardan foydalanish kerak, chunki qo’g’irchoqda nutq ustida ish olib berilganda qo’g’irchoq orqali muloqat qilish shartligi asos bo’lib qoladi. Mevalar, sabzavot, qushlar va hayvonlar haqida she’rlar ustida ishlash bizning qo’g’irchoq teatrini o’ziga xos tomoniga e’tibor berishimiz keraklidadir.

### **Majnuntol**

Boshim egik

Majnunhol,

Majnuntolman,

Majnuntol.

Dam olsangiz

Soyamda,

Men sizlardan

Mamnun tol.

### **Archa**

Men archaman,

Archaman.

Men hursandman

Barchadan.

Atrofimda

Aylanib

Hech charchamang,  
Charchamang!

### **Olma**

Men sizlarning  
Olmangiz,  
Homligimda  
Olmangiz,  
Nortojiga  
O'xshab, so'ng  
Voy qornim, deb qolmangiz!

### **O'rik**

Qandak o'rik  
Otim bor  
Xo'p mazali  
Totim bor.  
Mag'zimga berkitilgan  
Qandim bor,  
Novvotim bor.

### **Shaftoli**

Sariq, oq shaftoliman,  
Zarg'aldoq  
Shaftoliman,  
Maqtanib o'ltirmayman,  
Man andoq  
Shaftoliman.

### **Yong'oq**

Miya kabi  
Shaklim bor

Boshim to'la

Aqlim bor.

Meni egan

Donishmand

Bo'lur degan

Naqlim bor.

**Nashvati**

Meni derlar

Nashvati,

Sharbatlarning

Sharbati.

Mazzalarning

Mazzasi,

Lazzatlarning

Lazzati.

**Gilos**

Men gilosman,

Quloq sol,

Rangim olu

Totim bol.

Topsang qo'shalog'imni

Qulog'inga taqib ol.

**T.Adashboev.**

**Oq bulut**

Oppoq bulut, oq bulut,

Tog' bag'rige yog', bulut.

"Oq oltin"ni terguncha,

Endi kamroq yog', bulut.

Oppoq bulut, oq bulut,

Etagingni qoq, bulut.

O'z to'pingdan ayrilib,  
Qolma tanho, toq, bulut.  
Paxtadayin oq bulut,  
Osmonga arqoq bulut.  
Sava cho'p ursa oyim,  
Bo'lasan tarqoq, bulut.  
Oppoq bulut, oq bulut  
Tog' bag'rige yog', bulut.  
To terguncha paxtani,  
Endi kamrog' yog', bulut.

### A.Obidjon

**Bo'rining tabib bo'lgani**  
Nelar bo'lmas jahonda,  
Er go'yo ters aylandi.  
Tabiblikka  
O'rmonda  
Yirtqich Bo'ri saylandi.  
Ana, qarang,  
Tish qayrab  
O'tirar shum shifokor.  
Yo'lga boqar jomdirab,  
Tezroq kelsa deb bemor.  
Keldi  
Ingrab Quyonvoy,  
Shalvirab ding qulog'i.  
Qadamlari poyma-poy,  
(Balki, tortmas oyog'i.)  
- Qani, o'tir,  
Hih-hih-hi...  
Darding nima, ayt, inim.

- Bo'ri og'a, uch kunki  
Tinmay og'rir biqinim.  
Bo'ri yaqinroq jildi  
Dono tutib o'zini.  
Biqin qolib,  
Tekshirdi  
Quyonning chap ko'zini:  
- Kechikamiz, dingquloq,  
Ko'rmasak tez chora gar.  
Oshqozoning sal chatoq,  
Buni...  
“Tumov” deydilar.  
Biz, tabiblar, bu dardni  
Juda yaxshi bilamiz.  
Dadilroq bo'l,  
Sen mardni  
Jarroh bo'lib tilamiz.  
Qani, rozi bo'l shartta,  
Keyin rahmat aytasan.  
Omon qolsang,  
Albatta,  
Uyga tirik qaytasan.  
Tikkalatib dumini  
Qochib qoldi tez Quyon.  
Bechoraning biqini  
Og'rimas  
Shundan buyon.  
Keyin og'rib tomog'i,  
Keldi yig'lab yosh To'ng'iz.  
Ushlab ko'rib oyog'in

Bo'ri dedi:

- Voh, essiz!

Tomoq og'riq boshlanar

O'ng oyoqning poyidan.

Kesib olsak,

Soz bo'lar,

Go'shtlikkina joyidan.

Bo'ri

Tayyor deb o'lja,

Yutar ekan so'lagon;

Fursat poylab To'ng'izcha

Rostlab qoldi juftagin.

Keldi Tulkি

Ming'illab,

Tikan kirib qo'liga.

(Bo'ri der: "Bu boshqa gap!")

Uchrab go'shtning mo'liga.

- Uzr, do'xtir,

Keldim kech,

Juda chatoq ishlarim...

- Dard ko'rmaysan endi hech,

Omon bo'lsa tishlarim!

- Kecha tunda

Uzoqdan

Tinglab shirin ovozin;

Tutib keldim qishloqdan

Bir kampirning xo'rozin.

Yo'lda

Maraz bo'ztikan

Yaraladi qo'limni.

Og'rig'i ja zo'r ekan,  
Bukchaytirdi belimni.  
“Shoshmay turgin, muttaham!” –  
Der Bo'rivoy ichida.  
- Ko'z tegmasin,  
O'zing ham  
Etilibsan-da juda.  
Mana, tugmadori ol,  
Beriroq kel.  
Jon ini...  
Hullas, Bo'ri bemalol  
Edi-qo'ydi Tulkini.  
So'ngra  
Ochib bemorni  
Qabul qilish daftarin;  
Silib – siypab qornini  
Yozdi ushbu gaplarni:  
“Qo'lin tirnab bo'ztikan,  
Tulki keldi notetik.  
Ahvoli og'ir ekan,  
Chora topmadik...  
Edik!”  
Kechga yaqin kekkayib  
Kirib keldi qari Sher.  
Bo'ri etti bukchayib:  
“Xush ko'rdik,  
O, shohim!” – der.  
Sher harsillab  
O'zini  
Keng kursiga tashladi.

Chaqchaytirib ko'zini,  
Darg'azab so'z boshladi:  
- Yuray desang sog', quvnoq,  
Yaxshilab ko'r, akasi.

Bir haftaki  
Sal yo'qroq  
Ishtahamning mazasi.

Bo'ri dedi  
Qaltirab:  
- Gapiray, xo'p desangiz.

Semirasiz yaltirab  
Darmondori esangiz.

Emchi o'tgan  
Yuz pushtim,  
Ular aytishgan har on:  
“Semiz hayvonning go'shti  
Darmonga qo'shar darmon”.

Turgandek tor qolipda,  
Tugatgach u gapini;  
Boqib  
Semiz tabibga  
Sher yaladi labini:  
- Yaxshi emas, har holda,  
Darmondori izlasam.

Shoh bo'lsm-u ,  
O'rmonda  
Shoqoldek gizgizlasam.  
Qo'ldan bersam imkonni,  
So'ng yuraman armonda.

Sendan semiz hayvонни

Topish mushkul  
O'rmonda.  
Qadrlayman men  
Har choq  
Shifokorlar so'zini.  
Totmoqchiman hoziroq  
Darmondori tuzini...  
Sher tabibga tashlandi,  
Boqmay ohu zoriga.  
Bo'ri  
Birdan aylandi  
Oddiy darmondoriga.  
Lekin  
Shunday keng o'rmon  
Tabibsiz qolsa – chatoq.  
Yig'ildiyu bor hayvon  
Kengashdi uzoq-uzoq.  
Pokdil, tili biyronni  
Tanlaylik deb bu ishga,  
Yubordilar  
Quyonni  
Tabiblikka o'qishga.

*Erkin Vohidov*

**Fidoiylik to'g'risida rivoyat**

Qadim zamon,  
Ayol dini  
Fidoyilik, deganlar.  
Eri o'lsa, xotinini  
Qo'shib ko'mar ekanlar.  
O'tib necha avlod umri,

O'tib cheksiz ko'p zamon,  
Hech bir davr  
Bu udumni  
Qilolmadi qatog'on.  
  
Dahshat edi bu chinakam,  
Bilar edi odamlar.  
  
Lek odatga qarshi ne ham  
Qilar edi odamlar?  
  
Ham ota,  
Ham onaizor  
  
Go'rga kirib barobar,  
Qola berdi chirqirab zor.  
  
Bola chaqa  
Darbadar.  
  
Asli o'sha zamonda ham  
Donishmandlar bor edi.  
  
Lekin ular ichra mard kam,  
Ko'p – ehtiyotkor edi.  
  
Bosh ko'tarmas erlar,  
Isyon – ayollar ham qilmasdi.  
(Chunki ular eri qachon o'lishini bilmasdi.)  
  
O'tib ketdi  
  
Ming yil fursat,  
Qarshi qudrat yo'q edi.  
  
Kimda shavqat,  
Kimda himmat,  
Kimda jur'at yo'q edi.  
  
Bir kun  
  
Jangga keta turib  
Bosh ko'tardi bir o'g'lon.

Ot boshini shartta burib,  
Eldi tikka  
Shoh tomon.

Dedi: «Yey, shoh, oldimda bor  
Yo, hayotu, yo o'lim.  
Qolayotir rafiqam zor,  
Qizalog'im va o'g'lim.  
Agar men bu jangda o'lsam,  
Sodiq qolib udumga,  
Farzandlarim onasin ham  
Hukm etarsan o'limga.

Men-ku, ular erki deya  
Jangga ketayotirman.

Farzandlarim mehri deya,  
Fidoiyiman, botirman.

Shu-chun, o'lsam, kunim bitib,  
Vasiyatim shu bo'lsin,  
Yorim emas, hamroh etib  
Jang qurolim ko'milsin».

Bu so'z misli ochiq kunda  
Bo'ldi momoguldirak.

Keltirdilar  
Bolta...  
Kunda...  
Bas,  
Tafsilot ne kerak...  
Bechoraning ochiq qolgan  
Ko'zlarini yumdilar.

Mozoriga  
O'zi bilan

Qilichini ko'mdilar.  
Bo'lsin deya tavqi la'nat,  
Avlodlarga ta'limot,  
Qabri uzra  
Yozdilar xat:  
«Bunda yotar manfur zot!  
Ko'ring bu kas holatini,  
Yotar misli xoru xas,  
Bobolarning odatini  
U bilmadi muqaddas.  
His qilmadi  
U yurakdan –  
Ayol uchun dunyoda  
Eri bilan ko'milmakdan  
Saodat yo'q ziyoda!»  
Qurban bo'ldi  
Bir mard yigit,  
Qoldi tavqi la'natga  
Lekin ilk bor hukm o'qildi  
Ul kun mash'um odatga.

### **O'lik bekach va etti bahodir**

#### **Haqida ertak**

*Aleksandr Pushkin*

Yoriga aytib vido,  
Otlandi safarga shoh.  
Darichada malika  
Uni kutadi yakka.  
Kecha-yu – kunduz kutmish,  
Yo'llariga ko'z tutmish  
Kuta –kuta nixoyat

Ko'zlari tol mish g'oyat.  
Lekin yordan yo'q nishon!  
Faqat qututar bo'ron,  
Qorlarga to'l mish har yoq,  
Hamma yer bo'l mish oppoq...  
Yor yo'lidan ko'z uzmay,  
O'tib ket mish to'qqiz oy.  
Xayit kechasi hudo  
Unga qiz et mish ato.  
Erta tongda ko'p uzoq-  
Kutilgan aziz qo'noq:-  
Shoh qaytmishdir safardan,  
Begona o'lkalardan  
Malika shohga boqib,  
Xo'rsinibdi dil yoqib.  
Shodlanganidan chunon  
Tushga borib bermish jon.  
Shoh uzoq totrmish alam,  
Ne chora ? Banda u ham:  
Bir yil tushday o'tibdi,  
Shoh boshqa xotin opti.  
Chinakam ham u dilbar  
Malikalarga o'xshar,  
Oppoqina, xushqomat  
Aql-u dilda alomat,  
Lekin mag'rur va baxil,  
Erka, kunchi, qora dil.  
Sepi bor ekan- ko'zgu,  
Ko'p hikmatli ekan u;  
Ko'zgu so'yalar olarkan

Malika quvonarkan,  
Faqatgina u bilan,  
Hikmatli ko'zgu bilan  
Xursand xazillasharkan,  
Zeb berib, so'zlasharkan:  
“So'zla aziz oynajon,  
Haqiqatni qil bayon:  
Men emasmi dunyoda  
Hammadan ham ziyoda  
Oppoq go'zal va yaxshi,  
Yuzim yuzlarning naxshi?”  
Oyna derkan javoban :  
“Shubhasiz dunyoda sen  
Oppoq go'zal va yaxshi,  
Yuzing yuzlarning naxshi”  
Malika qah-qah urib  
Ishva qilib, buralib,  
Suzib ko'zi – qovog'in  
Qirsillatib barmog'in  
Qo'l belda kerilarkan  
Ko'zguga termularkan.  
Va lekin yosh bekach ham  
Ohista bo'lib ko'rakam.  
Kun sayin o'sa ketmish,  
O'sib kamolga etmish.  
Yuzlari oq qora qosh,  
Xushfel rahmdil yuvosh .  
Malikaga kuyov ham  
Topila qolmish shu dam  
U- shaxzoda Yelisyey,

Asilzoda Yelisyey.  
Sovchiga Shoh ko'nibti  
Darrov sep ham unibdi:  
Etti savdo shaharni,  
Yuz qirq koshonalarga,  
Yuz ko'rishga otlanib ,  
Malika xo'p bezanib,  
Ko'zguga termulibdi.  
Unga savol beripbdi:  
“Men emasmi dunyoda  
Hammadan ham ziyoda  
Oppoq go'zal va yaxshi,  
Yuzim yuzlarning naqshi”  
Ko'zgu debdi shu mahal:  
“Hech shubxasiz sen go'zal,  
Lekin bekach dunyoda.  
Hammadan ham ziyoda !  
U oq , go'zal va yaxshi  
Yuzi yuzlarning naxshi”  
Malika sapchib ketmish  
Qo'llarini musht etmish.  
Ko'zguga bir tushurmish  
Yer tepinib, do'q urnish:  
“Ax , past ko'zgu, yaramas  
So'zlarning bari g'araz  
Qanday menga teng bo'lzin?!  
Tazirin beray o'lsin,  
O'smay o'lgur yaramas!  
Oqligi bejiz emas:  
Onasi ekan bug'oz

Qorga telmulgan holos.  
Ayt, mumkinmi hech maxal,  
U bo'sa mendan go'zal?  
Uning qanday haqqi bor?  
Men go'zalman: bo'l iqror.  
El-u yurtni izlasang,  
Jahonni sinchiklasang  
Yo'qdir menga teng suluv.  
Shundaymi?"  
Debdi ko'zgu:  
"U bari bir dunyoda  
Hammadan ham ziyoda,  
Oppoq go'zal va yaxshi,  
Yuzi yuzlarning yaxshi!"  
U, nihoyat o'rnatib,  
Xasad o'tida yonib,  
Ko'zguni tez olibdi,  
Ham sandiqqa solibdi,  
Chaqirib qora qizni  
Ham shox qizi o'ksizni  
"Olib borib to'qayga,  
Odamsiz , xilvat joyga  
Oyoq qo'lini bog'la  
Tiriklayin bag'rin dog'la!  
Deb aytibdi cho'riga ,  
Em bo'lsin u bo'rige".  
Yovuz xotinga ayting ,  
Shaytonmi , jin kelar teng?  
Chora yo'q.Qora qiz ham  
Shoh qizi bilan ildam

Jo'nab ketmish to'qayga ,  
Yetmishlar xilvat joyga,  
Va bekach payqab qolmish,  
Daxshat ichida qolmish  
Ham yolvormish: Panohim?  
So'zla, nedur gunohim?  
Qizgina rahm et menga!  
Malika bo'l sam, senga –  
Yaxshi ishlar qilaman”  
Qiz uni sevganidan ,  
Band aylamay, o'ldirmay,  
Qo'yib yubormish shunday  
Deb : “ Qayg'urma , omon bo'l !”  
Saroy tomon solmish yo'l .  
Malika so'rmish jadal:  
“Xo'sh? Qayoqda u go'zal ?”  
“To'qayda o'zi yolg'iz “,-  
Deb javob qaytarmish qiz,-  
“Bog'liqdir qo'l oyog'i  
Yirtqich yo'liqqan chog'i,  
Azobi kam bo'ladi,  
Osongina o'ladi”.  
Shoh qizi yo'qolibdi!-  
Deb habar tarqalyapti.  
Qiziga shoh chekmish g'am  
Shaxzoda Yelisyey ham  
Hudodan madad tilab,  
Yo'lga tushmish so'roqlab  
Aziz mehribonini  
Go'zal qalliqjonini.

Qalliq adashganicha  
To'qayda butun, kecha,  
Yurib-yurib tolibdi.  
Bir ko'shkka kep qolibdi.  
Bir it chiqib shu maxal.  
Tinchlanibdi hurib sal:  
Darvozadan kirmish qiz  
Hamma yoq jimjit, beiz.  
It yurar erkalanib,  
Shoh qizi ham shaylanib  
Yo'lak tomon olmish yo'l  
Xalqaga cho'zibdi qo'l;  
Eshik ochilib ravon  
Qiz kirsaki, charog'on-  
Bir uy: Unda gilamlar ,  
Osiqliqmish sanamlar,  
Go'zal pechkasi bormish,  
So'rilar o'ymakormish .  
Qiz ko'rsaki bu manzil  
Mehribon va rahmdil  
Odamlarning manzili;  
Bu erda uning dili  
Ozor topmasa kerak  
Lek, hech kimdan yo'q darak  
Uylarga bir bir kirmish,  
Yig'ishtirmish, supurmish,  
Hudo uchun yoq mish sham,  
Isitmish pechkani ham  
So'riga chiqib asta,  
Uxlab qolmish bir pasta.

Etganda tush pallasi,  
Kelmish odam sharpasi;  
Kirmish yetti bahodir,  
Mo'ylovdor etti nodir.  
Boshliq debdi "Ajabo !  
Har yoq toza va barno.  
Kimdir yig'ishtiribdi,  
Bizni kutib turibdi,  
Kim u? Chiq yonimizga  
Chin o'rtoq bo'lgin bizga.  
Keksa chol bo'lsang agar,  
Bo'lursan bizga padar.  
Yigit bo'lsang biz seni  
Deylik tutungan ini.  
Kampir bo'lsang onasan,  
Xurmatlarga qonasan.  
Agar bo'lsa go'zal qiz,  
Bo'lgin aziz singlimiz".  
Shoh qizi ham shu zamon  
Tushmish yigitlar tomon,  
Ularni izzat qilib  
Salom bermish egilib  
Taklif etilmasdanoq,  
Bo'lgani uchun qo'noq,  
U afv so'rab, qizarmish,  
Ham uyalib bo'zarmish  
Payqabdilar so'zidan –  
Bu qiz - shoh qizi ekan;  
Uni to'rga o'tkazib  
Nozu ne'matlar yozib

Qadah to'ldirishibdi  
Patnisda berishibdi.  
Qiz rad etmish sharobni  
Zangori may-u nobni ;  
Somsadan olib biroz  
Tatigan bo'pti xolos,  
“Charchadim,- deb , - juda ham”,  
So'rabdi olmoqqa dam .  
To'rdagi bir xonada,  
Keng, yorug' koshonada  
Uni qoldirishibdi,  
O'zlari chiqishibdi.  
Kunlar o'tmish izma-iz,  
Va lekin bekach qiz  
O'rmonda yashar kushod,  
Bahodirlar bilan shod.  
Bahodirlar ko'p inoq,  
Turishib har sahar choq,  
Chiqishar sayr etmoqqa,  
Ko'k o'rdaklar otmoqqa...  
Bu zamon bizning shoh qiz  
Saroyda qolib yolg'iz,  
Supurib, sidirarkan,  
Taomlar pishirarkan  
Bahodirlar bilan u  
Yashar ekan ko'p totuv.  
Kunlar shunday o'tarkan,  
Kun o'tib, kun ketarkan.  
Qizni jo'ralar chandon  
Sevib qolmishlar jondan.

Bir kuni erta bilan  
Etti bahodir birdan  
Qiz uyiga kiribdi.  
Boshliq “Yey dilbar,-debdibi  
Bizlarning singlimizsan,  
Bu narsa senga ravshan.  
Bizlar etti jo’ramiz,  
Seni yaxshi ko’ramiz.  
Har birimiz ham seni  
Jon deymiz yor qilgani.  
Biroq iloj yo’qdir hech  
Bu mushkulni o’zing yech!  
Birimizni yor qilgil.  
Boshqalarga bo’l singil..  
Nega boshing chayqaysan?  
Yo buni rad etgaysan?  
Yo tovar qo’l emasmi,  
Senga maqul emasmi?,”  
-“Sofdil qahramonlarim,  
Aziz og’ajonlarim”,-  
Deb shoh qizi so’z boshlar,-  
“Yolg’on so’zlasam agar ,  
Tiriklay yerga kiray,  
Men qayliqman ne qilay?  
Men uchun baravarsiz,  
Aqli , dilovarsiz  
Bilingki, ko’ngildan man-  
Barchangizni sevaman:  
Biroq o’zgaga bu bosh  
Mangu etilgan yo’ldosh.

Azizdir hammadan ham  
U Yelisyey shahzodam".  
Jo'ralar jim qolibdi  
Boshni qashlab qolibdi.  
So'rashning aybi yo'qdir.  
Oybekach, bizni kechir –  
Debdi ulkan pahlavon,  
"Unday bo'lsa hech qachon  
Bu haqda ochmam og'iz."  
-“Xafamasman,- debdi qiz , -  
“Mening ham rad javobim –  
Ayb etmangiz “. Ular jim .  
Ta'zim bajo etmishlar,  
Asta chiqib ketmishlar.  
Shunday qilib, ular bod  
Kechirmishlar tinch hayot .  
Yovuz beka bu zamon  
Bekachni eslagan on  
Tura olmabdi chidab:  
Ko'pdan beri arazlab  
Ko'zgusidan...  
Endi chiqib esidan  
Ko'zgu tomon yuz tutmis  
G'azabini unutmish,  
U yana ha kerilib,  
Debdi-tabassum qilib:  
"Salom! So'zla ko'zgujon  
Haqiqatni et bayon:  
Men emasmi dunyoda  
Hammadan ham ziyoda

Oppoq go'zal va yaxshi.  
Yuzi yuzlarning naqshi,”  
Javob bermish oynajon:  
“Go'zaliging begumon;  
Yashaydi bir qiz  
Hech qanday xashamatsiz,  
Emanlar makonida  
Bahodirlar yonida,  
U sendan ham yaxshidir  
Go'zallikni naqshidir”  
Beka to'kmish qahrini—  
Qora qizga:-“Meni sen  
Aldashga qanday jur'at ,  
Eta olding,-deb,-“Kasofat?”  
Qora qiz qolib nachor ,  
Bariga bo'lib iqror.  
Yovuz beka tutaqib,  
Uni dahshatda yoqib,  
Debdi: “Yo o'ldirgaysan,  
Yoki , o'zing o'lgaysan!”  
Yosh malika bir kuni  
Kutib og'alarini,  
Yolg'iz o'tirar ekan,  
Charxin yigirar ekan,  
Yo'lakda g'azab bilan  
It xurib qolmish bir dam.  
Qiz qayrilib qarasa,  
Gado turibdi . “Ena,  
Sabr qil pichagina—  
Debdi qiz darichadan-

Hayday itni hozir man,  
Keyin senga, enajon,  
Olib chiqay xayr-ehson”.  
Qizga kampir der shu dam:  
“Oh jon bolam, qizginam!  
Iting jonomni oldi,  
O’ldirishga oz qoldi.  
Irg’ishlariga bir boq!  
Chiq yonimga, chiq tezroq”.  
Shoh qizi ham non olib,  
Chiqmoq uchun qo’zg’alib,  
Zinadan tushmasdanoq  
It etib kepti shu choq.  
Hurib erkalanibdi  
Oyoqqa surkanibdi  
Yo’l bermabdi o’tishga  
Kampir sari etishga.  
Kampir kelayin desa -  
Qiz yoniga it esa  
Vahshiy hayvonlarsimon  
Tashlanarmish u tomon.  
“Ajabo bu nima sir?  
Yaxshi uhlamagandir?”, -  
Deb bekachi so’z qotibdi  
“Ma ol” deb non otibdi  
Tutib obdi shum kampir:  
“Senga behat tashakkur  
Tangri qo’llasin doim;  
Sen ham tutib ol oyim!”  
Bekachga to’lib pishgan

Oltinday ho'p yetishgan  
Olma uchib boribdi  
It sakrab ingranibdi...  
Ilib olibdi oy qiz  
Ikki qo'llab uni tez  
“Gar siqilsang mabodo  
Egin meni qil duo”  
Deb kampir egilibdi  
Va ko'zdan yo'qolibdi...  
Birga shoh qizi bilan  
Zinadn chiqar ekan  
Qalbi g'amga to'lganday  
“Tashla!” demak bo'lganday  
It g'amgin termulibdi  
Qizga qattiq huribdi  
Qiz itni erkalabdi  
Yumshoq qo'lla silabdi  
“Ne bo'ldi senga Lochin?  
Yot endi!” o'zi lokin  
Uyga kirib ketibdi  
Eshikni berkitibdi.  
Xo'jalarin chidamsiz  
Kutmak uchun bekach qiz  
Charxiga o'tirsa ham,  
Lekin o'zi damba - dam  
Olmaga termularkan  
Faqat uni ko'rarkan  
Olma to'lib pishibdi  
Juda ham etishibdi:  
Xushbo'y, bejirim tarang

Qip-qizil va tillarang  
Bolga to'lib turarkan!  
Urug'i ko'rinar...  
Ovqatgacha qalamqosh  
Kutmochi bo'pti bardosh-  
Berolmabdi sira ham  
Olmani olib shu dam  
Labiga tekkizibdi  
Tishlab bo'lak uzibdi  
Ham yebti uni asta...  
O, jonim u birpasta  
Gangib hushdan og'ibdi  
Qo'llari bo'shashibdi  
Tushib qo'ldan olma ham  
Ko'zлari tinib shu dam  
But ostiga og'ib qiz  
Yotibdi sokin jonsiz...  
Safardan eson-omon  
Qaytishibdi uy tomon  
Bu mahal etti shovvoz.  
Chiqib ularga peshvoz -  
It ildam yuguribdi  
Notinch qattiq huribdi  
Hovlini ko'rsatib u  
Yaxshilikka emas bu!-  
Debdi ular: "Falokat  
-Yuz bergen bunda albat".  
Ot qo'yib kelibdilar  
Ichkari kiribdilar  
Ko'rib bo'lmishlar hayron

It chopib kelib shu on  
Olmaga otilibdi  
Ehti-yu tez o'libdi.  
Ma'lum bo'libdi: og'u-  
To'lgan olma ekan bu  
Bekach qiz qarshisida  
G'am chekib ular juda  
Bosh egib tutib a'za  
O'qib unga janoza  
Kafanga olibdilar  
Va ko'mmoq bo'libdilar  
Lek qaytmishlar bundan tez,  
Chunki go'zal bekach-qiz  
Yotardi hud uyquda,  
Sokin,tirikday, juda.  
Faqat nafas olmasdi,  
Go'zaldir qaddi basdi,  
Uch kun o'tibdi hanuz  
Uyqudan turmabdi qiz,  
Dilda hasrat, nadomat,  
Ko'rsatganicha odat,  
O'qishib janozasin,  
Bekach qizning murdasin  
Billur tobutga solib,  
Hammalari ko'tarib,  
Ketmishlar Bo'sh tog' tomon.  
Tun yarim bo'lган zamon  
Olti ustunga uni,  
Bekachning tobutini  
Cho'yan zanjir-la asta

Bog'labdilar bir pasta  
Atrofiga panjara  
Qo'yibdilar ko'p sara.  
Ulkan botir egilib  
Murdaga tazim qilib,  
Debdi: "Tinchib uhlagin;  
Husning, yovuzlik va qin  
Qurban ni bo'lib o'chdi  
Ruhing samoga ko'chdi.  
Bizlar seni sevardik,  
Sevgilingga saqlardik.  
Bo'lmay yigitga nasib  
Bo'lning tobutga nasib."  
Shum malika shu qo'noq,  
Hushhabrga ishtiyoyq-  
Bog'lab; ko'zguni olmish  
Ham savol berib qolmish:  
"Ayt menmasmi dunyoda,  
Hammadan ham ziyoda,  
Oppoq go'zal va yaxshi  
Yuzim yuzlarning naqshi?"  
Ko'zgu debdi javoban:  
"Ha malikam hammadan  
Oqsan, go'zal, yaxshisan,  
Qizil yuzlar naqshisan".  
Bu orada, shahzoda  
Jahon kezib aftoda  
Qallig'ini izlarkan;  
Doim yig'lab bo'zlarkan  
Kimdan qilsa u savol,

Savol ko'rinar mahol:  
Yuziga kular birov  
Chetga burilar birov.  
Arz aylabdi nihoyat  
Quyoshga u azamat:  
“Nurli quyosh! ko'kda sen  
Yil bo'yi aylanasan  
Qishni, iliq, muloyim-  
Bahorga ulab doim,  
Samolarda yurasan  
Barchamizni ko'rasan  
Radmi bo'lur javobing?  
Ko'rmadingmi dunyoning-  
Hech yerida shoh qizin,  
Bekachni - yer yulduzin?  
Men kuyovi"- "chirog'im,  
Bekachingni ko'rmadim.-  
Debdi quyosh -muqarrar"  
U endi o'lgan chiqar,  
Balki qo'shnik oypatir  
Ehtimol uchratgandir:  
Biroq biror erda  
Shoh qizin korib  
Qolgandir izin".  
Qora tunda shahzoda  
Yotmis g'amgin, aftoda,  
Oy ko'rinnish, yolvorib-  
Chopibdi oyga g'arib:  
“Oy oymoma, do'stginam,  
Tillaqoshcham! Keng olam -

Bo'lganda qop-qorong'u,  
Chiqasan sochib yog'du.  
Odatingni yulduzlar  
Sevib senga termular.  
Radmi bo'lur javobing?  
Ko'rmadingmi dunyoning  
Hech erida shoh qizin  
Bekachni- er yulduzin,  
Men kuyovi" – "ey inim,  
- So'zlabdi oy- ko'rmadim,  
Bekaching men har kuni  
Chiqqum soqchi turgani  
Faqat kelganida gal.  
Ehtimol men yo'q mahal  
O'tib ketgandir u qiz".  
Shahzoda debdi "essiz".  
Oy yana debdi shuni:  
"Shoshma sabr qil, uni  
Balki shamol biladi,  
O'sha ko'mak qiladi.  
Sen unga bor, jonginam,  
Hayr endi, ko'p tortma g'am"  
Yigit g'am yemay shu dam  
Boribdi shamolga ham.  
"Shamol! Qudrating bilan  
Bulutlarni quvlaysan  
Ko'm-ko'k dengizni darrov  
Qilasan alg'ov-dalg'ov  
Yolg'iz hudodan o'zga  
Hech kimni ilmay ko'zga,

Erkin kezib yurasan,  
Har yonga yugurasa.  
Radmi bo'lur javobing?  
Ko'rmadingmi dunyoning  
Hech yerida shoh qizin  
Bekachni - yer yulduzin,  
Men kuyovi” – “Quloq sol”-,  
Javob beribdi shamol:  
“Oqishlari ko’k sokin,  
Soydan o’tgandan keyin,  
Haybatli yuksak tog’ bor  
Tog’ bag’rida chuqur g’or;  
O’sha g’orda g’am-alam  
Zulmati ichra har dam,  
- Ustunlarga tortilgan,  
Zanjirga band etilgan  
Billur tobud tebranar,  
Hech kimsadan yo’q asar  
O’sha tobutta bejon,  
Qaylig’ing yotar, o’g’lon”.  
Shamol ketmish shundan so’ng.  
Yig’lab shahzoda ho’ng-ho’ng,  
Go’zal qaylig’in so’ng bor-  
Ko’rmoq uchun dilafgor,  
Ketibdi tobut tomon.  
Borar ekan namoyon-  
Bo’lmish qarshida zo’r tog’,  
Atrofi bo’m-bo’sh yaylov,  
Tog’ tagida qora g’or,  
Yugurmish unga shunqor.

Ko'rdi u g'amgin, behud  
Qalqib turardi tobut.  
U tobutda mangulik,  
To'shagida yotib tek  
Uhlardi bekach yakka,  
Yor tobutiga tikka,  
Butun jon jahti bilan,  
Otilmish yigit birdan.  
Tobut simmish, qiz shu on  
Tirilmish bo'lib hayron,  
Atrofga termularkan,  
Zanjirda tebranarkan,  
Ho'rsinib so'zlabdi u:  
“Ko'p uzoq uhlabmanku!”  
Tobutdan chiqmish dilbar...  
Oh!... ikkov ho'ngrab yig'lar  
Yigit qizni ko'tarib,  
Yorug'likka chiqarib,  
Holi ahvol so'rabdi  
Uyga qarab jo'nabdi.  
Darhol tarqabdi mish-mish:  
Shoh qizi tirik emish!  
O'gay ona- malika,  
Uyida qolib yakka,  
Ko'zgusiga termulib,  
U bilan suhbat qurib:  
Der “men emasmi dunyoda  
Hammadan ham ziyoda,  
Oppoq, go'zal va yaxshi  
Yuzim-yuzlarning naqshi?”

Ko'zgu debdi shu mahal:  
“Hech bir so'zsiz, sen go'zal  
Lekin bekach dunyoda  
Hammadan ham ziyoda,  
Hammadan oq va yaxshi,  
Yuzi yuzlarning naqshi.”  
Shum beka sapchib turib,  
Ko'zgusini sindirib,  
Eshik tomon yo'l olmish,  
Shoh qiziga duch kelmish.  
Va alamga to'libdi.  
Chiday olmay o'libdi,  
Ko'mib bo'liboq uni.  
To'y qilmishlar shu kuni.  
Qovushibdi ikki bosh,  
Ikki yurak, ikki yosh.  
Dunyo bo'lgandan buyon  
Bunday bazm hech qachon  
Hech yerda bo'lgan emas,  
Hech kimsa ko'rghan emas;  
Men ham to'yda bor edim,  
Sharob ichdim, bol edim,  
Faqat mo'ylovim bir oz,  
Ho'llanib qoldi xolos.

**Baliqchi va baliq haqida ertak**  
O'tgan chog'da dengiz bo'yida,  
Chol va kampir umr surgandi;  
Yerto'lada — eski uyida  
O'ttiz uch yil birga turgandi.

Chol to'r solib ovlarkan baliq,  
Kampir esa yigirar urchiq.  
Chol dengizga to'r solsa bir gal,  
Baqa yaproq ilindi yolg'iz.  
To'r solganda chol ikkinchi gal  
Ilindi-ku dengiz o'lani.  
To'r solganda chol uchinchi gal,  
To'rga tushdi bir kichik baliq,  
Jo'n baliqmas, naq oltin baliq,  
Oltin baliq xuddi odamday,  
Tilga kirib yolvorib qoldi:  
«Qo'yib yubor dengizga, bobo,  
Katta to'lov to'layman senga,  
Ko'ngling ne tilasa bergayman»  
Hayron bo'ldi, qo'rqib ketdi chol:  
O'ttiz uch yil baliq ovladi,  
Ammo baliq so'zlaganini,  
Eshitmagan edi umrida.  
Chol baliqni qo'yib yubordi,  
Shunday dedi unga mehribon:  
«Oltin baliq, tangri yor bo'lsin,  
Kerak emas menga to'loving,  
Mayli, tushgil moviy dengizga,  
Erkin-erkin o'ynab yuraver!»  
Chol qaytdi-da kampir yoniga,  
Aytdi shundoq qiziq mo'jiza:  
«Tutib oldim bugun bir baliq;  
Jo'n baliqmas — naq oltin baliq;  
Baliq tilga kirib so'zladı,  
Ko'p yalindi qo'yib yubor, deb,

O'z uyiga — moviy dengizga;  
Katta to'lov to'layin, dedi,  
Ne istasang berayin, dedi;  
Men olgani botinolmadim,  
Va qo'yvordim moviy dengizga»  
Cholni qarg'ay boshladi kampir:  
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Ololmabsan baliqdan to'lov!  
Hech bo'lmasa bitta tog'ora —  
So'rab olmaysanmi undan sen,  
Tog'oramiz teshik-ku axir!»  
Chol jo'nadi moviy dengizga,  
Mavj urmoqda dengiz qarasa,  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim bilan javob berar chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Xo'b urishdi kampirim meni:  
Tinchlik bermas, qariding demas,  
Kerak emish yangi tog'ora,  
Tog'oramiz teshilgan axir».  
Oltin baliq aytadi javob:  
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Borgil, berdim yangi tog'ora».  
Chol qaytsaki kampir yoniga,  
Tog'oralik bo'libdi kampir.  
Lek urishdi kampir battarroq:  
«Ey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kir tog'ora so'rab oldingmi?

Kir tog'ora mol bo'larmidi?  
Jo'na, tentak, baliqqa borgil,  
Ta'zim qil-u, endi uy so'ra».  
Chol jo'nadi moviy dengizga,  
(Moviy dengiz loyqalanardi)  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib shunday dedi chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Meni kampir qarg'adi battar,  
Tinchlik bermas, qariding, demas,  
Jag'i tinmas, uy so'rab nuqlu».  
Oltin baliq aytadi javob:  
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin,  
Borgil, uy ham bo'ladi nasib».  
Yerto'lasi tomon qaytsa chol,  
Yerto'ladan iz ham qolmabdi,  
Mo'rilari g'ishtdan, oqlangan,  
Eman yog'ochidan yasalgan —  
Darvozalik bir uy turibdi,  
Uy yonida mehmonxona bor.  
Derazaning yonida esa,  
O'tiribdi kampir taltayib,  
Qarg'amoqda cholni battarroq:  
«Yey tentak chol, go'l, devona chol!  
Kelib-kelib uy so'rabsan-da!  
Jo'na darrov baliq yoniga,  
Ta'zim qilgin unga sen tag'in:  
Qora dehqon bo'lmayman ortiq,

Men — begoyim bo'lish istayman!»

Chol jo'nadi moviy dengizga,

(Dengiz notinch, to'lqin urmoqda).

Chaqiradi baliqni suvdan,

Baliq chiqib so'radi undan:

«Nima kerak senga, chol bobo?»

Ta'zim qilib chol shunday dedi:

«Poshsho baliq, holimga achin,

Kampirni jin urdi battarroq,

Tinchlik bermas, qariding, demas,

Qora dehqon bo'lmasmish ortiq,

U begoyim bo'lish istarmish!»

Oltin baliq aytadi javob:

«Qayg'urma, bor, tangri yor bo'lsin!»

Chol qaytadi kampir yoniga.

Nima ko'rар? Baland bir saroy;

Peshayvonda turar kampiri,

Suvsar po'stin uning egnida,

Boshida ham alvon dakana,

Qator-qator inju bo'ynida,

Qo'llarida oltin uzuklar,

Oyog'ida qirmizi etik.

Atrofida oqsoch xotinlar,

Qoq o'rtada kampir turardi,

Sochlardan sudrab urardi,

Kampiriga so'z qotadi chol:

«Salom, aslzoda, begoyim!

Ko'ngling endi to'ldi shekilli!»

Kampir unga o'shqirdi battar,

Otxonada ishlashga soldi.

O'tdi hafta ketidan hafta,  
Kampir tag'in mindi qahriga.  
Baliq tomon yo'lladi cholni:  
«Tez bor, ta'zim qilgil baliqqa:  
Ortiq men begoyim bo'lmayman,  
Poshsho xotin bo'lish xohlayman!»  
Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:  
«Eshak miya edingmi, kampir?  
Yurish-turish nima — bilmaysan  
Poshsholik mashara bo'ldimi!»  
Kampir battar mindi qahriga:  
Chol yuziga tarsaki urdi:  
«Qora dehqon, qanday botinding,  
Kim qo'yipti senga so'z aytmoq,  
Menga — menday begoyimga-ya?  
Yaxshilikcha jo'nab qol, deyman,  
Jo'natgayman bog'lab, bormasang».  
Chol dengizga qarab yo'l oldi,  
(Moviy dengiz qora rang oldi).  
Chaqirdi u baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib so'z aytadi chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin!  
Kampir tag'in boshladi g'avg'o!  
Bo'lmas emish ortiq begoyim,  
Bo'lur emish erkin malika!..»  
Oltin baliq beradi javob:  
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin!  
Mayli, kampir bo'lur malika!»

Chol qaytadi tez kampir yoniga,  
Qarasaki, shohona qasr,  
Qasr to'rida ko'rinar kampir,  
O'tirardi malika bo'lib.  
  
Xizmatida beklar, amirlar,  
Asl sharob quyib bermoqda,  
Ham malika quymoq emoqda;  
Atrofida talay yasovul,  
Elkalarda oyboltalari.  
  
O'rab turar endi bahaybat,  
Buni ko'rib, qo'rqib ketdi chol,  
Va so'z aytar yetti bukilib:  
«Savlatli malikam, salomalaykum!  
Shoyad endi to'lgandir ko'ngling!»  
Qayrilib ham boqmadi kampir:  
«Tez haydang!» deb buyurdi, xolos  
Sakrab turib beklar, amirlar,  
Cholni sudrab hayday soldilar.  
  
Yasovullar eshik yonida  
Sal bo'lmasa chopayozdilar.  
  
Mazax qilib qoldi olamon:  
— Qilik'ingdan topding, nodon chol.  
Bundan keyin bo'lg'usi saboq:  
O'z ko'rpaningga qarab cho'z oyoq!  
O'tdi hafta ketidan hafta  
Kampir battar mindi qahriga;  
Erini izlatar chopar yuborib,  
Cholni topib keldilar axir.  
Kampir shunday dedi choliga:  
«Jo'na tag'in baliq yoniga,

Ta'zim qilib, o'tingil darrov,  
Bo'lmagayman ortiq malika,  
Dengiz shohi bo'lish istayman,  
Xizmatimda tursin baliq ham,  
Baliq bo'lsin menga yasovul! »  
Botinolmas so'z aytishga chol,  
Bo'la olmas kampir so'zini;  
Tag'in bordi moviy dengizga,  
Qora quyun ko'rар dengizda:  
To'lqinlar o'shqirar g'azabkor,  
Ham to'lg'anar, ham uvlar tinmay,  
Chol chaqirar baliqni suvdan,  
Baliq chiqib so'radi undan:  
«Nima kerak senga, chol bobo?»  
Ta'zim qilib unga aytar chol:  
«Poshsho baliq, holimga achin,  
Jonga tegdi la'nati kampir,  
Ortiq bo'lmas emish malika,  
Dengiz shohi bo'lish istarmish,  
Va dengizda yashash istarmish,  
Sen ham borarmishsan xizmatga,  
Bo'larmishsan unga yasovul».  
Bitta so'z ham demadi baliq,  
Suvga urib dumini faqat,  
G'oyib bo'ldi dengiz tagiga.  
Javob kutib turdi sho'rlik chol,  
Uzoq qolib dengiz bo'yida.  
Qaytdi kampir yoniga axir,  
Ko'rsa: tag'in o'sha yerto'la,  
Bo'sag'ada o'tirar kampir,

Qarshisida teshik tog'ora.

## G'AZAL USTIDA ISHLASH

Ma'lumki, g'azal alohida she'riy janr sifatida XII asrdan boshlab fors-tojik, XIV asrlardan esa, turkiy adabiyotda keng taraqqiy qilgan<sup>2</sup>. G'azalning tili va ruhi ko'tarinkilikka, ko'tarinki kayfiyatlar, hayajon va ehtiroslarni tarannum etishga yo'l ochadi. Shuning uchun ma'no va tuyg'u g'azalda o'zgacha bir ko'rk va fusun bilan namoyon bo'ladi. G'azalning tili – ko'ngil tili, dard va armon tili. Chunki mumtoz she'riyatimizdagi biror bir lirik janr inson ko'ngli va ruhi sir-asrorini g'azal darajasida jonli ifodalay olmagan. Matla' va shoir taxallusi qo'llanilgan maqta'ning bo'lishi g'azalning zarur poetik talablaridan hisoblangan. Fikriy va hissiy yaxlitlikka erishish, ya'ni Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, "har mazmunda matla'e voqe' bo'lsa", "maqta'g'acha surat haysiyatidan muvofiq va ma'ni jonibidin mutobiq"lik<sup>3</sup>, yakporalik o'zbek g'azaliyoti uchun xarakterli xususiyat bo'lgan.

G'azal baytlardan tashkil topgan bo'lib, bu atama arabcha "uy" degan ma'noni anglatadi. G'azallarning 3 baytdan 1 baytgacha shakli mavjud bo'lib, an'anaviy tarzda g'azal 7 va 9 baytda ko'proq yozilgan. Har bir bayt 2 misradan tashkil topadi.

G'azalda birinchi bayt (birinchi ikki misra) "matla" – "boshlanish", oxirgi bayt (oxirgi ikki misra) "maqta" – "tugallanish" deb nomlanadi. G'azalning birinchi bayti o'zaro qofiyalansa, qolgan baytlarning ikkinchi misrasi g'azalning birinchi baytiga monand qofiyalanadi. Maqtada ijodkor o'z taxallusini qo'llaydi. Maqtadan oldingi bayt "begona bayt" deb nomlanadi va bu bayt g'azalning umumiy mazmunidan biroz chetlashishi mumkin. O'zbekiston xalq shoiri A.Oripov ta'kidlaganidek, "Bu baytda shoir kimni yomon ko'rsa, yomonlaydi, yaxshi ko'rsa, maqtaydi".

<sup>2</sup> Фазалнинг поэтикаси ва эволюцияси ҳакида қаранг: Бертельс Е.Э. История персидско таджикской литературы. – М.: 1960; Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М.: 1965; Мирзоев А. Рӯдаки ва инкишофи газал дар асрҳои X-XV. – Сталинобод, 1958; Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент, 1961; Носиров О. Ўзбек адабиётида газал. – Тошкент, 1972; Орзивеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент, 1976.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Асарлар. IV том. – Тошкент, 1965. – Б. 467.

G'azallarda uchrovchi “**e**” tovushi haqida alohida to'xtalib o'tish zarur. Chunki birgina shu tovush fikr mazmunini o'zgartirib yuboradi. Bu tovush “**bir**”, “**yakka-yu yagona**”, “**yolg'iz**” degan ma'noni anglatadi. Masalan: “Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam, Yo'lg'akim, avval qadam ma'shuqe o'tru kelmadi” baytida “**ma'shuqe**” so'zida uchrovchi “**e**” tovushi “bir dona ma'shuq” degan ma'noni anglatadi.

Aruz vaznidagi g'azallarda hijo (bo'g'in) quyidagi usulda tasnif etiladi va shunga asosan talaffuz etiladi.

1. Qisqa hijo – qisqa talaffuz etiladigan unlidan iborat yoki shunday unli bilan tugagan ochiq bo'g'in. (“**O**” tovushidan tashqari) Ushbu bo'g'in so'zning oxirida vazn talabiga ko'ra cho'ziq talaffuz etilishi ham mumkin.

2. Cho'ziq hijo – cho'ziq talaffuz etiladigan unlidan iborat (asosan “**O**” tovushi) yoki shunday unli bilan tugagan ochiq bo'g'in hamda tarkibida qisqa unlisi bor bo'lgan yopiq bo'g'in.

3. O'ta cho'ziq hijo – tarkibida cho'ziq talaffuz etiladigan unlisi bor bo'lgan yopiq bo'g'in yoki oxiri qator undosh bilan tugagan bo'g'in<sup>4</sup>.

Qisqa hijo “**V**” belgisi bilan, cho'ziq hijolar esa “–” belgisi bilan belgilanadi.

Masalan, quyidagi baytni hijolar shakli bo'yicha tahlil etib ko'raylik:

**A yo qing g'a G'G' tu shar har lah G'G' za gi su,**

V --- G'G' V --- G'G' V --

**Ma sal dur kim: G'G' “Cha rog' tu bi G'G' qa ron g'u”**

V --- G'G' V --- G'G' V --

Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq<sup>5</sup> emdi fan<sup>6</sup> qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum<sup>7</sup> kebi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin<sup>8</sup> yasa gulshan,

Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a<sup>9</sup> bag'ir qonidin hino bog'la,

<sup>4</sup> Дурдана Зохидова, Аруз илми, Тошкент, “Мухаррир” нашриёти, 2012 йил, 19-бет.

<sup>5</sup> Одамийлик

<sup>6</sup> Одат

<sup>7</sup> Кўз қорачиги

<sup>8</sup> Бог (жаннат)

<sup>9</sup> Йўрга от

Itingg'a g'amzada<sup>10</sup> jon rishtasin<sup>11</sup> rasan<sup>12</sup> qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa, tufroqim, yey charx,

Hamir etib yana ul tog'da ko'hkan<sup>13</sup> qilg'il.

Yuzung visolig'a etsun desang ko'ngullarni,

Sochingni boshtin-ayoq chin<sup>14</sup> ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, yey bog'bon, emas mone',

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub, o'lsam, yey rafiq, meni

Gulob ila yuv-u, gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,

Aning boshoqliq o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Sakkiz baytli bu g'azal asrlar osha el orasida mashhur bo'lib kelmoqda. Radifi – sof turkiy (o'zbekcha) so'z. Qofiyasiga shoir arabiylar («fan», «vatan», «rasan», «kafan»), forsiy («ko'hkan», «shikan», «anjuman») kalimalarga ohangdosh o'zbekcha so'z («tikan») ham topadi.

Ushbu g'azal sakkiz baytdan iborat. U mujtassi musammani maxbun va maxbuni maqtu', ya'ni *mafoilun-failotun-mafoilun-fa'lun* vaznida bitilgan. Taqte'si quyidagicha bo'ladi: V – V – G'G' V V – – G'G' V – V – G'G' – –.

G'azal oshiq qalbning yetuklik va kamolot timsoli bo'lmish komil insonga jo'shqin muhabbatini ifodalangan mashhur she'rlardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>. XX asr boshlarida uni mashhur xonanda To'ychi hofiz Toshmuhammedov «Shashmaqom» tarkibiga kiradigan «Ushshoq» («Oshiqlar») kuyi asosida qo'shiq qilib aytadi. «Shashmaqom» tarkibidagi bu kuyning aynan shunday nomlanishi ham beziz emas. Olimlar, *bu kuyda oshiq qalbning yor vasliga yetish yo'lidagi iztirob-u nola-yu fig'onlari aks etgan*, deb hisoblashadi. Bir asr mobaynida bu g'azalni ko'pdan ko'p xonandalarimiz ijro etdi. Matlaning o'zidayoq liriik qahramon oshiq tarzida so'z boshlab, yoriga to'g'ridan to'g'ri «qaro ko'zum» deb murojaat qiladi, undan kelib odamgarchilik («mardumlig'») qilishni, yana ham aniqrog'i, oshiq ko'zi qorasida

<sup>10</sup> Ишва, нозли қараш

<sup>11</sup> Ип, аркон

<sup>12</sup> Ип, аркон

<sup>13</sup> Тот казувчи, Фарходнинг лақаби

<sup>14</sup> Тугун

gavhar («*mardum kebi*») vatan tutishni so’raydi. «*Mardum kebi*» ifodasida zimdan «*odamdek*» degan ma’no ham yashirin. Bilamizki, ko’z qorachig’i ichida yana qop-qora gavhar («*gavharak*» ham deyishadi) bor. U eski tilimizda «*mardumak*» deb ham ishlatilgan. Hozir ham bu shakl ayrim shevalarimizda saqlanib qolgan. Demak, shoir birinchi va ikkinchi misralarda shakldosh (omonim) so’zlar ishlatib, tajnisga erishgan. Inson qachon insonning ko’zida yashaydi? Qachonki uning qarshisida bo’lsa. Kimningdir ko’ziga qarasangiz, unda o’z aksingizni ko’rasiz. Tasavvufiy adabiyotda uchraydigan timsol-istilohlar lug’atlarida ko’z komil inson timsoli sifatida tushuntiriladi. Xuddi komillikka erishgan inson o’zidan kechib, boshqacha aytganda, o’zidagi barcha illatlarni bartaraf etib, faqat Yaratganni ko’rgani, uni o’ylagani kabi, ko’z ham o’zini ko’rmaydi, o’zgalarni ko’radi. O’zi, umuman, yuzga ilohiy go’zallik ramzi deb qaraladi. Ko’z esa – ana shu go’zallik jamlangan asosiy manba. Chunki yuzning bor jozibasi – ko’zda mujassam. Ko’zni sevish orqali ilohiy jamolni yaxshi ko’rish ifodalanadi. G’azaldagi lirik qahramon ana shu ko’zda nazarda tutilgan komil insonni o’z ko’zining gavhariga aylantirmoqchi. Shu tariqa matladan quyidagicha ma’no-mazmun anglashiladi: «*Qora ko’zligim* (go’zal yorim), *kel endi, odamiylik muruvvatini ko’rsatishni o’rgan* (odat qilgin), *ko’zimning qorachig’iga* (gavhariga) *gavhar* (qorachiq) *kabi o’rnashgin* (maskan tut)». O’zbek tilida «*ko’z*» kalimasining o’z va ko’chma ma’nosidan foydalanib ishlatiladigan ko’plab so’z-u iboralar mavjud. Ular orasida, ayniqsa, «*ko’zlamoq*», «*ko’z tutmoq*» va «*ko’z tikmoq*» kabi ifodalarning ma’nosi bilan matlada bayon etilgan mazmun o’rtasida muayyan o’xhashlik bor. Chunki lirik qahramon yorning (bu yerda ham komil insonning, ham Allohning) vasliga ko’z tikyapti. Matla – nihoyat darajada puxta-pishiq, ohoriy va ta’sirchan. Mumtoz adabiyotshunosligimizda bunday boshlanmalar «*husni matla*» yoki «*shohbayt*» dyeyilgan. Oshiq – yori uchun tamoman sadqa bo’lishga tayyor. G’azal baytlarida u buni bosqichma-bosqich isbotlab boradi. Lirik qahramon matlada yorning ko’zi o’z qorachig’idan o’rin olishini istagan bo’lsa, ikkinchi baytda uning yuzi ko’ngli jannatida, qaddi-qomati esa joni gulshanida joy tutishini orzu qiladi. Lirik qahramon yori yuzining guliga ko’ngil jannatini gulshan, uning qadd-u qomati

niholiga esa jon gulshanini chaman qilishni istaydi. Shu tariqa oshiqning iltijosi yanada kuchaytirilgan. Bu yerda zimdan «*jon*» so’zining arab alifbosida yoziladigan ko’rinishi ham nazarda tutilgan. Chunki bu so’z o’rtasida keladigan «*alif*» harfi tik tayoqcha tarzidagi shaklga ega. Bu esa adabiyotda yorning tik qomatiga o’xshatilgan. Bu o’quvchi ko’z o’ngida gulzor oralab tik qomat yor yurgandagidek tasavvur uyg’otadi. Xuddi «*jon*» so’zini yozuvda ifodalaganda «*alif*»(«*o*») harfi «*jim*» («*j*») va «*nun*» («*n*») harflari o’rtasidan o’rin olgani kabi, yorning qaddi ham – jon gulshani ichida. Yuz timsoli tasavvufda ilohiy go’zallik ko’rinadigan makon tarzida talqin etiladi. Ko’ngil ravzasi bu yerda oshiqning intizor qalbini bildiradi. Baytda komil inson (pir) diydoridan bahramand bo’lgan oshiq dilining yayrab ketishi aks ettirilgan.

Uchinchi baytda: «*Yey yor, yo’rg’a oting oyoqlariga bag’rim qonidan hino bog’lab, g’amingda qiynalib, azob-uqubat chekayotgan jon ipini itingning bo’yniga arqon qilib bog’la*». Hino qo’yish – Sharq xalqlari, jumladan, o’zbeklarga ham xos qadimiyligi an’anaviy odatlardan biri. Bu xursandchilik kunlari qo’yilgan. Hinoning rangi qon rangiga o’xshaydi. Shundan foydalaniib, lirik qahramon yorining o’z oti oyog’iga uning bag’ir qonidan hino bog’lashini istaydi. Bu bilan ishq yo’lida uning har qanday qiynashlari, hatto, xo’rlashlariga tayyor ekanini bildiradi. Boringki (baytning ikkinchi misrasida), u yorining g’am chekayotgan joni ipidan o’z itiga arqon qilib olishiga ham rozi. Lirik qahramonning hissiy-xayoliy tasavvuroti kengaygandan kengayib boraveradi. *Agar, deydi u to’rtinchchi baytda, ajralish («firoq») tog’ida tuprog’im topilsa, uni loy («hamir») etib, yana qaytadan tog’da tosh yo’nuvchi («ko’hkan») qilib yasa.* Bu erda Odam Atoning loydan yaratilganiga ishora mavjud. Shu tariqa shoir Haqqa bo’lgan ishq azaliy va abadiiyligi, u Odam Atodan meros bo’lib qolganini bildirib o’tmoqchi. Shuningdek, baytda an’anaviy Farhod timsoliga ishora ham borligi ayon bo’lib turibdi. Farhod ham «*ko’hkan*», ya’ni tosh yo’nuvchi edi. Shu mavzudagi dostonlarda u Shirin dardida tog’da halok bo’ladi. Farhod – adabiyotda ishqda sadoqat ko’rsatish, maqsadi yo’lida o’rtanish, g’am-anduh chekish, hijron dardlarini haddi a’losida boshdan o’tkazish timsoli sifatida mashhur. Bejiz emaski,

Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida, *uning ismi «firoq», «ranj», «hajr», «oh» va «dard» so'zlaridan* (arab alifbosi asosidagi imloda bu so'zdagi «a» tovushi yozuvda aks etmaydi) *tashkil topgan*, deb yozadi. Bu bilan lirik qahramon: «*Mening ishqdag'i dardim Farhod dardidan kam emas, hatto, ortiq ham, shuning uchun agar men ma'shuq ishq yo'lida jon bersam, tuprog'imni boshqatdan qorib, qayta yaratsang, yey falak, yana o'sha ishq tog'ida tog' yo'nuvchi qilib yarat*», – demoqchi.

Beshinchi baytga kelib lirik qahramon yana bevosita yorga murojaat yo'liga o'tadi. Bu erda avvalgi baytlardagi yalinib-yolvorish ohangi yo'q. Lirik qahramon: «*Bordi-yu, ko'ngullar yuzning visoliga etsin, desang, unda sochingni boshdan-oyoq o'rabi-chirmab tashla*», – deydi. «*Yuz*» timsoli ilohiy go'zallik manbasi ramzi ekanini bilib oldik. Baytning tub mohiyatiga tushunib yetish uchun endi «*soch*», «*chin*» va «*shikan*» timsollarining ham dunyoviy, ham tasavvufiy ma'nolaridan yaxshi xabardor bo'lish kerak. «*Soch*» tasavvufiy timsol-atama sifatida she'riyatda mavjud dunyo ramzi hisoblanadi. Albatta, mavjud dunyoni ham Alloh yaratib, uni harakatga keltirgan, unga o'z ilohiy nurini sochgan. Soch – yuzga nisbatan qora. Shunga ko'ra, tasavvufiy talqinda u Iloh manbasiga nisbatan qorong'i va bepoyon (chunki soch – uzun). Sochning chin-u shikanlari (jingala-yu xalqalari) solik ruhi ovora va band bo'ladigan dunyo tashvishlarini anglatadi. U ana shu chin-u shikanlarni (bu dunyo tashvishlarini) yengmasa, Mutlaq ruh, ya'ni Alloh jamolini (yuzini) ko'rish baxtiga musharraf bo'la olmaydi.

Oltinchi bayt – nihoyatda ohoriy: *kuz kelib, xazon sipohi yurish boshlasa, yey bog'bon, bu bog' tomida ignadan tikan qilib qo'ysang ham, monelik qilolmaydi*. Bu bilan zimdan umrning o'tkinchiligiga, ishq yo'lida oshiqning imkoniyatlari ozligiga, vaqt g'animatligiga ishora qilinyapti. Chunki dunyoga, mol-u mulkka qancha mehr qo'yma, baribir, u o'tkinchi, bebaqo va bevafo. Faqat Allohgina boqiy, abadiiy, yolg'iz uning yodi bilangina yasha. Baytdagi tasvirda shoir o'sha paytlardagi bog' va hovlilar devori ustini tikanakli butalar bilan o'rabi chiqish odatidan badiiy vosita sifatida foydalangan.

Ettinchi baytga kelib shoir yana oldingi ishqiy tasvirga qaytadi. *Yorimning*

*yuzida terni ko'rib, o'lsam, deydi oshiq rafiqqa (do'stga, o'rtoqqa) murojaat qilib, gulob bilan yuvib, gulning bargidan kafan qilgin!* Gulob – jaydari oq atirguldan tayyorlangan sharbat. Baytda «*gul*» timsoli zimdan oldingi baytdagi «*xazon*»ga qarama-qarshi qo'yilgan. «*Ter*» timsoli zamirida ham teran ramziy ma'nolar yashirin. Shoir nazdida u pokizalik, fayz, tarovat, yor jamolining porlashi, vafo alomati hisoblanadi va unda piri komil qalbining musaffoligi nazarda tutiladi. Gulob bilan gulga o'rash orqali esa oshiqning Alloh vasliga musharraf bo'lism bilan abadiiy hayotga erishish istagi ilgari surilgan.

Maqtada lirik qahramon, Navoiyga murojaat qila turib, *agar jon aro shavq anjumanini tuzsang, uning boshqqlik o'qini shu anjumanning shami qilgin*, deydi. «*Anjuman shavq*» – zavqli-shavqli majlis-ma'rakani anglatadi. Bu oshiq qalbida yor vasliga musharraf bo'lism ishtiyooqining haddi a'losiga yetganini bildiradi. Zimdan u ichki qo'zg'alish yuzaga kelgani, ya'ni ruhiy hayajon kuchayganidan dalolat beradi. «*Boshqqli o'q*» – aslida, o'tkir uchli kamon o'qi. Ammo baytda u yorning kipragini anglatib kelgan. U ham, xuddi boshqqli o'q kabi, to'ppa-to'g'ri yurakka borib qadaladi. G'azalning ikkinchi baytida «*jon*» so'zi o'rtasida keladigan «*alif*» harfi bilan yorning tik qomati qiyoslanganini ko'rib o'tgan edik. Maqtada yana «*jon*» so'zi ishlatilgan. Bu yerda endi shoir «*boshqqlik o'q*», ya'ni kiprikning anjumanda jon aro sham (u ham «*boshqqlik o'q*»qa, ham «*alif*» harfiga o'xshaydi) bo'lishi tasviri orqali ikkinchi bor ana shunday o'xshashlikka asoslanadi. E'tibor bergen bo'lsangiz, matla ko'z atrofidagi tasavvurlar bilan boshlangan edi. Maqtada ham undan uzoqlashilmadi – kiprik haqida so'z bordi. Bu mutanosiblik g'azalda *tanosib* san'atini yuzaga keltirgan. Maqtadagi xulosa boshqa baytlardagi mantiqqa asoslanadi: *modomiki, yor diydori orzusi yuragingni band etib, tobora zo'raysa, shu ishq dardida to'lib-toshsang, uning kipragini shu orzung avjga chiqqan anjumanning chirog'iga aylantir, ko'nglingni uning muhabbati shami bilan yorit, ana shunda ma'shuq dardiga giriftor diling doim yoniq, mash'alador bo'ladi.* G'azalning boshidan oxirigacha har baytda kutilmagan timsol, ifoda va tasvir ishlatiladi. Baytdan baytga o'tgani sari lirik qahramonning oshiqlik o'ti balandlab borganini ko'ramiz. Oxirgi ikki baytda oshiq yor ishqida

jondan kechishga tayyor turganini ham bildiradi. Bu ham ishqning kamolga yetganini ifodalashning bir yo'li edi.

### **Hajviy g'azallar**

Beshyog' och bozorida yurg'on edim tinglab g'ovur,  
Bir musofir so'rdikim qayda deb Shayxontovur.  
Man dedim: shundin yurib, shung'o borib, shundog' buril,  
Uchrag'ay bir to'p baqa bulbul bo'lib turg'on zovur.  
Qo'frigin taslim etib o'tg'och zovurdin nariga,  
To'g'ri yur xushtakfurush attori bor joyga dovur.  
So'ng buril chaproq yana sertoshu tufrog' ko'chadin,  
To'xtama, kelguncha duch lag'mon cho'zib turg'on povur.  
San oning lag'monidin bir quloch yutqon bo'l-u,  
Asta yo'l so'rsang keyin so'ylaydi rostin, haytovur...  
Ketdi ul qulluq ila, boqsamki – cho'ntak qup-quruq,  
Vaysatib Gulmatni, vah, kartmonni urdi kissavur.  
Eski Jo'va qatorinda kichik do'kon ochib qo'yduk,  
Sotuvg'a so'ng mayiz-turshak, zira-zirka sochib qo'yduk.  
Sartaroshlik tegib jonga, kechib qaychi va qayroqdin,  
Do'konga bir qoshiq-o'lchov, iptarozu osib qo'yduk.  
Shirin ulfat kelib qolsa, o'choqda yog' bo'lur «jiz-biz»,  
Cho'zib chandir yana yuzlab mijiklarni g'ajib qo'yduk.  
«Faqirga kim soliq salsa oning bo'yni uzulsin», deb  
Peshayvonga yo'g'on-o'qlov harflarda yozib qo'yduk,  
Biron shabko'r harid qilmay o'tar bo'lsa, yiqitg'oni –  
Do'kon oldig'a uch-to'rtta kichik xandak qazib qo'yduk.  
Ko'rung, Gulmat ishi beshdir, durust kampir toping emdi,  
Mana to'yga bo'lib tayyor picha aqcha bosib qo'yduk.

\*\*\*\*\*

Do'konimda kasod bo'lg'on hama molni beray senga,  
Ol-e jonon, Chilonzoru Qatortolni beray sanga.

Samarqandu Buxoro lek so'gal xolga ketur arzon,  
Bu ikki shahrima tegma, qaro xolni beray senga.  
Yana Farg'onayu Urganch, Denov, Jizzaxlarim bordur,  
Har birin nomidur botmon, ne misqolni beray sanga?  
Tegma shoir, olimimg'a, saxiy-sodda dehqonimga,  
Barcha qozi, mirshabu shayx va boqqolni beray sanga.  
Nonimni ol, to'nimni ol, qag'ozu daftaram qolsun,  
Davot to'la zahar tutgil, yasab bolni beray sanga.  
Ki Gulmatda quruq she'r deb, amal-unvonliga uchsang,  
Kuropatkin – gubernator va ginrolni beray sanga.

## MASAL USTIDA ISHLASH

Masal ustida ishlashdan avval, birinchi navbatda talabalar o'zlariga yoqqan mualliflarning masallariga murojaat etishlari lozim. Tanlab olingan masallarda personajlar, dialoglar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik talabani yanada izlanishga, uni yanada yorqinroq ochilishiga yordam beradi. Shu bilan birlgilikda masal o'qishda yana bir ko'nikma mashq qilinadi – bu personaj obrazini yorqin ko'rsata olish ko'nikmasidir. Ammo qiyayotgan ishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun masal o'qishga bo'lган barcha talablarni va shu bilan birga, ish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lган qiyinchiliklarni hisobga olish kerak. Vazifani masalning allegoriyaliligi juda qiyinlashtiradi. Ijrochining ichki nigohi ostida qaysi obraz gavdalantirishi kerak? Muallif tasvirlaganimi yoki ko'zda tutilib qilinayotganimi? Ijrochi talaba iqtidorli bo'lsa, ikkalasini ham nazarda tutishi kerak bo'ladi. Masal ijro qilinganda obrazlar aniq, yorqin yaratilmasa, unda masalning "mag'zi" yo'qoladi. Shuning uchun ijrochi ijro vaqtida barcha harakatlarini obraz yaratishga qaratmog'i kerak.

Masalan, I. A. Krilovning "Fil bilan pashsha" masalini oladigan bo'lsak, muallif bu masalda hayotimizdagi ba'zi-bir maqtanchoqlik kabi illatlarlarni hayvonlar misolida yaqqol aks ettirib beradi. Bu masalda maqtanchoq mushuk,

maqtanchoq kuchuk, maqtanchoq tovuq va maqtanchoq pashshalar muallif tomonidan alohida ta'rif-tavsiflanadi. Masal eshituvchiga va tomoshabinga qiziqarliroq bo'lishi uchun masalni ijrochilik talqini ustida ish olib borish kerak bo'ladi. Masalning har bir qismi mantiqan o'ylab ijro etiladi. Muallif chizgan manzarani ijrochi-talabalar ko'z oldilariga keltiradilar. Ijrochi ijro jarayonida eng avvalo, hayvonlarni tasvirlashga qiziqib ketishi kerak emas, chunki bu holat ijrochining obraz yaratishida soxtalikka olib kelishi mumkin. Eng muhimi, hikoyachi-muallif obrazi g'oyib bo'ladi va uning g'oyasi noto'g'ri talqin etiladi. Pedagog o'zining talabalarini masal qahramonlari obrazini qiziqarli, yorqin ko'rsatishga o'rgatishi va uning ustida ishlashi kerak. Masalni o'qish davomida biz doimo hayvonlar timsolini ko'ramiz, lekin asardagi jonivorlar qiliqlari orqali inson xarakterining turli qirralari tasvirlanadi. Unda eshituvchi va tomoshabinga voqealar haqida aniq va tartib bilan xabar beriladi. Masalni ishlashda avvalo ishni masalni qayta-qayta o'qishdan boshlash kerak. Pedagog birinchi navbatda, talaba o'qishga qanday tayyorgarlik ko'rganiga diqqatimizni qaratamiz. U masalni birinchi marta o'qiganda uni ijobiy tomonlarini aytib, yana bir o'qishda davom etishini aytamiz. Pedagog boshidanoq ijrochini auditoriya oldida turib o'qishga ko'niktirishimiz kerak.

Har bir talaba masal ustida ish olib borar ekan, avvalo, ushbu masal hozirgi davr talabiga javob bera oladimi yo'qmi degan savolga javob berishi lozim.

### **Masallardan namunalar**

#### **Fil bilan pashsha**

**M. Xudoyqulov.**

«Sulton suyagini xo'rlatib qo'ymas,  
Cho'ng daraxting bo'lsa – yetgay soyasi.  
Biror qarindoshing «katta» bo'lsa bas –  
Ishqilib, bir kuni tekkay foydasi», –  
Deya o'zlariga izlashib tirak,  
Ba'zi akamlarning jonlari halak.

\* \* \*

Bir kuni qo'rada jonvorlararo  
Ana shu mavzuda gap yurib qoldi.  
Xo'sh, kimda nomdorroq xesh-u aqrabo?  
Mosh mushuk birinchi bo'lib so'z oldi:  
«E, bizning urug'dan o'rmonning shohi,  
Yo'lbarsbekni, axir hamma taniydi.  
Qalaysan, deb so'rab turadi gohi,  
Yo qo'rangga podsho qilaymi, deydi».  
«Bizning qarindosh ham o'rmonning zo'ri, –  
Deb qoldi Kuchukvoy, – nomlari – Bo'ri.  
Oldimga kel, deydi, mehmon bo'l, deydi,  
Go'shtu suyak juda mo'lu ko'l, deydi».  
«Qa-qa-qarang-a, – qo'shildi Tovuq, –  
Burgut bilan biz ham yaqinmiz juda,  
Katta ammamizga bo'ladi quda,  
Faqat oramizda bordi-keldi yo'q».  
Shunda uchib o'tib qoldi-ku Pashsha,  
So'zga aralashdi u shosha-pisha:  
«E, bizning qarindosh hammadan zo'rroq!»  
«Xo'sh, o'zi kim ekan, qani aytib boq?»  
«Kim bo'lardi – Fil».  
«E o'l-e, yolg'onchi, sal andisha qil,  
Fil senga qarindosh? Qanaqasiga?»  
Pasha der kerilib: «Shunaqasiga, –  
Qarindosh bo'lgan-chun o'xshashmiz shuncha:  
Unda Hartum bor-u menda – hartumcha».

### **Qayroq bilan pichoq**

Nachora – masalda nuql tortishuv,  
Bunda ikki taraf olishar har choq.  
Mana, boshlanyapti yana bir shov-shuv,

Bu gal tortishuvda – Qayroq va Pichoq.  
Pichoq kuyingancha koyir Qayroqni:  
Toshbag’ir, tig’imni qilding-ku, to’mtoq!  
Axir, bo’lsin dedim tig’ing o’tkirroq,  
Kesolmay qolbsan hattoki yog’ni...  
Bu xil «Munozara» cho’zildi uzoq,  
Tortishdilar ikkov xo’p shovqin solib,  
Qancha chiranmasin Pichog’u Qayroq  
Baribir hech biri kelmadi g’olib:  
Qayroq qayramasa – o’tmaydi Pichoq,  
Gar Pichoq bo’lmasa – kerakmas Qayroq.

### **«San’atkor» bedana**

To’qayda shov-shuv gap: Bu kech Bedana  
Xush ovoz, san’atda yakka-yagona –  
Gastrolga kelgan mish kontsert bergali,  
Juda soz, balli!  
Qushlar g’oyat xushvaqt, judayam mammun,  
Qanday yangi qo’shiq aytar ekan u?  
Sabrsizlik bilan kutardi barcha:  
Qaldirg’och, Musicha, Kaptar-u Zag’cha,  
Parda ko’tarildi, sahnaga shu dam  
Bitta-bitta bosib chiqdi «kuychi» ham.  
Qo’shig’in boshlabdi: «Ma-mov, pit pildiq»...  
Ikki uch takrorlab, qildi-da qulluq,  
Kekkaygancha kirib ketdi ichkari,  
Hayronlikda qoldi qushlarning bari:  
«I-e, bu qanday gap, bor-yo’g’i shumi?»  
«Shundoq san’atkordan shumidi umid?»  
«O’tgan yil ham shuni aytgandi faqat...»  
«Essiz, ketgan vaqt...»

...Ishni qoyil qilgan kabi Bedana  
Boshqa to'qay sari bo'ldi ravona.

\* \* \*

Bedanada ayb yo'q, parranda xolos,  
«Pit-pildiq»dan boshqa yo'qdir hunari,  
Lekin shunday bo'lar, aytish kerak rost:  
Ba'zi san'atkoring repertuari.

### **Xasis va tovuq**

Derlar ochdan o'lar xasis oxiri,  
Chunki u boriga qilmay qanoat,  
Bo'lган sari bo'lsam, deb o'ylar faqat,  
Ammo ikki bo'lmas hech uning biri.  
Bunga misol o'ylab o'tirmay uzoq,  
Bir cho'pchak aytayin, quloq solib boq:  
Bir kishi bo'larkan o'tgan zamonda,  
Yo'q ekan uning hech kasbu hunari.  
Ammo moli-dunyo ko'p ekan unda,  
Sandiqlarda to'la oltinu zari.  
Sabab: bo'lar ekan unda bir tovuq,  
Shundayin tovuqki, hech bahosi yo'q.  
Tug'ib berar ekan har kun bir tuxum,  
Oddiy tuxum emas, naq oltin tuxum.  
Boshqa-ku, bunga xo'b shukr qilardi,  
Ammo xasis nafsi qachon to'yardi?  
Oqib turgan boylik ko'rinishdi oz,  
O'ylabdi: Tovuqni so'ysam bo'lur soz,  
Yuramanmi bekor kutkilab, chidab,  
Xazina bor deyman uning ichida...  
Shunday qasd qipti-yu, noshukr banda  
Tovuqning bo'yniga tortibdi pichoq.

Xazina axtarib titkilaganda  
Chiqibdi ichidan jo'n ichak-chavoq.

**Tuhmatchi va ilon**

Nima ham bo'ldi-yu, do'zaxda bir kun  
Chaqirildi katta tantana – ko'rik.  
Hamma qator bo'ldi undan o'tish-chun,  
Qilgan gunohiga yarasha turib.  
Qo'qqisdan shunda –  
Ilon tuhmat-chi-la tortishib qoldi:  
Ulardan qaysisi o'tar oldinda?  
O'zaro tortishuv qizg'in tus oldi.  
Kimki qilgan bo'lsa ko'proq qabohat –  
Ma'lumki, do'zaxda birinchi o'sha.  
Ilon intilardi olg'a betoqat,  
Tuhmatchi «Men zo'rman», deb shoshib-pishar.  
Hech birin qolgusi kelmasdi ortda.  
Jabroil janjalga chek qo'yib shartta –  
Orqaga tisarib qo'ydi Ilonni.  
Dedi: «Xizmatlaring katta, albatta,  
To'g'ri, sen ayamay uchragan jonni  
Yovuzliging bilan zahring sochasan.  
Ammo tuhmatchi-chi, yovuzroq sendan.  
Chunki sen xavflisan faqat yaqindan,  
Tuhmatchi singari ko'rinmay turib  
Sochishni bilmaysan tilingdan zahar,  
Undan mumkin emas aslo qutilib,  
O'rtada tursa ham dengizu tog'lar.  
U sendan qabihroq, xullasi kalom,  
Taqdiringga endi sen bergin-da tan,  
O'rmalab o'taver uning ortidan».

Ana shundan beri do'zaxda mudom  
Tuhmatchi Ilondan turar yuqori,  
Joi emish uning – jahannam qa'ri.

**Toshbaqa bilan quyon.**

**Yamin Qurbon.**

Bir kuni quyonni isitma tutib,  
Bir buta ostida yiqilib qoldi.  
Titrab, qaqshab gohi hushidan ketib,  
Dard qursin ko'p yomon junbushga oldi.  
Alahlab kimdandir so'radi yordam,  
O'tib qolsa bormi Toshbaqa shu dam.  
-Hoy do'stim, suv keltir, - yolvordi Quyon,  
Bir qadamcha joyda hovuz bor, ana.  
Toshbaqa suv tomon bo'ldi ravona.  
Bir soatcha o'tdi, yana bir soat,  
Qosh qoraysa hamki ko'rinas hamon.  
Toshbaqani kutar Quyon betoqat,  
Undan hech darak yo'q tutoqdi Quyon:  
-Voy moxov, kosasi qo'tir jo'masho'v,  
Kelib-kelib senga ishim tushsa-ya.  
Qaysi go'rga gumdon bo'lidiykin merov,  
Bir qultum suv o'lsin shuncha kutsam-a.  
Maysa shitirladi: - Nega so'kasan,  
-Keldingmi, xayriyat. –Endi ketyapman.  
Toshbaqasimonlar sizni tutdim nazarda,  
“Tez yordam” aslida ko'p zarur biroq,  
Toshbaqa qo'lida bo'lsa ishimiz chatoq.

**Ayyor sichqon.**

S.Mixalkov.

Uyqusirabmiyey, bir kuni nogoh,

Pivo bochkasiga quladi Sichqon.  
Qarasa – cho'kayapti, ko'tardi oh-voh:  
Axir shirin jon:  
“Voy-dod! Qutqaringlar,yaxshilar!  
Kim bor?  
“Jiguli” pivoda bo'lyapman halok!  
Bema'ni o'limga bo'libman duchor,  
Mushukning qo'lida o'lsam yaxshiroq”.  
Ko'rib turgan edi Mushuk ham shu choq,  
“Shundaymi?” – deya asta iljaydi.  
Sizni qutqarishim mumkin-ku, ammo –  
Ovqat bo'lasiz-da bizga shu asno?”  
“Qutqar,qutqar meni!Roziman mayli!  
Cho'kayapman, qolmadi sira darmonim,  
Bundan chiqib o'lsam – yo'qdir armonim!”  
Va nihoyat tortib olindi sichqon,  
Endi yem bo'lish emasdi gumon.  
O'zini ko'rdi-yu o'tkir tirnoqda,  
Sichqon bechoraning joni ramaqda,  
Dir-dir titrar edi butun vujudi,  
Boz ustiga burqib pivoning hidi...  
Sichqon bir talpinib jon – jahdi bilan  
Ura qochib qoldi mushuk qo'lidan.  
“Ertami yoki kech – yemish bo'lasiz” –  
Dedi panjasini yalarkan mushuk, -  
Shunday ekan nega aldamoqchisiz?  
Axir ikkalamiz kelishgandik-ku?  
Degandingiz: “Mayli yesangiz meni...”  
Qani va'dangiz-u, lafzingiz qani?”  
“Uzr,- dedi sichqon kavakdan jilmay,-

Va'da bervoribmiz mastlikda bilmay..."

### **Rost bilan yolg'on**

Bu yorug' dunyoga kelganki inson,  
Unga hamroh erur Rost bilan Yolg'on.  
Ular bir-biriga raqibdir azal,  
Shu haqda aytaylik biz ham bir masal:  
Bir kun Rost-la Yolg'on uchrashib qoldi,  
Yolg'onning qilig'i – hammaga ma'lum,  
Har ne qabohatni boshlovchi mal'un,  
Qarasaki – Rostning obro'yi baland,  
Unga teng kelolmas urinsa harchand.  
Ishlatmasa bo'lmas hiyla-yu nayrang,  
Asta payt poyladi, mug'ombir, qarang –  
Rostning choponini o'g'irlab oldi,  
Va kirdi-yu uning qiyofasiga  
Yolg'on «Rostman» deya urar ko'ksiga.  
Laqqa tushishardi unga laqmalar,  
Rost-chi, bir chekkada yurar darbadar,  
Axir, kimga yoqar u – yap-yalong'och,  
Qayda bo'lsa urib haydashar: «Qoch, qoch!»

\* \* \*

Rost-Yolg'oni farqlash qiyin tilidan,  
Bilib oling uning niyat – dilidan!

### **Ikki mushuk**

Ayni shu zamonda,  
Bir xonadonda  
Yashardi baqamti ikkita mushuk:  
Biris – Mosh mushuk, ko'rimsiz, xunuk,  
Ikkinchisi esa juda chiroyli,  
Sip-silliq, bejirim, qarang, kiroyi –

Mushukmisan mushuk degudek edi,  
To'lardi har qanday mushukboz didi.  
(O'quvchini bekor qiynamoq nechuk,  
Ganchdan yasalgandi ikkinchi mushuk.)  
Jonsiz, quruq savlat bo'lsa-da harchand –  
Ko'tarardi doim burnini baland.  
  
Nega kibru havo qilmasin, axir,  
Mosh mushuk uzzu kun poylab sichqonni  
Ne azob-la qornin to'qlasa arang,  
Omadni qarang:  
Ganch mushuk jonini qiynamay taqir  
Yamlamay yutardi tanga-chervonni.  
“Eh,— derdi ganch mushuk Moshga bezabon,—  
Senga qarab turib bo'laman hayron,  
Qo'shni-yey, olsang-chi, sen mendan o'rnak,  
Yashashning yo'lini bilish ham kerak”.  
  
Mosh unga qayrilib solmasdi nazar.  
(Qarang-ki, dardi yo'q sopol matohdan,  
Ishlamay tishlagan tekintamoqdan –  
Hattoki mushuk ham qilardi hazar.)  
  
Chamamda gapimiz cho'zildi picha,  
Ne bilan tugadi oxir natija?  
Ganch mushuk boylikni to'pladi rosa,  
Bir kun qarasa –  
Kelibdi olganini qaytarmoqqa gal:  
“Paq!” etkizib erga urilgan mahal –  
Parcha-parcha bo'ldi mushuk banogoh.

\* \* \*

El molin o'marib dunyo yiqqanlar,  
Oltinu zarlarin xumga tiqqanlar –

Koshki bu misoldan bo'lishsa ogoh.

### **Toshbaqa bilan kiyik**

To'qay chetidagi daryo bo'yida

Toshbaqa bemalol umr surardi.

Lapanglab qimirlar nafsin ko'yida,

Birovning dardi-la yo'q edi dardi.

Dunyoni o't olsa, suv bossa ne g'am,

Axir, bor-ku, uning qalin qalqoni.

Kor qilmagan unga chayon nishi ham,

(Bu haqda yozganlar bobo Gulxaniy)

Shu zayl yasharkan, kunlardan bir kun –

Toshbaqa Kiyik-la uchrashib qoldi.

Polvon qalqonidan chiqarib bo'ynin.

Kiyikka iljayib, asta so'z oldi:

«Ha, oshnam, qalaysan, bormisan omon?

Bilaman, senga ko'p qiyin, bechora.

Doim sakrab, chopib saqlaysan-da jon,

Qismating shu ekan, afsus, ne chora...

Mana, mening esa yo'rig'im boshqa,

O'ralib olganman mustahkam toshga.

Terining qalini – jonning huzuri,

Dahl qila olmas har qanday zo'ri,

Uncha-muncha narsa bizga etmas kor...»

«Bo'ldi bas, Toshpolvon, chiranma bekor, –

Dedi Kiyik. – To'g'ri, senda bor qalqon,

Ko'p og'ir karvonsan, tepsa tebranmas,

Ammo sendaylarni boplamoq oson:

Oyog'ing osmondan keltirilsa – bas!»

### **Qarg'aning da'vosi**

*Qarg'a – «qag'» etadi, o'z ko'nglini chog' etadi.*

*Xalq maqoli*

Qudratli qanotin kergancha mag'rur –  
Parvoz etar ekan Lochin falakda.  
Pastdan uni ko'rib bir Qarg'a qurg'ur –  
Qarangki, hasaddan joni xalak-da...  
«Nahotki Lochinday ucha olmasam?  
Menda ham shu qanot, ikki dast panja,  
Savlat-u parim ham undan emas kam,  
Uchsam kerak undan yaxshiroq ancha», –  
Deya chirangancha Qarg'a lapanglab  
Ko'kka ko'tarildi, ammo bo'ljadi.  
«Qani, ko'ramiz», – deb to'qayda qarab, –  
Turgan parrandalar ko'ngli to'ljadi.  
Horib-charchab, baland daraxtg'a qo'nib  
Hurpayib, chiqqancha jig'i-biyroni,  
«Hap-sanimi!» – deya Lochinni yonib,  
Fitna-yu fasodi tutdi dunyoni:  
«Bilaman, Lochinning o'zi aybdor,  
Bizlarni mensimas, u – balandparvoz.  
Dunyoni ko'ziga qilmasammi tor,  
Boshqa qilmishlari ham emasdир oz...»  
To'qayga tarqatib turli xil ig'vo,  
Zog'u zog'onlarni gij-gijlab qo'yib,  
Koshkimish, hatto –  
Olsa emish ikki ko'zini o'yib...

\* \* \*

«Qag'-qag'»lab ming shovqin solsin kunu tun,  
Qarg'a – qolaverar qarg'aligicha.  
Chunki, Lochin kabi parvoz etish-chun  
Lochinning yuragi lozimdir picha.

## **Baland dor**

Targ'il mushuk hiyla kattazang edi,  
(Faqat odamdami desam bu qusur,  
Hayvonlar aro ham uchrarkan, qurg'ur.)  
Mushuk-ku, shunchaki, sichqonxo'r jonvor,  
Poylagani nuqlu tirqish-u ombo  
Va lekin hech kimga gap bermay derdi:  
«Mushuk bo'lgan bilan bizning otimiz,  
Judayam yuqori tagi-zotimiz.  
Yo'lbars urug'idan bizlar aslida...»  
Gapining ustidan chiqish qasdida –  
Ahd qildi Yo'lbars-la quda bo'lishga.  
Yaqinlari rozi emas bu ishga,  
O'rtaga olishib, uni koyishdi:  
«Barcha harakating ketar bekorga».  
«Osilsang – osil-da balandroq dorga», –  
Deb Targ'il bu yo'lda kuydi-yu, pishdi.  
Har mushkul hal bo'lar urinsang juda,  
Qarang, mushuk bo'ldi Yo'lbarsga quda.  
Endi Targ'ilvoyning boshi osmonda,  
Hamma gapirardi uni o'rmonda:  
«Zo'r ekan, Yo'lbarsga bo'pti-ya quda».  
«Ha, endi pichog'i moyning ustida...»  
To'y yaqin, o'sha kun quda siylovi,  
Lozimdir Yo'lbarsning ko'nglin ovlovi.  
Targ'il taraddudda, bosh qotdi tamom,  
Yo'lbarsga yoqarkin qandayin taom?  
Eng semiz sichqondan nechta so'yilsin?  
Pishloqmi yo ichak – nima qo'yilsin?  
«Esing bormi? – dedi shunda Olapar, –

Yo'lbars pishloq ermish, ayt-chi, kim ko'rgan?  
Sichqon-pichqoningdan qiladi hazar!»  
«Nima yeidi axir? Aytgin, jon qo'shni,  
Qudamga pishiray qandayin go'shtni?»  
«U faqat kiyikning go'shtin eb yurgan...»  
«Nahot shunday bo'lsa?»  
«Ha, xuddi shunday...»  
Derlar ko'z ko'radi ne tushsa boshga,  
Mushukvoy yo'l oldi kiyik ovlashga.  
Bu yog'iga endi men ham ne deyay...

*Ikki dugona*

«Aziz dugonaginam,  
Uylaring muncha shinam, –  
Dedi hasad bilan chiyillab Sichqon,  
Kalamushnikida bo'lganda mehmon, –  
Qayoqqa qaramay ko'zim qamashar,  
Jihozlar uyingga biram yarashar.  
Qara-ya, hammasi chet elniki-ya!»  
«Oh, jonginam hamsoya, –  
Der kalamush tortib og'ir «uh», –  
Mening didim senga ma'lum-ku!  
Uncha-muncha narsani suymayman sira,  
Chet elniki bo'lsa jonlarim kirar.  
Manovi turk divanining lattasi,  
Manov eron gilamining parchasi,  
Manov engil parqu-chi, kecha kelgan  
Afrikadan, uni yubormish Po'lkan».  
«Bular-ku. Juda soz, aytgin-chi faqat –  
Tomog'ingdan o'tmas biz egan ovqat?»  
«Nega, o'rtoqjon,

Hamma kabi yeymen saryog'u oq non...»

O'zimiznikini yerkarga urib

Chetning lash-lushini maqtovchilar bor.

Hamma narsamizni yomonlab turib,

Nonimiz yeishdan qilishmaydi or.

## **MONOLOG USTIDA ISHLASH**

Monolog (grekcha Monos – bir; logos – so'z) – asar qahramonining suxbatdoshiga, o'ziga, ba'zan tomoshabinga qarata aytgan so'zi nutqi.

Monolog sahna asarining g'oyasini ta'sirli ochishda, qahramonlarning ichki dunyosini, xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni yoritishda muhim o'rinni tutadi.

Dramatik asarda ichki va murojaatli monolog mavjud.

**Ichki monolog.** Aktyor sahnada o'zi bilan o'zi kurash olib borishga majbur bo'lган vaziyatda xosil bo'ladi.

Ichki monolog - bu insonning o'z qilmishlarini qaytadan baholashi, o'z xulqini asoslashi, hayotiy mavqeini tasdiqlashi, u yoki bu voqealarda o'z munosabatini bildirishi uchun kerak bo'lган hayotiy zaruratdir.

Mazmun - mohiyatiga ko'ra ichki monolog – bu mantiqan bog'liq bo'lган chuqur g'oyaviy – ruhiy mazmun bilan to'ldirilgan mulohazalar zanjiridir. Shuning uchun monologlar boy ichki dunyoga ega bo'lган shaxslargagina xosdir.

**Murojaatli monolog.** Aktyor sahnada bir o'zi emas va uning monologi ham ma'lum shaxslarning ongiga ta'sir qilishiga qaratilgan bo'ladi.

Sahnadagi partnyorlarga qaratilgan murojaatli monolog nutq shaklidagi dialoglardan iborat uzun replika tarzida ifoda etiladi. Odatda bunday monologlar faol o'yash va fikr yuritish holatini aks ettiradi; bularda ham hayotiy muhim muammolar hal qilinadi, tomoshabinlar ko'z oldida fikrlarning paydo bo'lishi (tug'ilishi) qahramonlarini his-tuyg'ularining samimiyligiga ishonishga majbur qiladi, spektakl qahramonlariga hamdard bo'lismiga undaydi. Bunday murojaatli monologlar dramatik asarlarda ko'p uchraydi.

Tomoshabinlarga emotsiyal - hissiy ta'sir qilishda aktyor hislarni boy va

nafis bo'lishigina emas, balki ular ijrochining xafa yoki xursand bo'lishiga sabab bo'lган holatlarni tomoshabin qabul qilishi yoki qilmasligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham, kishi birovni yig'lashga majbur qilgan sababga qo'shilmasa uning o'zi ham yig'lamaydi. Agar spektakl qahramonlari kechinmalari sizga yaqin, tushunarli bo'lsa, unda zalda o'tirgan tomoshabin ko'zida ham yosh paydo bo'lishi mumkin.

Monologning baddiy - estetik ta'sir kuchi ham shunda, asosan monologda spektakl qahramonlarining xursand yoki hafa bo'lishi sabablari yoritiladi. Bu daqiqalar tomoshabinga hayot to'g'risida, yomon va yaxshi, to'g'ri va egri haqida fikr yuritishga, o'ylashga imkon beradi.

K.S.Stanislavskiy teatrda tomoshabinlarga nisbatan katta mas'uliyat yotganligi, har qanday san'at kabi teatr ham uning ongini chuqurlashtirishi, uning hislarini noziklashtirishi, madaniyatini yuksaltirishi kerakligi, tomoshabin spektakldan so'ng hayot va zamonga chuqurroq qarashi kerakligi haqida yozgan edi. Aynan monologlar orqali aktyor tufayli tomoshabin o'z hayotini yangicha his qilishga, qaytadan ko'rib chiqishga, o'zida yangi ijodiy kuchlar topishga va yana yuqoriq pog'onaga chiqishga qodir. So'z san'atining kuchi ham – shundadir.

Monologni N.G.Chernishevskiy o'ziga xos dialog deydi. Masalan «Gamlet» Shekspir tragediyasidagi Gamletning monologlarida – o'zi bilan o'zi bahslashayotgandek bo'ladi.

Monolog ustida ishslash jarayoni ijrochidan katta mas'uliyat talab qiladi. Ijrochi avvalo qaysi bir sahna asaridan olingan monolog bo'lsa, asarni to'liq va mufassal o'zlashtirishga kirishadi. Asar nima uchun yaratildi? Muallif nima demoqchi? Asardagi ishtirokchi personajlar hayoti, maqsadi, g'oyasi nimadan iborat? Monologi bilan nima demoqchi? Nimaga erishmoqchi? Shular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgach, monolgga murojaat qiladi. Monologni mantiqiy tahlilini qilish kerak:

### **Oliy maqsad.**

Monolog ijrochisining niyati – asosiy fikriga oliy maqsad deyiladi. Har qanday ijro etish uchun olingan asar (monolog ham asardir) o'z oliy maqsadiga ega

bo'lishi shart. Ana shu oliy maqsadning o'zigi xos xususiyatlari bor:

a) Oliy maqsad ijrochi uchun mayoqlik vazifasini o'taydi. Ijrochi har doim o'shangan intiladi. Barcha qolgan vositalar unga eltuvchi yo'lga bo'ysundiriladi. Oliy maqsadsiz ijro etilgan asarda xulosa aniq bo'lmaydi.

b) So'z san'atini egallashning boshlang'ich davri bo'lgan ko'rish elementi ustida ishslash paytida ham oliy maqsadni belgilab olish zarur. Bu jarayon ham oliy maqsadsiz bo'lishi mumkin emas.

v) Oliy maqsad ko'pincha asar g'oyasiga mos keladi.

g) Oliy maqsad – o'tmish davr va davr adabiyoti bilan hozirgi davr o'rtasida bog'lovchilik «ko'priklid vazifasini o'taydi».

Demak ijrochining ijro etgan monologi qiymati uning oliy maqsadi bilan o'lchanadi.

### **Asosiy voqea**

Talabalar bilan monolog ustida ishslash jarayonida. Asarni asosiy voqeasini topib olish kerak. Oliy maqsad ijro jarayoni – ishslash jarayonida o'zgarishi, aniqlanishi mumkin, ammo asosiy voqea esa oldindan va qat'iy aniqlab olinishi shart. Har bir asarni yoki asardan olingan parchaning monologning vujudga kelishiga va shakllanishiga turtki beruvchi voqeaga asosiy voqea deyiladi.

### **Voqealar tizimi**

Monologni yaxlit gavdalantirmoq uchun asarni oliy maqsadi aniqlab olinadi. Ana shu oliy maqsadga erishguncha bir necha voqealarni bosib o'tish kerak. Shuning uchun monologni bo'laklarga voqealarga ajratib olamiz. Ammo ana shu voqealarning ichida muhim va yondosh voqealar mavjud bo'ladi.

**Muhim voqea** – deb monologdagi eng asosiy muzmunini qamrab oluvchi bo'lakka aytildi. Ana shu muhim voqeani yonidagi voqealar birlashgan bo'laklarga yondosh voqealar deb ataladi.

Xullas tanlangan asarimiz ya'ni monolog voqealarga bo'lingach, ularning muhim va yondoshlari aniqlanadi va ularni qiymati va rang-barangligiga alohida e'tibor beriladi.

Monolog voqealarga ajratilgach, har bir voqea bo'yicha qilinadigan ish aniqlanadi. Uning vazifasi belgilanadi.

### **Harakat**

«Sahnada harakat qilmoq kerak, – deydi. K.S.Stanislavskiy. Drama san'ati, aktyorlik san'ati harakatga faollikka asoslangan... Sahnada ham jismoniy, ham ruhiy harakat qilmoq kerak». Harakat matn zaminiga joylashgan ruhiy boylik, ya'ni muayyan vazifalarni bajarishga undovchi istakdir. Monologdagi har bir so'z va jumla aniq harakatga tayanishi kerak.

Harakatlar ijrochining (talaba), birinchi shaxs tilidan aniqlanadi, fel bilan ifodalanadi.

### **Yyetakchi harakat**

Monolog ijrochisi o'z oliv maqsadiga erishish uchun bir necha g'ovlarni yengib o'tishi kerak. Ana shu g'ovlarning-to'siqlarning umumiyligini ifodasiga yetakchi harakat chizig'i deyiladi.

Monologdagi yetakchi harakat o'sha personajning yetakchi harakatidan iborat bo'ladi. Biroq ayrim asar tarzida ajratib olinganligi uchun, Ayni shu monologning mazmunini yoritib berishga xizmat qiluvchi boshqa yetakchi harakat belgilash ham mumkin.

Demak yetakchi harakat deb, ijrochi yoki personajning oliv maqsadga erishmoq yo'lidagi eng asosiy intilishi, bajarilishi zarur bo'lgan vazifa va kirdikorga aytildi. Qolgan barcha harakat va boshqa elementlar ana shu harakat chizig'iga tizilishi va shu yo'l bilan birlashuvchi va oliv maqsadga erishmoq uchun harakat qilishi kerak.

### **Tub ma'no**

Monologda ijrochi ko'nglidan o'tkazayotgan asl ruhiy holati, niyati, aytmoqchi bo'lgan, ammo boshqa so'zlar orqali ifoda etgan istagi tub ma'no deyiladi. K. Stanislavskiy fikricha: bu har doim matnni asoslab, jonlatirib beruvchi, ko'zga tashlanmaydigan, ruhan seziladigan ammo matn ostida uzlucksiz oqimni tashkil etuvchi «inson ruhining hayoti»dir.<sup>1</sup>

Qo'g'irchoq teatri aktyorlari bilan monolog ustida ishlaganda yuqoridagi

ko'rsatmalarga amal qilgan holda ish olib boriladi. Ammo matnlar, yo'nalishga monand bo'lishi va uning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy bajarilishini ta'minlash shart. Masalan.

### ***Hakka monologi***

Odamlar meni o'g'ri deyishadi. Shu ham gap bo'ldimi! Nima boshqa qushlardan ortib ketgan joyim bormi? Ko'p qatori tirikchilik qilib yuribman-da. O'zimga keragidan ortiq narsani o'margan bo'lsmam, teshib chiqsin.

Faraz qilaylikki yog'liqqina qatiqni suzmasidan qurut qilib, oftobga terib qo'yilgan. Atrofda hech kim yo'q. Xo'sh, siz o'sha qurtlarni bir-ikkitasini totib ko'rmagan bo'larmidingiz? Faqat oliftagarchilik qilmay ochig'ini aytavering.

Yoyinki tomga yoyib qo'yilgan yong'oqqa duch keldingiz deylik. Nega endi undan uch-to'rtta chaqib ko'rmaslik kerak ekan? Bilaman shaxsan siz qorinni ham to'ydirasiz, cho'ntakka ham urasiz. Men bechorada cho'ntak nima qilsin.

Tuxum vajiga kelsak, tuxumni qasddan o'g'irlaydi desangiz, bu gapingizga qo'shilmayman. Birov haqida o'ylamay netmay, bo'limg'ur gaplarni aytib, ta'na taqib yurish yaxshi emas. Buni g'iybat deyishadi.

O'zingiz bilasiz men ashulachiman. Ashulachi bo'lganda ham, mayna-saynalardek xashaki yallachilardan emasman. Terakni qoq uchiga qo'nib shaqillashni boshlasam, ovozim yetti maxallaga taraladi. Shunaqa ovozingiz bo'lsa, siz ham kuniga tuxum yutushni kanda qilmasdingiz. Endi bilgandirsiz nega tuxumga o'chligimni.

Iya, xuv anavi obdastaning yonidagi nima? Pishloqmi? Voy atir sovun-ku! Yerda uvol bo'lib yotibdi-ya. Xoynaxoy odamlarga kerakmasga o'xshaydi.

**Asosiy voqeа:** – Hakkani o'g'rili.

**Voqealar tizimi: Harakati:**

- a) qurtni o'g'irlash fosh etaman;
- b) yong'oqni o'g'irlash qoralash;
- v) tuxum o'g'irlash qoralash;
- g) qo'shiqchiligi o'zini oqlash;
- d) sovun yug'indisini o'g'irlash qoralayman.

**Muhim voqeasi** – Tuxumga o’chligi.

**Yetakchi harakat** – Hakkani hech narsadan qaytmasligi, ochko’zligi.

**Oliy maqsad** – Hakkani surbetligini ochib tashlash.

Monolog ustida ishlaganda yuqoridagi mantiqiy taxlil sxemasi asosida ish olib borishadi.

Ijrochi talabada «Hakka»ning obrazini shakllantirish uchun yana bir e’tiborga molik ish jarayoni – jumlalar, so’zlarni tub ma’nosini aniqlashdir.

Masalan: Odamlar meni o’g’ri deyishadi. – (Men o’g’rilib tan olmayman, men o’g’ri emasman) – demoqchi.

Shu ham gap bo’ldimi! – (Yolg’on, bunday emas va hokazo).

Hakkaning yurish – turishi o’ziga xos sayroqi ovozidan kelib chiqib nutqiy xarakterini topish, qo’g’irchoq teatri aktyori uchun o’ta muhimdir. Bu borada maqsadga erishishdagi tub ma’noga e’tiborni qaratish kerak.

Qo’yida bir necha monologlarni e’tiboringizga havola etamiz.

### *Qovog’ari monologi*

Bir parvoz qilganimcha bug’doyzorning ustidan to’xtamay uchib o’tishni niyat qilgan edim bo’lmadi, yarim yo’lda motorim qizib ketdi. Birdan pastga to’ng’idim-u zirillab borganimcha boshoqqa urildim. Bug’doyning poyasi kamalakdak egilib men turgan boshoq yerga borib tegdi, keyin arg’imchoqda uchganday, yana balandga ko’tarildim.

Qarang-a tuppa-tuzuk o’yin bor ekan-u, men bilmay yurgan ekanman. Endi bekor qolgan paytlarimda mana shunaqa xalov tuyaga minib maza qilib o’ynayman.

Hozir vaqtim ziq. So’zanak bilan pichanzorda uchrashishim kerak. Uning otasi bilan onasi meni mehmonga chaqirishibdi. Qani so’zanaklarning ovqatidan ham bir tatib ko’raylikchi.

So’zanak bilan tanishib qolishim qiziq bo’ldi. Tunov kuni pichanzordagi kurmaklardan biriga qo’nib, dam olib o’tirsam, sochiga ko’k latta tang’igan bir qizaloq shippa-shippa qadam tashlaganicha yonimdan o’tib ketdi. Orqaroqda kelayotgan bolakay esa «Vertolyot kichkina ekan, avaylab ushla» deb unga

pichirladi. Vertolyot nima ekan deb mundoq qarasam, nariroqdagi qiyogni uchida chiroyli bir So'zanak qo'nib turibdi.

Qizaloq qo'lini ambur qilgancha, uning orqasidan pusib borayapti. G'izillaganimcha So'zanak tarafga otildim-u dumiga bir turtib o'tib ketdim. Ikkalamiz barabar havoga ko'tarildik.

– Buncha anqayasiz, So'zanakxon! – deb g'o'ng'illadim unga uchib keta turib – anavi pismiqlar sizni poylab yurishibdi.

Shu payt xaligi bolakay pastdan turib «Xap senimi bombardimonchi!» deb menga musht o'qtaldi.

Bombardimonchi degani nimaligini bilmayman-u, nazarimda, bu – chaqimchilarga qo'yilgan yangi laqab bo'lsa kerak. Topdimm!

Gapning qisqasi o'shandan keyin So'zanak bilan juda inoqlashib ketdik. Mana bugun mexmondorchilik.

Xohlasang, seni ham birga olib borishim mumkin, lekin boradigan bo'lsang, avval matoringni yaxshilab sovitib ol, oshna.

### *Chumoli monologi*

Ishkom ostida tirmirskilanib yurib, daroyi uzumning urug'ini topib oldim. Qurib ketkur zil zambil ekan, itarib ham, tortib ham joyidan siljitolmadim. Tavakkal qilib orqalab olsammikin, deb turgan paytimda, oldimdan vishillaganicha badbashara maxluq chiqib qolsa bo'ladimi.

Buvim kechagina yovuz ajdarho haqida ertak aytib bergen edilar. O'sha qonxo'r og'zini katta ochgancha shu tobda oldimdan chiqib turibdi! U bilan solishay desam, ertakda Ajdarhoni o'ldirgan Qilichbotir men emasman. Qo'limda qirq gaz keladigan qilichim ham yo'q.

Darrov es-xushimni yig'ib oldim-u, muloyimlik bilan unga ta'zim qildim.

– Assalomu alaykum, janob Ajdarho, – dedim.

Ajdarho avvaliga negadir o'ng'aysizlanib u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydi. Keyin birdan ko'krak kerib, ko'zlarini ola kula qildi:

«Saloming bo'lmasa ikki yamlab bir yutardim» – dedi.

Men egilib yana qayta-qayta ta'zim qildim. Bir payt boshimni ko'tarib

qarasam, hozirgina qarshimda gerdayib turgan ajdarho yo'q. U janob yerda yotgan barg ostiga kirib ketayotgan ekan. Nima gapligini anglab ulgurmagan edim-ki, osmondan bir pahlavon uchib kelib, gursillaganicha yerga qo'ndi. Epkinidan uchto'rt yumalab, arang o'zimni tutib oldim.

Pahlavon patlarini surpaytirib mendan so'radi: «Semiz qurt qani?»

Endigina javob berishga og'iz juftlagan edim, qo'qqisdan shamol kelib, xaligi barg pildiraganicha uchib ketdi-yu, semiz qurt degan ajdarho yap-yalang'och joyda qoldi.

Pahlavon birdan chovut solib-la hozirlanganini ko'rib, uning Qilich – Botir ekanligini faxmladim.

«Agar buvimning ertagidagi so'zлari rost bo'lsa, endi ular 40 kecha-yu 40 kunduz jang qilishar» – deb yuragim po'killab turgan edi, Qilichbotir bir kalla urishdayoq Ajdarhoni sulaytirib qo'ydi.

- Qoyil, Qilichbotir – deb qichqirib yubordim.
- Og'zingga qarab gapir! – deb birdan do'q urdi pahlavon. – Nega meni boshqalar bilan adashtirasan, tirrancha?! Men yetti iqlimga dong'i ketgan, mashhur Chumchuq polvon bo'laman.

*Vilyam Shekspir*

## **Romeo va Juletta**

### **(Dramadan parcha)**

**Juletta:** Vidolashdik! Uchrashuvni hudo biladi. Tomirimni buramoqda sovuq bir dahshat. U hayotning issig'ini muzlatayapti. Chaqirayin ularni men: yupantirsinlar. Enagajon! – Yo'q nimaga! Men o'zim yakka bu sahnada achinarli rolimni o'ynay. Kel shisha! Uxlatmasa sendagi doru mabodo men majbur bo'lsam erga chiqishga?! Yo'q sira yo'q! Bu kuymaydi mana bunisi! (pichoqni chiqarib qo'yadi) Balki meni o'ldirgani rohib makr ila bu shishada zahar bergen. Yo'q shunday bo'lsa shu nikohning uvollari uning bo'yniga: Romeoaga meni nikoh qilgan o'zi-ku... Havotirman ammo shunday bo'lmasa kerak: U vijdonli avliyodir elning ko'zida lekin barvaqt uyg'onsam-u, ammo o'sha chog'. Menga kelib yetolmasa aziz Romeo o'z vaqtida eltolmasa meni. – Bu dahshat! O'sha sassiq

sag'anada bo'g'ilib qolsam o'lib ketsam kelmasdanoq aziz Romeom! Mabodo men tirik qolsam o'zga xatar bor: Men o'ylayman o'lim hamda qaro zulmatni. Men o'ylayman sag'ananing vahimasini. U yuz yillab oilamga go'riston bo'lgan. Qo'yilgandir bobolarning suyagi unda... Kechagina unga mehmon kelgandir Tibalt Qonli jasad chirimoqda oq kafan ichra derlar tunda o'sha yerda ma'lum soatda paydo bo'lib yurar ekan mudhish arvoхlar... Agarda men nolalardan sassiq xidlardan odamzodni jinni qilgan vahimalardan uyg'onsamu o'sha onda tentirab ketsam! Bobolarning suyagini qo'g'irchoq qilsam yechib olsam u so'yilgan Tibalt kafanini yo bobolar suyagini hassaday qo'llab jinnilarcha yanchib qo'ysam badbaxt kallamni hozir menga ko'rilmokda Tibaltning ruhi. U qasos deb Romeo ni izlab yuribdi. Tibalt to'xta! Romeo boq hozir boraman sening uchun ichyapman!

### **Toshbolta oshiq**

#### **(Musiqali dramadan parcha)**

*Hamid G'ulom*

**Toshbolta:** Shu bir parcha hovlim – katta bog'. Gullar ochilgan. Bulbullar sayragan. Allaqayerda sibizg'a chalinib tambur unga jo'r bo'layapti. «Navo»mi, «Bayot»mi aniq esimda yo'q. Men hovuz bo'yida o'choqda osh damlayotgan emishman. Bir vaqt jonon piyolaning jarangiga o'xshash sho'x kulgu eshitildi. Bundoq qarasam, qo'lida patnis – Risolat pari... Patnisda to'rtta jiyda gulli qora likopcha, birida – qazi, birida pamidor, yana birida bodring, to'rtinchisida – patinson, ikkita ryumkachasi ham bor. Uzunroq shishada bir balo qizil narsa. Parixonning egnida – qora xonatlas, lozim ham shu materiyaldan. Oyog'ida – amirqon kovush. Bossammikan, bosmasammikin, deb bitta-bitta kelayapti. Men bir qo'lim bilan parixonning chumoli belidan ushlab, ikkinchi qo'lim bilan haligi shishadan ryumkachalarga quydim. Urishtirdik. Ichdik... Fu... zahri qotil: Boshim aylandi. U yog'ini eslolmayman, hushyor tortib qarasam, baland so'rida uxbab qolibman. Parixon yonimda alla aytib o'tiribdi.

Alla bolam, allayo,

Uxlar olam allayo.

Hamma yoqda qizil gul,

Lola gilam allayo.

Ko'kda suzar to'lin oy,

Uxlay qolsin, ko'lintoy.

Allamga qo'shiladi,

Tinimi yo'q tentaksov.

Qulog'ining yumshoq yerini chimchiladim. Yuzimga bir shapati tushsa bo'ladimi. Ko'zimni ochsam tushim ekan... Qani shu tushim o'ng bo'lib qolsa!... Erkaklarning tushi, indallo o'ng keladi. Ammo o'zi ham bir jahonda ana nazokat, ana latofat, ana odob! Ikki yorti bir bo'lib, o'g'ilchani o'ylab qo'yar edik. Keyin nabiralar, hovlida xuddi jo'jalarday sakrab yurardi. Jo'jalarim, jip-jip-jip. Men ular bilan quvalashaman. Jo'jalarim jip-jip-jip.

Biz monologlar ustida ishslash bo'limida hayvon va qushlar monologlariga ko'proq e'tiborimizni qaratganimiz, bu bilan cheklanib qoling deganimiz emas. Biz faqat ko'proq qo'g'irchoq teatr aktyorlariga e'tiborni qaratmoqchi bo'ldik. Ammo monolog ustida ishslash jarayonini e'tibor bilan qaralsa, barcha yo'nalishlarga ham yuqoridagi ko'rsatmani tadbiq etish mumkin. Ammo yondoshishni mutloq deb da'vo qilayotganimiz yo'q, chunki har bir talaba-ijrochi avvalo «men tanho» va «agarda men» kabi asosiy tamoyilga amal qilsa, maqsadga ytish yo'lining kalitini qo'lga kiritadi. Biz ana shu maqsadda yuqoridagi fikrlarni bayon qildik.

### **Dialog ustida ishslash**

Teatr san'ati dramaturgiyaga asoslanadi. Teatr sahnasida xususan qo'g'irchoq teatrini paydo bo'lishi haqida professor M.Qodirov shunday bayon qiladi:

«Qo'g'irchoq teatr manbaalaridan biri O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning animistik e'tiqodiga tayanuvchi marhumni eslash marosimidir deb hisoblaymiz. Mazkur marosimga ko'ra, o'lgan kishining eng yaqin odami uning niqobini yasaydi va marhum harakatlari, nutqi, muomilalarini tiklashga urinadi. Niqob ba'zan boshga kiyilmasdan qo'lda ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda «ijrochi» ham, marhum ham o'z rolini bajargan va o'ziga xos

diolog hosil qilgan»<sup>15</sup> Sahna asarlaridagi dialog hamma janrlarni o’z ichiga qamrab oladi.

Qo’g’irchoq teatr tarixida ham tomoshalar diolog usulida olib borilgan.

Biz professor M. Qodirovning «Kachal polvon sarguzashtlari» turkumidagi sahna asarlariga marojaat qilamiz.<sup>16</sup>

### ***Oftobxon va Moxtobxon***

Korfarmon: So’ramoqning aybi yo’q, kelinlar qayerdan?

Oftobxon: Samarqanddan.

Korfarmon: (Moxtobxoni ko’rsatib) Bu kishi kim bo’ladilar?

Oftobxon: Dugonam.

Korfarmon: Dugonangizni otlari nima?

Oftobxon: Moxtobxon.

Korfarmon: Balli. Xo’sh qani nima ish qilib yuribsizlar?

Oftobxon: Sayohat qilib yuribmiz.

Korfarmon: Bir ish qilsam qo’yasizmi?

Oftobxon: Nima ish?

Korfarmon: Man sizni erga beraman (yigitlardan birini ko’rsatib). Shu yigitlardan birini xohlab oling.

Oftobxon: (uyalib) E, yuzingiz qursin – ey, man izza chekaman (uyalib chodirning bir chetiga qochadi).

Korfarmon: Uyalmang. Uyalmang. Qani kimnisovob topasiz? Ana u yigit qanday? (davradagi bir yigitni ko’rsatib).

Oftobxon: Uni ko’zi qiyshiq-ku, bo’lmaydi.

Korfarmon: I, i, ha, boshqa yigit topaman bo’lmasam. Ana bu-chi? (boshqa kishini boshidan ushlab ko’rsatadi).

Oftobxon: E, buning og’zi egri-ku?

Korfarmon: Hay qo’ying uni, mana bu boyvachchani topdim (boshqa kishini ko’rsatib).

Oftobxon: E, bu bemaza ekan, og’zidan nos hidi keladi.

<sup>15</sup> Қодиров М. Ҳалқ қўғирчоқ театри. –Т., 1972. 11-12-б.

<sup>16</sup> Қодиров М. Качал полвон саргузаштлари. –Т., 1972. 187-188-б.

Korfarmon: Sizga hech kim yoqmas ekanda. va h.k.

\*\*\*

Xalq ijodidan olingan bu sahna asaridagi Oftobxon Korfarmon o'rtasidagi muloqat-dialog orqali qiziq bir xangomaga duch kelamiz. Tomoshani boshqaruvchi, soz bilan jo'r bo'luvchi va ayni chog'da dialogda muhim rol o'ynovchi Korfarmon surnayda bir kuyni chalib to'xtaydi va Oftobxon bilan dialogni boshlaydi. Tomosha oxirigacha Korfarmon va Oftobxonning o'zaro suhbati-dialogi ketadi. Bunda Oftobxon Korfarmondan so'zga ustaligi namoyon bo'ladi. Unda xalq xazil mutoyibasi orqali tomoshabinni kuldiradi. Uning harakati so'z o'yini orqali namoyon bo'ladi. Bu sahna orqali Oftobxonning xarakteri ustidan kulishga olib kelish namoyon bo'ladi.

Dialog uchun yana bir misol Nguen Din Txining «Miu ismli mushukcha» asaridan dialog keltiramiz.

Mushukcha: Kuningiz xayrli bo'lsin, Supurgi xola. Bay. Bay. Bay. Sizni bu qurmag'ur yalmonlar qayerlarga uloqtirishdi. Bechora buvim tong bo'yi qidirish bilan ovora bo'ldi.

Supurgi: O'chir, yaramas. Menga xalaqit berma.

Mushukcha: Baribir, aytinchchi. Sizni yalmonlar qaylarga irg'itib yuborishdi. Sizni buvijon shunday qidirdi-ki.

Supurgi: Qoch yo'ldan. Ishlashga xalaqit berma!

Mushukcha: Yalmonlar sizni qayerga uloqtirdi-a? buvijon, sizni qidirdi.

Supurgi: Qayerga, qayerga. Mana bu yerga (uradi).

Mushukcha: Agarda shunaqa botir bo'lsangiz nega bir marotaba bo'lsa ham yalmonni urmadingiz? U biron marta ham yalmonga hamla qilmadi, chunki juda ham qo'rqib ketgandi-da. Men ham juda qo'rqib ketdim, hatto miyovlay olmadim. Albatta, yalmon kattakon, hamma qo'rqadi undan. Men bunday qoldirmayman, uni bir uraman...

\*\*\*

Bu ertakdagagi kichik mushukcha bilan supurgini dialogini olib qarasak, bu dialogda predmet va hayvonlarning o'zaro suhbati orqali sahna lavhasi yuzaga

keladi.

Talaba – supurgi va talaba mushukcha o’ziga personajning xarakterini topadi va nutqi orqali uni ifodalaydi. Supurgi personaj – o’z hayotidan norozi, har bir kishi xohlagan joyga irg’itib yuboradigan timsol. Mushukcha esa har bir narsaga qiziquvchi personaj. Xo’sh bu dialogning asosiy voqeasini qanday belgilaymiz.

**Asosiy voqeа:** Buvining uyida kalamushlarning ko’payishi.

**Bosh voqeа:** Mushukchani Supurgi bilan uchrashuvi.

**Yetakchi xatti-harakat:** Kalamushni Buvining uyini to’s to’polon qilishi.

**Markaziy voqeа:** Supurgini kalamushga qarshi qo’yishi.

Har bir narsaga qiziquvchan Mushukcha Supurgi bilan uchrashgach, barcha harakatlari bilan kalamushga qarshi chiqmoqchi bo’ladi. O’zi kichkina bo’lsa ham kalamushga qarshi chiqadi. Barcha ishtirokchilarni kurashga chorlaydi. Oxir oqibatda u kalamushlar kattasini yengadi. Bu sahna asari bolalar uchun mo’ljallangan bo’lib, bolalarda qahramonlik tuyg’usi va «mushukcha»ga nisbatan hurmat paydo qiladi. Sahnadagi uning barcha xatti-harakati uning nutqi bilan uyg’unlashadi. Oxir oqibatda sahnadagi «Mushukcha Miu» bolalarni e’tiboriga tushadi. Bu sahna asarida o’tkir ichki kechinma bo’lmay xatti-harakatga mos nutqi orqali yaxlitlikka erishadi. Mushukchaning plastikasi va so’zini uyg’unlikda ishlamoq joiz.

Bu dialogda qahramon o’z maqsadini amalga oshirish borasida so’z bilan xatti-harakatda bo’lib, muddaoga erishish harakatida bo’ladi. Dialogda xarakter, muddao, vaziyat va davr o’z ifodasini topadi.

### ***Dialoglardan namunalar***

Namunalar professor M. Qodirov tomonidan 1958-1965 yillarda qilingan folklor ekspeditsiyasi davrida yozib olingan.<sup>17</sup>

#### ***Cho’pon va qiz aytishmasi***

Suvga chiqqan Bibisuluv ismli qiz qo’ylarini sug’orish uchun daryo yoqasiga kelgan cho’pon yigitga so’z tashlaydi. Qizning oyog’ini daryoning labiga tirab, surday bo’ylab, to’tiday so’ylab turgan vaqt ekan.

<sup>17</sup> Қодиров М. Анъанавий театр драматургияси. –Т., 2006.

Qiz: Chochim xushruyli, men?

Cho'pon: Choching xushruy.

Qiz: Sarala tariq men bo'p,<sup>18</sup> chochilib ketsam qaytasan?

Cho'pon: Sarala tariq sen bo'lsang, jo'jali tovuq men bo'p, terib esam qaytasan.<sup>19</sup>

Qiz: Jo'jam tovuq sen bo'lsang, olg'ir qushlar men bo'p, olib qochsam qaytasan?

Cho'pon: Olg'ir qushlar sen bo'lsang, soyaki ovchi men bo'p, to'rga tushirsam qaytasan?

Qiz: Soyaki ovchi sen bo'lsang, ko'r kalamush men bo'p, to'ringni qirqib chiqsam qaytasan?

Cho'pon: Ko'r kalamush sen bo'p, targ'il pishak<sup>20</sup> men bo'p, olib yesam qaytasan?

Qiz: Targ'il pishak sen bo'lsang, qorala ko'ppak men bo'p, silkib taylasam qaytasan?

Cho'pon: Qorala ko'ppak sen bo'lsang, sorala qoplon men bo'p. Silkib solsam qaytasan?

Qiz: Sarala qoplon sen bo'lsang, qirag'ay mergan men bo'p, otib olsam qaytasan?

Cho'pon: Qirag'ay mergan sen bo'lsang, qancha jilon<sup>21</sup> men bo'p, chaqib olsam qaytasan?

Qiz: Qancha jilon sen bo'p, murch egan morboz<sup>22</sup> men bo'p, avrab olsam qaytasan?

\*\*\*

Bu aytishmani dialog sifatida ishslash talabalarning o'zaro tortishuvga, so'z o'yiniga, fikrni charxlashga undaydi. Avvalo qiz cho'ponni o'z chiroyi bilan maftun etadi. Maqsadi cho'ponni o'z domiga ilintirish. Jamoli – sochi xushruyligi

<sup>18</sup> Бўп – бўлиб.

<sup>19</sup> Қайтасан? – Қандай қиласан?

<sup>20</sup> Пишак – мушук.

<sup>21</sup> Жилон – илон.

<sup>22</sup> Морбоз - илон ўйинатувчи.

– tan olingach, o’ziga jalb qiluvchi mayda zarracha – «tariq bo’lib qolib, sochilib ketsam» – nima qilasan – deya yigitni sinab ko’radi.

Cho’pon – endi senga bog’lanib qoldim. Seni «Terib esam qaytasan», – deya unga yaqinligini bayon qiladi.

Shu tariqa fikrni charxlash davom etadi. Oxir oqibatda qiz bu jangda g’olib chiqadi. Yigit butunlay zabit etiladi.

Dialogda ikki yoki uch ishtirokchi orasida o’z fikrini o’tkazish, himoya qilish va maqsadga erishishdek vazifalar bajariladi.

Bu dialogda qiz ustun keladi. Nutqiy xarakter yaratishda bu matn juda qo’l keladi. Maqsadga muvofiq jumlalar nutqning perspektivasini so’z xatti-harakati orqali namoyish etadi.

Qo’g’irchoq teatri aktyori, rejissorlarning tarbiyalashda dialoglar katta ahamiyatga ega. Chunki fikrlar musobaqasida nutq charxlanadi, so’zning tub ma’nosi ochiladi, fikrlash, muomala elementlarini o’zlashtiriladi. Shu bilan birgalikda qo’g’irchoq teatrda aktyor, ayrim vaqtarda, bir vaqt ni o’zida ikkita rolni ijro etishi mumkin va ular shirmada uchrashib dialog olib borishlari mumkin. Demak, qo’g’irchoq teatri aktyorini ovozi barcha bosqichda, barcha registrlarda erkin ishlay bilishi kerak.

O’qitilish jarayonida oddiy matnlardan to murakkab matnlar o’zlashtirilishigacha olib boriladi. Buning uchun xalq ertaklari, aytishuvlar va qo’g’irchoq teatr aktyorligiga mos masallarni va multfilmlardan dialoglar olib ishslash maqsadga muvofiqdir.

### **«Alvasti» multfilmidan**

**Yalmog’iz:** Alvastijon, alvasti qayoqdasan, qorang o’chgur, chiqsangchi buyoqqa. Topolmasam nima qilay alvasti.

**Alvasti:** Nima deysan?

**Yalmog’iz:** Voy-yey, sekinroqda, o’takamni yorvording. Haligi Ivanushkani opasi Alyonushka bor edi-yu, o’sha sen haqingda juda ham yomon gap gapirdi. Nima deganini bilasanmi? Voy Alvastingdan sira ham qo’rqmayman deydi. Ha.

**Alvasti:** Ha qo’rqmasa nima bo’libdi.

**Yalmog'iz:** Nima bo'pti deganing nimasi? Nimaga endi qo'rqlmasa, «nima bo'pti bo'lar ekan». Qo'rqlmasa bilki, u seni hurmat qilmaydi.

**Alvasti:** A, hurmat qilmasligi yomon.

**Yalmog'iz:** Kel uni qo'rqlitamiz!

**Alvasti:** Nega endi qo'rqlitamiz?

**Yalmog'iz:** Qo'rqsinda, qo'rqlsa haligi, u seni hurmat qiladi.

**Alvasti:** Ha, biz hurmat qilishlarini istaymiz.

**Quyon:** Biz albatta hurmat qilishlarini xohlaymiz.

**Yalmog'iz:** Kel, sen yaxshisi O'lmas Kashshyey bo'la qolgin. Hayotligida juda yaxshi odam edi. Hudo rahmat qilgur.

### *«Tramiston» multfilmidan parcha*

**Tipratikon:** Bugun quyonning tug'ilgan kuni, unga sabzi sovg'a qilsam, sabzini bir pastda yeb qo'yadi. Karam sovg'a qilsam, uni ham bir pastda yeb qo'yadi. Moychechak sovg'a qilsam-chi ?

**Ayiq:** Dilim-bilim, dilim-bilim, dilim-bilim. Salom tipratikon, bilasanmi, men ajoyib bir mamlakat o'ylab topdim. Tuni bilan o'ylab-o'ylab zo'rg'a topdim. Dilim-bilim Tramiston! Dilim-bilim Tramiston! Men bilan dilim-bilim Tramistonga borishni istaysanmi? Axir ularning tilida gaplashishni bilmiz-ku? Tram – bu dilim-bilimchasiga aytaylik-salom degani.

**Tipratikon:** Men moychechak terayapman. 1 moychechak. 2 moychechak. 3 moychechak.

**Ayiq:** Ie, zo'ru, buni qara qo'shiqqa o'xshaydi. 1 moychechak. 2 moychechak. 3 moychechak.

**Tipratikon:** Men to'rtinchisini uzdim.

**Ayiq:** 5 moychechak, 6 moychechak, 7 moychechak.

**Tipratikon:** Men 7 chisini uzdim.

**Ayiq:** 5 moychechak, 6 moychechak, 7 moychechak.

**Tipratikon:** 8-9-10.

**Ayiq:** A? Nima, nimalar deyapsan?

**Tipratikon:** Sanayapman.

**Ayiq:** Men buni birov aytayaptimi deb o'ylabman. Qani davom et!

**Tipratikon:** Men faqat 10 gacha ayt olaman.

**Ayiq:** Unda dilim-bilim Tramchasiga ayt.

**«Lyuzikova ko'chasi» multfilmidan parcha**

**Mushuk:** Shu laychani deb umrimni eng gullagan chog'larini shohda o'tirib o'tkazaman shekilli. Qani endi baxaybat bir mahluqqa aylanib qolsang-u, hamma sendan qo'rqlas.

**Qarg'a:** Yordam berishim mumkin. Qanaqa mahluqqa aylanishini xohlaysan?

**Mushuk:** Qanaqa bo'lsa ham, biron bir qo'rqlinchli mahluqqa.

**Qarg'a:** Buvim nima deb o'rgatuvdilar-a? G'aq-midiyey, xur-xurmidiyey.  
Ha, esladim, QARRR !

**Begimot:** Kechirasiz yaxshi qiz, aytaolmaysizmi men hozir qayerdaman?

**Sher:** Ko'rmayapsanmi, qiz bola emasligimni, buni ustiga ov qilayapman.

**Begimot:** Ilgari men Voronij shahri Lyuzikova ko'chasi turar edim. Endi esa ....

**Sher:** Endi esa, men seni yeypman, a-a-a-a-a-a-a.

\*\*\*

Har bir bo'lakni harakatlariga e'tibor qaratilib, ishlayotganda maqsad sari intilsa fikrlar janggi yanada yaqqolroq seziladi.

Shunday qilib, qo'g'irchoq teatr aktyori, rejissori guruhlarida dialog ustida ishslash talabadagi imkoniyatni ochib berish bilan birga, uni fikrlashga, so'z xatti-harakatiga erishishga, nutqiy xarakterni shakllanishiga olib keladi hamda undagi muallif fikrini va g'oyasini, personaj xarakterini shakllanishiga olib keladi.

**Yoshlikda bergen ko'ngil**

*Zinat Fatxullin*

**(Musiqali dramadan parcha)**

***Mirza va To'lqinoy dialogi***

**Mirza:** Iye, vopervoy, o'zimdan boshqa hech kim qolmabdi-ku. Yashavora! Kimning aravasiga o'tirsang, shuning kuyini kuylaysan, deganday Qo'zivoyning mashinasiga minib olib obedni esdan chiqarib qo'yibman.

**To'lqinoy:** Salom, Mirza aka!

**Mirza:** Iye, sizmisiz, To'lqinoy, qanday shamol? Vopervoy, juda qiziq bo'ldiku, kechirasiz...

**To'lqinoy:** Fermaga ketayotgan edim, ayangiz mana shuni yo'l ustida berib o'ting, dedilar, issig'ida yeb oling, Mirza aka!

**Mirza:** Oh o'rgilay o'zimning g'amxo'rimdan? Qani endi har kuni shunday kelib kelib tursalar... boshim osmonga yetar edi-ku! Ha, aytganday, vopervoy, bu yerga kelganingizni ayangiz ko'rib qolmadilarmi?

**To'lqinoy:** Ayam! Ayamlar kelyaptilar dedingizmi?

**Mirza:** A? Xudo urdi. Qani? E... hech kim yo'q-ku.

**To'lqinoy:** O'zingiz nuqlu vahimaning o'zi bo'psiz-yey.

**Mirza:** Yo'g'e! Shunday bo'ldimi? Rostdan-a?

**To'lqinoy:** Shu yerga kelganimni ko'rsalar, toza baloga qolaman-a!

**Mirza:** Axir qanaqa ona o'zlari, vopervoy o'z qizlarining baxtini istamasalar.

**To'lqinoy:** Mirza aravakashning nomini tilga olsang uydan haydalasan, deydilar.

**Mirza:** Ayangizga aytingda, Mirza akam aravakash emas, dongdor kolxoz raisining shofyori deng. Hozir, Nor akamning mashinasida paxta terayapti, ishiga qoyil qolmagan kishi yo'q deng. Ha!

**To'lqinoy:** Mirza aka.

**Mirza:** Labbay, akasi?

**To'lqinoy:** So'raganning aybi yo'q, aytingchi, siz necha yoshga kirgansiz?

**Mirza:** Qani bo'lmasa siz ham aytingchi, akasi qoqindiq, yigitlarning qirchillama payti necha yoshga kirganda bo'ladi?

**To'lqinoy:** 25 mi?

**Mirza:** Balandroq. Iya yosh bolaku.

**To'lqinoy:** 30 mi?

**Mirza:** Balandroq chiqing?

**To'lqinoy:** 35 mi?

**Mirza:** Sal balandroq?

**To'lqinoy:** Bo'lmasa 50 mi?

**Mirza:** Yo'q pastroq.

**To'lqinoy:** 45 mi?

**Mirza:** Yana pastroq.

**To'lqinoy:** 40 mi?

**Mirza:** Ha.

**To'lqinoy:** Voy, Mirza akam tushmaguryey, hazilingizni odam mumday erib ketadi-ya.

**Mirza:** Oh, eriganingizga borman-da, akasi...

**To'lqinoy:** Voy, tilingiz muncha shirin, Mirza aka.

**Mirza** (kuylaydi):

Yorimsiz dildorimsiz, dardimga darmonimsiz.

Muhabbat gulzorida, asil vafodorimsiz.

**To'lqinoy:**

Gul bo'lmaydi tikansiz, dilga nashtar ekansiz,

Yigitlar ichida tanlaganim o'zingiz.

**Mirza:**

Bog' aylanib shaftoli, uchgan kimning kaptari,

Aytsam ado bo'lmaydi Siz To'lqinoy daftari.

**To'lqinoy:**

Tomni tepdim yo'l qildim,

Beqasamdan to'n tikdim,

Mirza akamning ishqida

Laxta-laxta qon yutdim.

**Parvona**

*Uyg'un*

**(Dramadan parcha)**

**O'tkir:** Xo'sh, «Bahor» so'zi o'miga ko'klam deb yozamiz, shabada o'miga «yel» deb yozamiz... Yo'q, vazniga tushmaydi. «Sha-ba-da» «yel». Ikki bo'g'in kam. Ha topdim, «sho'x shamol» deb yozamiz. «Sha-ba-da» «sho'x shamol»

baravar. Ana endi Dildor so'zini o'rniga Dilbar so'zini yozamiz, bo'g'ini ham ohangi ham bir, ma'nosi ham juda to'g'ri. «Dildor» – «Dilbar» yasha. Endi imzo chekamiz she'r tayyor. (O'tkuriy). (Yondiradi, kuydiradi, kul qiladi, qaramaysiz ashula aytadi).

(Ustiga adres yozayotganida Ma'rifat kiradi).

**Ma'rifat:** Men ketayapman, eshikni berkitib olasizmi?

**O'tkir:** Ochiq turaversin, keldi-ketdi ko'p. Eshik ohib yopaverib tinkam quriydi.

**Ma'rifat:** Ixtiyorningiz.

**O'tkir:** Shoshmang, ichkariga kiring.

**Ma'rifat:** Ichkarida nima qilaman?

**O'tkir:** Gap bor.

**Ma'rifat:** Gapingiz bo'lsa, shu yerda aytavering.

**O'tkir:** Abror aka hali ishdan qaytgani yo'q chamasi.

**Ma'rifat:** Yo'q, gapiravering vaqtim ziq!

**O'tkir:** Xat bersam pochtaga tashlab yuborasizmi?

**Ma'rifat:** Bera qoling.

**O'tkir:** Bilagingiz muncha yumshoq.

**Ma'rifat:** Bu nima qilganingiz, uyalmaysizmi?

**O'tkir:** Shuncha vaqtdan beri uyalib o'zimga jabr qilibman. Jonginam, ichkariga kiring!

**Ma'rifat:** Voy, voy esingiz joyidami?

**O'tkir:** Sizni ko'rganda o'zimni yo'qotib qo'yaman.

**Ma'rifat:** Bu gaplarni Abror akangiz eshitsa nima bo'ladi, bilasizmi?

**O'tkir:** Bilaman, hovliga olib chiqib bo'g'izlaydi yo daraxtga osadi. Axir siz meni bo'g'izlatib qo'ymassiz, nima xushomad gunohmi?

**Ma'rifat:** Kimga xushomad qilayotganingizni bilasizmi?

**O'tkir:** Siz hali yoshsiz. O'yin-kulgini yaxshi ko'radigan oq bilak lo'mbillagan ayolsiz. Abror aka esa yoshini yashab qo'ygan odam.

**Ma'rifat:** Ko'p vaysamang, bu gap shu yerda qolsin. Agar Nazokat bilsa-a...

**O’tkir:** Uyimiz buzilib ketadi, uyimizni buzmassiz.

**Ma’rifat:** Tavba kutilmagan hodisa.

**O’tkir:** Ammo men kutaman, bugun bo’lmasa, ertaga mana shu oq bilakni menga o’zingiz kelib ushlatasiz. Kutaman, jonginam!

(Ma’rifat chiqib ketadi).

**O’tkir:** Xatni olmaysizmi?

**Ma’rifat:** E, xating ordona qolsin. Qirchiningdan qiyilgur.

**O’tkir:** Yuragiga g’ul-g’ula solib qo’ydim! Endi o’ylagani-o’ylagan. Meni o’playdi. Ayollarni qalbini ochadigan kalit xushomad, ta’rifu-tavsif, hamdu-sano.

(Yulduz kirib keladi)

**Yulduz:** Salom.

**O’tkir:** Keling-keling.

**Yulduz:** Nazokat yo’qmilar?

**O’tkir:** O’tiring. Nazokat hozir kelib qoladilar.

**Yulduz:** Bo’lmasa keyinroq kelarman.

**O’tkir:** Yo’q-yo’q, unaqasi ketmaydi. Hozir keladi, telefon qildi.

**Yulduz:** Qandaydir noqulayroq.

**O’tkir:** Hecham noqulayligi yo’q. Qiziq, shu topda sizni o’ylab turgandim.

**Yulduz:** Meni-ya?

**O’tkir:** Manavindan jindakkina iching, juda ajoyib vino «Oq Muskat» Qrimniki.

**Yulduz:** Rahmat.

**O’tkir:** Oling, hech bo’lmasa bir qultum iching. Salomatligingizga.

**Yulduz:** Juda shirin vino ekan.

**O’tkir:** Hu bu juda ajoyib. Jahon vistavkalaridan necha marta oltin medal olgan, qani uzumdan oling.

**Yulduz:** Rahmat.

**O’tkir:** Anchadan beri sizga bir gapni aytmoqchi bo’lib yuribman. Aytolmayapman.

**Yulduz:** Nima gap?

**O'tkir:** Juda nozik gap, balki so'zlarimga ishonmassiz, balki ustimdan kularsiz, balki ranjirsiz.

**Yulduz:** O'ylaymanki meni ranjitadigan gap aytmassiz?

**O'tkir:** To'xtang Yulduzxon avval bir xirgoyi qilib beray. Xoh ishoning. Xoh ishonmang, baribir aytishga majburman. Ortiq saqlab turolmayman.

Yondiradi, kuydiradi, kul qiladi (ashulani aytadi) Qaramaysiz.

**Yulduz:** Ha, nima edi ayta qoling?

**O'tkir:** Bu haligi uchrashuvdan boshlandi.

**Yulduz:** Qaysi uchrashuvdan.

**O'tkir:** Shu hovlida ikki oy burun siz bilan uchrushdik-ku, o'shandan beri yonaman. Yulduz emas, oy ekansiz, go'zallikka boy ekansiz degan edim o'shanda. Esingizdam?

**Yulduz:** Bu qanday bexayolik?

**O'tkir:** Sevish bexayolik emas.

**Yulduz:** Necha kishini sevasiz?

**O'tkir:** Faqat sizni.

**Yulduz:** Nazokatni-chi?

**O'tkir:** Avval sevardim, sizni uchratmasdan avval.

**Yulduz:** Shunga ishonadi deb o'ylaysizmi?

**O'tkir:** Ishonmasligingiz mumkin. Shuning uchun ham ko'pdan beri sizga aytolmay keldim. Ammo baribir aytishim kerak. Judolikka ortiq chiday olmayman. (Jonginam, azizim, yolg'izim, hayotim, tirikligim).

**Yulduz:** Dod solaman.

**O'tkir:** Mayli dod soling, mayli haqorat qiling. Mayli meni odamlar oldida sharmanda qiling. Baribir sizni sevaman, sevgimdan voz kechmayman.

**Yulduz:** Qo'yvoring.

**O'tkir:** Avval so'zlarimni tinglang.

**Yulduz:** Yetar, bas.

**O'tkir:** Oxirgacha tinglang.

**Yulduz:** Toqatim yo'q.

**O'tkir:** Mayli xohlasangiz yuzimga gapiring, mayli xohlasangiz o'ldiring, mayli. Taqdirim sizni qo'lingizda. Ammo so'zlarimni oxirigacha tinglang. Men baxtsizman, meni ishim doim teskari keladi. Omadim hech ham yurishmaydi.

**Yulduz:** Qisqaroq qiling.

**O'tkir:** Ha, Nazokatni kurortda uchratib sevib qolganim rost. Uylandim buyam rost. Lekin sizni ko'rdim-u, avvalgidan, Nazokatga bo'lgan sevgimdan ming chandoq kuchliroq sevgini otashiga duch keldim, bu otash meni yondiradi, kul qiladi.

**Yulduz:** Ishonadigan gap emas.

**O'tkir:** Nazokatni qo'yib sizga uylansam ishonasizmi?

(Yulduz shapaloq tortadi).

### **Hayot maktabi**

(S.Abduqahhorning «**Qunduzoy bilan Bo'rsiqboy**» masali asosida tasviriy masal)

(Sahnada o'rmon tasvirlangan bo'lib, sahnaning bir chetida yog'och uy tasvirlangan. Parda yopiq holatda. Fondan musiqa ohangdorligida quyidagi she'r o'qiladi.)

Tanqidni doriga qilurlar qiyos,

Ikkisi ham achchiq o'xshashligi rost.

To'g'ri achchiq dori tuzatsa kasal,

Nuqsonga o't ochar hajv ila masal.

(Musiqa balandlashib, qo'ng'iroq ovoziga ulanib ketadi. Keyin maktab direktorining tantanali tabrik so'zlari yangraydi.)

- Hurmatli qurilish maktabining bu yilgi bitiruvchilari, barchangizni maktabni a'lo baholar bilan bitirganligingiz, hayot maktabiga yo'l olayotganligingiz bilan tabriklayman. Mustaqil ish faoliyatizingizda omadlar tilayman. Marhamat, etuklik diplomini qabul qilib oling.

Qunduzxon Chiroyova (qarsak), Qunduzbek Momiqbekov (qarsak), Quyonvoy Mo'ynaqulov (qarsak), Olmaxon Po'stinqulov (qarsak), Bo'rsiqvoy Lazzatov (qarsak), Bulbulxon Yoqimliyeva (qarsak), Tulkixon Olibqochdiyeva

(qarsak), Bo'rivoy To'nkaboyev (qarsak), Qarg'axon Shaqilladiyeva (qarsak), Ayiqjon Polvonov (qarsak), Eshakvoy Hangirayev (qarsak). Aziz bitiruvchilar, barchangizga oq yo'l! (Xursandchilik ovozlar, gulduros qarsaklar). (Fondan musiqa berilib barcha bitiruvchilar parda oldiga chiqib kelishadi. Bir-biriga diplomini ko'rsatishib sekin sahna orqasiga kirib ketishadi. Parda oldida faqat Qunduzxon va Qunduzbek qolishadi.)

Qunduzbek: — Mana, Qunduzxon, qurilish maktabini ham bitirdik, endi birga bo'lamiz, degan umiddaman.

Qunduzxon: — To'g'ri aytasiz, menga uzoq qishloq joyga ishga yo'llanma beribdi.

Qunduzbek: — Juda yaxshi, bu yo'llanma bizning yanada birga bo'lishimizga yordam beradi. Axir men o'sha qishloqda turaman.

Qunduzxon: — Yaxshiku-ya, lekin...

Qunduzbek: — Nima lekin, nima lekin, Qunduzxon.

Qunduzxon: — Meni oyim qishloqqa ishga yubormaydi, shahardan tashqariga umuman chiqarmaydi. Menimcha biz birga bo'la olmasak kerak.

Qunduzbek: — Nimalar deyapsiz, Qunduzxon, axir o'rtamizdagi muhabbat, sevgi nima bo'ladi?

Qunduzxon: — Bilmadim, Qunduzbek aka, u yog'ini oyimdan so'rang, men ketdim, xayr, meni kechiring.

Qunduzbek: - To'xtang, Qunduzxon, qayoqqa, to'xtang. eh muhabbat, eh sevgi. Bu dunyoda haqiqiy sevgi bormi o'zi, ha, bor, mana men isbotlayman haqiqiy sevgi borligini, sen uchun oftobda yonish bo'lsa yonaman, muzlikka qotish bo'lsa qotaman, lekin baribir senga erishaman. To'xtang, Qunduzxon, to'xtang, to'xtang. (Chiqib ketadi). (Parda ochiladi. Sahnada ona Qunduz va qo'shni Yumronqoziq xola gaplashib o'tiribdi.)

Ona Qunduz: — O'ziyam qizim bugun diplom oladi, eng muhimi, diplomga qo'shib ishga yo'llanma ham berarmish.

Yumronqoziq: - Rostdanmi, mening o'glim ham diplom oldi, lekin ishga yo'llanma berishmadi.

Ona Qunduz: — endi yo'llanmani ham har kimga beravermas ekan, faqat yaxshi o'qiganlarga berar ekan.

Yumronqoziq: — Mening o'g'lim ham beshga o'qigan.

Ona Qunduz: — Gap o'qishda emas uqishda, Yumronqoziq xola.

Yumronqoziq: — Menga qarang, qo'shni, bu qizingizni erga berish niyatingiz yo'qmi, mening ham suqsurday o'g'lim bor...

Ona Qunduz: — erga berish niyatim yo'q, hali yosh bo'lsa, ishlasin, keyinchchi erga bersam ham, tagli-tugli, boy-badavlat xonadonga uzataman. Bildingizmi?!

Yumronqoziq: — Ha, tushunarli. Mayli, men boray.

Ona Qunduz: — Voy, qayoqqa qo'shni, hozir qizim keladi, diplom olib keladi.

Yumronqoziq: — Mayli, keyin chiqarman. Yaxshi qoling (chiqib ketadi).

Ona Qunduz: — Tavba, indamasa, bu qo'shni mening qizimni kelin qilmoqchi, ko'rpannga qarab oyoq uzat, Yumronqoziq. (Sahnaga yugurbanicha Qunduzxon kirib keladi.)

Qunduzxon: — Oyi, oyijon!

Ona Qunduz: — Voy qizim, keldingmi, qani, diplom oldingmi? Voy imtiyozli diplommi qizim, o'zim aylanay. Menga qara, ishga yo'llanma berishmadimi?

Qunduzxon: — Berishdi, faqat uzoq qishloq joyga ekan.

Ona Qunduz: - Nima, qishloq joyga, kelib-kelib qishloqda ishlaysanmi, yakka-yu yolg'iz qizim bo'lsang, men seni uzoq joyga ishga yuboramanmi. Men seni shu maqsadda o'qitdimmi?!

Qunduzxon: — Ishlamasam bo'lmaydi, oyi.

Ona Qunduz: — Menga qara, men seni to'rt yil kontrakt to'lab o'qitib, endi ketmon chopishga yuboramanmi? Ishlamaysan.

Qunduzxon: - Unda nima qilaman, oyi?

Ona Qunduz: — Nima qilarding, erga tegasan.

Qunduzxon: — erga tegaman. Kimga?

Ona Qunduz: - Bu yog'ini menga qo'yib ber. Bor-boraver, damingni ol (Qunduzxon chiqib ketadi). Nima qilsam, nima qilsam, qizimni erga bermasam

bo'lmaydi, lekin kimga beraman. Hozir qo'shni Yumronqoziq o'g'lidan gap ochgan edi, kambag'al bo'lsa ham mayli, shuning o'gliga erga berib yuboraman. Voy, ana o'g'li Yumronqoziqqul kelayapti. Hoy, hoy Yumronqoziqqul, beri kel. Yumronqoziqqul: — Ha ona Qunduz yaxshimisiz.

Ona Qunduz: — Yumronqoziqqul, bir gap aytay senga, Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.

Yumronqoziqqul: — Chindanmi, muncha yaxshi.

Ona Qunduz: — Ha chindan, Mo'ynasi yaltiroq ko'zi chiroyli, Nimasini aytay o'zi chiroyli, Qaniydi unga mos kuyov topilsa, Shu bilan qizimning baxti ochilsa. Yumronqoziqqul: — Mening ham go'zalim dunyoda tanho, Hech bir go'zallardan qolishmas aslo. Usiz bir daqiqa yashay olmasman, Yorim qolib o'zgaga boqa olmasman. (Yumronqoziq chiqib ketadi.)

Ona Qunduz: - Mening go'zalim, gapini qarang, Mening qizim, bilsang oqila juda, Senniki-chi to'qqizni bitirgan arang, Hatto dimlomi ham yo'q bo'lsa unda, Kuyov qilarman deb ko'zim uchgan yo'q, o'rmon hayvonlaridan bo'yoqlari ko'p. Ana muloyim, qo'ysifat Bo'rsiq, Qomatlari kelishgan pardayin momiq. (Sahnaga keksayib qolgan, qo'lida sanoq cho'tini ko'tarib nimalarnidir hisoblab Bo'rsiq chiqib keladi.)

Bo'rsiq: — To'rt karra besh, yigirma, yigirma, Tosh ko'chadan yugurma, yugurma.

Ona Qunduz: - Hoy Bo'rsiqvoy, Bo'rsiqvoy.

Bo'rsiq: — Salom ona Qunduz, qalay ishlaring, Omon yuribdimi, jigargo'shlaring. Tashvishli boqasan, nima gap o'zi?

Ona Qunduz: — Yo'q, yo'q, hech gap bo'lganicha yo'q, jigarim qizginamdan mening ko'nglim to'q. Qizginam, yolg'izim tanho olamda. Baxtli bo'lsin deyman yolg'iz bolamda. Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg'izim. endi bir kuyov topay deyman-da, Qizimning baxtini ko'ray deyman-da. Xo'p desang, birga yur tanishtirayin, Ikkingizni, mayli, qovushtirayin.

Bo'rsiq: — To'xta, to'xta, avval qizing menga mos keladimi, yo'qmi bilayin. Uni sinab ko'rayin. U ishga yaroqlimi, yo'qmi...

Ona Qunduz: — Yaroqli u yaqinda ishga o'tadi. Qarabsizki mo'maygina oylik oladi.

Bo'rsiq: - Oylik oladi, qancha oladi?

Ona Qunduz: — Bilmadi-mu, lekin oila tebratishga yetadi.

Bo'rsiq: — Menga qara, qizing bir kunda qancha non yeydi?

Ona Qunduz: — Bir kunda yarimta non yeydi.

Bo'rsiq: — Yarimta, demak (hisoblaydi) bir yilda 182 yarimta non yeydi. Yaxshi, bunisi to'g'ri keladi. Bitta baliqni necha hafta yeydi?

Ona Qunduz: — Bitta baliqni bir hafta yeydi.

Bo'rsiq: — Yo'q, buyog'i menga to'g'ri kelmadi. Bitta baliqni ikki hafta yesa bo'lmaydimi?

Ona Qunduz: — Bo'ladi, bo'ladi, ustiga-ustak u baliqni o'zi tutadi.

Bo'rsiq: — Unday bo'lsa, juda yaxshi. Keyin yana bir narsa, to'y sizning hovlingizda bo'ladi, hamma sarf-harajatlarni siz ko'tarasiz, ovqat deysizmi, dasturxonmi, tog'orami, san'atkorlarmi, hammasi sizning bo'yningizda, keyin to'ydan keyin yeb-ichishga ham bir-ikki oyga ovqat berib turasiz.

Ona Qunduz: — Nima, nimalar deyapsiz. Axir siz anoyilardan emassiz-ku. Tagingizda qo'sha-qo'sha mashina bo'lsa. Badavlat bo'lsangiz.

Bo'rsiq: — Yo'q, bo'lmaydi, bo'lmasa men ketdim.

Ona Qunduz: — To'xtang, to'xtang, men rozi, qizimning baxti uchun men rozi, hamma aytganlariningizni bajaraman.

Bo'rsiq: — Bu boshqa gap. Qani to'y kunini belgilamaymizmi?

Ona Qunduz: — Yuring belgilaymiz, yuring. Kuyovimdan o'rgilay (chiqib ketishadi). (Parda yopiladi. Sahnaga Qarg'axon chiqib keladi.)

Qarg'axon: — Qar-qar, shuncha gapni kimga aytsam ekan. Kim bor ekan. Kimgadir aytmasam oqshom uyqum kelmaydi. Ha, topdim, Qarg'aoy Qaqildoqovna. Qarg'a Qaqildaqovna, qarg'a-o-oy. Chiqa qol. Qarg'aoy. (Sahnaga Qarg'aoy chiqib keladi. Ikkalasi qanot qoqib ko'rishadi.)

Qarg'aoy: — Ha, dugona, tinchlikmi?

Qarg'axon: — Voy, Qunduz xola bor-ku, Qunduz xola.

Qarg'aoy: — Qaysi Qunduz xola?

Qarg'axon: — E, anovi eski buloqda yashaydigan Qunduz xola, qizi bor. eshitishimcha yaqinda qurilish makkabini imtiyozli diplom bilan bitirgan emish.

Qarg'aoy: — Nima bo'pti shunga?

Qarg'axon: — Voy o'sha Qunduz xola qizini erga berayotgan emish.

Qarg'aoy: — Nahotki, to'y bo'lar ekan-da, muncha yaxshi, bir o'yin-kulgu qilar ekanmiz.

Qarg'axon: — Shunday bo'lsa yaxshiku-ya, lekin masalaning yana bir nozik tomoni bor.

Qarg'aoy: — Qanaqa nozik tomoni bor? Tez-tez ayt, ichim siqilib ketdi.

Qarg'axon: — O'sha Qunduz xola qizini majburlab erga berayotgan emish.

Qarg'aoy: — Nima, bu nima deganing?

Qarg'axon: — Shuniyam tushunmaysan-a, aytdim-ku, qizi shaharda qurilish maktabida o'qigan, o'sha o'qib yurgan vaqtida bir yigit bilan sevishib qolibdi.

Qarg'aoy: — Xo'sh, keyinchi?

Qarg'axon: — Nima keyin, keyin birga yurishgan, aylanishgan.

Qarg'aoy: — Keyinchi?

Qarg'axon: — Obdon aylanishgan.

Qarg'aoy: — Keyinchi?

Qarg'axon: — Qarabsizki qizi Qunduzxon (qulog'iga nima- larnidir shivirlaydi).

Qarg'aoy: — Voy sharmanda homilador! Qunduz xola bechora endi nima qiladi. O'rmonda qanday bosh ko'tarib yuradi. (Shu payt ular oldidan Bulbul o'tib qoladi.)

Qarg'axon: — Hoy Bulbulxon, qayoqqa?

Bulbul: — Qunduz xolanikiga to'yga.

Qarg'aoy: — Menga qara Bulbulxon, beri kel, bir gap eshitdim, shu rostmi? (Ikki qarg'a uning qulog'iga nimalarnidir shivirlaydi.)

Bulbul: — Nimalar deyapsiz, uyalmaysizmi keksa boshingiz bilan. Kim aytadi sizga bu bo'limg'ur gaplarni. Bu bo'limgagan narsa.

Qarg'axon: — Voy, nega bo'limgan, mana men guvohman.

Bulbul: — Uyat Qarg'axon xola, yaxshisi to'yga boring, o'sha yerda bilasiz (chiqib ketadi).

Qarg'axon: — Nima menga aql o'rgatdimi u, meni yolg'onchilikda aybladimi? Boraman, boraman o'sha to'yga. Men buni o'z holicha qo'ymayman. Bulbul avval o'zini bilsin, birovlarning qo'shig'ini o'ziniki qilib olib, nuqlu panogramma qiladi. Hali qarab tur, to'yga borib sharmandangni chiqarmasam, Qarg'axon otimni Zag'chaxon qo'yaman.

Qarg'aoy: — Menga qara, dugona o'zi bu gaplarni qayerdan olasan? Qarg'axon: — Qayerdan olardim, internetdan olaman, g'iybat saytidan.

Qarg'aoy: — Intengrengt, nima u?

Qarg'axon: — E, zamondan ortda qolibsan, dugona internet emas, internet. Yaxshisi, yur, to'yga ketdik.

Qarg'aoy: — Yo'q, men bora olmayman, nabiramning mazasi yo'q. Qarg'axon: — Unday bo'lsa yaxshi qol, men ketdim (ikkalasi ikki tarafga chiqib ketishadi).

(Sahnaga qo'lllarida tog'ora ko'targan hayvonlar chiqib keladi. Ular to'yga ketishmoqda.)

Bo'ri: — O'ziyam Qunduz xola qizini maqtagani maqtagan, zab to'y bo'lsa kerak.

Tulki: — Qizmisan, qiz. Ikki marotaba hovli supurayotganini ko'rghanman. Ajoyib.

Tulki: — eng muhimi to'yga Sher akamizning o'zlari kelar ekan.

Eshak: — Unday bo'lsa tezroq borish kerak. Yuringlar tezroq (chiqib ketishadi). (Parda ochiladi. Fondan yor-yor musiqasi beriladi. Sahnada Bulbulxon, Olmaxonoy, Chittakbibi Qunduzxonga kelinlik libosini kiyintirishayapti. Sahnaga shoshib Ona Qunduz kirib keladi.)

Ona Qunduz: — Voy qizlar, bo'linglar tezroq, kuyovlar kelishayapti. Voy ona qizim, biram ochilib ketibsan. (Sahnaga kuyovlar yor-yor aytishib kirib keladilar. O'rtada qo'lida hisoblash cho'tini ko'targan kuyov Bo'rsiq, atrofida Bo'rivoy,

Tulkiniso, Eshakvoy.)

Ona Qunduz: - Voy kelinglar, kelinglar.

Hamma: — To'ylar muborak, to'ylar muborak.

Ona Qunduz: — Rahmat, rahmat. Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg'izim. (Qunduzxon va Bo'rsiqni yonma-yon qo'yishadi. Bo'rsiq Qunduzxonning kiyinganini ko'rib, kiyimlarning narxini hisoblay boshlaydi.)

Bo'rsiq: — Ustidagi ko'ylagi 60000, munchog'i 30000, ziragi 40000, uzugi 30000, jami 160000. Voy-vu (Hamma hayron).

Eshakvoy: — Hisoblab nima qilasan, hammasi o'zingga qoladi-ku.

Ona Qunduz: - Keling, yaxshisi, ularni dasturxonga taklif qilaylik. Qani kelin-kuyov davramizga. (Fondan «To'ylar muborak» musiqasi beriladi. Hamma dasturxon atrofida yig'ilishadi.)

Tulkiniso: - O'rtakash qani, to'yni boshlamasmikan.

Ona Qunduz: — O'rtakash To'tijon aytilgan, ana o'zi ham kelib qoldi. To'tijon: — Assalomu alaykum. To'ylar muborak.

Ona Qunduz: — Keldingmi To'tijon.

To'tijon: — Bu Sher akam ko'rinxaydilar.

Hamma: — Sher akamiz qani?

Ona Qunduz: — Ana Sher akamiz kelayaptilar. (Hamma o'rnidan turib Sherga peshvoz chiqadi. Unga imkon qadar hammasi lagabardorlik qiladi. Qaysidir biri kiyimini to'g'rilaydi, qaysidir biri o'tiradigan joyini to'g'rilaydi. Hamma joy-joyiga o'tiradi.)

Tulkiniso: — Sher aka zab keldingiz-da, siz keldingiz-u davramizga fayz kirdi.

Bo'ri: — Sher aka, yaxshiyam siz borsiz.

To'tijon: — Sher aka, bugun xizmatda ekanmiz, to'yni boshlasam bo'ladimi?

Sher: — Marhamat, To'tijon, boshlayver.

To'tijon: — Assalomu alaykum Sher aka va o'rmon ahli! Mana bugun Bo'rsiqvoy va Qunduzxonlaming nikoh kechasi ekan, biz ularni tabriklaymiz. Mana shu kechamizni ochiq deb e'lon qilish uchun so'zni muhtaram boshlig'imiz,

aziz ustozimiz Sher akamizga. Marhamat Sher aka. (Hamma qarsak chalib o'midan turadi.)

Sher: - Hurmatli o'rmon ahli, mana bugun ajoyib fuqaromiz Qunduz xola o'z qizi Qunduzxonni erga berayapti. Qarang, qizi juda go'zal va chiroyli kelin bo'lgan.

Ona Qunduz: — Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.

Sher: — Men ikki yoshni tabriklayman va bugungi kechani ochiq deb e'lon qilaman. (Sherning qo'liga qadah tutishadi va hammalari ichishadi.)

To'tijon: — Azizlar, mana Sher akamiz ajoyib qilib to'yimizni ohib berdilar, endi to'y san'atkorsiz o'tmaydi. Bugungi to'yimizda o'rmonimizning xushovoz xonandasi Bulbulxon xizmat qiladi. Hozir mammuniyat bilan navbatni Bulbulxonga beramiz. Marhamat.

(Bulbul sahnaga chiqib qo'shiq aytadi. Hamma hayvonlar raqs tushishadi. Bulbul qo'shig'ini aytib tugatadi.)

Sher: — Juda ajoyib qo'shiq, kelinglar Bulbul uchun qadah ko'taramiz.

Olmaxonoy: — Bulbulning ovozi judayam yoqimli.

Chittakbibi: — To'g'ri, o'rmonda Bulbulga teng keladigani yo'q.

Bo'ri: — Bulbul bizning haqiqiy xonandamiz.

Eshak: — Maylimi, men ham qo'shiq aystsam.

Hamma: — (hayron) Eshak qo'shiq aytadimi? Tavba.

Bo'ri: — Mayli, aytaqol. (Eshak sahnaga chiqib qo'shiq aytadi.)

Eshak: — Men eshakman, eshakman Qizlar uchun ermakman, Ovozim juda go'zal, Hamma uchun kerakman, Ix-xa-xa-a-a.

Hamma: — Qoyil, qoyil, eshakka ofarinlar bo'lzin! eshak uchun qadah ko'taramiz.

Qarg'axon: — Ichmayman men, nima bu hammangiz ichib olib, mast bo'lib nima qilayapsizlar o'zi?

Ona Qunduz: — Ha, Qarg'axon, nima to'yni buzmoqchimisan?

Qarg'axon: — Sen umuman o'chir paxtachi, umuman gapishtiga haqqing

yo'q. Sher aka bu qizini majburlab erga berayapti. Qizi homilador.

Sher: — Nima, qizi homilador?!

Ona Qunduz: — Yo'q, yo'q, Sher aka, unday emas. Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.

Eshak: — Ha, Qarg'a mast bo'lib qoldingmi?

Qarg'axon: — Sen o'zingni bil eshak, sahnaga chiqib bir hangiraganingga hofiz bo'lib qoldingmi, sen baribir zoti past bir eshaksan, eshakligincha qolasan, bildingmi!

Eshak: — Nima, men eshakmanmi, men-a? (Eshak qarg'ani quvlab ketadi, qarg'a borib Bo'rining oyoqlari orasiga yashirinadi, eshak qarg'ani uraman deb Bo'rini, Bo'ri esa Sherni uradi. Sher baqirib Bo'rini tutishni buyuradi. Hamma qo'zg'alishib janjal boshlanadi, bir-birini quvlab sahnadan chiqib ketishadi. Sahnada faqat Bo'rsiq va Qunduzxon qoladi).

Bo'rsiq: — Voy, nimalar bo'ldi, qancha sarf-harajat qilgan edim. Qancha narsa sindi, bular qancha pul turadi. Sho'rim quridi. Qancha ovqat zoye ketdi, endi nima qilaman?

Qunduzxon: — E, bo'ldi, namuncha ziqna, xasis bo'lmasangiz, kuyov degan ham shunchalik bo'ladimi.

Bo'rsiq: — Hoy, Qunduzxon tiling chiqib qolibdimi, bilib qo'y sen mening qonuniy xotinimsan. Sen menikisan.

Qunduzxon: — Bekorlarning beshtasini aytibsan. (Bo'rsiq Qunduzxonning sochidan torta boshlaydi).

Ona Qunduz: — Ha, kuyov, hali to'yga bir kun bo'lmasdan qizimning sochidan tortib urayapsiz, tinchlikmi, qo'y uni. (Sahnaga yugurib Qunduzbek kirib keladi.)

Qunduzbek: — Qani qo'yib yubor uni, qarib quyilmagan chol. (Qunduzxonni tortib oladi.)

Bo'rsiq: — U mening xotinim, u meniki, qolaversa, to'y ham rasvo bo'ldi, qancha pulim ketdi mening, qancha sarf-harajat qilgan edim.

Ona Qunduz: — Nima qanaqa sarf-harajat, hali sening puling ketdimi,

qurumsoq, hamma pulni men toptim-ku, sen bir tiyin berdingmi hasis. Yo'qol!

Qunduzbek: — Qani, yo'qol bu yerdan, bo'lmasa o'zim seni adabingni berib qo'yaman, men o'z sevgilimni senga berib qo'ymayman. (Bo'rsiqni haydar chiqaradi.)

Ona Qunduz: — Menga qarang, siz kimsiz o'zi?

Qunduzbek: — Men qizingizning sevgilisi bo'laman.

Ona Qunduz: — Nima, sevgilisi, siz-a!

Qunduzxon: — Ha, oyi, gapi to'g'ri.

Qunduzbek: — Biz qurilish maktabida birga o'qiganmiz, biz bir-birimizni sevamiz. Agar rozi bo'lsangiz, men qizingizni qishloqqa olib ketaman.

Ona Qunduz: — Qizini qishloqqa beradigan axmoq yo'q. Qizim senday bir qishloqiga erga tegmaydi.

Qunduzbek: — Menga qarang, onajon, sizga qishloqning nimasi yoqmaydi, keng dalalari, sof havosi. Zilol suvi yoki har bir narsani pulga o'lchamaydigan odamlari yoqmaydimi?

Qunduzxon: — Oyi, boylikka emas, qizingizning baxtiga achining. Meni tushuning.

Qunduzbek: — Siz qizim qurilish maktabini imtiyozli diplom bitirdi, deb hammaga maqtanib yuribsiz, lekin bilib qo'ying, qizingiz hayot maktabiga endi qadam qo'ymoqda, bilib qo'ying, bu maktabni hech kim, hech qachon imtiyozli diplom bilan bitirmagan.

Ona Qunduz: — Menga qarang, sizning diplomingiz imtiyozlimi?

Qunduzbek: — Shunday, lekin hammasini hayot ko'rsatadi.

Qunduzxon: — Oyi, rahmingiz kelsin, menga baxt tilang. Qishloqda yashab, qishloqda ishlasam o'zimga ham yaxshi.

Qunduzbek: — Tushuning, oyijon, men qizingizni baxtli qilaman. Faqat siz rozi bo'lsangiz bo'ldi.

Ona Qunduz: - Qo'y, yig'lama qizim, yig'lama. Mayli, men rozi, qayerda bo'lsang ham baxtli bo'l. Baxtli bo'ling bolalarim, baxtli bo'linglar. (Sahnaga qarg'a kirib keladi.)

**Qarg'axon:** - Voy tavba, bular yana to'y qilmoqchimi?!

**Ona Qunduz:** - Ha, Qarg'axon, haqiqiy to'y mana endi bo'ladi. Hammani to'yga chaqir.

**Qarg'axon:** — Eh-he-he o'rmon ahli eshiting, to'y bo'ladi shoshiling. Hamma to'yga. (Fondan «To'ylar muborak» musiqasi berilib hamma ishtirokchilar sahnaga chiqishadi.)

**Qunduzbek:** — Muhabbat tilda emas, dilda bo'ladi,

**Qunduzxon:** — Dildan sevishganlar baxtli bo'ladi.

**Ona Qunduz:** — Har yurakda muhabbat gullab yashnasin.

**Hamma:** — Hayot mакtabiga pok odim tashlansin. (Musiqa balandlashib, parda yopiladi.)

### **P. Mo'min**

#### **Qovoqvoy bilan chanoqvoy**

**(2 parda 7 ko'rinishli ertak komediyadan parcha)**

**Qatnashuvchilar:**

**Qovoqvoy**

**Chanoqvoy**

**Paxta bobo**

**Tarvuz**

**Qovunjon**

**G'ujumoy**

**Qovoq xola**

**Lavlagijon**

**Oysholg'om**

**O'rgimchakkana**

**Sehrgar**

**Chigirtka**

**Chigirtka bolasi**

**Ko'sak qurti**

**Ko'sak qurti bolasi.**

## **Ikkinchি pardа**

### **5- ko'rinish**

Yarim kecha. Oydin. Yulduzlar chaqnagan. Tarvuz, G'ujumoy, Chanoqvoy,  
Qovunlar o'tirishibdi.

### **Tarvuz**

Ishga ancha kech qoldik,  
Qani tezroq yo'l oldik.  
Hasharotni uyquda -  
Ushlasak, qoyil juda.

### **G'ujumoy**

Qovoqni kutish kerak,  
Yaxshimas tashlab ketsak.  
Sehrgar cholni axir  
Men ham ko'rib qo'yay bir -  
Deya o'ylab yurardim,  
Biror madad so'rardim.

### **Chanoqvoy**

Sehrgardan G'ujum ham  
So'ramoqchi-a yordam?

### **Tarvuz**

Men so'rardim bir ishni,  
Ya'ni tezroq ozishni.

### **G'ujumoy**

Ishonmaymiz- ku, ammo...

### **Chanoqvoy**

Gaplaringiz bema'no  
Aqlingizga ishoning.  
Qovoqqa o'xshab tag'in  
Yurmangiz bo'lib izza,  
Har yonga kezib g'izza.

Chanoqvoy o'tirgan joyidan ovozini Sehrgar ovoziga o'xshatadi-da, bekinadi va Qovoqvoy shoshib-pishib ko'zini ishqalab kirib keladi.)

**Qovoqvoy**

Sehrgar chol keldimi?

U bir nima dedimi?

Huddi uning ovozi

Eshitildi qulooqqa,

Ketib qoldi qayooqqa?

**Tarvuz**

Hech kim kelmadi, o'rtoq,

Avvalo salom, Qovoq!

**Qovoqvoy**

Uning gapini hozir,

Eshitib qoldim, axir.

(U yoq-bu yoqqa yugurib qaraydi.)

**Chanoqvoy**

(Bekinan joyidan chiqib.)

Bo'lma buncha jonsarak,

Sehrgardan yo'q darak.

**Qovoqvoy**

Sehrgar ovoziga

Ovozing o'xsharkan sal.

**Chanoqvoy**

Qarang-a da'vosiga,

Bo'lmaydi sira o'sal,

Qovoqvoy yutqazsa ham.

(Shu orada G'ujumoy, Tarvuz chiqib ketishadi.)

**Chanoqvoy**

Qilyapsanmi zaryadka?

**Qovoqvoy**

Mashqlar bajarib har dam,  
Kirib qoldim g'ayratga.  
Har xil harakatlarni qilib har yonga yuguradi. Shu payt Tarvuz, G'ujumoy kelib qolishadi.

### **Tarvuz**

Kuchli bo'lsang agarda  
Boksga tush bir marta.

### **Qovoqvoy**

Buzilmasmi qoida?

### **G'ujumoy**

O'zim bo'laman sud'ya,  
Yutganga katta hadya.

Tarvuz bilan G'ujumoy yugurib chiqib ketishib, boksyorlar qo'lqopini topib kelishadi. O'yin boshlashadi. Oldin Qovoqvoy bor kuchi bilan harakat qiladi. Tarvuzning mazasi qochadi. Keyin Tarvuz kuch yig'ib, Qovoqvoyni yenga boshlaydi. Oxiri Tarvuz yutadi. Qovoqvoy o'tirib qoladi. Tarvuzga bir banka uzum suvi keltiradi G'ujumoy. Tarvuz esa uni Qovoqvoyna beradi, Qovoqvoy uni ichib oladi va o'rnidan turadi. Tarvuz bilan ko'rishadi.

### **Qovunjon**

Hammangdan oldin ketay,  
Juda zo'rini tutay. (Ketadi.)

### **Tarvuz**

Qovoq o'rtoq, qani yur.

### **Qovoqvoy**

Damim olay, shoshmay tur.

(Indamay yerga homush qarab turadi. G'ujumoy ham chiqib ketadi."Yur" deb qistashadi.)

### **Chanoqvoy**

Biroz poylasam agar,  
Kelib qolar sehrgar.

Ikkita besh bo'lar o'n,  
Do'stlar aytgan gapga ko'n.  
Deya aytuvding o'zing,  
Bitta bo'lzin-da so'zing!  
(Shu payt birdan G'ujumoy hovliqib kiradi.

### **G'ujumoy**

(Hovliqib.)  
Yuguringlar, yuguring,  
Qovunga yordam bering!  
U cho'zilib yotibdi,  
Kimlardir tosh otibdi.  
(Chanoqvoy yugurib ketadi)

### **Tarvuz**

(Keta turub)  
Oramizda bir josus  
Ish ko'rmoqda g'alamus.  
Hashorotlarga birdek  
Berib kelmoqda ko'mak.  
(Birdan yig'lab)  
Voy og'aynim, Qovunjon,  
Ishqilib bo'lgin omon.  
G'ujumoy, Tarvuz chiqib ketishadi.

### **Qovoqvoy**

(O'zidan havotir olib)  
Kimni deyapti josus?  
Yaxshi emas bunday so'z.  
Menga ishora qilar,  
Balki sirimni bilar.  
Shu paytda Qovoq xola o'g'lini qidirib kelib qoladi.

### **Qovoq xola**

Bolajonim, qovoqjon,  
Qorning ochgan hoynahoy.  
Poyladim qilmay toqat,  
Keltirdim mana, ovqat.  
(Cho'ntagini kovlaydi)

### **Qovoqvoy**

**Mendan olmang havotir,**  
Bo'lmoqchiman mard - botir.  
Gapning ochig'in aytsam,  
Sehrgar berdi yordam.  
Bir chetda ularga bilintirmay sehrgar ko'rindi. Uning gapini eshitadi.

### **Qovoq xola**

Sehrgaring bo'ldi kim?

### **Qovoqvoy**

Gapirmang-e, bo'ling jim.  
(O'zicha)  
Terak shoxi bo'lar mo'rt,  
Ikki karra ikki - to'rt.  
Do'sting aytgan gapga ko'n,  
Beshta ikki bo'lar o'n.  
(O'yinga tushadi, oyisi chapak chaladi.)

Ha, ha, beshta ikki bo'lar o'n.

O'rganvolish kerak jo'n.

Qilgan edim zaryatka.

(Qo'lini yozib)

Kirdim kuchga, g'ayratga.

### **Qovoq xola**

Omon bo'lgin, jon o'g'lim,  
Ancha tinchidi ko'nglim.  
Dilim alag'da edi,

Keta qolayin endi.

### **Qovoqvoy**

Ketsangiz ketavering,

Ko'proq ovqat keltiring.

Ounasini kuzatib chiqib ketadi. Sehrgar berkinib turgan joyidan chiqadi. Qovoqvoy birdan qaytib kelib, indamay teskari turgan uni ko'rib sevinadi. O'zicha aylanadi, Har xil harakatlar qilib unga yaqinlashmoqchi bo'ladi.

### **Qovoqvoy**

(Sevinib)

Sehrgar bobo salom,

Kelmaysiz deb batamom.

Umidimni uzgandim,

O'zga reja tuzgandim.

Yashasin endi maza

Ishlar besh bo'lar rosa.

### **Sehrgar**

Yasha, Qovoqvoy, yasha,

Shartimizga yarasha

O'rganibsan astoydil

Qoyilman, juda qoyil.

### **Qovoqvoy**

Zaryadka qildim oz-moz.

### **Sehrgar**

Bu ishing bo'lmabdi soz

Qilsang ko'proq zaryadka,

Kirardingda g'ayratga,

Yengar eding Tarvuzni.

### **Qovoqvoy**

Kim aytadi-a bu so'zni

Qanday bildingiz, Bobo?

**Sehrgar**

Buncha so'raysan, bobo  
Gapga chalg'itma mani  
Darsni boshlaymiz qani

**Qovoqvoy**

To'qqiz joyda uch  
Yigirma etti.

**Sehrgar**

Qovunjonga ham  
Jarohat etdi.

**Qovoqvoy**

Qoyilman sehringizga,  
Buni kim aytdi sizga.

**Sehrgar**

(E'tibor bermay)  
Aytganimni qil takror  
Degan edim necha bor.

**Qovoqvoy**

Besh joyda to'qqiz  
Qir beshdir shaksiz.

**Sehrgar**

O'nta o'n?

**Qovoqvoy**

Yuzta.

**Sehrgar**

Bo'libsan usta  
Bekor ishga yugurma.

**Qovoqvoy**

Besh karra to'rt - yigirma.  
(Takrorlaydi)

**Sehrgar**

Dars o'tamiz kun ora,  
Kanikulda sen zora  
O'rgansang karra jadval,  
Bo'lmasding sira o'sal.  
Ko'p ishlaring bo'lar hal.  
Unutmagin sen shuni,  
Do'stlaringga har kuni  
Yordam berishdan qochma,  
To'g'ri yo'ldan adashma.  
(Sehrgar g'oyib bo'ladi)

**Qovoqvoy**

Yordam berishdan qochma,  
To'g'ri yo'ldan adashma.  
Qovoqvoy o'ylang qani...  
(Sehrgar ketidan yuguradi)  
Bir oz to'xtang, arzim bor,  
Etay sizni xabardor.

**Sehrgar**

(Qaytib kelib)  
Qani gapir, bolakay.

**Qovoqvoy**

Quloq soling, men aytay,  
(Qulog'iga nimanidir shivirlaydi)

**Sehrgar**

Gaplaring juda qiziq.

**Qovoqvoy**

Shunday bo'lgan topshiriq.

**Sehrgar**

Ho'sh, qani o'sha urug'?

### **Qovoqvoy**

Undan sira qolgan yo'q.  
Allaqachon yo'qotdim,  
Chuqurlik tomon otdim.  
Shu sabab anuv Tarvuz  
Meni-chi, deydi josus.

### **Sehrgar**

Bu ishingdan ehtimol,  
Habari bordir hiyol.

### **Qovoqvoy**

Mendan qilmoqda hadik.

### **Sehrgar**

Xo'p mayli, qani ketdik.

### **Qovoqvoy**

Mayli birga boraman,  
Beriroqda turaman.

### **Sehrgar**

Kimki bo'lsa agar mard,  
Qo'ymaydi bunaqa shart.

### **Qovoqvoy**

(Dadillanib)  
Mayli, borganim bo'lsin,  
Yomon qoni to'kilsin.  
(Shaxdam qadam tashlab ketishadi.)

Parda

### **6-ko'rinish**

Ikkinci ko'rinishdagi O'rgimchakkana qarorgohi.Oldingi holatday teparoqda O'rgimchakkana yuziga tor tutib olgan qiyofada. Huzurida askarlari. Ular o'yin tushib, ashula aytishmoqda.

### **O'rgimchakkana**

To'xtattinglar o'yinni!  
Egmaysanlar bo'yinni,  
Paxtazorga yurdim man,  
G'o'zalarni ko'rdim man.

Paykal-paykal g'o'zalar  
Ko'rmagan sira zarar,  
Yashnab yotibdi atrof!

### **Chigirtka**

Yey, bo'l mang buncha hunob.

### **Ko'sak qurti**

Balki Qovoq sochgandir,  
Urug' bola ochgandir.

### **O'rgimchakkana**

Senlar tekin yeysanlar,  
Yolg'on so'zni deysanlar.  
Lapashanglar, bo'shanglar,  
Baring ishdan bo'shanglar!

(Do'q urib)

Hammasini bilurman,  
Aytganimni qilurman.  
Har tomonga choplaring,  
Gunohkorni toplaring.

Hashorotlar sekin-asta chiqib ketishadi. Bu gapni eshitgan Qovoqvoy Sehrgarning orqasiga berkinadi. Lekin Sehrgar unga dalda bergannamo harakat qiladi.

### **Sehrgar**

(birdan paydo bo'lib)

Salom o'rgimchakkana,  
Nega hunobsan yana?

### **O'rgimchakkana**

So'zla, o'zing kim bo'lning,  
Qayoqdan kirib kelding.

### **Sehrgar**

Aslimni desam agar,  
Ertakdag'i sehrgar.  
Barchaga yordam bermak -  
Men uchun sharaf demak.  
Gunohkordan so'y lading,  
Qovoqvoyni o'y lading.  
O'y laganingni go'yo  
Eta olurman paydo.

Bu gapdan qo'r qib ketgan Qovoqvoy Sehrgarning orqasiga o'tib berkinadi.

### **O'rgimchakkana**

Qovoqvoy yo'g'-u, qani,  
Aldayapsanmi mani?

### **Sehrgar**

Bilsang uni sehr etib,  
Qo'y ganmanda berkitib.  
Istasang-chi bir zumda  
Keltiraman izimdan.

Ammo Qovoqvoyni Sehrgar topolmaydi, qidiradi, chiqadi.

### **O'rgimchakkana**

(Yolg'iz qolib)  
Sehrgar bo'lsa rostdan,  
Topmas edi behosdan.  
Yordam so'rasammikan?  
To'rga o'rasammikan?  
Qovoqni keltirsa-chi,  
Ishongandir chippa-chin.

Shu paytda Sehrgar Qovoqvoyni yetaklab keladi. O'rgimchakkana o'rnidan

turib ketadi.

**Sehrgar**

Izlaganingiz Qovoq

Huzuringizda shu choq.

**O'rgimchakkana**

Sehrgar ota qoyil,

Men ishondim astoydil.

Sehrgar, rahmat sizga,

Uni qoldiring bizga.

**Sehrgar**

Ko'z oldimda topshiriq -

Bering, bajarar to'liq.

**O'rgimchakkana**

O'rtamizda ko'pdır gap,

U bizni ketdi aldab.

**Sehrgar**

U hali juda so'tak,

Unga kerak o'rgatmak.

**O'rgimchakkana**

Bajarilmaydi buyruq,

Nima bo'ldi, huv, urug'?

**Qovoqvoy**

(Qo'rqb)

Yerga qo'yib qo'yuvdim,

So'ng yo'qotib qo'yuvdim.

Topolmayapman sira.

(Indamay yerga qarab turadi)

**Sehrgar**

Esi anchayin xira,

Men uni tuzataman,

Urug'larni topaman.

**O'rgimchakkana**

Qancha so'rasangiz bas,

Ikki karra to'lay, haq.

Menda-chi boylik katta,

Sevinasiz albatta.

**Sehrgar**

Menga kerak emas haq,

Bunaqa demang mutlaq.

**O'rgimchakkana**

(Nolib)

Ahvolimiz tang bo'ldi,

Talay askarim o'ldi.

**Sehrgar**

Attang, bo'lmabdi yaxshi,

Ko'pchilik sizga qarshi.

**O'rgimchakkana**

Qayga borsak cho'chiymiz,

Yetmayapti kuchimiz.

**Sehrgar**

(Qovoqvoyga yolg'ondan do'q urib)

Va'da berdingmi, bajar,

Bajarmasang-chi agar,

Seni derlar betayin.

(O'rgimchakkanaga)

Xo'p, mayli, men ketayin,

Urug'larni topaman

Qovoq aybin yopaman.

Men kimga bo'lsam kerak,

Uch bora chalsa chapak,

O'sha yerda men borman,  
Xizmat uchun tayyorman.

### **O'rgimchakkana**

(Go'yo hurmat qilganday o'rnidan turadi.)

Askarlarimga aytay,  
Sizni topishar atay.  
Ularga bering yordam,  
Xursand bo'laman har dam.

### **Sehrgar**

Shart bo'yicha albatta,  
Men bo'laman uvatda.

(Qovoqvoyni etaklab chiqib keta boshlaydi)

Parda

### **7-ko'rinish**

Birinchi ko'rinishdagi paxtazorning cheti - uvat. Chigirtka, Ko'sakqurtlari chopib o'tishadi. Sahnaning o'ng tomonidan Oysholg'om, Lavlagijon hamshiralari sumkasini va bir quloch shprits ko'tarib kelishadi.

### **Oysholg'om**

Tutqizmasdan Chigirtka  
Qochib ketdi huv, chetga.

### **Lavlagijon**

Biri esa ko'sakqurt,  
G'o'zani qilar nobud.  
Qo'limga tushsa bormi,  
Shu zahoti beorning  
Ezar edim jigini,  
Ajratardim jag'ini.

### **Oysholg'om**

Qovoqoy bizdan doim  
Qochib yurar.

## **Lavlagijon**

U balkim,  
Ukol qilar deb o'ylar,  
Hech kimga aralashmay,  
Yolg'iz bir o'zi o'ynar.

## **Oysholg'om**

Yursa mayli adashmay.

Ular chiqib ketishadi. Xomush holda Qovoqvoy kirib keladi. Uning izidan Sehrgar paydo bo'ladi. Qovoqvoy qayerga borsa va qanday harakat qilsa o'shanaqa harakat bilan masxara qiladi. Ko'zini yumib aylanadi, Ko'zlarini ochib bir-birini ko'rib qolishadi.

## **Qovoqvoy**

Salom, Sehrgar bobo!  
Qanday bo'ldingiz paydo?  
**Sehrgar**  
Yey, Qovoqvoy, beri kel,  
Nima desam, shuni qil.  
Ko'sak qurt, Chigirtkani  
Ushlaymiz endi, qani.  
Mana bu uzun arqon,  
Sirtmoq solamiz chaqqon.

## **Qovoqvoy**

(Cho'chib)  
Sehrgarsiz-ku axir,  
Qilaqolingiz sehr.

## **Sehrgar**

Hashorotlarga bilkim,  
O'tmaydi meni sehrim.  
Qo'rhma, ikkov ushlaymiz,  
Ishni pishshiq ishlaymiz.

Ko'sak qurt kelgan zamon  
Imlab qo'ygin men tomon.  
Chigirtka kelib qolsa,  
Yo'talib qo'ygin rosa.

### **Qovoqvoy**

(Qo'rqib)

Qarang,bobo, Ko'sak qurt  
Bitta o'zi kemoqda.

### **Sehrgar**

Sen o'zingni dadil tut,  
Ushlaymiz yaqinroqda.  
(bekinadi, Ko'sak qurti kiradi)

### **Ko'sak qurti**

Nega qo'rqlay bir o'zing  
O'tiribsan, Qovoqvoy,  
Chigirkavoyga ko'zing  
Tushgandir-a, hoynahoy?

### **Qovoqvoy**

Yaqinda ko'rdim uni,  
Olib ketdi urug'ni.  
Seni, kelsa agarda,  
Tursin dedi shu yerda.  
(avrab gapiradi)

### **Ko'sak qurti**

**(bir chetga o'tiradi)**  
Meni quvdi Oysholg'om,  
Qo'lga tushsam ishim xom  
Bo'lar edi, o'lardim.

### **Qovoqvoy**

Qutilar eding balkim.

## **Ko'sak qurti**

Qutilish qayda deysan,  
Nayzasin ko'rganmisan?  
Nega kerak bu arqon?

## **Qovoqvoy**

Ha, nimalar degansan,  
Xo'p aldagan ekansan,  
Seni bog'layman hozir!

Qovoqvoy arqonni olib Ko'sak qurtiga otadi. Olishadilar. Qurt chaqqonlik qilib Qovoqvoyni o'zini bog'lay boshlaydi. Qovoqvoy sehrgarni chaqirolmay qoladi. Birdan Sehrgarni o'zi keladi. Uning yordamida Qovoqvoy ozod bo'lib, uni ikkovi bog'lashadi.

## **Sehrgar**

Yasha, Qovoqvoy, qoyil,  
Yana bo'laver dadil.

## **(Shu payt Chigirtka kelayotganini sezadilar)**

Chigirtka kelayotir,  
Borman, bo'lma havotir.

Ikkalasi berkinishadi. Chigirtka o'ynab kirib keladi-da, Ko'sak qurtini ko'rib qoladi.

## **Chigirtka**

Bechora ko'sak qurti,  
Rosa sho'ring qutibdi.

Uni qutarmoqchi bo'lib, arqonni yechmoqchi bo'lib urinayotganida bostirib kirishadi. Uni ham ushlashadi-da, arqonning qolgan qismiga bog'lashadi.

## **Sehrgar**

(Qovoqvoyga)  
Mahkam qilib bog'layver,  
Bir yaxshilab dodin ber.

## **Chigirtka**

Sotqin ekansan Qovoq,  
Bog'la sal bo'shatibroq.

### **Qovoqvoy**

Endi bo'lar holing tang,  
Sehrgar bobo, yashang.  
Orqasiga qarasa, Sehrgar yo'q. Hayron.

### **Ko'sak qurti**

Bizni bo'shatib yubor!

### **Qovoqvoy**

Bekor aytibsan beor!  
Atrofda aylanib yuradi. Ularning burniga chertadi, qitiqlaydi, kalaka qiladi.  
Tomoshabinlarga kerilib, maqtanib ham qo'yadi gohida.

Oysholg'om bilan Lavlagijon nayza o'qtalgan holda kirishadi. Qovoqvoyning qilgan ishini ko'rib hayratda qolishadi. Qovoqvoylar qo'lidagi shpritsni ko'rib qo'rqedadi.

### **Oysholg'om**

Qovoq aka, albatta  
Bizlar qoldik hayratda.  
Ikkovini bog'labsan,  
Mardligingni oqlabsan.  
Endi noming har tomon  
Bo'lib ketadi doston.

### **Lavlagijon**

Bu ishingni, hoynahoy,  
Ko'rib qolsa Chanoqvoy,  
Rosa qoyil qolardi,  
Seni ham tan olardi.

### **Qovoqvoy**

Bog'ladim qo'l-u tanin.

### **Oysholg'om**

Topish kerak qolganin.

### **Qovoqvoy**

Qani do'stlar, uni siz

Chetroqqa berkiting tez.

(Hashorotlarni bog'langan holda olib chiqib ketishadi.)

Ularning ketidan Qovoqvoy ham maqtanib, katta-katta qadamlar tashlab chiqadi.

### **Tarvuz**

Bugun xursandman, bugun

Og'ayni - naynov Qovun.

(Qo'shiq aytadi)

Kim ichadi maza suv, maza suv,

Sharbatga boy shundoq u, shundoq u.

O'zi muzday ichsa kim, ichsa kim,

Deydi: - Oh-oh mazza-ku, mazza-ku.

Ichgan yurar darmonda, darmonda,

Ichmaganlar armonda, armonda.

### **Paxta bobo**

Yashavor, o'g'lim Tarvuz,

Senga tegibdi-da so'z.

### **Tarvuz**

Paxta bobo, assalom!

Sog'aydingizmi tamom.

Ichib ko'ring, qonasiz,

Tag'in so'rab olasiz.

Bu yil hosil juda mo'l,

Hashorotga hammamiz -

Sirayam bermaymiz yo'l.

### **Qovoqvoy**

(Shoshib-pishib keladi)

**Kelmadimi Sehrgar?**

(Hamma unga hayron bo'lib qaraydi.)

**Qovunjon**

Sirayam kelgani yo'q,  
Bo'laversin ko'ngling to'q.

**Tarvuz**

Maza suvdan bir ozroq  
Ichib ol do'stim, Qovoq.  
Yig'sang es-hushingni,  
Gapirmaysan tushingni.

Tarvuz uzatgan suvni ichadi, Qovoqvoy ancha o'ziga keladi, atrofga olazarak  
qaraydi.

**Qovoqvoy**

Assalom, Paxta bobo,  
Sog'aydingizmi?

**Paxta bobo**

Obbo,  
Rahmat, Qovoqvoy, rahmat!  
O'zi nima harakat?

**Qovoqvoy**

Ochig'ini aytsam agar  
Men uchratgan Sehrgar...

**Qovunjon**

O'zi tinchlikmi Qovoq,  
So'zing hali ham chatoq.  
(hamma uni mayna qiladi)

**Qovoqvoy**

Karra jadvalni talay,  
Qoyil qilib o'rgatdi,  
O'rganishda eng qulay,

Oson yo'lni ko'rsatdi.  
Yolg'on gapga yugurma,  
Besh joyda to'rt yigirma.  
Do'stlar aytgan gapga ko'n,  
Beshta ikki bo'lar o'n.  
Qilaverib zaryadka,  
To'ldim kuchga g'ayratga.

(Hamma unga hayron bo'lganida Sehrgar kiyimidagi chol kirib keladi.)

### **Sehrgar**

Yetib kelsa Sehrgar,  
Yo'qoladi xavf-hatar.

### **Qovoqvoy**

(Sevinib, hovliqib):

Salom, Sehrgar bobo,  
Ishlar juda ham a'lo.

(Paxta bobo Chanoqvoy ekanligini tanib, bir-biriga imlashadi-yu, indashmaydi)

Sehrgar bobo, sizga  
Deyman chin dildan rahmat.  
Men tushdim to'g'ri izga  
Bir iltimos bor faqat.  
Egasiz ko'p hunarga,  
Mumkin bo'lsa ularga -  
Sehringizni ko'rsating.

### **Sehrgar**

Yasha, bolakay Tarvuz,  
Buncha bo'lmasang semiz.  
Qani, maza suvdan ber,  
Peshanadan chiqsin ter.  
(G'alati qilib suvdan ichadi. Soqolini artib qo'yadi.)

Sog'misan do'stim, Qovun,  
Bu yil bo'libsan uzun.  
Qalaysan do'stim, Qovoq,  
Mashqlar qilib bir-bir,  
Oldingilardan hozir  
Bo'lgandirsan kuchliroq?

### **Sehrgar**

Gapi to'g'ri, Qovunjon,  
Bo'ldi qo'rmas va chaqqon.  
Hashorotni bog'ladi,  
Do'stlar ko'nglin chog'ladi.  
(Qovoqvoy maqtanibroq turadi.)

Qovoqvoyning gapidan maqtanay deb turganda Oysholg'om va Lavlagijonlar kirib kelishadi.

### **Oysholg'om**

Sizlarga der, assalom!  
Lavlagijon, Oysholg'om.

### **Lavlagijon**

Chaqirgan ekansizlar,  
Mashinada g'iz etib,  
Huzuringizga etib  
Kelib turibmiz bizlar.

### **Paxta bobo**

Juda yaxshi qilibsiz,  
O'z vaqtida kelibsiz.

### **Oysholg'om**

Kasal kimdir bilaylik,  
Avval ukol qilaylik.

### **Tarvuz**

Yo'q, hammamz soppa-sog'.

**Paxta bobo**

Anov Qovoqvoy, biroq...

**Lavlagijon**

Qovoqvoy chin bahodir,  
Bizlar guvohmiz axir,  
Botir ekan chinakam.

**Qovoqvoy**

Sehrgar berdi yordam.

**Sehrgar**

Qovoqvoy hozir durust,  
Oldin edi bir oz sust.

**Qovunjon**

Ochig'in aytsam senga,  
Sinfdan u sinfga  
O'tadi endi ildam.

**Qovoqvoy**

Sehrgar berdi yordam.  
Shu payt G'ujumoy charchagan holda kirib keladi.

**G'ujumoy**

Yashshamagur Ko'sak qurt,  
Paykalda ekan beburd.  
Chiqib qoldi yo'limdan  
Rosa boplab savadim,  
Olib qochdi savatim  
Chiqmaganda qo'limdan...

(Paxta boboni ko'rib qolib, kelib ko'rishadi)

Paxta bobo sog'misiz,  
Rosa tashvish tortdik biz.

**Paxta bobo**

Ha, yaxshiman, G'ujumoy,

Tinchmi o'zi hamma joy?

### **Tarvuz**

(shoshib)

Qolgan hashorotlarni,

U yaramas zotlarni

Ushlashga boradi kim?

Ba'zilar bormas balkim...

### **Hamma**

Yo'q, hammamiz tayyormiz.

### **Qovoqvoy**

(Sehrgar yoniga borib)

Mana, bizlar ham bormiz.

### **Paxta bobo**

Boringlar, barakalla,

O'tmasin qulay palla.

Barcha chiqib keta boshlaydi. Sahna bo'sh qoladi, bir-biriga arqon bilan bog'langan Chigirtka, Ko'sak qurti kirib kelishadi.

### **Ko'sak qurti**

Yordam bersa kimda-kim...

### **Chigirtka**

Kimdir kelayotir, jim.

Ko'sak qurti va Chigirtka bolasi qochib kirishadi.

### **Ko'sak qurti bolasi**

Zo'rg'a qutildim omon,

Kelishmoqda biz tomon.

Tarvuz, Qovun, G'ujumoylar kirib ularni ushlab olishadi.

### **G'ujumoy**

Paxta bobo qaydasiz,

Endi rahmat aytarsiz.

### **Paxta bobo**

(kelib)

Bu yerdaman, G'ujumoy,  
Hashorotdan barcha joy -  
Tozalandimi endi?

### **Tarvuz**

Ko'ngillar bir oz tindi.

### **Qovunjon**

Eng zo'ri qolgan yana.

Shu payt Qovoqvoy O'rgimchakkanani o'z to'riga o'rab olib keladi.

### **Qovoqvoy**

(g'ururlanib)

Mana O'rgimchakkana!

### **Hamma**

Yashavor, Qovoq, yasha!

### **G'ujumoy**

Maqtovlarga yarasha,  
Botir bo'libsan, qoyil,  
Kurashibsan astoydil.

Hashorotlar bir yerga g'uj bo'lisdadi.

### **Paxta bobo**

Chanoqvoy ko'rinxmaydi.

### **Qovoqvoy**

Yurgandir o'ynab, daydib.

### **Sehrgar**

(kelib)

Siz so'ragan Chanoqvoy,  
Go'yo gijinglagan toy,  
Qaydaligin bilaman  
Hozir aytib kelaman.

(chiqadi)

Boshqalar Qovoqvoyni o'rab, uni maqtay boshlaydilar.

### **Tarvuz**

Bo'g'ilgandir tomog'ing,

Mana, suvdan ichvol-a,

Bosiladi chanqog'ing.

(Qovoqvoy ichadi)

### **G'ujumoy**

Kelmoqda Qovoq hola.

### **Qovoq hola**

(Shoshib-pishib)

Muncha quvnoqsan, bolam,

Qovoqqinam, yolg'izim,

Ham o'g'limsan, ham qizim.

### **Qovoqvoy**

Doim deysiz shunaqa.

(Araz qiladi, bolalardan uyalib o'ziga keladi)

### **Qovoq xola**

Ketib qolding qayoqqa?

Sendan o'zim o'rgilay,

Aytaqol, nima qilay?

### **Qovoqvoy**

Doim qildingiz erka,

Yuzim qaradi yerga.

### **Qovunjon**

Undan olmang havotir,

O'g'lingiz chin bahodir.

### **Qovoq xola**

Botirimdan o'rgilay,

O'zim girgitton bo'lay.

(Yetaklab o'padi)

**Tarvuz**

Qoyil, Qovoqvoy, qoyil.

**Qovoqvoy**

Qidirdim-da, oy va yil,  
So'ng topdim sehrgarni,  
Hayron qildim senlarni.

Sehrgar asl kiyimlarini qo'liga olib kirib keladi.

**Chanoqvoy**

Men Sehrgar emasman,  
Bu so'zga ishonmasman.  
Oddiy do'stingiz sizning  
Mana menman Chanoqvoy.

**Hamma**

Chanoqvoy ekan-ku, voy...  
Qalpoq va yasama soqolni yechib, o'zining chanoqdan bo'lган qalpog'ini  
kiyib oladi.  
Qovoqvoyning rangi o'chib, hayron bo'lib qoladi. Tarvuz unga darrov suv  
beradi.

**Tarvuz**

Beshta ikki bo'lar o'n,  
Do'stlar aytgan gapga ko'n.

**Chanoqvoy**

Ishonma deb Sehrgarga  
Aytgan edim necha marta.  
Qovoqvoy, o'zingdan ko'r,  
Har narsadan do'stlik zo'r.

**Qovoqvoy**

(O'ziga kelib)  
Karra jadvalni menga  
O'rgatganing-chun senga -

Chin dildan deyman rahmat.

### **G'ujumoy**

Yey, durust-ku bu so'zing,

Ochilib qopti ko'zing.

### **Qovoqvoy**

Do'stlar, shum hashorotni,

Zararli, yomon zotni -

Bog'lagan menmas, biroq -

Birga bog'lashgan Chanoq.

### **Paxta bobo**

(sevinib)

Endi tamom hashorot!

### **Tarvuz**

Kimga tegar mukofot?

Hamma bir-biriga qarab qoladi. Qovunjon yugurib chiqib ketadi-da, tezlik bilan Paxta boboga bir narsa keltirib beradi. Paxta bobo qarasa lentaga bog'langan medal bo'lib, u qovoq shaklida bo'ladi.

### **Paxta bobo**

Qovoqvoyda albatta,

Rahmat deymiz, eng katta.

(Lentani Qovoqvoyning bo'yniga osib qo'yadi.)

Chin botirsan Qovoqvoy.

### **Qovoqvoy**

Unga loyiq Chanoqvoy.

